

*XX asrning eng sara hikoyalari turkumidan:*

## **SARA HIKOYALAR JAVONI**

### **I**

JILD

Nashrga tayyorlovchi: Nabijon Boqiy

### **Hikoyalar mundarijasi:**

DEHQONNING BIR KUNI. *O'tkir Hoshimov*

DEHQONNING BIR TUNI. *O'tkir Hoshimov*

ERKIN. *Tohir Malik*

JAJMAN. *Xurshid Do'stmuhammad*

DASHTU DALALARDA. *Murod Muhammad Do'st*

ANOYINING JAYDARI OLMASI. *Erkin A'zam*

BUNCHALAR SHIRINSAN, ACHCHIQ HAYOT! *Xayriddin Sulton*

KO'L BO'YIDA. *Alisher Ibodinov*

PORTRET. *Omon Jorqinboev*

BALIQ OVI. *Qamchibek Kenja*

OTA. *G'affor Hotamov*

HAYKAL. *Shoyim Bo'taev*

OQTO'SH. *Bahodir Murod Ali*

QIZIL TULKI. *Umrboy Uteuliev*

*O'tkir Hoshimov*

### **DEHQONNING BIR KUNI**

Muyassar tong saharda uyg'onib ketadi-yu, Alijonning bir tekis chuqur-chuqur nafas olishiga quloq solib, jimgina yotadi. «Qachon qaytganini bilmabman ham», deb o'yladi u satin ko'rpadan boshini chiqarib. Devordagi osma soat besh marta zang uradi. Uning titroq sadollari uyning shiftiga, zardevorlar, kirpechlar osilgan devorlarga yumshoqqina urilib, singib ketadi. Uy ichi yana jimjit bo'lib qoladi. Soat kaftgiri sukunat qo'ynida goh sekin, goh qattiqroq chiqillayotganday bo'ladi. Oy derazadan o'ychan mo'ralaydi.

Muyassar erining yelkasidan quchgisi keladi-yu, o'ylab qoladi. «Charchagan, dam olsin...».

U o'rnidan ohista sirg'alib chiqadi. Sandiq ustida yotgan nimchasini kiyib oladi-da, yana erining tepasiga keladi, uzoq qarab qoladi. Alijonning keng, tarang peshonasiga mayda ter tepchib chiqibdi. «Bechoraginam, — deb o'yladi Muyassar undan ko'z uzmay, — biram toliqibdiki, do'ppisini ham olib qo'ymabdi».

U erining peshonasini kafti bilan avaylab artadi. Keyin ayvonga chiqadi.

Ayvon labiga tegib turgan gultojixo'rozlar boshida, hovli etagida uyib qo'yilgan g'o'zapoyalar ustida shabnam yaltiraydi. Yum-yumaloq to'lin oy qishloqni o'zining nurli yo'rgagiga o'rab, uyquga, shirin tong uyqusiga chorlaydi, unda-munda yulduzlar mudraydi. Ammo qishloq allaqachon uyg'ongan. Har qaysi hovlining burchagida tunning baxmal pardasini parchalab o't yaltiraydi: odamlar tandirlariga

olov yoqishgan.

Muyassar ham ayvondan chaqqon sakrab tushadi-yu, samovarga o't tashlaydi. Keyin o'choqboshidan suprani olib kelib, cho'kkalab o'tyrgancha xamir qoradi. Tog'orani dasturxon bilan o'rab-chirmab, hovli burchagidagi uyilib yotgan g'o'zapoyalar oldiga boradi. Bir quchoq g'o'zapoya olayotganida, qo'llarini havoda muallaq tutgancha to'xtab qoladi. Dastak devorning orqasidagi, qo'shni hovlidagi bir tup o'rikning duv to'kila boshlagan yaproqlari tong shamolida ohista piriqiraydi. Muyassarning yaqingina o'tmishini, kechagi kunlarini yodiga solganday shivirlaydi. Bir paytlar mana shu o'rik shoxiga arqon ilib arg'imchoq uchardi. Shu o'rikning g'o'rasini birinchi bo'lib o'zi yerdi.

Endi u sho'x qizaloq emas, kelin. Devor-darmiyon qo'shnisiga tushgan. Dadasi ham ularga — Muyassar bilan Alijonga o'z qo'li bilan fotiha bergan. «Alijon yaxshi yigit, o'zimizning sinashta bola. Yetim o'sgan. Bir-biriga ko'ngil qo'yibdi, bo'ldi-da!», degan.

Muyassar to'y kuni dadasi qanchalik uzundan-uzun duo qilganini eslab jilmayib qo'yadi-yu, g'o'zaloyani olib tez-tez yurib ketadi. Qoq-quruq g'o'zapoya gup etib yonadi, yuziga olov tafti uradi. U endi uy tomonga yurganida buzoq ma'raydi. Sigir ham Muyassarning qadam tovushlaridan uyg'onganday asta mo'rab qo'yadi.

Muyassar ayvon labidagi kattakon sirli chelakni ko'tarib, xashak isi anqib turgan og'ilxonaga kiradi. Nimqorong'i burchakda yotgan sigir pishillab o'rnidan turadi.

«Tagi ho'l bo'libdi, tozalash kerak», deb o'ylaydi u. Keyin sigirning yelinini ho'llangan eski sochiq bilan tozalab artadi-da, cho'qqayib o'tirgancha sog'a bosh-laydi. Iliq sut tomchilari chelakka shovillab tushib, ko'pirib ketadi, bilaklariga sachraydi.

Chelak to'lganidan keyin qoziq atrofida aylanib, onasiga talpinayotgan buzoqchanning arqonini yechib yuboradi. Buzoq shodon dikonglab sigir tagiga kirib ketadi.

Muyassar bolalikdan odat bo'lib qolgan chaqqonlik bilan non yasaydi. Bir savat qilib tandir oldiga ko'tarib boradi, bitta-bittadan yopa boshlaydi. Oxirgi nonni yopadi-yu, yengil nafas oladi.

— Muyas!..

U erining ovozi eshitib, chaqqon burilib qaraydi. Beqasam to'nini yelkasiga tashlab olgan Alijon ayvon labida unga qarab turibdi.

— Keling! — deydi Muyassar obdastaga suv quya turib.

Alijon ayvondan ildam tushib, gulzor labiga keladi. Muyassarga tikilib jilmayadi.

— Punktda navbat kutish yomon-da, Muyas... Har kecha yuztalab mashina qatorlashib ketadi. Qo'yib bersa tong otguncha turaverasan kishi, — deydi sekingina. Muyassar uning kecha uyga barvaqt qaytormagani uchun uzr so'rayotganini tushunadi.

Erining baquvvat yelkasidan ushlab jilmayadi...

— Engashing.

Alijon ham uning arazlamaganini payqaydi-yu, boshini quyi soladi.

— Mana, boshim sizniki, — deydi kulib.

Muyassar suv quya boshlaydi. Alijon muzday suvdan seskanib, pishqira-pishqira yuvinadi.

— Yuvinayotganingizda har doim otga o'xshab pishqirasiz-a... Qarang, ko'ylagimni jiqqa suv qilib yubordingiz, — deydi Muyassar ho'l bo'lgan etaklarini ko'rsatib.

Alijon boshini ko'tarib astoydil yalinadi:

— Hech bo'lmasa toychoq deng, Muyas.

Muyassar uning yosh bolalarday boshini bir yonga tashlab turishiga qarab, kulib yuboradi.

Shu ondayoq tandirdagi non esiga tushib, yuguradi. Qo'llari kuya-kuya bir savat non uzib oladi. Tong yorishadi, tun qushi qop-qora qanotlarini yig'ib, qishloq ustidan olislarga uchib ketadi-da, chor-atrof odatdagi qiy-chuvga to'lib-toshadi.

Ikkovlari shosha-pisha shirchoy ichishadi. Alijon tushlik ovqatini belbog'iga tugadiyu mashinasining yoniga ketadi. Darvozaxona tomondan motorning guldiragan ovozi eshitiladi. Kabina eshiklari qarsillab yopiladi.

Muyassar uyni naridan-beri yig'ishtiradi-da, ikki chetida qator-qator teraklar shovillab turgan

toshloq yo'ldan dalaga tomon yurib ketadi. Uzoqda, tog' ortidan quyosh bosh ko'taradi. Qishloq suv quyganday jimib qoladi. Paxtazor katta-kichik hammani, maktab bolalarigacha domiga tortgan.

Muyassar etakni beliga bog'lab olgancha paykalgacha sho'ng'iydi. Paxtalar yonog'iga ilingan qirov sekin-sekin shudringga aylanadi. U esini taniganidan beri o'rganib ketgan ishini tag'in qaytadan boshlaydi. Zum o'tmay etak to'lib-toshadi. Bora-bora beli zirqillab og'riy boshlaydi. Zax, yumshoq egat ichiga etakni ag'daradi-yu, yana qayta bog'laydi. Ko'z o'ngidan o'nlab, yuzlab, minglab chanoqlar birma-bir o'tadi. Goho shunday boshi aylanib ketadiki, ko'zini yumsa, tasavvurda oppoq chanoqlardan boshqa hech narsa ko'rinmay qoladi. Ammo u to'xtamaydi. Engashib oldinga intilaveradi,

Peshinga yaqin kun qizdira boshlaydi. Muyassar nimchasini yechib tashlab, tag'in g'o'zalar orasiga sho'ng'iydi. Shu payt muloyim kuz quyoshida erigan yumshoqqina havoni titratib, tabelchi Shoqosim akaning tanish ovozi yangraydi.

— Hoy, ho-oy, qizlarov, ovqatga-e-e! Uning tovushi paxtazor ustida anchagacha elas-elas sado berib turadi.

Muyassar tergan paxtalarini uyib, etakka bosadi, yukning og'irligidanmi, o'yga tolibmi, boshini quyi solgancha, xirmonga chiqib boradi.

Shoqosim aka etakni temir taroziga qo'yib, toshni surarkan, salqi qovoqlarini lipillatib Muyassarga qarab qo'yadi. Burushiq yuzi oqarib ketganday bo'ladi: — Qirq sakkiz kilo... Mazangiz yo'q-ku, kelin! Muyassar uning nimaga shama qilayotganini bilib g'ijinadi. «O'yin-kulgidan bo'shamay qolding», demoqchi-da!

U bir gap bilan qayirib tashlagisi keladi-yu, yoshini hurmat qilib, o'zini tiyib qoladi. «Mayli, — deb o'ylaydi paxtani xirmonga ag'dara turib. — Bu odamning odati shu. Yuz yil asal bilan boqsangiz ham og'zidan shirin gap chiqmaydi».

Qizlar kattakon qayrag'och soyasida, hovuz labida o'tirib, tushlik qilishadi. Qayrag'och shoxlarida yuz-yuzlab chumchuqlar chirqillaydi. Qayoqdandir shamol kelib, hovuz yuzidagi mayda-mayda jilolar yelkasiga minib oladi.

Orqa tomondan mashina signali eshitiladi.

— Rais buva kelyaptilar! — deydi qaysidir qiz qo'ng'irokday ovoz bilan.

Baland bo'yli, qotma, ammo tetik rais ochiq chehra bilan hayqiradi:

— Hormanglar, qizlar!

Qizlar quvnoq salomlashishadi.

— Barakalla, qizlar! Yashanglar. Plan to'lgan kuni hammangizni Toshkeshta — tomoshaga olib boraman.

— Naq Toshkentning o'zigami? — deydi orqaroqda o'tirgan qizlardan biri ishonqiramay.

— Naq Toshkentning o'ziga!

— Panoramaga ham tushamizmi? Rais beg'araz qahqaha uradi:

— O'sha panoramaga tushamiz-da!

Rais yaxshi odam. Chindan ham har yili qizlarni bir-ikki marta shaharga — teatrga olib boradi.

— Qani, — deydi u hammaga bir-bir qarab. — Kim eng yaxshi ishlasa, o'shani kelin qilaman. Xohlasa, mexanizatorlar kursiga jo'nataman.

Hovuzda kosasini yuvayotgan qop-qora qiz — E'tibor yelkasi osha o'girilib qarab, bijir-bijir qilib gapirib tashlaydi:

— O'zi bitta o'g'lingiz bor, qaysi birimizni kelin qilasiz. Uyam bo'lsa shaharda o'qiydi. Kim bilsin, hali bola-chaqasini boshlab keladimi.

Hamma qah-qah urib kuladi, rais ham...

... Yana o'sha paykallar, chanoqlar, paxtalar... Muyassar yana ishga sho'ng'ib ketadi... Qo'llari yana chanoqlar ustida o'ynaydi.

Oqshom shafag'i yuziga kul tortganida paykaldan chiqishadi. Muyassar uyga qaytishdan oldin kanal bo'yiga keladi: sigirga o't yulish kerak. Muyassarning yonginasida chigirtka nag'masini boshlaydi. Oromli sukunatni chuqurlashtirib, uzoq tinimsiz chirillaydi. Suv yuzida baliq sakraydi. Cho'lp

etgan ovoz eshitiladiyu yana sukunat quyilib keladi. Allaqayoqdan uchib kelgan baliqchi qush suvga sho'ng'iydi. Shu ondayoq qiyqirib havoga ko'tariladi. Muyassar qirg'oqda o'sib yotgan barra maysalarni shart-shurt yulishga tushadi. Allanechuk qadrdon, mast qiluvchi ko'katlar isidan boshi aylanib ketadi. Suv yuzi qop-qorayib qoladi. Eng avval uyg'ongan shoshqaloq bir yulduzcha kanal suviga sho'ng'iydi. Goh jilolarda ko'milib ketadi, goh yana qaytib chiqadi.

Orqa tomondan mototsiklning gurillagan tovushi eshitiladi. Mototsikl sukunatni tilka-pora qilib yaqinlashadi-da, uning yonginasida taqqa to'xtaydi. — Yana kolxozning o'tini yulyapsanmi? Muyassar qayrilib qaramasdanoq taniydi. O'sha — Shoqosim aka. U sekin boshini ko'tarib qaraydi. Tabelchi mototsiklning egaridan tushgisi kelmay, bir oyoqlab yerga tiralib turgan bo'ladi. Muyassar uning yuzini g'ira-shira qorong'ida aniq ko'rmasa ham, qovoqlari pir-pir uchib turganini payqaydi.

Bu odam shunday o'zi: otdan tushsa ham, egardan tushgisi kelmaydi. Bir vaqtlar rais bo'lgan edi. Unda Muyassar qizaloq edi. Bir kuni sigiri paxtazorga tushib ketgani uchun Qoravoy taqachining to'qqiz yashar o'g'lini o'lar holatda do'pposlagan.

Shoqosim aka haliyam o'sha kunlarini qo'msaydi. Menga odamlarning dimoq-firog'i emas, paxta kerak, deydi. Muyassar bu safar ham olishib o'tirmay, qishloqqa qaytadi.

U endi o'choqqa olov yoqqanida eshikdan ola sigir mo'rab kirib keladi. Muyassar gullarni payhon qilib tashlamasin, deb darrov arqonlaydi. Kattakon sirli chelak yani iliq, serko'pik sutga to'ladi.

Muyassar buzoqchani yechib yuboradi.

Taom pishgandan keyingina Muyassar qattiq to-liqqanini sezadi. Uch-to'rt jazni og'ziga soladi-yu, tovoqni berkitib qo'yadi. «Hali Alijon akam kelsa, birgalashib ovqatlanamiz».

Lekin Alijon hali-beri qaytmasligini o'zi ham biladi. Terim kunlari shofyorlar kecha-kunduzning farqiga bormay qolishadi.

Guzar tomondan baland muzika ovozi yangraydi. «Klubda kino bo'lyapti, — deb o'ylaydi Muyassar jimgina quloq solib. — Qanaqa kino ekan?»

U uyiga kirib, elektr yoqadi. Burchakdagi toshoynaga o'zini soladi. Qora qosh, qora ko'z, mo'jazgina qiz unga qarab jilmayib turadi. Birdan uning sho'xligi tutib ketadiyu o'zining aksini o'zi masxara qila boshlaydi. Tilining uchini chiqarib, boshini likillatib qo'yadi. Keyin mayin jilmayib, oyna tokchasidagi upani oladi. Upaga botirilgan paxtani yuziga yaqinlashtirishi bilan to'xtab qoladi.

«Yana qo'lim yorilibdi», G'o'zapoya tirnab tashlagan qo'llariga qaraydi. Tag'in jilmayib qo'yadi. Mana shu nozik, chayir barmoqlari, tiqmachoqday qo'llari bilan allaqachon o'ziga haykal bitgulik ishlar qilib qo'yganligi, bugun ham o'sha haykalga yana jilo bergani uning xayoliga ham kelmaydi.

Keyin uxlab qolishdan cho'chib, yechinmasdan o'rniga cho'ziladi, kuta boshlaydi. Ana, ko'chadan mashina ovozi keldi. Muyassar ildam qaddini rostlab o'tirib oladi. Motor tovushi kuchaya-kuchaya yaqinlashadi-da, yana sekin-sekin uzokdashib ketadi. «Yo'q, Alijon akam emas, Idora tomonga o'tib ketdi-ku».

U shiftta tikilib uzoq yotadi. Lekin endi motor ovozi kelmaydi. Itlar akillamaydi. Bedana ham sayramaydi. Qishloqni uyquning sukunat to'lqinlari o'z bag'riga oladi.

Faqat qaerdadir — uzoqda alla eshitiladi. Qaysidir ona o'z kichkintoyining boshida qo'shiq aytyapti. Muyassar shirin jilmayib qo'yadi. Mana, bir yildan keyinmi, ikki yildan keyinmi o'zi ham ona bo'ladi. O'shanda o'zi ham shunaqa sokin kechalarga jon kiritib alla aytadi. Bir vaqtlar ayasi kenja ukasiga alla aytayotganida quloq solib o'rganib olgan.

Uyqu uning ham kiprikklarini aldab-aldab qovushtirib ketadi. Muyassar toliqqan oyoq-qo'llarini yozganicha, dong qotib uxlab qoladi.

U tush ko'radi. Tushida jajjigina qizaloq emish. O'rikning shoxiga arqon tashlab arg'imchoq uchayotganmish. O'rik qiyg'os gullaganmish. Arg'imchoq har silkinganida uning boshidan bir dunyo gul sochilarmish. Arg'imchoq borgan sayin qatiroq lopillarmish. U borgan sayin balandga, osmon-falakka chiqib tusharmish. Yer ham, osmon ham, arg'imchoqning arqoni ham — hammayoq gul emish. Oqish pushtigul emish. U xandon urib, qiyqirib-qiyqirib kularmish. Ko'zlaridan yosh chiqib ketarmish...

U tush ko'radi. Ammo oy fonusining piligini pasaytira boshlaydi.  
Kunchiqar tomonda osmon sutday oqish rangga kiradi. Yangi kun boshlanadi.

## DEHQONNING BIR TUNI

### Ikkinchi hikoya

Bundan yigirma ikki yil avval «Guliston» jurnalida «Dehqonning bir kuni» degan hikoya bosilgan edi. Unda oddiy paxtakor oilaning bir kunlik hayoti tasvirlangan...

Hikoya rus tilida «Literaturnaya Rossiya» haftaligida chiqdi, to'plamlarga kirdi, talay qardosh xalqlar tillariga, chet el tillariga o'girildi.

Oradan shuncha fursat o'tgach, eski do'stlarim, qariyb o'z tengqurlarim — Muyassar va Alijonni qo'msayverdim... Mana, ular bilan tag'in uchrashdik.

*Muallif, 1989 yil, mart.*

Yo-yo-tishibdi... O'ng tomonda Alijon. Chap tomonda Muyassar... Yonboshida to'rt yashar Doniyor... Uy ichi salqin, cho'yan pechkaning g'ira qopqog'idan tushayotgan nur devorga qizg'ish chiziq tortgan. Tashqari oydin shekilli, deraza yorug'. Eski toshoyna xira yiltiraydi. Toshoyna burchagiga qistirib qo'yilgan rasm oqarib ko'rinadi. Lekin Muyassar uni ravshan tasavvur qiladi: Valijonning surati. Uni Halimaxon chizgan. Bo'yoq qalam bilan... O'lmasidan yarim yil ilgari... Toshoyna tokchasidagi soat shoshilinch chiqillaydi. (Valijon Novgorod tomonlardan olib kelgan batareyali soat)... Alijon yonboshiga ag'darilib «imm» deb qo'yadi. «Tag'in beli og'riyapti», deb o'ylaydi Muyassar yuragi achishib. Ammo eridan hol so'rashga botinmaydi: «Uyg'onib ketmasin».

Yetti yil bo'ldi. Tuppa-tuzuk mashinasini haydab yurgan odam ayni qish chillasi «pichan obkelmasak bo'lmaydi», deb toqqa ketdi-yu, bir haftada shu dardni orttirib keldi. Bormasa bo'lmasdiyam-da... Fermaning mollari ochlikdan bo'kirib yotgan bo'lsa... Kolxozning o'zi beda sepmasa...

Alijon avvaliga sezdimadi. Ichidan Muyassarning jun ro'molini beliga bog'lab yuraverdi. Keyin yotib qoldi. Qimir etsa joni chiqib ketayotgandek ingraydi. O'shanda «yorildi». Xashak olib qaytishayotganda qor ko'chib, ikki kecha tog'da qolib ketishibdi...

Uy ichi salqin... Cho'yan pechka eshigidan tushayotgan chiziq ojiz miltiraydi. Valijonning soati shoshqin chiqillaydi. Muyassarni xayol olib qochadi. Valijon sog'mikin... U yoqlarda sovuq qattiq bo'larmish. Bugun «Vremya»da aytdi. Moskvada 28—33 daraja... Novgorod Moskvaga yaqin emish. Valijon aytgan.

Doniyor quv-quv yo'taladi. Oyoq-qo'lini tipirlatib, ustidagi ko'rpani ochib tashlaydi.

— Aya-a-a! — deydi yig'lamsirab.

Muyassar tirsagiga tayanib, bolaning ustiga ko'rpa tortadi. Peshonasiga kaftini bosib ko'radi. Xayriyat, isitmasi yo'q.

— Uxla, bolam, uxla, — deydi sekin.

— Buning yana yo'talyapti-ku, onasi...

— Sizniyam uyg'otib yubordimi? — Muyassar eriga achinib qaraydi. — Sho'x-da, boya Salimangiz aytdi: pechkada qor eritib, pishillatibdi... Uxlang.

Muyassar erining uyqusini o'chirib yuborishdan qo'rqib, qimir etmay yotadi. Soat chiqillaydi. U tag'in Valijonini o'ylaydi. Mo'min bola. Otasiga tortgan. O'nni bitirib institutga kirmoqchi edi. Yig'lamoqdan beri bo'lib qaytib keldi. Domla aytganmish. «Ekonomist bo'lishni orzu qiladigan odam avval familiyasini to'g'ri yozishni o'rganadi, yigitcha! Qishlog'ingizga borib paxta teravering!»

Muyassar kuydi. Otasi kuldi: «Biz tomonlarda paxta terishdan boshqani o'rgatmaydi, demadingmi, o'g'lim... Mayli, parvo qilma, hamma olim bo'lib ketsa, podani kim boqadi». Valijon poda boqmadi-yu,

tag'in paxta terdi.

Keyin... Boshqa gap chiqib qoldi. Yangi rais (avvalgi Rais buva qamalib ketdi, uch yil bo'ldi: paxtani qo'shib yozgan ekan) majlis qildi. Xo'p aqlli gaplar aytdi. (Aytadiyam-da, yosh, o'qimishli). «Ko'rib turibsizlar, biz tomonlarda tug'ilish ko'payib ketyapti, — dedi, — har bitta oilaga o'n besh sotixdan tomorqani qaerdan topamiz, paxtaga yer yetmayapti-ku»: Xullas, ayon bo'ldiki, Rossiyaning noqoratuproq yerlari «o'tyurak» dyohqonlarni, iloji bo'lsa, yoshlarni kutib yotgan emish.

Valijon tushmagur shu gapni eshitdi-yu, patagiga qurt tushib qoddi. Muyassar «ketma», deb uvvalo yalinsa ham ko'nmadi. «Tushunsangiz-chi, aya, o'z holimga qo'ying, yosh bola emasman», dedi.

Dadasi yonini oldi (har qalay erkak-da). «Bolani o'z holiga qo'y, onasi, rais bir nimani bilmasa gapirmaydi», dedi.

Valijon bir yilchadan keyin kech kuzakda to'satdan kelib qoldi. Otpuskaga. Qarang, Muyassar o'g'lini tanimay qolsa deng... Soqol qo'ygan... Boshida telpak... Ralatiroq bo'lib qolgan. Kamgapmi-ey, odamovimi-ey...

Ikki marta singlisining mozoriga borib keldi-da, tag'in yo'lga o'tlanib qoldi. O'sha kuni dadasiga dilini yordi: «Xo'roz hamma yerda bir xil qichqirarkan, hech kim bizni quchoq ochib kutib olgani yo'q. O'zlarining turish-turmushi yaxshi bo'lsa, qishlog'ini tashlab qocharmidi, jonimga tegdi, bahorda qaytib kelaman», dedi. Otasi gapini ma'qulladi: «Tentirab yurma begona yurtlarda! Kelaver, ochingdan o'lsang men kafil».

— Uyingda is bormi, onasi?

Xayol surib yotgan Muyassar eri tomon ilkis o'giriladi.

— Uxlamadingizmi?.. O'lsin... ko'mirxonaga kirsam, yakkash kukun qopti. — U bir zum jim yotadi-da, so'raydi.

— Poezd biletini ertaga olasizmi?

— Olaman, — Alijon negadir xo'rsindi. — Buyam bir qop g'alva shekilli. Avval Moskvaga borilarkan, undan Tbilisiga, undan Kutaisiga...

— Mayli, dadasi. Ko'rmagan joylarni ko'rib kelasiz.

Jimib qolishadi. Yangi rais Alijonning belidagi bodini davolash uchun Kavkaz tomondagi allaqaysi «kurot»ga putyovka beribdi.

— Joningizdan aylansin, — deydi Muyassar osoyishta ohangda. — Qiynalib yurasizmi?

Tag'in jimlik cho'kadi. Allaqaerda it akillaydi.

— Ko'mir olish kerak, — dedi Alijon bo'g'iq ovozd. — Qishning keti ko'rinmayapti.

— O'lsin, anqoning urug'i-ku. — Kechagi voqea daf'atan Muyassarning esiga tushadi. — Magazinga qand kelgan ekan. Tumonat odam... Qarasam, Tursunoy xolayam ochiritda turibdi. «Erimda gunoh yo'q, majbur qilishgan», deydi. Adoyi tamom bo'пти.

— Rais buva insofli edi, — Alijon tag'in xo'rsinadi. — Xalqqa qayishardi.

— O'g'lini qarg'adi, — deydi Muyassar kuyinib. — Toshkentda o'qigan o'g'li bor edi-ku... hozir Qo'qonda ishlayotgan ekan. Sudmishmiej, advokatmi... Tursunoy xola «otangni qamoqdan chiqarib ber, shu odamning pushtikamaridan bo'lgansan-ku, bolam», deb yig'lasa, o'g'li ko'nmabdi. «Pripiska qilganlarga chora yo'q, aya», dermish.

— Ungayam osonmas, — deydi Alijon xomushlik bilan. — Nima qilsin, davlatning odami.

— Ularnikidayam ko'mir ado bo'lgan ekan, — deydi Muyassar Tursunoy xolaning gapini eslab. — Shotursunga bir mashina ko'mir obkeb bering, baraka topkur, rahmatli otangiz rais buvaning qarddoni edi, desa Shotursun jerkib beribdi: «Ikki yuzdan kamiga bo'lmaydi, men yetimxonaning direktori emasman. Rais buva ko'mib ketgan tillalarni chiqaring-da, mundoq», dyopti.

— Otasiga o'xshagan errayim-da, bu bola! — Alijon jahl bilan to'ng'illaydi. — Shoqosim aka ham shunaqa xudobexabar odam edi.

Muyassar qovog'i muttasil uchib turadigan Shoqosim akani, hozir stantsiyadagi ko'mir iskaladda

ishlaydigan Shotursunni eslab, ko'ngli g'ash tortadi, rais buvaning xotinigaki shundoq degan bo'lsa, boshqalarga ikki yuz ellikdan kamiga ko'nmaydi.

Tursunoy xolaning yig'lab aytgan gaplari tag'in xayoliga jonlanadi: «Sizga yolg'on, Xudoga chin, jon qizim, cholim bir xil raislarga o'xshab sandiq-sandiq pul yig'madi. Boshqalardan nimamiz ortiq, mana, bir paqir ko'mirga zor bo'lib o'tiribman...»

— Rais buva vaqtida pensiyaga chiqib ketsa shu ishlarga aralashmasmidi, — deydi Muyassar o'ziga o'zi gapirib.

— A? — Alijon endi mudray boshlagan shekilli, qayta so'raydi. — Kim deysan?

— Rais buvani aytaman-da.

— Undayam baribir qamalardi...

Muyassar astoydil ajablanadi:

— Nega endi? O'ziga to'g'ri bo'lsa. Birovga og'zi tegmasa, tili tegmasa...

— Planni bajarmasa bo'lmasdi-da, onasi, — deydi Alijon ishonch bilan. — U zamonlarda bajarmasa qamalardi. Endi bajargani uchun qamayapti.

«O'zing panohingda asra, Xudo!», deydi Muyassar xayolan. Dili yorishadi. Yaxshiyam eri raismi, brigadirmi bo'lmagani... Ana, qanchasi qamoqda yotibdi.

Narigi xonadan ingroq tovush keladi.

— Qaysi biri? — deydi Alijon xavotir bilan.

— Salimangiz... — Muyassar narigi xonada yotgan uch qizining qaysi biri tushida alahsiragani-yu, qaysi biri ingraganini aniq biladi.

— Yana bannisaga yotqizsakmikan, — deydi Alijon. — Jigar og'rig'i qo'zg'adi shekilli. Halimaga o'xshab...

— Nafasingizni issiq qiling! — deydi Muyassar beozor jerkib.

Erining ko'nglidan o'tayotganlarni biladi. O'zining ham ko'z o'ngiga lop etib Halimaxon keladi. Valijondan keyin tuqqan qizi. O'ziyam bu dunyoga sig'adigan qiz emasdi-da. Sochi yer supurardi. Kiprigi yuziga tushardi. Otasi ham hayron: kimga tortgan bu qiz? Chap qo'llab rasm chizsa (chapaqay edi), odamning aqli shoshardi. Shunaqa mehnatkash, shunaqa chaqqon. Non yopadi, sigir sog'adi, pillaga qaraydi, dalaga chiqib chopiq qiladi, yuz kilolab paxta teradi. Yaxshi qiz mahalladan chiqmaydi, degan gap rost ekan. O'n oltiga to'lib-to'lmasdan turnaqator sovchilar qatnasa deng... Bo'lmasa to'qqizinchiga endi ko'chgan qiz...

Bir kuni Muyassar ishdan kelsa, Halimaxon akasini ayvon burchagidagi kursiga o'tqizib qo'yib, albomga rasmini chizyapti. Qo'lida bo'yoqqalam. «E, buningizga ayting, aya, xit qilib yubordi-ku, odamni, — dedi Valijon do'rillab. — Nima, men vistavkaga qo'yilgan echkimanmi? Ikki soatdan beri qoqqan qoziqdek o'tiribman. E, bor-e!» — Valijon qo'lini paxsa qilib o'rnidan turib ketayotgan edi, Halimaxon muloyim jilmaydi. «Qirqiga chidadingiz, qirq birigayam chidang-da, akajon! Besh minut qoldi».

Muyassar qizi chizgan rasmga bunday qarasa... Yo tavba! O'g'li shunaqa katta yigit bo'p qoptimi? Mo'ylovi sabza urgan... Ko'zlarida, qop-qora ko'zlarida allanechuk sho'xlik... Hatto iyagidagi husunbuzar ham yarashib tushgan.

... Muyassar o'sha kungi gapi uchun hanuz ich-etini yeydi. Nega baqirdi qiziga? «Sen ahmoqqa qachon aql kiradi, qiz o'lgur! Ovqatga unnash o'rniga... Akang bu yil o'nni bitiradi, ahmoq, nima qilasan vaqtini olib? Yig'ishtir qalam-palamingni!» Bilsa edi, olti oy o'tmay g'unchadek qizini tuproqqa topshirishini... Halimaxon dori sepilgan dalada ishlayveribdi jigari ezilib adoyi-tamom bo'pti-yu, ih demabdi. O'zi-chi? «Ayajon, qornim og'riyapti, ko'nglim behuzur bo'lyapti», desa: «Yoqmasroq narsa yegandirsan-da, qatiq ichsang bosiladi», deb qo'ya qolibdi... Bannisaga olib borishganida kasali o'tib ketgan ekan... Yo'lakka, eshik tagiga yotqizishdi.

Muyassar erini bunaqa alpozda birinchi ko'rishi edi. Avval do'xtirlarga yalindi: «Jon akalar, qancha olsangiz oling, qizimni tuzating», dedi. Birov quloq solsa qani! Hammayoq oh-voh, hammayoqda rangi za'faron kasallar. Shunda Alijonning ko'zi g'azabdan yonib ketdi. Qiyomat qo'pdi. (Yuvosh

odamning jahli chiqsa yomon bo'larkan.) «Kattang kim? — dedi o'dag'aylab. — Mening qizim xolasining chorbog'ida ishlab sariq bo'lgani yo'q. Paxtada ketmon chopib shu dardga yo'liqdi! Tuzatasan! Tuzatmasang, onangni Uchqo'rg'ondan ko'rsataman!»

Rangi zahil, qiltiriq do'xtirning gapi Muyassarning esidan chiqmaydi: «Menga nima deysiz, aka! Bola bog'chasiniyam kasalxonaga bo'shatib bergan bo'lsak, ko'rib turibsiz, koridorgacha to'lib ketdi. Boring, o'sha kattalarning oldiga!»

Alijon «kattalarning oldiga bormadi. Boradigan ahvolda emasdi.

Bola bola ekan-da. Valijon singlisi bilan ko'p g'ijillashardi. Goh ruchka talashadi, goh daftar... Ammo Halimaxonning o'ligini bannisadan olib kelishganida yerga muk tushib shunaqa yig'ladi, shunaqa yig'ladi...

Muyassarning mijjalariga yosh qalqiydi. Tomog'iga yig'i tiqilib, dimog'i achishadi. Erini bezovta qilishdan qo'rqib, labini tishlaydi.

— Ha, onasi? — deydi eri xavotirlanib.

— O'zim... — Muyassar hiqillab, burnini tortadi. — Uxlang... Charchagansiz.

— Qo'y, onasi... — Alijon dag'al qo'li bilan uning boshini silaydi. — Bahorda o'g'ling keladi. Nasib etsa to'y qilamiz... Nevara ko'rasan...

Ajab, bir vaqtlar kelinlik paytida (qarang, shungayam yigirma ikki yil bo'пти) erining qo'li bexosdan tegib ketsa, badani jimirlashib ketardi. Endi bo'lsa eri boshini silasa yosh boladek orom topadi. Nima bu? O'ziyam tushunmaydi.

Narigi xonada tag'in Salima ingraydi. Muyassarning ko'ngliga g'ul-g'ula tushadi. Balki yana bannisaga yotqizish kerakdir. Yo'-o'q, bittasidan ayrilgani yetadi! O't tushsin, o'sha paxtalariga!

Sutdan og'zi kuygan qatiquiyam puflab icharkan. Bultur kuzda Salima «ko'nglim ayniyapti, biqinim sanchib og'riydi» deganida er-xotin yugurgilab qolishdi.

Xayriyat, bu safar vaqtida oldini olishdi. Haliyam asorati qolgan shekilli, bu sariq o'lgurning... Alijon inqillab o'rnidan qo'zg'aladi.

— Ha? — deydi Muyassar tashvishlanib. — Belingiz...

Alijon uh tortadi. Yotgan joyida cho'zilib ti-mirskilanady. Namat ustidagi sigaret bilan gugurti oladi.

— Shu odatingiz qolmadi-da, dadasi, — deydi Muyassar dashnom berib. — Bola yotibdi demaysiz.

Alijon indamay gugurt chizadi. Chakkasidagi oqargan sochlari, ajin tushgan peshonasi bir lahza yorishib ketadi.

«Umr ham o'tdi, — deb o'ylaydi Muyassar. — Ikkovimiz ham o'tin bo'ldik. Qiziq, ko'nglida na alam, na og'riq sezadi. Bu gap shunchaki lip etib xayolidan kechadi. — «Dunyoning ishlari shu ekan». ... Oy botgan shekilli, derazadan tushayotgan nur xiralashadi. Hovli tomonda qo'y ma'raydi. (Valijonning to'yiga atab boqilayotgan qo'y).

— Onasi, — deydi Alijon sigaret kulini yonboshidagi piyolaga chertib. — O'g'ling kelguncha uyni sal epaqaga keltirib qo'ysakmidi...

Yaxshi niyat bilan hovli etagiga bir uy, bir ayvon solishgan. Tomini yopishdiyu u yog'iga qo'l qisqalik qilib qoldi. Valijon u yoqda bo'lsa, hali qancha ish bor. Eshik-deraza o'rnatish, somon suvoq, oq suvoq, bo'yoq... Eh-he!

Ajab, Alijon uning dilidan o'tganini darrov sezadi.

— Qo'yaver, onasi, — deydi yupatib, — musulmonchilik — astachilik. Baxtimizga bolalar sog' bo'lsin.

— Shunday deb sigaretni piyolaga bosib o'chiradi. — Uxla, onasi, charchagansan.

Toshoyna yanayam xiraroq yaltiraydi. Soat allalovchi ohangda chiqillayotganga o'xshaydi. Bora-bora soat ovozi jimlik qo'yniga singib ketadi. Muyassarni uyqu elitadi. Shunda eri yelkasiga ohista turtganini sezib norozilik bilan ko'zini ochadi.

— Nima deysiz? — deydi ozorlanib.



— Onasi... — Alijon yo'talib qo'yadi. — O'ylab qaragam, o'shayoq menga to'g'ri kelmas ekan. Muyassar uyqusirab yaxshi tushunmaydi:

— Qanaqa o'shayoq?

— O'sha-da! Xaltubami, Maltubami... Borish yuz so'm... Kelish yuz so'm... Undan ko'ra ko'mir olaylik... Valijoning kelguncha uyni suvokdan chiqarib qo'yaylik.

Muyassarning uyqusi bir zumda o'chadi.

— Esingiz joyidami, dadasi! — deydi astoydil koyib. — Yetti yil kutib, endi putyovka olgan bo'lsangiz, yarimjon bo'lib qolgan bo'lsangiz... Siz ham umringizda bir marta...

— Ke, qo'y, onasi! — Alijon tag'in uning boshini silaydi. — Oltiariq tomonda issiq suv bormish. Shunga uch marta tushsam, otdek bo'lib ketaman. Mana ko'rasan.

Eri shu qadar ishonch bilan gapirdiki, Muyassar ikkilanib qoldi.

— Qandoq bo'larkin, dadasi, — deydi bo'shashib. — Labzdan qaytsangiz...

— Uxla, — deydi Alijon allanechuk xotirjamlik bilan.

Muyassar tushunadi. Bu — erining qat'iy qarori. U bir lahza alag'da bo'lib yotadi. Keyin uyqu uning kipriklarini aldab-suldab qovushtiradi. Qancha fursat o'tganini bilmaydi-yu, ayvonda chiroq yonganini his etadi. «Salima turdi, — deb o'ylaydi uyqu aralash. — Xo'p mehnatkash chiqdi-da, shu qizim. Umridan baraka tonsin». Paqir bandi daranglaganini ham eshitadi. «Turish kerak, xamir ko'pchib ketgandir... Salima sigir sog'guncha non zuvalab qo'ymasam bo'lmas». Uyg'onmoqchi bo'ladi-yu, ko'zini ocholmaydi.

Tush ko'radi... Bahor emish. O'rik gullaganmish. Qizaloq emish. O'rik shoxiga ilingan arg'imchoqda uchayotganmish. Arg'imchoq silkingan sayin boshiga duv-duv gul yog'ilarmish. Oq, pushti gullar...

Shunda... Halimaxon paydo bo'пти. Sochlari yer supuradigan, kiprigi yuziga tushadigan qizi Halimaxon...

«Kel, qizim, kelaqol! — dermish u qo'l cho'zib. Qizini quchog'iga olibdiyu uchaveribdi-uchaveribdi. Halimaxon uning pinjiga kirib, «ayajon, ayajon» dermish. Arg'imchoq borgan sayin biland havolanarmish... Ona-bola bir-birini quchokdab osmon-falakka uchib ketishayotganmish. Negadir Muyassarning yig'lagisi kelarmish.

U tush ko'radi. Oy fonusi allaqachon o'chgan. Kunchiqar tomonda esa ko'kimtir qor bosgan tog'lar ortida osmon yorishadi. Hovli etagida pastak bostirmada «pov-pov» degan ovoz eshitiladi. Salima sigir sog'ayapti. Sog'ib bo'lib, qoziq atrofida betoqat aylanayotgan buzoqchani yechib yuboradi, keyin tandirga o't qalaydi... Non yopadi... Shirchoy qiladi... Yangi kun boshlanadi...

## ERKIN

Qamoqxonaning temir eshigi avvaliga yurakni ezadigan darajada g'ijirladi, so'ng shiddat bilan sharaqlab yopildi. Erkinning nazarida, temir eshik sharaqlamadi, balki mog'or hidi anqib turgan bu zax bino tars ikkiga yorilib-ajralib, shu zahotiyuq uni yutib yuborganday bo'ldi. Uzunasi uch qadam, eni ikki qadam keladigan sovuq, nimqorong'i xonada yolg'iz qolgach Erkinning badanida titroq turdi. Titroq sovuqdanmi yo qo'rquvdanmi — buni avvaliga o'zi ham fahmlolmadi.

Eshikning sharaqlab yopilishi so'nggi umid uchqunlari ustiga kul tortdi. Qamoqxonaning uzun dahlizidan qo'lini orqasiga qilib yurib kelayotganda ham o'sha umid uchquni olisdagi yulduz kabi miltillab turgan edi.

Endi... tamom! Demak, bu shunchaki po'pisa emas! Demak, bu anglashilmovchilik ham emas!

Erkin ostona hatlab bir qadam qo'yganicha qotib turardi. Ko'z oldini qorong'i parda qoplagan, nazarida oyoqlaridan ham jon butkul chiqib ketganday edi. U o'zi bilmagan holda cho'ka boshladi. Avvaliga cho'nqaydi, so'ng cho'kkaladi. Tizzalari muzladi. Titroq kuchaydi. Baqirmoqchi bo'ldiyu ovozi chiqmadi.

Qorong'i xona birdan yorishib ketdi. Shunday yorishdiki, hatto ko'zlariga hech nima ko'rinmay qoldi. Nazarida, qamoqxona tomini ikki yonga surib ko'ringan quyoshga qarab, ko'zi qamashganday edi. Dam o'tmay xona asta qizara boshladi. Oxiri qondek to'qqizil tusga kirib, atrof chayqala ketdi. Qamoqxona bino emas, balki ulkan qon dengizida qalqib turgan kema edi uning xayolida. Mavjlar bora-bora po'rtanaga aylandi. Tiz cho'kkanicha qaltirayotgan Erkin o'roq solingan bug'doy poyasiday shilq etib yonga quladi. Chakkasi betonga tegib, ko'z oldini qoplab turgan qip-qizil qon dengizi qopqora zimiston chohga aylandi. U zimiston chohga go'yo uchib tushdi. Qaltiroqlari ham qolgan, badandagi zirqiroq og'riq ham ko'tarilgan edi. U o'zini yengil his qilar, qushday uchardi...

Beliga enli kamar bog'lagan soqchi yigitchaning jimib qolganidan xavotirlanib, eshik tuynugini ochib qaradi.

— Yerga yotib olibdi, biron nima bo'lyaptimikin?— dedi u sherigiga qarab.

Rangpar sherigi ham qaradi-da:

— O'lmaydi, yotaversin, — deb nari ketdi.

Erkin qancha yotganini bilmaydi. Hushiga keldi-yu, sukunat jarangidan dahshatga tushdi. Jimjitlikning bu qadar dahshat ekanini u bilmas edi. Shu sababli hushiga kelgan-kelmaganini avvaliga bilmay yotdi. Bir payt onasi sukunatni parchalab: «Tur, bolam, shamollab qolasan», deb shivirlaganday bo'ldi. Erkin seskanib boshini ko'tardi. Quloq tutdi — onasi boshqa gapirmadi. U atrofga alangladi: to'g'rida temir karavot qorayib turibdi. Tepada xira chiroq. Bir tomonda temir panjarali darcha. Orqada temir eshik. Boshqa hech narsa yo'q.

U qaddini rostladi-da, muzlab qolayotgan o'ng qo'li-ni, o'ng biqinini siladi. Majolsiz oyoqlarini bir-bir sudrab bosib karavotga borib o'tirdi. Ko'rpa bo'lib ko'rpamas, jun choyshab bo'lib jun choyshab bo'lmagan bir uvadani olib o'randi. Badaniga sal issiqlik yugurdi. Sovuq chekingach, ochlik xuruj qildi.

Tun bo'yi mijja qoqmagan yigitchani tongda, nonushta qilishga ham qo'ymay olib kelishgan edi. «EN-KYeVYeDYe» desa joni halak qo'shnilar eshiklari tirqishidan mo'ralab qolaverishgan, nola qilayotgan onasini yupatguvchi zot topilmagan edi. Erkin kun bo'yi tik turganicha so'roqlarga javob berdi. Qosh qoraya boshlaganda keltirib bu xonaga tiqishdi.

Erkin nimqorong'i, zax xonaga ham, sukunatga ham asta ko'nika boshladi. Bir yil ichida avval akasidan, so'ng otasidan ayrilgan, otasining do'stlari ham birin-ketin qamalayotganini eshitib dovdirab qolgan o'n yetti yoshli yigitcha uchun o'tgan kecha va kunduz kutilmagan sinov edi.

Uch kun avval maktab direktori uni chaqirtirdi. Cho'qqi soqolli bu odam g'oyat sertakalluf, hatto bolalarni ham sizlab gapirar, birovdan ranjiganini sira sirtiga chiqarmas edi. Ana shunday muloyim odamni rangi oqargan holda ko'rib, Erkin ajablandi.

— Kechqurun Nozimxo'ja akangizni ham olib ketishibdi, — dedi u sarosima bilan. — Bittadan terishyapti. Siz hoziroq uyingizga boring. Dadangizning kitoblarini, kundaliklarini, maktublarini, xullas, yozilgan qog'oz zoti borki, berkiting. Julqunboy bilan Cho'lponning kitoblari zinhor yuzada qolmasin. Ehtiyot bo'ling, bolam, bora qoling.

— Nimaga, muallim, — deb e'tiroz bildirdi Erkin, — dadam... yo'qlar-ku? Shunda ham kelishadimi bizlarnikiga?

— Kelishlari mumkin...

Erkin muallimning qo'rqqoqligidan bir kulib, bir hayron bo'lib, uyiga bordi. Uning gaplarini onasiga aytdi. Onasining rangi o'chib, «Voy, o'lmasam...» deb ikki yuziga kaftlarini bosdi. Uch oydan beri pensiya puli berilmay qo'yilganining boisini shu topda angladi. Bir oz sarosimada turdi-da, keyin tokchalardagi kitoblarni saralay boshladi. Uning qo'li ishda, lablari esa: «Voy, xudoyim, endi nima qildim, bularni qaerga yashirdik?» — deb pichirladi.

— Erkinjon, bolam, bularni qaerga yashiramiz? Yoqmasak bo'lmaydi, shekilli? — dedi onasi to'plangan kitoblarga qarab.

Erkin «Hazillashyaptilarmi?» deb unga tikildi. Keyin onasi hozirning o'zida o't qo'yib yuborayotgandek qo'llariga yopishdi.

— Yo'q, — dedi u qat'iy, — yoqmaysiz! Bu dadamning kitoblari!

Dadasining qo'llari tekkan kitoblarni yoqishga yo'l qo'ya olmas edi. Kitob yonsa, dadasining xotirasi ham kuyib kul bo'lardi. Oqibatda bu uyda tabarruk hech narsa qolmas edi. Erkin xotirasiz yashamoq, tuyg'ulardan mahrum bo'lmoq vahshiylik ekanini hali tushunib yetmasdi. U hozir bir narsani aniq bilardi — otasining qo'llari tekkan buyum tabarruk, muqaddas. Muqaddas narsani esa yoqib bo'lmaydi. Onasining qo'llarini ushlab, ko'zlariga tikildi. Uning bu qarashida «o'lsam o'laman, ammo yoqtirmayman» degan qaror zohir edi. Ona o'g'lining qalbida portlagan, biroq tilidan uchmagan bu gaplarni yuragi bilan eshitdi.

— Nima qilamiz bo'lmasa? — dedi yig'lamsirab.

— Ko'mib qo'yamiz.

Oshxonada odam bo'yi keladigan katta xum bo'lardi. Erkin esini taniganidan buyon bu xumga don-dun to'latilganini bilmaydi. Hozir Erkinning xayoliga daf'atan shu bo'sh xum keldi. Tashqariga chiqib, o'ra qaziy boshladi. Onasi esa hamon yig'lamsirab maktublarni, hujjatlarni to'plardi.

Erkin humning og'zini mahkamlab, ustiga tuproq tortib, so'ng itining yog'och uyini surib qo'yganida tun yarmidan oqqan edi.

Ertalab maktabga borgan Erkin direktorning «xalq dushmani» ekanini bildi. Direktorning kechagi qiyofasi ko'z o'ngidan ketmay, o'zining ham sarosimaga bandi bo'lib borayotganini sezmedi.

Oqshomda esa bular kelishdi. Boshqalarga buyruq berayotgan charm kurtkali kishini Erkin bir ko'rishdayoq tanidi. Javlon ismli bu odam avvallari ham bir-ikki kelgan, lekin dadasi uni nimagadir xushlamas edi. Mehmon iziga qaytgach, dadasi oila davrasida uning fazilatlarini sharaflab o'tirar edi. Mehmon ko'ngliga o'tirmaydigan, xush ko'rilmaydigan bo'lsa, indamay qo'ya qolardi. Uning bu odati Erkinga ham ma'lum, shu sababli tilga olinmagan mehmonning kimligini so'rab-surishtirmas edi. Shu tufayli charm kurtkali Javlonning kimligini bilmas edi.

Dadasi qaytish qilib berganda ham bu odam kelgan, «Mirabbosov bolshevik edi, bolshevikchasiga ko'mamiz», deb xarxasha qilgan. Erkinning buvisi chiqib, «Bolam bolshevik bo'lgan edi, to'g'ri, lekin ota-bobolariday yotaversin. Bolshevik taxta qutida yotsin, degan qonuningni ko'rsat», degach, yon bosgan, ammo «Yuzini ochinglar, xayrlashaylik», deb tiqilinch qilgan. Odamlar: «Kafanlab qo'yilgan, ochib bo'lmaydi», deb koyib berishgach, janozani ham kutmay ketib qolgan.

Aynan shu odamning kelishi Erkinga jumboq edi.

Javlon hatto etigining changini ham qoqmay uyga kirib keldi. Avval namatni, so'ng to'shalgan ko'rpachalarni bosib o'tib, tokchaga yaqinlashdi.

— Hm, Marks, Lenin... yaxshi... — dedi u kitoblarni qarab, — o'rtoq Stalinning kitoblari qani?

Erkinning onasi kalovlanib, javob bera olmadi.

— Qanaqa bolshevik ekan bu Mirabbosov, uyida dohiyning kitobi bo'lmasa... Mana bu yerda Qodiriyning, narigi tokchada Cho'lponning kitoblari turar edi. Qani u kitoblar?

Onasi yana javob topolmay qoldi. Savollariga javob bo'lmagach, Javlon ovozini balandlatib so'radi:

— Kitoblar qani deyaрман?!

— Ularni... ularni yoqib yuborganmiz.

— Yoqib yuborganmiz? Nimaga?

— Shu... nimaydi?..

Onasining o'rtanishiga chiday olmagan Erkin javob qaytardi:

— Xalq dushmanlarining kitoblariga bolshevikning uyida joy yo'q!

Javlon zaharli jilmayish bilan Erkinga tikildi:

— Shunaqami? Yaxshi... Ammo sendan so'raganim yo'q, tirrancha, sen gapga aralashma... Xo'sh, demak, kitoblarni yoqqansiz? Eringiz qaerda, uni yoqmagandirsiz, a?

Erkin ham, onasi ham hangu mang bo'lib qolishdi. Bu odam hazillashyaptimi yo chin gapiryaptimi — farqlay olishmadi.

— Bu nima deganingiz... — dedi onasi yig'lamsirab. — Axir dadasi... axir o'zingiz ko'rgansiz...

— Ko'rmaganman! Ko'ray deganimda meni yulib tashlagansiz, chunki kafan ichida boshqa odam bo'lgan. Mirabbosov xalq dushmani, u adolat hukmidan qochib yuribdi.

— Haqqingiz yo'q bunday deyishga! Dadam chin bolshevik edilar!

— O'zingni bos, tirrancha! Dadangni sendan ko'ra men yaxshiroq bilaman. Mirabbosov Buxorodagi tintuvda topilgan bir xum tillaning yarmini topshirmagan. Arxivni ko'tardik. Dalillar bor. Xo'sh, qolgan tillani qaerga yashirgan? Yo uni ham yoqib yubordingizmi? Mayli, Mirabbosov xalq dushmani bo'lmay qo'ya qolsin. Bunday deyishga arzimaydi u. Mirabbosov oddiy o'g'ri. Biz o'g'rini izlab topishimiz kerak.

— O'zing o'g'risan! — Erkin o'zini tutolmay shunday deb baqirdi-da, Javlonga tashlandi. Onasi yo'lini to'smaganida uning kekirdagiga chang solishi aniq edi. Javlon bir imlagan edi, ostonada turgan askar Erkinning qo'llarini qayirib, hovliga sudrab olib chiqdi.

Qosh qoraydi, kech kirdi. Atrofga sokinlik cho'kdi. Go'yo butun shahar, butun o'lka oromga berilgan edi. Erkin shu onda boshqa xonadonlar ham tashvish o'tida qovrilayotganini, eshiklarining taqillashini xavotir bilan, yurak hovuchlab kutayotganini bilar edi. «Balki uch-to'rt uyni tintishayotgandir, — deb o'yladi u, — lekin o'lgan odamni topib berasan, deb tiqilinch qilishmayotgandir?..» Erkin ichkarida nima gap bo'layotganini bilmasdi. U odamning g'o'ng'ir-g'o'ng'ir tovushini, onasining yig'lamsiragan ovozinigina eshitardi. «Ko'milgan qog'ozlarni, kitoblarni ko'rsatsam, qorasi o'charmikin bularning», deb ham o'yladi. Keyin qog'ozlardagi biron-bir satr otasining «xalq dushmani» deb qoralanishi uchun asos bo'lishi mumkinligini anglab, o'zini tiydi. U dadasining kundaliklarini o'qigan, ayrim satrlar yod ham bo'lib ketgan edi.

*Marazing bir tarafdin, bir tarafdin xorsan millat,*

*Badandin qon oldirg'uvchi bemorsan millat...*

Otasining badnom bo'lib ketishiga shu baytning o'zigina kifoya. Uning inqilobdan avval yozilganiga qarab o'tirishmaydi. Erkin otasining qamoqqa olingan do'stlarini eslab, «Tirik bo'lganlarida dadam ham...» deb o'yladiyu, yuragi orqasiga tortib ketdi. Otasining bu charm kurtkali odamga bosh egishiga, uning oldiga tushib qo'lini orqasiga qilib uydan chiqib ketishiga Erkin chiday olmagan bo'lardi. Boshqalar qanday chidayapti ekan, nima uchun ularning yuraklari alamdin tars yorilib ketmayapti ekan?

Erkin kechasi bilan shunday o'ilar iskanjasida to'lg'andi. Tiz cho'kib o'tirgan onasini ko'rib Erkin unga talpindi. Charm kurtkali odam yo'lini to'sib, bilagini mahkam siqdi:

— Onangga achinsang, oltinlar bilan qog'ozlarning qaerdaligini ayt.

— Bizda oltin bo'lmagan. Qog'ozlarni yoqib yuborganmiz.

— Ha, yaxshi. Bu yerda bir gap chiqmaydi, shekilli. Sen men bilan ketasan. Suhbatni idorada davom ettiramiz. «Enkevede» nima ekanini bilmas ekansizlar.

— Biz o'rtoq Stalinga shikoyat qilamiz. Siz hali javob berasiz!

Javlon «Ilonning bolasi ilon, chayonning bolasi chayon», deb ijirg'andi-da, Erkinni siltab itardi. Onasi uyda faryod tortib qolaverdi.

Idoradagi suhbat eski eshikning bir me'yordagi g'ijirlashi kabi davom etib, Erkinning asab torlarini burdalab tashladi. U odam uydagi o'sha savollarni erinmay, bir xil ohangda takrorlayverdi. Erkin ham bir xilda javob qaytaraverdi. Oqshomga borib ikkovi ham o'larday charchadi. Oqibat — Erkin qamoqxonaga, Javlon esa uyiga yo'l oldi...

«Oyim nima qilishni bilmay o'tirgandirlar, — deb o'yladi Erkin. — Og'zim quriyapti, suv so'rasammikin? Nima deb so'rayman? Shulardan so'raymanmi?..»

Erkin uvadaga o'ranib, ochlikdan sillasi qurib o'tirganida onasi qamoqxonada atrofida zir qaqshab yurgan edi. Kunduzi ichkaridan tayinli bir gap chiqmagach, uyiga qaytib osh pishirib, tog'orachaga suzib kelgan, bir «insofli odam» bu oshni Erkinga berib qo'yaman, deb olganicha dom-daraksiz ketgan edi. Ona bechora «o'g'lim och qolmaydigan bo'ldi», deb bir oz ovungan, tog'orachadagi oshning shu devor ortida uch azamat tomonidan ishtaha bilan yeyilganidan bexabar edi.

Qosh qorayganda Javlon chiqdi. Onaning: «Bolam qani?» degan savoliga «So'roq tugamadi», deb to'ng javob qaytardi-yu, avtomobilga o'tirib jo'navordi.

Ertasiga ertalab qo'ng'ir binoning sovuq devoriga suyanib, mudrab o'tirgan onani ko'rib uni chaqirdi.

— «Enkevede» bilan o'ynashmang, devdim-a? — dedi u po'pisa ohangida. — O'jarlik qilmang. Bolangiz meni haqoratlad. Ilonning bolasi ilon, dushmanning bolasi dushman. Uchlikning hukmi bilan uzoqqa ketadi. O'ylab ish qiling. Esingizni yig'sangiz, qutqarib qola olasiz.

— O'g'limni bir ko'ray.

— Mumkin emas. Qog'ozlarni qaerga yashirgansiz, oltinni-chi?

— Axir aytdim-ku?

— O'ylang, kechgacha o'ylang.

Ona yana ikki o't orasida qovurilib qolaverdi. Axir u nimani o'ylaydi? Eri qaro yerda yotgan bo'lsa. Uni tiriltirib olib kela olmasa... Tiriltira olganda ham bu bedavoning qo'liga topshirarmidi? Nima uchun topshiradi, nima gunohi bor ekan u sho'rlikning? Eski zamonda necha o'limdan qolgan edi, bu zamonda o'lib ham qutulmasa... «Oltinni topib ber» deydi. Oltinning nomini eshitishgan, o'zini ko'rishmagan bo'lsa... Ortiqcha besh-o'n tangalari bo'lganda to'ng'ichlarini omon saqlab qolishmasmidi? Yigit yoshida bu dunyodan hech nima ko'rmay ketdi bechora. Paxta terimiga chiqib, o'pkasini shamolga oldirib qo'ydi-yu, o'nglanmadi, qiynalib jon berdi. Ota boyaqish yurtim, xalqim deb yuravergan ekan. Boladan ajraldi-yu, yurti, xalqi u yokda qolib, o'z joni ham ko'ziga ko'rinmay qoldi. Ustidagi motam kiyimini yechmay, bolasi ortidan ketdi.

«Erkinjon, bolam, onang men bilan turmush qurib ro'shnolik ko'rmadi, sen uni o'ksitma». Uning ketar chog'ida vasiyati shu bo'ldi. Ana endi onasini boshida ko'tarib yurishi, noxush shamollardan asrashi, bu mushtiparga baxt nima ekanini anglatishi zarur bo'lgan farzand shu sovuq g'ishtin bino ichida o'tiribdi. Nima qilyapti u yerda, uni qiynashyaitimikin, yo... Shu fikrning o'zidanoq ona yuragi potirib, yorilib ketay dedi.

Kechgacha o'ylashi kerak... Ko'milgan qog'ozlarni, kitoblarni berib yuborsa qutularmikin? Yo nimaga berkitgansanlar, bir ayblaring bor, deb yana battar qilarmikin?

Ona nima qilarini bilmay turganida, katta eshik ochilib, bir askar ko'rindi. U yoq-bu yoqqa alangladi-da, so'ng unga yaqinlashdi.

— Mirabbosova senmisan? — dedi u dag'dag'a ohangida.

— Menman.

— Uyingga jo'na. Hali kechqurun borishadi. Jilmay o'tir. Buyruq shunaqa.

— O'g'lim... O'g'lim-chi?

— O'g'lingni bilmayman. Bor, jo'na.

Ona uning ko'zlariga umidvor nigoh bilan boqib, jindek bo'lsa ham mehr izladi. Yo'q, mehr topmadi. Bu askarning qarashlari sovuq, ko'z kosasiga ikkita muz parchasi solib qo'yilgandek edi.

Ona undan uzoqlasha boshladi. Oyoqlari toshday zil, bosishga majol yo'q edi. U ancha vaqtgacha orqadan ovoz kelib: «Hoy, ona, to'xtang, hazillashuvdim, hozir o'g'lingiz chiqadi, birga ketasizlar», deyilishini kutdi. O'n-o'n besh qadam yurgach, ilinj bilan orqasiga o'girildi. Muz ko'zli askar ko'rinmadi... «Nimaga borishadi, nimaga kechqurun borishadi?» degan savol uni turli xayol ko'chasiga yetakladi. Uyiga yaqinlashgach. «Erkinjonimni qo'yvorishgan bo'lsa uyda kutib o'tirganmikin?» degan xayol chaqmoqday yarq etib, zulmat ko'ngliga yorug'lik berdi. Zil-zambil oyoqlari hatto yengillashganday tuyuldi. Shoshib eshikni ochdi. Hovlidan Erkinning «Oyijon!» degan ovozi eshitilganday bo'ldi. Onaning yuragi yana portladi. Nafasi qaytib, ko'zi tindi. Erkini, Erkinjoni yana bir «Oyijon!» dermikin, deb kutdi. Yo'q, hovli huvillab yotardi. Ona uyiga sig'may ko'chaga chiqdi. O'zi bilmagan holda akasinikiga qarab yurdi. Akasi uyda ekan. Uni sal cho'chibroq qarshi oldi.

— Nimaga kelding, bunaqa paytda uyda o'tirish kerak. Orqangdan odam tushgan bo'lsa... — u shunday deb ko'cha eshikni qiya ochib, tashqariga mo'raladi.

— Oyimni olib ketaman. Kechqurun kelisharkan. Yolg'izman, — dedi ona sinq ovozda. Bu yerga u dalda ilinjida kelgan edi. Akasining qo'rqayotganidan bildiki, daldaga umid qilish — cho'kayotgan odamning xasga yopishishiday bir gap. O'z akang shunday qilayotgandan keyin...

Kampir qizini bag'riga bosib, ho'ng-ho'ng yig'ladi.

— Kecha oqshom eshitganimdan beri adoyi tamom bo'ldim, boray desam, akang qo'ymaydi. Zamon og'irla-shib ketganmish, nima qilay, qon yutib o'tiraverdim.

— Kechqurun kelisharkan, yolg'izman.

— Boraman, bolam, boraman.

— Sen ketaver, birga yurmanglar. O'zlari boradilar, — dedi akasi.

Ona qamoqxonadan uzoqlashayotgan damda qo'llarini orqasiga qilib olgan Erkin Javlonning xonasiga kirib kelgan edi. Javlon yigitchaning ko'zlaridan nimanidir uqmoqchi bo'lganday qattiq tikildi. Erkinning ko'zlarida uyqusizlik, ochlik azobi zohir edi. Javlonga xuddi shu kerak: azobga bandi bo'lganmi, yo'qmi — shuni bilish istagida tikilgan edi. Izlaganini topib, yuziga g'olib odamning masrur kulgusi yugurdi.

— O'tir, onang ovqat olib kelibdi, yeb ol, — dedi u muloyimlashib.

Erkin stol ustidagi tunuka kosa, bug'i ko'tarilib turgan sho'rva, bir burda nonni ko'rib, yutindi. Lekin sir boy bergisi, bu odamning marhamatidan foydalangisi kelmadi.

— Qornim to'q, — deb yuzini chetga burdi.

Javlon unga yaqinlashib bo'ynidan ushladi-da, stol tomon itardi.

— O'tir, yeb ol, tirrancha! Senga kim qo'libdi arazlashni. Qorningni to'yg'azib, savolimga javob beru jo'nab qol, onang kutib turibdi ko'chada.

Erkin o'tirib, qo'lga qoshiq oldi. Sho'rva tomog'ini kuydirib o'tdi. Sho'rva sho'r edi. «Mayli, bir-ikki qoshiq ichay, yana sulayib qolmay», deb o'yladi u. Shu payt askar yigit qaynab turgan samovar olib kirib qo'ydi. «Choy ham berarkan», deb ko'nglidan o'tkazdi Erkin. «Yana bir qoshiq, keyin ichmayman...» deb o'tirib kosani bo'shatdi. Shundan keyin ichi yona boshladi. «Bu odam choy damlaydimi?» deb kutdi. Javlon samovarga qarab ham qo'ymadi.

— Qorning to'ydimi? Endi ayt: otangning qog'ozlari; kundaliklari qaerda?

— Yoqib yuborganmiz.

Kechagi savol-javob, kechagi tomosha qaytadan boshlandi. Yo'q, tomosha kechagiday emasdi. Erkinni kechagi dadilligi tark etgan, aksincha uyqusiz ikki tun, ochlik azobiga qo'shilgan tashnalik hukmini o'tkaza boshlagan edi. U o'zini arang tutib turardi.

— Dadangning kundaliklarini o'qiganmisan?

— Yo'q.

— Unda nimaga yoqding?

— Keraksiz qog'ozlar deb o'ylabman.

— Bekor aytibsan, o'qigansan. Bu kundalik otangni xalq dushmani sifatida fosh qilishini bilgansan.

— Otam dushman emas edi! — Erkin shart o'rnidan turdi. Lekin Javlon uni yelkasidan changallab,

joyiga bosib o'tqazdi.

— Men o'qiganman, otangning kundaligini. Esimda turibdi. «Xalq nochor, xalq yupun, xalq o'lim to'shagidagi bemor. Bunga sabab yumshoq o'rinda kekirib o'tirgan o'rtoqlarning dumba chaynab chandirni xalqqa otishi, qaymoq yalab, shildir suvni xalqqa berishi, palov oshalab, yuvindini xalqqa ravo ko'rishidir...» deb yozgan otang. O'qigansan, a? Ha, o'qigansan. Bunaqa gapni faqat dushman aytadi. Qani o'sha kundalik, qaerga yashirding? Yoqib yuborganingga ishonmayman, baribir topaman. Sening teringga somon tiqaman, onangni oyog'idan osaman! Ayt!

— Yoqib yuborganmiz...

«Hozir shunday sayratayki...» Javlon samovar qopqog'ini ochib tomizg'ichga qaynoq suv to'ldirdida, Erkinning orqa tomoniga o'tdi. Yigitchaning boshiga bir tomchi qaynoq suv tomizdi. Kutilmagan og'riqdan Erkin sakrab tushdi. Qaynoq tomchi miyasidan kirib tovonidan chiqqanday bo'ldi. Javlon uni yelkasidan bosib joyiga o'tqazdi. Yana bir tomchi tomizdi. Erkin bu safar dod deb yubordi, Dahlizda kutib turgan askar ichkari kirib Erkinning qo'llarini stulga bog'ladi. Javlon bir oz fursatdan keyin yana qaynoq suv tomizdi. Erkin bu azoblarga uzoq dosh ber olmadi — hushidan ketdi.

Erkinni ikki askar suyab olib chikdi. Javlon uning orqasidan qarab zaharxanda bilan «Tirrancha!» deb qo'ydi-da, telefon dastagini ko'tardi.

— Vadim Alekseevich, tergovni tugatdim, Mirabbosovning xalq dushmani ekani tasdiqlandi. Ha, bolshevik niqobida yurgan. O'n to'qqizinchi yilda Buxoro amiri bilan shaxsan uchrashgan. Shundan beri Sovet hokimiyatiga qarshi pinhona kurashib kelgan. Siri fosh bo'lishini bilib o'zini o'zi o'ldirgan. O'g'lining ozodlikda qolishi sovet hokimiyati uchun g'oyat xavfli. Qarashlari aksilingilobiy... ha, ashaddiy millatchi... Fikrimmi?.. Yigirma besh yildan kam emas... Ha, uchlikning hukmini tayyorlab qo'yaman.

U trubkani qo'ygach, chuqur tin oldi. «Bir vaqtlar mening urug'imni quritmoqchi edi. Sal vaqtliroq o'ldi-da, urug' quritish qanaqa bo'lishini ko'rardi», deb o'zidan-o'zi quvondi-da, «Millatchi unsur Erkin Mirabbosovni yigirma besh yil ozodlikdan mahrum qilish» haqidagi uch kishidan iborat hay'atning qarorini yoza boshladi.

Erkin muzday xonada o'ziga keldi. Qaddini ko'tarib boshini ushlab ko'rdi. Charm kurtkali odam, nazarida boshiga o'tkir mixlar qoqqandek edi. Erkin boshida og'riq sezmedi. Ammo dam o'tmay tashnalik azobi burovga oldi. Ko'ragini muzday toshga berib yotdi — halovat topmadi. O'rnidan turdi. Yuzini devorga bosdi – orom ololmadi. Soqchini chaqirib, suv so'ramoqchi bo'ldi. Yarim yo'lda to'xtadi. «Bularga yalinmayman!» deb orqasiga qaytdi. Quloqlari ostida suv jildiraganday bo'ldi. Ko'ziga qizlarning qirqkokiliday bilinglayotgan, qizg'ish o'tlarni o'ynatib oqayotgan ariqdagi zilol suv ko'rindi. Ko'zlarini chirt yumib, quloqlarini kafti bilan berkitdi. Shu ahvolda uzoq o'tirdi. Azoblarni eslamaslikka, boshqa voqealarni o'ylashga harakat qildi. O'ylari aylanib kelib, so'roqqa taqalaverdi.

Shuncha azoblar yetmaganday ko'ngli behuzur bo'lib o'qchidi. Qorni burab og'rib, bukchayib qoldi. Ko'z oldiga yana qonli daryo kelib, qamoqxona shu daryodagi pachoq kemaday chayqala boshladi. Keyin zimiston bag'riga otildi. Shunda o'zini sal yengil his qilganday bo'ldi. Ammo bu hol uzoq cho'zilmadi. Ko'zini ochib yaia sovuq devor, temir eshik, temir panjarali darchani ko'rdi. Ichaklarini bir nima yondirganday bo'ldi. Tomog'i, og'zi quridi. Qulog'i ostida shildirayotgan suv dam o'tmay sharshara kabi shovulladi. Ariq kengayib anhora aylandi. Anhorning zilol suvlari ko'pirib, toshib, qamoqxona tomon oqa boshladi. Darvozalarni buzib kirib, temir panjarali darchaga yetib keldi. Erkin beixtiyor ravishda tepaga qarab, og'zini ochdi. Ko'ziga ko'ringan suv anhordan oqib kelgan emas, balki xayolidan toshib chiqqan edi. Buni anglab so'kindi. Devorga alam bilan musht urdi. Avvaliga tiz cho'kib o'tirdi. Keyin ichi kuygandan kuyib bir oz orom olarman degan maqsadda yalang'och ko'ragini sovuq toshga bosdi. Ichidagi olov alangasi pasaygandek tuyuldi. Endi yuzini ham toshga qo'ydi. Nazarida, tosh nam edi. Tilini chiqarib, toshni yaladi. Bu ham ozgina muddatgina foyda berdi. Ichidagi otash toshdagi muzdan g'olib keldi. Erkin endi soqchini chaqirib suv so'rashni o'ylamas edi. Charm kurtkali odam bilan bo'lgan suhbatlarini ham eslamasdi. U azob to'lg'og'iga butkul bandi bo'lgan edi. U tosh ustida tipirchilay-tipirchilay holdan ketdi. Tashnalik ham, ichaklarining burab

tortishi ham barham topganday tinchidi. Ma'nosiz boqayotgan ko'zlarini temir panjarali darchaga qadadi. Uning og'zi yemish kutayotgan polapon og'ziday ochiq edi. Og'ir mehnat qilib horigan odamday kalta-kalta nafas olar edi.

U darchaga qarab najot kutardi. Temir panjaraga parvo qilmay yorib kirayotgan yorug'lik bilan nahot najot ham kirmasa, nahot bir tomchigina suv tushmasa? Onasi ko'chadamikin? Baqirsa eshitarmikin? U baqirmoqchi edi — ovozi zaifgina hirqiradi. Boshi aylanib, ko'zlarini yumdi. Ko'zini ochib... temir panjara ortida akasini ko'rdi. Qaldirg'och mo'ylov yarashib turgan o'sha mehribon chehra. O'sha beg'ubor jilmayish...

«Ukajonim, senga nima bo'ldi?» «Akajon, suv bering, yonib ketyapman». «Bir hovuchgina olibman suvni, ma, ich...» Derazadan tushgan suv tosh ustiga to'kildi. Erkin og'zini ochganicha qolaverdi.

«Nimaga keldingiz, aka? Axir siz...» «Seni qiynashayotganini bilib keldim oldingga. Qiynashsa ham aytma. Dadamni badnom qilishmoqchi bular. Kundalikdagi gaplarni bilasan-ku?»

«Bilaman. Odamlar bekordan-bekorga quloq qilinyapti, odamlar bekordan-bekorga azobga tortilyapti, deganlar. Bular meni o'ldirishsa o'ldirishsin, lekin sir olisholmaydi.»

«Ha, o'lsang o'l, ammo aytma. Sen erkaksan. Ular sendan qo'rqishadi. Shuning uchun qiynashayapti. Sen chida, men yana suv olib kelaman...»

Akasi ko'rinmay qoldi. Erkin ko'zlarini yumdi. Akasining ovozini yana eshitib, ko'zlarini yalt etib ochdi. Akasi hovuchidagi suvni to'kdi. Suv pastga yetib kelmadi, zarralarga bo'linib, sochilib ketdi.

«Aka, sizlarning oldingizga borgim kelyapti, nima qilay?»

«Kela qol, ukajonim. Dadam ham aytib yubordilar. Sen bilagingni tishla, tomiringni uz. Shunda bizning oldimizga hur qush bo'lib uchib kelasan. Bo'laqol, kutyapmiz seni...»

Erkin ko'zini yumib ochdi, akasi ko'rinmadi. Bilagini asta tishladi. Joni og'rib, qo'lini tortib oldi. Badanidagi og'riqlar qo'zg'alib tosh ustida tipirchilay boshladi. Shunda akasining gaplarini eslab, jon achchig'ida bilagini tishladi — bu safar og'riq sezilmadi. Tishini qattiqroq botirdi. Aql-hushini yo'qotgan Erkin bilagini shartta-shartta tishlab tashladi. Tomiridan otilgan iliq qon yuziga tegib ko'ngli behuzur bo'ldi. Ko'z oldidagi daryoda qon mavj urdi. Mavjlar ustida qamoqxona, qamoqxona ichida Erkin chayqaldi. Chayqala-chayqala hushidan ketdi. U akasi aytganday yengil uchdi. Ucha-ucha dadasi tomon yo'l oldi.

Bu onda Javlon ularning hovlisida itning yog'och uyini surdirib, xumni kavlatib oldirdi. Qog'ozlar ichidan keraklisini topib ko'ngli ravshanlashdi, «Javlon Jabborov unsurlar to'dasi bilan yashirin til bog'laganini bo'yniga oldi. Aybini qon bilan yuvishga ont ichdi. Hay'at uning qasamini inobatga olib, bolsheviklar safida bir yillik sinov muddati bilan qoldirdi. Majlis raisi Mirabbosov... 1919 yil».

— O'g'lim qachon keladi? — dedi ona Javlonga umidli nigohini qadab.

— Kut, keladi, — dedi Javlon e'tiborsiz ohangda. Keyin qog'ozlar, kitoblar bog'lamini ko'targan askar yigitlar orqasidan yurib, ko'chaga chiqdi.

Ertasiga hovli huvilladi. Tongda onani ham olib ketdilar.



## JAJMAN

— Yomonning kuchi men yapaloqqa yetibdi-da!.. H-ah, sag'irri haqqi ursin-a!

Tong sahargi bu alamli qarg'ishdan tim ichi oyoqqa qalkdi. Rasta ustida, ostida, qop-qanorga yonboshlab omonat uxlab yotgan keksayu yosh turshakfurush, yong'oq-furush, mayizfurush, iistafurush va hokazo furushlar uyquli ko'zi bilan apil-tapil yon-verini paypaslay ketdi, ko'ngli joyiga tushganlar birin-sirin oh chekayotgan juvon tevaragiga to'plana boshladi. Ham-dardlar ham topildi:

— Ko'p obdeme? — so'radi ulardan biri shang'illab.

— Qopni yarimlatib ketibdi, — deb piqilladi juvon,

— O', xotintaloq!..

— Shu ayoldi mayizini yeguncha tili o'yilib tushsin-a.

— Nechchi qopidi, opoy? — chiyillab so'radi yana birovi.

— Bir qop... idi... yetimchalar nasibasidan qayirib opkelgandim.

— Qo'lga tushirib, manashi tim shiftiga osish ke-rak! — dedi boshqasi dag'dag'a qilib.

To'dadan chekkaroqda boshini solintirib turgan Zardusht bobo, biron yerda pusib yotgan o'g'ri-kazzobning giribonidan olishiga imoni komildek, vazmin odimlab timning etagi tomon yurdi, ikki yoni keta-ketguncha cho'zilgan rasta oralab borayotib, kunda-shunda bozorчилarning mudrab-kerishib zo'r-bazo'r uyg'onayotganini kuzatganicha o'yladi: «Hamma o'zi bilan ovora... tiriklik tashvishi... sotish, sotish, sotish... uyum-uyum pista, bodom, turshagu mayizni sotish, pulga chaqish rdida bari...» Bobo beixtiyor ustma-ust taxlangan qop-qanor cho'g'ini chamaladi, yana picha yurdi, so'ng sotuvchi ahli siyraklashgani bois tim odog'iga — devorga yetmay iziga qaytdi. Qaytayotib... orqa tomondan kimdir devorni mushtlayotgandek zaif gursillagan tovushni eshitdi. Bobo qordek oppoq soqolini tutamlab quloq osdi, hiyla shu ko'yi tek turgach, ortiq e'tiborini bo'lmay jabrdiyda juvon tashvishida kelgan yo'lga qaytdi.

Boboning rastasi timning boshlanishida — darvoza biqinida edi — u notayin xayollarga chalg'ib joyiga keldi-da, qoplaridan birining og'zini ochib, sara mayizdan qiyiqchasiga uch-to'rt kaft soldi, olib borib juvonning yarimlagan qopi ustiga qo'ydi. Boboning izidan mayiz keltirib to'kuvchilar qatorlashdi. Ular o'limdek bedavo kuch oldida o'z ojizliklarinn tan olgandek, juvonga so'zsiz hamdardlik izhor qilishar va boshlarini quyi solintirganicha izlariga qaytishardi.

Zardusht bobo rastasi yoniga to'shalgan ko'rpachaga o'bdon joylashib cho'k tushayotib, bir narsadan xavotirlangandek: «O'zing madadkorsan, Axuramazda...» dedi shivirlab. Shivirlagani zamon soch-soqolidai, quyuq qoshlaridan nur taraldi — yon-atrofiga bir zum fonus yonib o'chgandek bo'ldi... To'satdan uch-to'rt ustun narida kap-katta erkak kishi beo'xshov do'rillab faryod ko'tardi:

— Uyim kuyde!.. Xudo urde!..

Boyagi bezovtalikdan so'ng hiyla tinchib qolgan timda yana g'ala-g'ovur ko'tarildi. Yaqin-atrofdagilar, jabrdiyda juvonga yordam berib qaytayotganlar gurillab dod solayotgan kishi tepasiga bordi. Ellikni urib qo'ygan, bo'rdoqiga boqilgan qo'ydek biqqi semiz turshakfurush alpang-jalpanglab emaklaganicha qavat-qavat to'shalgan ko'rpachalarni itqitar, nuqul, «Yo'q!.. Yo'q!.. Shilib ketibdi!», der, lekin yo'qotganini topishdan umidvor shekilli, qalt-qalt titrayotgan qo'llari bilan ko'rpachalarni qayta-qayta ag'dar-to'ntar qilishdan tinmas edi.

— Qanchaydi, Qamchevoy? — so'radi shinavanda bozorчилardan biri.

— Yestuk ostuga... yostug'di ostuga qo'ygandim... — deb g'o'ldiradi turshakfurush boshini ko'tarmay.

— Qanchaydi, deyopman? — chiyilladi boyagi kishi.

— Anchayde... man sanamagan... bir dasta edi!..

— Ol-a!

— Barakalla-e, Qamchi-e, yostikdi ostiga ham pul qo'yadime, inson! A, bu...

— Yostiqning ostiga qo'yadimi, ustigami, bu — har kimning xohishi. Ammo-lekin pulni oldirganimiz emas, allaqanday zig'irchanning ta'zirini berib qo'yayolmayotganimiz alam qiladi odamga!

«Nuringni darig' tutma!...!» deb yubordi Zardusht bobo o'ziga-o'zi gapirayotgandek va aft-angorini ko'rmasa-da, gap boshlagan So'zamol yong'oqfurush yigitni ovozidan tanib. «Ota yong'oqfurushning o'g'li...» degan o'y kechdi xayolidan. Yigit astoydil yonib-kuyib gapirayotganidan xaloyiq sukut saqlab uning og'ziga angraygan edi.

— Kecha ikki sho'ring qurg'ur pulini o'g'irlatdi, — dedi So'zamol yigit, — ilgari kuni kuppakunduzi bir xalta xandon pistani oldirdik, kecha — pul, mana, bugun yana... iya, muttahamlik ham eviminan-da! «Vey, yaxshilar, ko'zni ochaylik!» deydi biron zamonlik mard yo'g'-a!..

Xayolga cho'mgan Zardusht boboning ko'ksiga tushgan soqoli sezilar-sezilmas titradi...

...Sahar edi, g'ira-shirada tahoratlanib olgach, timirskilanib-paypaslanib rastalar orasidagi yo'lakchadan o'tayotganida ikki gaz narida allaqanday sharpa g'imirlaganini payqadi. Tikildi, ko'zi ilg'amadi. Joyiga qaytib cho'k tushdi — boshini tizzasiga solintirib ko'zini yumganicha sukutga ketdi. Har kungi odatiga binoan, mo'ysafid xayollarining jilovini bo'shatdi... «Hademay, tong otadi, olam nurga to'ladi... Odamlar uyg'onadi, bozor uyg'onadi... tim darvozasi lang ochiladi, g'ala-g'ovur boshlanadi... tumonat toshib-shoshib oqib kiradi, oqib chiqadi... sotuvchi keladi, xaridor keladi, bekorchi keladi... chumoli bo'lib keladi... chumoli bo'lib chiqadi... oyoqlar tinmaydi, qo'llar tinmaydi, og'izlar tinmaydi... kiraveradi-chiqaveradi, kiraveradi-chiqaveradi... olayotgan pulim deydi, sotayotgan molim deydi... tirikchilik bani basharning tumshug'idan jilov o'tkazib yetovga soladi... «bozor» deya atalmish tovagasolib aylantiradi, aylantiraveradi... qumursqa tutganini changallaydi, tutganini iniga ta-shiydi, tashiyveradi... olish-sotish, olish-sotish, olish-sotish... qo'lga, tilga ilnngan nima narsa borki, sotiladi... yo, alhazar, Axuramazda!.. Ojizlar olovga muhtoj, Axuramazda!..

Zardusht bobo cho'yandek og'irlashgan qovoqlarini arang ko'tardi, yonboshida turgan qopga qo'l suqib bir kaft mayiz oldi, uni hovuchidan hovuchiga shopirib o'tirdi-o'tirdi-da, yuz bir uqubatda qo'zg'aldi. U yer-bu yerda g'imirlay boshlaganlar sharpasini ilg'ab, «Yaxshilar toblansinlar... Yaxshilar poklansinlar», deb iltijo qildi va rasta oldiga aylanib o'tayotib ikki ustun narida...

— Yopiray! — deb yubordi shoshganidan. U turgan joyida qotib qoldi, irodasini jamlashga urinib ko'zini pirpiratdi — bo'lmadi. — O'zing madad ber, Axuramazda!.. — dedi pichirlab. — Ne jondorga ro'para qilyapsan, Axuramazda?!

Bobo bo'y-basti bir qarich chiqmaydigan ajabtovur bir maxluqni ko'rib xuddi irkit narsaga ko'zi tushib, nigohi bulg'anganday birdan seskangan va ko'ngliga xatarli bir ko'laga soya solgan edi, nafasi bo'g'ziga tiqilib ovozi chiqmay qoldi.

— Jajman!.. Timga Jajman oraladi, yaxshilar! – deya oldi bazo'r.

Zardusht boboning nazarida otimdoshlari hoziroq oyoqqa turadiyu anov maxluqni tutib tilka-pora qiladigandek, supurib-supirib timdan chiqarib tashlaydigandek edi, lekin timning burchak-burchaklariga urilib-qaldirab qaytgan boboning ovozi hech kimning qulog'iga kirmadi. Bobo hushini yig'ib ovozining boricha hayqirmoqchi — odamlarni halokatdan boxabar qilmoqchi edi — shu choq maxluqning qilig'iga ko'zi tushdi-yu, ang-tang bo'lib qoldi — bobo inson zotining ko'zi ko'rib, qulog'i eshitmagan hodisaning shohidi bo'layotgan edi.

Maxluq rasta ustidagi mayiz yoniga obdan no'k tushib olganicha lagandagi oshga qo'l cho'zayotgandek bemalol mayizdan tushirar, damodam qornidagi qopchig'iga bir kaft-ikki kaft tashlab ham qo'yardi.

Bobo hiyla mahal maxluqni kuzatdi, uning qo'li-og'zi tinmas, lekin hali-veri to'yadiganga ham o'xshamas edi. Uning qandoq qilib birovning mayizini tortinmay-netmay paqqos tushirayotganidan bobo hayronu lol bo'lganicha, ko'zlariga ishonmas, xayolida esa: «Bu qanday maxluq o'zi? Bu qanday maxluq?», degan savol charx urardi.

Bobo xayolga chalg'ib, maxluq qachon va qanday qilib yerga tushganini payqamay qoldi, faqat uning sakrab-irg'ishlab darvoza tomon borayotganini ko'rgachgina, hushini yig'di. Bobo shundagina bu g'aroyib jondorning basharasini aniq-tiniq ko'rdi — maxluqning ko'zi, qulog'i, tumshug'i dam

sichqonnikiga, dam tulkinikiga o'xshab, tinimsiz tovlanar edi... «Olmaxon-ku!», deb yubordi ichida bobo va shu zahoti boshini chayqab «Tulkiminan sichqondan tarqagan ko'rinadi», degan xayolga bordi, birpas jim qolgach esa, «Qorni kenguruniki...», dedi pichirlab, lekin maxluq qaddini rostlab ikki oyoqlab borayotganini ko'rib, «Yo odamdan tarqaganmikan?!», deb o'yladi va beixtiyor shak keltirib qo'ygandek shoshib yoqasiga tupladi...

Oradan allaqancha kun o'tdi, qoq peshin chog'i turshakfurushlar qatorida qiy-chuv ko'tarildi. Olomon guvillab o'sha yoqqa yopirildi. Yopirilgani sayin bitta-yarimta «Nima?», «Nima o'zi?», «Tavba-a!», degan uzuq-yuluq tovushlar eshitilib turdi-da, birdan g'ala-g'ovur tindi.

— Tutamiz, tutamiz! — deb baqirdi pistafurushlardan biri hovliqib.

— Tegma, tegmay tur! Ko'raylik-chi! — deb uni shashtidan qaytardi turshakfurush chol.

— Hay, nima o'zi bu? — deb chiyilladi qora choponli mo'ysafid. — Sichqonmi?

— Odam-ku?

Hangomatalab olomon vah-xaholab timni boshiga ko'tardi.

— Jim! Cho'chitib yuborasizlar!

Shu payt maxluq hurkib, qochish payiga tushdimi, qora choponli mo'ysafid «Qochmoqchi!.. Qochmoqchi!», dedi battar chiyillab.

Olomon orasida g'ovur ko'tarildi, to'rt-besh kishi yoqalashib gurPaylashayotgandek emaklay, yumalay ketdi — to's-to'polon qo'pdi, qo'pdiyu zumda hamma hovuridan tushdi.

— Qochdi! Qochdi! — degan nidolar ko'paydi.

— Qo'ling tegdi-ku! Shuni tutolmading-a! — dedi birovi o'dag'aylab.

— Qayoqqa g'oyib bo'ldi? Qayoqqa? — dedi yanayam hovliqib yong'oqfurushlardan biri.

To'dadagilar alang-jalanglab maxluq qochgan tomonni bilolmay garangsib qoldi. Ola-g'ovur pasayib, har kim joy-joyiga qaytayotganda «Tutamiz, tutamiz!», deb baqirgan pistasrurush qo'li maxluqqa tekkan kishiga yonbosh kelib, shipshidi:

— Shu qo'l bilan odamlarga bodom sotasanmi endi? Qo'ling harom bo'ldi-ku!..

Bodomfurush bu gapga ishonishini ham, ishonmasligini ham bilmay pistafurushga angraydi-yu, qo'rqqanidan afti qiyshayib ketdi. Uning ahvolini kuzatib turgan Zardusht bobo yuragi uvishib boshini tebratganicha lab juftladi, lekin hech narsa demadi...

Timdagilarga gap topildi. Yotgan ham, turgan ham o'sha maxluqdan hangoma qiladigan bo'ldi.

— Xo'-o'p g'alati narsa ekan-a? — deydi birovi.

— Biron yomonlikning alomati bo'lmasin-da, ishqilib, — deydi boshqasi yurak yutib.

— Yomonlik ham gapmi, biron balo-qazoning urug'i bo'lmasin tag'in! — deydi vahimachisi.

— Ol-a! Shu zig'ircha narsa boshlab kegan balo-qazo nima bo'lardi!.. Bu — bizga bir ermak-ku, ha-ha-ha! — deb hammaning ko'nglidagi shubha-gumonni haydab chiqardi dali-g'ulisi.

Hangomaga xaridorlar ham aralasha boshladi.

— Nonvoyxonada ham g'alati maxluq paydo bo'lganmish! — deb gap topib keldi ulardan biri.

— Qandolatchilar rastasiga burnog'i yil oralagan, nimaykanini hech zog' bilmaydi!

— Erta-indin butun bozorga tarqalarmish!..

Bunday uzuq-yuluq xabarlarni eshitgan Zardusht bobo ma'yus tortdi. Axurazmadaga imon keltirdi. «Nahotki butun bozorga tarqasa...» deb xavotirda o'tirganida tim ichida Ota yong'oqfurushning ovozi jarangladi:

— Eshitmadim demanglar! Maxluqning nomi — Jajman! Jajman!.. Eshitmadim demanglar!..

Zardusht bobo badani uvishib turgan ekanmi, seskandi. Ota yong'oqfurush jar solayotgan nomni qadimda allaqayda eshitganini, eshitgan emas, noma'lum jondorii ho-ov birinchi bor ko'rganida o'zi beixtiyor, «Jajman!.. Timga Jajman oraladi, yaxshilar!», deb yuborganini esladi... Bobo og'ir sukutga cho'mdi... «Axuramazda ayon qilibdi... Yaxshilar voqif bo'libdi», dedi u tin olib... Yaxshilik ilohining haqqiga shukronalar bag'ishladi...

Bu yokda turshakfurush tepasidagi mojaro davom etardi.

— Manashi sichqonbashara bilan kelishaylik. Yeganicha yesin, angishvonaday qorniga dunyoni

yutvormas!.. To'g'ri, kissaga tushgani yaxshimas.

Ko'sa mayizfurushting ezmalanishidan So'zamol yong'oqfurusht tutaqdi:

— Sizminan biz «yaxshi-yaxshimas» deb o'yimizga yetguncha Jajman timni emas, bozorni yeb bitiradi! — dedi u jerkib. So'ng sal hovuridan tushib, ovozin pasaytirdi: — To'g'ri, ilgari ko'zimizga ko'rinmagan, u bir siqim-ikki siqim mayiz-turshak yegani bilan kamayib qolmasdik, «esa yebdi-da», dedik. Indamadik. Keyin sezib-sezmay erkatoyimizga aylantirdik...

Zardusht boboning yuziga mayin tabassum yugurdi. Jajman sekin-asta timdagilar bilan apoq-chapoq bo'lib ketgan davrlarni esladi.

...Maxluq ko'rindi deguncha «Ma, Jajman, ma!», deb unga mayiz, pista, yong'oq tashlaydiganlar chiqdi. Jajman hech kimdan tap tortmas, xash-pash deguncha «xayr-sadaqa»ni yeb xaltasiga solib bitirar, turshakni goh danagi bilan yutib yuborar, goh qarsillatib chaqib, mag'izini chapillatib chaynar edi. Uning zig'irdek qo'li, barmoqlari, zig'irdek tumshug'iyu sichqonnikidek og'ziga, mog'or tusidagi mitti ko'zlariga qarab... bozorchi kulgani kulgan edi, bora-bora uning yeb-to'yamasligidan, ochofatligidan yumalab-yumalab kulib, vaqtichog'lik qiladigan bo'ldilar. «Uni men to'ydiraman! Yo'q, qorni yorilib ketguncha men boqaman uni!», deb bahs boylaydiganlar chiqdi, lekin har safar «To'ydiraman!», deb katta ketganlar chuv tushaverdi, Jajmaning yeb-to'yamasligi sirligicha qolaverdi...

Keyinroq Jajman birov chaqirmasa ham yerdan yorib chiqqandek paydo bo'lishni, rastaga uyulgan meva qoqisidan bemalol paqqos tushirishni odat qildi. Timdagilar bunga ham ko'nikdi, so'ng... o'sha kezlar, kim edi-ya, ha-ya, anavi So'zamol yong'oqfurushting bobosi Bobo yong'oqfurusht Jajmani «Yo'qol-e!», deb quvib soldi. Qopdagi yong'oqni qarsillatib chaqayotgan deb pichirladi, yana, yana... va to'satdan tim ichini: «O'ldiramiz!» degan xitobu da'vat tutdi.

Bunday jazoni kutmagan bitta-yarimta ...furushtlar demasa, timdagilarning bari oyoqqa qalqdi. G'ovur-g'uvur zo'raydi. Kutilmaganda izdihomdan chekkada – rasta ustida xoli o'tirgan choponli jiydafurushting zalvorli, do'rildoq ovozi qo'zg'olganlarni joyida to'xtatdi.

— Hoy, yaxshilar, loaqal bobomizdan oq fotiha olishni unutmanglar...

Shovqin o'sha zahoti tindi, oyoqqa qalqqan izdihom Zardusht bobo tomon o'girildi. So'zamol yong'oqfurusht to'da oldiga o'tib, bobodan ijozat so'rab, savolomuz termildi. Bobo ko'zlarini qisib unga tikildi, so'ng hududsiz osmonga ko'z yugurtirmoqchidek boshini vazmin ko'tarib, odamlarning boshi uzra to'g'riga — tim odog'i tomon nigoh soldi. Churq etgan sas eshitilmas, jamoat nafas olmay, boboning og'zini poylayotgan edi. Bobo ro'parasida ilhaq turgan fuqaro dardida Axuramazdaning o'zidan madad so'ramoqqa lab juftladi, lafz aytishga ulgurmay, tim odog'idagi devor ortidan... zorlangannamo gursillagan shovqin chalindi qulog'iga. Olomon uning fatvosiga ilhaq, bobo esa biron kimsa payqamayotgan bir sirli-sinoatli nola qaydan kelayotganini bilolmay garangsib sukutga cho'mgan edi... Shu choq Zardusht boboning o'siq qoshlari panohidagi nursiz ko'zlari ilkis charaqlab ketdi, bobo boshini yonboshga enkaytirib, ustun ortiga mo'raladi. O'sha tomondan «Mana! Mana!», degan shovqin ko'tarildi. Tim ichi alg'ov-dalg'ov bo'lib ketdi. To's-to'polon qo'pdi. Zardusht bobo ro'parasida hech zog' qolmadi. «Mana! Mana!», deb hayqirgan kishi shekilli, ikki qator rasta o'rtasidagi yalanglikka yugurib chiqdi-da, «Ana! Anavi qopdan oldi! Oldi!», deya qo'lini bigiz qilib ko'rsatgancha tisarilaverdi. Yordamga oshiqqanlar u kishi ko'rsatgan qop tepasiga yetib bordilar — qop og'zi ochiq edi. Qop-qanorning yon-veriga tumshuq suqayotgan uch-to'rt choqli kishining birovi, «Ana, ur!», degancha o'zini rasta ustiga tashladi. Zardusht bobo shundagina Jajmani ko'rdi, maxluq rastaga to'shalgan o'rin ustida kavagidan bosh chiqarib atrofga quloq solayotgan ko'rsichqondek alangladi-da, lip etib yana g'oyib bo'ldi.

Quv-quvchilar ko'paydi: kimdir emaklab rasta ostiga o'rmalab kirib ketdi, kimdir qop-qanorni surib-yiqitishga tushdi, uch-to'rttasi qo'lga yarimta-yurimta g'isht parchasini tutgancha alang-jalang xezlandi.

«Jajman qo'lga tushsa kerak», deb o'yladi Zardusht bobo, o'yladiyu shu zahoti fikridan qaytdi: «Bir hamlada qo'lga tushadigan bo'lsa, shu choqqacha jon saqlab yurolmasdi. Boboning keyingi farazi to'g'ri keldi: harchand quv-quvga qaramay, Jajman qo'lga tushmadi. U son-sanoqsiz olomon

tajovuziga parvo qilmay, goh u, goh bu rasta ustida paydo bo'lar, mayizmi, bodommi, yong'oq yo turshaknimi — birdek ishtaha bilan mitti yuxodek yeb, qopchig'iga tiqishtirardi. Pista uyumini sovurayotganida mushtdek g'isht parchasi uchib kelib pistani tuproqdek to'zitib yubordi. Jajman shunda ham talvasaga tushmay, g'oyib bo'ldi.

Darvoza turumi sharaqlab xaridorlar kira boshladi hamki, quv-quv to'xtamadi: semizu oriq, yoshu keksa holdan toydi. Juvon mayizini, turshakfurush pu-lini o'g'irilatganini unutdi.

— G'ishtni kim otgandi? — so'radi hars-hars nafas olayotgan shop mo'ylovli kishi.

— Men! — dedi puchuq mag'izfurush gerdayib, so'ng afsuslanib qo'shib qo'ydi: — Mo'ljaldan sal xato ketdi-da!..

Zardusht bobo timdoshlarining bolakaylardek suxanbozligidan kulgisi qistab, qo'llarini orqasiga qilganicha joyiga qaytdi, qaytayotib tim odog'iga orqa o'girib turgan bo'lsa-da, yana gursillagan shovqinni eshitdi. Yerga qoqilgandek tek turib butun vujudi quloq bo'lib tingladi: gurs... gurs... gurs... Boboga yer osti gursillayotgandek tuyuldi, beixtiyor oyoq ostiga razm soldi, quloq osdi... yo'q, gursillayotgan — odoqdagi tim devori ekanligi aniq edi...

Bobo joyiga o'tib o'tirayotib, «Darvozani ocha qolinglar» degan ma'noda qo'shni mayizfurushga qaradi. Darvoza ochildiyu tim ichi xaridorga to'ldi: g'ala-g'ovur, savdolashishlar, talashib-tortishishlar boshlandi... Zardusht bobo timdoshlariga ko'z yugurtirdi, ular go'yo hayotlarida unutilmas quvonchli voqea yuz bergandek dimoqlari chog', ruhlari tetik edi...

Ertalabki hodisa bir qancha kungacha og'izdan tushmadi:

— Jajman qaytib qorasini ko'rsatmaydi! — dedi pistafurushlar.

— O'takasi yorilib o'ldi, qanor-panorning ostidan o'ligi chiqadi endi! — dedi yonog'oqfurushlar xaholab.

— Zora qutilgan bo'lsak... — dedi jiydafurushlar umid bog'lab.

Zardusht bobo esa miyig'ida kuldi, uning nazarida Jajmanning mavjudligi kunu tunning almashinishidek muqarrar edi. U faqat bir narsadan tashvishda, «Jajman yolg'izmi, yo uning urug'i ko'pmikan?.. Yoxud, hammayoqni Jajman bosib ketsa qandoq qiladi odamlar?», degan o'yning oxiriga yetolmasdi.

Bunga ham boboning o'zi javob topdi...

Saharda odatdagidan picha erta uyg'ondi, uyg'ondiyu keyingi kunlarda kamuyqu bo'lib borayotgani, uxlash orom emas — azobga aylanayotgani mulohazasini qildi... Odamzod muzlik saltanatiga bandi bo'lmas ekan, u — hayot... «Axuramazda, o'zing madadkorsan!.. — deb shivirladi bobo astoydil. — Ixtiyor o'zingda, Axuramazda!..»

Bobo o'i og'ushida o'rnidan turdi, tashqariga yo'nalgan joyida Jajmanga ko'zi tushdi. U paxtali kamzulini yelkasiga omonat tashlab yotgan mayizfurushning ro'parasida chordona qurib o'tirib olgan, lagandagi oshga qo'l cho'zgandek bemalol uning qo'ynini kavlashtirayotgan edi. Mast uyquda yotgan mayizfurush, qitig'i keldimi, g'imirladi, ko'zini qattiqroq yumdi, maxluq esa zig'irdekkina changalida paydo bo'lgan pulni boshi uzra ko'tarib, bobosidan obakidandon undirgan bolakaydek sakrab-irg'ishlab, lekin suvarakdek sassiz-shovqinsiz yugurib darvoza yoniga keldi. Bobo hushini yig'ib ulgurmay Jajman devorga suyab taxlangan qoplarga tarmashib yuqoriga zipillab chiqib ketdi. Darvoza tepasiga yetganida o'sha yerdagi devor tuynugidan har biri sandaldek-sandaldek qo'shaloq hovuch paydo bo'ldi. Jajman qopchig'ini ko'tarib hovuchga ag'dardi, ustidan changalidagi pulni tashladi, hovuchlar shu zahoti ko'zdan yo'qoldi. Jajman g'izillab pastga tushdi...

Bobo ko'z o'ngida sodir bo'lgan voqeani xiyla fursatgacha idrok etolmadi — manglayida o'lim sharpasi yelib o'tganday yuragi orqaga tortdi... bahaybat hovuchlar, he-e, allazamonlarda — bolalik ko'zlari tushida ko'rgan, Otash momosini olib qochgan hovuchlarning o'zginasi edi...

«Odamlar, voqif bo'lingiz... poyloqchilik qilingiz. Jajmanni qo'lga tushiringiz», degisi keldi. Zardusht bobo baralla, «Jajman!.. Jajmanni tutingiz, yaxshilar!», deb hayqirganini, ammo hayqirig'ini timdoshlaridan hech kimsa eshitmaganini esladi — «ularning dilini o'zing nurafshon etgaysan, Axuramazda!», dedi...

Zardusht boboning nolalari besamar ketmadi — quv-quv avjga mingani sayin Jajman holdan toya boshladi, endi u bemaloldan-bemalol nishxo'rlik qilmas, bir cho'qib, o'n alanglar, sichqondek quv, olmaxondek epchil bo'lib qolgan, nafsi hakkalak otganidan kun-tunning farqiga bormay qo'ygandi. U to'ppa-to'satdan biror rasta ustida paydo bo'lar, sotuvchi yo xaridorlarning hay-haylab ayuhannos solishiga qaramay, yer kavlayotgan yumronqoziqdek ikki qo'llab qopchig'ini to'ldirar va odamlar es-hushini o'nglagunicha qochib ulgurardi.

«Hovuchlarni to'ldirolmay joni halak!», degan o'y kechdi Zardusht boboning ko'nglidan...

So'l qator rastadagilar har yerga kalamush qopqon qo'ydilar, uni ko'rgan o'ng qator rastadagilar, «Jajman qopqonga tushmaydi», degan xayolda teshik-tuynuk borki, sim to'r qoqib tashladilar. Bozor egalari yuborgan oq xalatli xaloskorlar kuni bo'yi savdoni to'xtatib qo'ydi, sotuvchiyu xaridorlarni tashqariga haydab, tim ichini qo'lansa isga to'ldirdi. «O'n yilgacha Jajmanning qadami uziladi endi!», degan ovozalar tarqaldi, uch-to'rt kungacha odamlar og'iz-burnini yopib jon saqladi. Jajman esa... timdagi bexalovatliklarning o'ziga daxli yo'qdek o'sha-o'sha — kechani kecha, kunduzni kunduz demay o'marishdan toliqmasdi, yeldek paydo bo'lib, birovlar qo'lidagi pulni yulqib qochar, uning izidan ushla-ushla, ur-sur boshlanar, natija esa hamishadagidek: Jajman osongina qutulib ketardi...

— Sim to'rning katagidan sirg'alib o'tdi-ya! — deydi birovi.

— O'z ko'zimminan ko'rdim! — deydi uning gapini tasdiqlab boshqasi, — xamirday cho'zildiyu zulukday sirg'alib o'tdi-ketdi!..

— Qo'lim qopchig'iga tushib yirtvoray dedi-ya, attang! — deydi yana birovi hovliqib.

— Kimda-kim qo'lga tushirsa, beminnat hadya bor! — deb qoldi So'zamol-yong'oqfurush.

— Beminnat hadya!..

— Mukofot!.. Mukofot!..

Og'izdan og'izga ko'chayotgan bu xitobu hayqiriqlar orasidan Zardusht bobo qulog'iga gursillagan tovush hiyla balandroq, aniqroq eshitila boshladi. «Vaqti-soati yaqin...», dedi pichirlab bobo. Va rastasi ustida Jajmanni ko'rib, soqoli asabiy titradi... Jajman sara soyaki mayizdan bir kaft olib og'izga tashladi, shimdi... Bobo uning guruchdek mayda, sadafdek tekis tishlarini aniq-tiniq ko'rayotganidan ko'ziga ishonmasa-da, jondorni qiziqib bosh-oyoq kuzatdi. — Jajman o'lar holatda oriq, qo'l-oyog'i gugurt cho'pidek qiltiriq, faqat u chunonam shiddat bilan harakat qilar, hash-pash deguncha mayiz uyumining biqinini o'pirib tashlagan edi.

«Yeganingcha yeyaver-chi...» dedi bobo shivirlab. Jajmanni cho'chitib yubormaslik uchun, so'ng maxluq jon holatda qopchig'ini to'ldirishga tushganini ko'rib beixtiyor kulimsiradi, «Nafsing buzilgani, kuning bitganidanmikan?...», deb so'radi. Jajman boboni mazax qilgandek tirjaydi, aslida u talvasaga tushgan — behad oshiqayotgan edi...

Bobo kuni bo'yi saralagan mayiziga achinmay qo'ygandek edi hamki, rastaning old tomonidan pusib kelgan yon qo'shnisi sapchib qad rostladi-yu, «Ho', otangni!..», deganicha o'zini mayiz aralash Jajmanning ustiga tashladi, yana ikki davangirdek mayizfurush uning ustidan yopirildi. « Jajmanning abjag'i chiqdi!», o'yladi bobo.

— Qochdi! — dedi bo'shashib qo'shnisi.

— Qandoq qochdi?..

— Qayoqqa qochdi?!

Jajmanning ustiga tashlangan mayizfurushlar shunday deb yon-veriga alanglay ketdi. Qo'shni mayizfurush ko'zlarini olaytirib boboga yuzlandi:

— Ko'rdizmi? Ayting, qayoqqa yo'qoldi?! — deb so'radi u bo'g'ilib.

Zardusht bobo miyig'ida kulimsirab turaverdi.

— Gapirsangiz-chi, qayoqqa yo'qoldi?! — dedi azbaroyi jon-fig'oni chiqqanidan o'shqirib qo'shnisi.

Bobo avzoini buzmadi, qomatini adl tutib, ro'parasida to'dalanganlarga so'zsiz qarab turaverdi. To'da kattalashdi. Qo'shni mayizfurush boboning betiga ortiq tik qarolmay, ko'zini olib qochganda, uning yonida paydo bo'lgan pistafurush g'azabini yashirolmay o'dag'ayladi:

— Baribir tutamiz!.. Siz ko'maklashmasangiz ham bu ablahning urug'ini qurutamiz!..

«Haroringni darig' tutma, Axuramazda!.. Ko'ngillarni o'zing munavvar qilgaysan...», dedi Zardusht bobo ichida iltijo qilib. Uning ko'ksidagi tavalloni tim odog'idagi devorning gursillashi bosib tushdi. Mana, mana, hozir jamiki odamzod qulog'ini ding qiladi, oldi-sotdi, ivir-shivirni bas qiladi, yoshu keksa tim odog'i tomon yuz o'girdi....

G'azabga mingan pistafurushning to'satdan yaltoqlanishi uning xayolini chalg'itdi:

— Hammasini ko'rib turibsiz, aytsangiz bo'lmaydimi, bobo?! Qandoq qilsak tutamiz u bachchag'arni!.. Yo'qotaylik, qutulaylik, xotirjam yashaylik axir!..

U hali-zamon gapdan to'xtaydiganga o'xshamas edi, shu choq qarama-qarshi tomonda chelakning qattiq sharaqlagani eshitildi, kimdir: «Ushladim!», deb qichqirdi — olomon guvillab o'sha yoqqa ko'chdi.

Ko'ngli bir g'ashlikni tuygan bobo joyidan qo'zg'almadi. Olomon yopirilgan tomonda g'ala-g'ovur avjiga mindi. Hamma yoqni: «Kim?.. Kim ushladi?», degan ovozlari tutdi.

— Men!.. Men tutdim!.. Bopladim!.. — dedi kimdir mamnun va quvonchdan o'takasi yorilguday bo'lib.

Olomon Jajmani qo'lga tushirish baxti nasib etgan kimsani ko'rish umidida oldinga surildi. «O'ldiramiz!..», «Men ham urib qolay!» degan xitoblar, baqiriq-chaqiriqlar quloqni qomatga keltirdi. Va tuyqus sukunat cho'kib, So'zamol yong'oqfurushning hayajonlangan, g'olibona ovozi eshitildi. U rastaning ustiga chiqib olgan, xuddi bayramona nutq irod qiladigandek, qaychilangan xushbichim mo'ylabini silab-silab qo'yib so'ylar edi:

— Gap bitta — Jajman o'limga mahkum! Vassalom!

Olomon guvillab uning hukmini ma'qulladi. Yong'oqfurush yigit xuddi tuya so'ymoqchidek hafসা bilan yenglarini shimardi, chelak ustiga engashdi, to'dalashganlar davra yasab, uni o'rtaga oldilar. Kim qadoq tosh, kim g'isht parchasi, kim so'yil tutgan — hamma shay edi.

So'zamol yong'oqfurush chelak ostiga qo'l suqdi — yig'ilganlarning ko'zi olma-kesak terar, qasos chog'i yetganidan nafrat hammaning ko'ziga, qo'lga ko'chgan edi — chelak sharaqlab ag'darildi-yu, yong'oqfurush yigit cho'g' ushlab olgandek qo'lini siltab tortdi.

— Tishladi! — dedi u jon holatda baqirib.

Chelak ostidan chiqib olgan Jajman qochishga chog'lanib ulgurmay, uchi ayri so'yil uni yerga qapishtirib qo'ydi. Buni ko'rganlar «O'ldi-i!», deb ulgurmay, Jajman ayri ostidan sirg'alib chikdi, bir silkindiyu o'zini oyoqlar orasiga urdi — o'tolmay orqasiga qaytdi, qaytgan joyida boshiga mushtdek qadoq tosh tushdi — Jajman yiqilib, yerga cho'zildi, «O'ldi!.. O'ldi!..» deb yubordi olomon. Lekin Jajmanga jin ham urmagandi, u yana oyoqqa turdi, qo'lchalari bilan qopchig'ining og'zini tutganicha dikirlab oldingi qatorda turganlardan birining yelkasiga sakrab chiqdi — qiy-chuv ko'tarildi. Jajman lip etib, dikirlab boshdan boshga, yelkadan yelkaga o'ta-o'ta borib nima bo'ldiyu yana oyoqlar ostiga — to'da orasiga tushib qoldi. Kimdir uni qattiq tepdi. Jajman yerdan ikki quloch ko'tarilib, yerga chalpakdek bo'lib tushdi, tushdiyu boyagi uchi ayri so'yil uni yana yerga qapishtirdi... «Bos! Bos!», deb hayqirdi olomon gurillab, biroq so'yilning uchi xuddi muz ustida toyib ketgandek surildi. Jajman ayri ostidan sirg'alib chikdi, chiqdiyu qaddini rostlay olmadi — chamasi ayrining zarbidan uning beli mayishib ketgan edi.

— O'zing ogoh bo'l, Axuramazda! — deb ko'zlarini yumdi Zardusht bobo. — O'zing ogoh bo'!..

Tim odog'i tomonidan eshitilayotgan zorlanuvchi, yolboruvchan gursillash do'q-iddaoga aylanib, boboning shivirini, unga qo'shib olomonning shovqinini bosib tushdi. Zardusht boboning ko'ngli og'ir noxushlikni sezib, ko'z oldi qorong'ulashdi, miyasi g'u villadi... tim shiftiga qapishgan uchboshli Axriman ko'zlaridan sovuq bulut purkab Axuramazda ustiga tashlandi. Axuramazda oyoqda turolmay, yonboshiga ag'darildi, ag'darilayotgan joyida og'zini o'radek ochgan Axrimanning basharasiga o't purkadi, Axriman sapchib shiftga ko'tarildi. Axuramazda qaddini rostlay deganda Axrimanning og'zidan purkalgan bulutlar orasidan bir, ikki, yana, yana Jajmanlar dikirlab chiqib kela boshladi. Axuramazda ularga ham olov purkadi. Jajmanlar kuymadi, Axuramazda o't-otashga dosh beradigan jondorni ko'rmagan edi — bosib-bosib olov purkadi — Jajmanlar alangai otashda yayrab-yayrab huzur

kilayotgandek irg'ishlar, bu yetmaganday, Axuramazdaning yelkasiga, boshiga chiqib tushar, tinimsiz qandaydir tovush chiqarar edi. Shiftga qapishgan uch boshli Axriman olamni boshiga ko'tarib xaholadi...

— Ogoh bo'l, ogoh, Axuramazda! — deb ko'zlarini battar yumdi Zardusht bobo turgan joyidan qimirlamay. — Axriman o'lmagan, Axuramazda!.. Ogoh bo'lgaysizlar, yaxshilar, ogoh!.. Axura...

Bobo ezgulik tangrisining nomini aytib ulgurmay, osmono'par qoyatosh ag'darilgandek nimadir beo'xshov gumbirladi, shuning barobarida olomon orasidan otilib chiqqan ayancli chinqiriq quloqqa nayzadek qadaldi, keyinidan, «Qochdi!.. Qochdi!..», degan shovqin ko'tarildiyu taloto'p qo'pdi — o'n chog'li kishi ustma-ust yerga tashlandi. Chalajon Jajman shunda ham taslim bo'lmasdi: devdek-devdek beso'naqay odamlar ostida yerga chaplashgudek cho'zilar, odamlar yengil nafas olgan zahoti dik etib qaddini roslar — qochishga chog'lanar — yana izdihom poyi ostida qolardi...

Nafasi bo'g'ziga tiqilib, toliqqanlar taloto'pdan uzilib, orqada sudralar, ular o'rnini boshqalar egallar — Jajmanga tinimsiz, beayov kaltak-musht yog'dirar — Jajman har safar o'zini o'nglab olar, xuddi kaltak ostida qolganini sezmagandek, hamon ko'zlari olma-kesak terar — aftidan qo'lga ilinadigan narsa qidirar — shunday bo'lsa-da, uning holdan toyayotgani, yurishlari tobora sustlashayotgani, qaddini tutolmayotgani sezilayotgan — olomon zo'r kelayotgan edi... Va nihoyat!.. Nihoyat... birdan ur-sur to'xtadi, «hoyu-hay-hay»lar tinchdi, tim ichiga suv quygandek jimlik cho'kdi... U yer-bu yerda yumalab, emaklab Jajmanni do'pposlaganlar birin-sirin oyoqqa turdi va... So'zamol yong'oqfurush Jajmanning kalta dumidan tutib chalajon tanani boshi uzra ko'tardi.

— Hu-u, to'ng'iz qo'pgur! — deb yubordi kimdir.

— O'lgani rost bo'lsin-a! — dedi yana birov sevinib.

— Bir tomchi qoni chiqmadi-ya, tavba-a!..

— Xudo adashib yaratib qo'ygan bu bachchag'ardi, qon hayf unga!..

Olomon orasida kulgi ko'tarildi. Tekinxo'r balosidan qutilgan alamzadalar quchoqlashgan, o'pishgan, yig'lagan... quyosh bu kun timning ichidan ko'kka ko'tarilayotgan edi...

Yong'oqfurush yigit maxluqning jasadini ko'tarib turganicha timdoshlariga qarata yana so'z aytdi:

— Yomonning kuni bitdi, birodarlar!..

Jajmanning qopchig'idan qolgan-qutgan mayiz, pista qoldiqlari to'kildi. Olomon uni ko'rib kulib yubordi, biroq shu payt... Jajman tilga kirdi:

— Lo... kila!.. Lokil...la!..

So'zamol yong'oqfurush cho'chib Jajmanning jonsiz tanasini irg'itib yubordi, sakrab o'zini orqaga tashladi, hangu mang bo'lgan olomon shamdek qotdi. Tim ichi shunchalik jimjit bo'lib qoldiki, azboroyi, Jajman jon berayotib bazo'r takrorlagan bir og'iz so'z hamon havoda taralib eshitilib turardi. Olomon xuddi osmondan odamlarning esini og'dirib qo'yadigan sas yopirilib kelayotgandek, talvasaga tushdi.

— Zardusht bobo...

— Zardusht...

— Bobo...

— Zardusht bobo!!! — deb yubordi olomon bir ovozdan iltijo qilib — izdihom ko'chkidek surilib, bobo tomon siljidi. Zardusht boboning esa qulog'i tom bitgan — eshitmas, ro'parasida umidvor tikilib turgan izdihomni ko'zlari ko'rmas — boshini g'oz tutganicha to'g'riga — tim odog'i tomon yuz tutib turardi. Shu payt...shu payt...tim odog'idagi devor tepasidan katta-kichik kesak-guvalalar ko'chib, do'pirilab yerga tusha boshladi — tim ichi chang-to'zonga to'ldi... Devorga yaqin turganlar arang o'zini chetga olishga ulgurdi, tumonat bo'ridan hurkkan suruvdek bir burchakka g'uj bo'lib qisildi, olomon ko'zlari ola-kulalashib, tim odog'iga angraydi... Shu ko'zlar, shu nigohlar o'ngida to'zon bosildi, bosildi va devorning tepasida o'raning og'zidek qora tuynuk ko'rindi... qanday hodisa yuz berayotganiga fahmi yetmagan olomon hang-mang bo'lganicha qotib turar, biror zot qilt etishga jur'at topolmasdi o'zida... Ana shunda qora tuynukdan bir juft bahaybat hovuch ko'rindi... hovuchlar ichkariga suqilib kirdiyu ulardan hozirgina bazo'r, ming bir azobda o'ldirilgan Jajmanga ikki tomchi suvdek o'xshash



boshqa bir Jajman sakrab yerga tushdi, faqat u oldingisidan hiyla durkunroq — bo'yi ikki qarich edi...

## DASHTU DALALARDA

Xadicha ketdiyu ko'nglidan halovat ham ketdi. Uy bamisoli o'lik chiqqanday huvillaydi. Polvonning yuragi toriqdi — uyni tark etdi, boqqa olib tushadigan qiyalikdagi bobosidan qolgan yerto'lani o'ziga boshpana qildi. Odamlarning kulishini bilardi, ammo uydagi hamma narsa Xadichani esga soladi: ostonaga qadami tekkan, devorga yelkasi — chidab o'tirishi qiyin bo'ldi.

Yerto'la eski bo'lsa ham havosi quruq edi. Yeri naq metin — cho'kich tegsa, chaqin chiqadi. Qoratoyni ham ichkari olib kirdi. Bechora it ochiqqa o'rgangan edi, yerto'laga ko'nikolmadi, uch-to'rt kecha uvlab chiqdi, lekin — yo'q, keyin-keyin egasining holiga tushundi chog'i, poygakka to'shalgan poxol ustida indamay yotadigan bo'ldi.

Yerto'la avvaliga sal vahimali ko'rindi. Shifti past, agar chiroq bo'lmasa, naq lahadning o'zginasi...

Asta-sekin yerto'laning go'rsimon ekaniga ham ko'nikdi. Yomg'irli bir tunda uyqusiz yotib, uzoq o'yladi, o'zining tirikligini o'yladi, yonida iti Qoratoyni borligini, Xadichaning ketganini... Bir o'zi ketsa go'rga edi, qizchani ham yetaklab ketdi. Shu tariqa, xayoli to'rt yashar qizchasi Chamanga og'di, qizim hozir Sho'rquduqning ko'chasida bemalol o'ynab yurgandir, deb o'yladi, hatto uning qo'lchalarini tuproqqa belab qichqirayottanini eshitganday bo'ldi. Yarim tun ekani, tashqarida yomg'ir sharros quyayotgani — barisi bekor edi. Xo'rliqi keldi, o'zidan xafa bo'ldi, keyin poygakda xumday boshini yerga qo'yib mudrayotgan itiga so'zlandi: mening holim shu, Qoratoyni, xotin ketdi, har kim o'z yo'liga ekan...

It otini eshitib, ko'zlarini ochdi: Polvon gapirib yotaverdi. Go'yoki bor alami tanidan hovurdek ko'tarilib, butun yerto'lani to'ldirayotganday edi. Qoratoyni egasining qarashiga chiday olmadi, poxol ustida g'ujanak bo'lib, yana ko'zlarini yumdi.

...Kunlar shu zaylda o'taverdi. Singlisi Adolat har kech sigir sog'ar mahali holidan xabar olib turardi. Akasining o'rligini bilar, shu sababli unga ko'pda aql bo'lavermas edi. Lekin, axiyri u ham chidab turolmadi.

— Mengayam oson tutmang, aka, — dedi. — Jo'jabirday jonman, qaysi birovlaringga qarayman? Odamlarga kulgi bo'ldik, aka, bu kuningizdan o'lganingiz behroq edi!..

Har safar singlisi kelganda miq etmay yotadigan odam, bu gal ilkis qo'zg'aldi:

— Men o'lsam tinchiysanmi, Adol?

— Qaytib oldim, aka, — dedi u. — Tillarim qirgilsin, aka, qaytib oldim!...

— Senga og'irim tushgani rost, — dedi Polvon. — Sal sabr qilgin, singil, men avval old-ortini bir o'ylab olay...

O'shandan beri Adolat qorasini ko'rsatmaydi. Olib kelgan narsasini ham yerto'ladan tashqariga, eski toltovoqning ostiga qo'yib ketadi.

Kunduzlari bir nav — yolg'izlik ko'p bilinmaydi. Ertalab qo'lga gavron olib cho'lga chiqib ketgani bilan to' shomgacha podaga andarmon bo'lib yuradi. Baxtiga, sherigi Hasanboy kamgaproq odam, bir marta uylanib, yil o'tmay ajrashgan. Polvonning xotini ketib qolganiga ko'p ham ajablanmaydi.

Kunduzlari bir nav, jami azob shomdan keyin, ifti past yerto'laga qaytgan mahali boshlanadi.

Xadicha yoningda yotganida o'lim yodingga tushsa ham qo'rqmaysan: xotining bor, bolang bor, tepangda — xudo, e, bir gap bo'lar-da, deb o'ylaysan. Xadicha bo'lmasa qiyin ekan. Endi uning siyog'i ham esdan chiqqanday: bechora salga shamollardi, shamollab dimog'i chippa bitganida pishqirib bezor qilardi, huda-behuda chiroq yoqardi, ivirsib g'ashingga tegardi, lekin bari borligi durust edi — ovunarding, istagan paytingda qo'l uzatsang yetadi, g'ingshisa g'ingshir, iloji yo'q o'rtada non singan, nikoh o'qilgan; bag'ringga bosib yuzi ko'zidan muchchi olgan chog'laringda bechora kichrayib qolardi, u-ku kichkina, lekin sen ham o'zingni pardek yengil sezasan; dimog'ingda sutning hidi, qayoqqadir uchib ketgilaring keladi; doim ko'klam bo'lsa, ko'kalamzor bo'lsa, yalang oyoq, yalang bosh, pardek yengil Xadichani ko'tarib hovlidan chiqsang, keyin shu ko'targancha ketsang, hech kimdan

uyalmasang, ketsang, yo'lingda birov uchramasa, ketsang-da, qayoqqa ketayotganingni o'zing ham bilmasang!

\*\*\*

U xotinini umrida bir marta — chimildiqda amallab ko'tarib olgan, xolos. Faqat, ba'zan poda ketidan yurganida xayoli og'ib, uni ana shunday ko'tarib chopmoqni istaganlarini eslaydi. Chimildiqda ikkita ayol etagidan bosib turgan, bittasi — Xadichaning o'rtancha ammasi, shunchaki etakdan bosmay, naq taqimiga qistirgan. Polvon unda yosh edi, birmuncha sho'xligi ham bor, kishibilmas timirskilanib turib, Xadichani qo'ltig'idan shartta ko'tardi. Ammo g'aflatda qoldi, kapadek bo'lib ag'darilib tushdi. Uni rosa kulgi qilishdi. Xotin-xalaj baralla kuldi. «Mana senga, Oybuvi, mana senga kuyovning zo'ri», deyishdi. Zo'ru nozo'ri kimga kerak — shunchaki gap bo'lsa bas, hamma og'ziga kelganini aytadi, hammaning dimog'i chog'. Polvon chimildiq ortidan mast odamday gandiraklab chikdi, chiqdiyu ko'chada sho'rquduqlik yigitlar bilan o'ralashib turgan jo'ralarini ko'rdi. Kuyovning o'zi chiqqach, sho'rquduqlik bittasi battar avj qildi: «Senga Xatcha hayf, Polvon, — dedi. — O'zimizdan ortib qolgani yo'q edi, qulog'ini tishlab qo'yuvdik, haliyam tashlab ketaber!...» Polvonning yomon ajinasi tutdi, lekin urishgani jo'ralari qo'yishmadi, neki harbu zarb bo'lsa, o'zlarini balogardon qilishdi... So'ng, Sho'rquduqdan chiqar mahal, ko'chani adog'ida, ular tushgan ulovga tosh yog'ildi. Polvon sal enkayib, kelinning boshida turdi, lekin Xadicha shusiz ham bexatar edi. Ust-boshi qalin, yumshoq — unga hech ziyon yetmadi. Birgina G'uchchi cholga tosh qattiqrog tegdi, bechora yilqichi, alami tutib, ovozining boricha aytib qo'yaberdi: «Nokas sho'rquduqlik, mening aybim nima? Chimildiqqa kirgan menmi?!» Uning baqirganiga birov parvo qilmadi. «Yor-yor-yoron-ey!» deb qo'shiq aytishdi. Uni Sho'rquduqdan qo'shilib chiqqan kelinning xeshlari boshladi. Galatepaliklar avvaliga iymانبroq turishdi, keyin ular ham qo'shildi, to o'zlarining sarhadlariga yetguncha bo'kirib borishdi: «Tomda tovuq yotadi, yor-yor-yoron-ey, oyog'i sovqotadi yor-yor-yoron-ey!...» Yolg'iz Polvon qo'shiq aytmadi. Indamay keldi. G'alati edi. Yonida — Xadicha, hali yuzini tuzukrog ko'rolgani ham yo'q, uyatu qo'rquvdan bir burda bo'lib o'tiribdi, ulov har silkinganda yelkasi tegadi, xuddi bir yashin urganday, o't, olov, qiyomatning naq o'zi!.. Keng bir dala, Yo'l, ulov... E, Xudo, ulov degani muncha imillamasa!.. Bir yoqda qo'shiq, bir yoqda G'uchchi chol, haliyam so'kinyapti: sho'rquduqlik nomard chiqdi, ko'chada ro'para bo'lolmadi, orqadan tosh otdi... Endi G'uchchiga qiyin, endi uning g'urrasini Galatepa rosa bir oy kulgi qiladi, ajab bo'пти, xo'b bo'пти, sen cholga kuyovnavkarlikni kim qo'yibdi; e, enalari o'lsin, nimasini eslaysan, Polvon, eslagulik joyi qoldimi! Yoningda Xadicha yotsa tuzuk, Polvon, hali bu ko'rganlaring oz, Polvon!..

\*\*\*

Xadicha bir sidra kiyimini tugun qilib, poygakda qotib turdi, bechora biror sado chiqishini kutdi, lekin Polvon er bo'lib bir narsa demadi. Xadicha dahlizga chiqib yana birpas turdi, hovliga chiqib hovlida turdi, ilindi, qaytarib olar-ku, dedi, ammo Polvon teskari-to'ng bo'lib yotaverdi, so'ng, Xadicha darvozaga yetganda chidab turolmadi, qizchasi Chamanni qo'lidan sudrab chiqdi: «Ma, muniyam obket, pishirib yeysanmi, isqotingga qo'yasanmi!..» Musht yeganda yig'lamagan ayol, buni eshitib yomon bo'shashdi, ko'ziga yosh oldi: «Hah, falak!— dedi. — Mayli, ketsam ketayin, beqadr bo'ldim, mayli, Xudodan toping». Shu gapni aytdiyu qizini yetakladi-ketdi. Qancha yotganini bilmaydi, bir payt chiqib qarasa, Xadicha uzoqlabdi, Sho'rquduqning yo'lida qizini iyartib ketyapti. Polvon Toshgazagacha izma-iz bordi, lekin ularning qayrilmaganini ko'rib shartta to'xtadi, avvaliga g'azabi yo'q, ichi to'la alam, chakmonining bariga bir urdi: «Hay, mayli, ketsang ketaber, Xatcha, Sho'rquduq borasanmi, nariroqqa o'tib ketasanmi, bir boshimda bir kunim, men ham sensiz uloqib ketmasman!...»

Orqaga qaytdi. Hovlida o'tirib, zambilg'altakning bo'shagan tirsagini sozladi, chalg'ining tig'ini

peshladi, o'zini yupatdi, hatto sal ovunganday ham bo'ldi, keyin, kech tushganda qarasa, taqron joyda toq o'zi o'tiribdi, dardlashgudek mahrami yo'q, yig'layin desa, ko'r bo'lgur ko'zga yosh kelmaydi. Notavonligini endi sezdi, alamidan xotin bechoraning uyda qolgan kiyim-kechagini hovliga olib chiqib oshpichoq bilan qiymaladi, kultepaga eltib ko'mdi. Yo'q, bu bilan hav tinchimadi, kultepaga o'zini eltib ko'msa ham tinchiguday emasdi. Bezovta, beorom, miyasiga qurt tushgan qo'chqordek hovlini gir aylanib yugurdi. Aylanaturib darvozaga ro'para bo'ldi-yu, uni lang ochiq ko'rdi. Ko'chaga chiqdi. Sho'rquduqqa yo'l tutmay, to'g'ri Salim saqichnikiga burildi. Borsa, Salim hovli o'rtasida sandal qo'yib, oldida mag'zava to'la tog'ora, bir parcha pishiq g'isht bilan tovonining yemini qirtishlab o'tiribdi. Polvon tog'orani bir tepib ag'dardi, so'ng Salimning yoqasidan oldi. O'rtaga Maxfirat tushmaganda oxiri yomon bo'lardi. Salim uning qo'lidan yulqinib uyga chopdi, zum o'tmay otasidan qolgan qo'shtig'ni ko'tarib chiqib, Polvonga o'qtaldi: «Ket, bo'lmasam otaman!» Mahfirat miltiqqa ko'kragini tutdi: «Avval meni otasan!..» Polvon uni chetladi: «Qo'y, singlim, ering hazillashyapti». Yo'q, xotin aytganidan qolmadi, eridan miltiqni yulqib olib, hamsoyaning hovlisiga otdi. Polvon boshqa musht ko'tarmadi, g'azabini ichiga yutib, tashqari chiqdi. Hayal o'tmay, ortidan Salim saqich ham chiqib keldi, qachon yirtib ulgurgan bo'lsa ham, egnidagi kiyimning butuni yo'q, yenglariyu ishtonining baloqlarigacha ro'dapoday osilib yotibdi, boshidan tuproq sochganmi, aft-basharasining kulga yumalagan toyxardan farqi kam, chiqasolib Nizomboy milisaning uyiga jo'nadi. Polvonning xayoli qochdi: bu nomard boshini yorishdan ham toymaydi! E, opketsa, opketar, nima, ortingda yig'lab qoladiganing bormi! Mayli, oxirigacha nomardlik qilaversin, Nizomboyga chaqadimi, boshqa qiladimi, mayli, shu nomardning ham xusuri qonsin!..

O'zi keyingi paytlar Salim saqich bilan oshnachilikni bas qilmoqchi edi. Bir-ikki bor atay so'kishgani chog'lanib bordi. «Zora so'kishib qolsagu ora ochilib, yuzko'rmas bo'p ketsak», deb o'yladi. Yo'q, so'kish ham oson emas ekan, odamning yuzidan o'tishi qiyin bo'ldi.

Ikki piyola aroq ichguncha har ne janjalga xezlanib o'tirdi. Keyin sal kayfi oshdi. Salim saqichga rahmi keldi. «Bu dayus sil, qon tuflab yurib, o'zini o'nglaguncha ozmuncha urindimi», deb o'yladi, qiynaldi.

Salim Kattaqo'rg'ondan murch, saqich, hushtak, hatto okak odam nomus qiladigan narsalargacha olib kelib otardi. Keyin ana shu attorlikdan tushgan sarmoya bilan boshqa bir ishni kasb qildi. Kechqurunlari, kishloqda ismi do'kon yopilgan mahal, so'rab kelganga bir so'm ustamasi bilan aroq sotadi. Hozir endi tuzuk bo'lib qolgani — yuziga qon yugurgan, yo'tali yo'q, gaplari ham dadil.

Oxirgi gal Salim saqich unga nasihat qilgan bo'ldi:

— Bu ishingni qo'y, bola, sen ko'p ichaverma.

Polvon uning nasihati astoydil ekaniga ishonmadi, kuldi. Salimning esa jahli chikdi.

— Men bir oti yomon odamman, Polvon ukam, — dedi u, — Eshitsang, o'zing uchun eshitasan, eshitmasang — otangning go'riga!..

— Gaping o'zi qiziq-da, Salim — deb e'tiroz qildi Polvon. — O'zing quyib berasan-u, ichmagin, deb aytganing nimasi? Keyin, oshna, Xudo bo'lsang ham, ota-buvamni o'rtaga qo'shma, tepada tinch yotsin, men hali o'zimdan qolganim yo'q.

— Holingga boqmaganing yomon, — deb kuldi Salim saqich. — O'zingcha ne xayollarga borib yuribsan! Aytib qo'yay, menga ko'p shox qilaverma, bo'lmasa, naq changingni chiqaraman! Sen bu yokda ichib yurasan, xotinchang Sho'rquduqqa bir oylab o'tlagani ketadi!..

Polvon Salimni jag'iga bir urib ko'rpachaga qulatdi. Lekin u taslim bo'lmadi, tishining orasidan sizayotgan qonni kafti bilan sidira turib, yana gapirdi:

— Sen bu yoqda, u naryokda... Enasinikida o'sma qo'yib o'tiribdi, deb o'ylaysanmi!..

— Bas qil!..

— Bo'pti, men bas qildim, lekin sen ham o'zingga ehtiyot bo'l, Polvon ukam! Kuchingni xotinga ham ko'rsatib tur!.. — Salim saqich pixillab kuldi.

Polvon tag'in musht ko'tardi, lekin urmadi, shartta joyidan turib jo'nadi. Yo'l bo'yi Xadichani o'yladi. Buzuq desa, buzuqligiga ishonmaydi, tuzuk desa, erta bahorda Sho'rquduqqa ketib, rosa ikki

hafta o'sha yokda qolgani rost. «Sattorqulning xotini tug'ibdi», degan edi. Bunisini Polvonning o'zi ham bilardi. Sho'rquduqqa borganida bidillab qarshi oladigan tojik qiz — Sattorqulning xotini keyingi safar undan tortinibroq turgan edi. O'choqning boshidan beri kelmagan. O'zi oriqqina, shundan, qorni batgar do'shyib ko'ringan edi.

Uning-ku, bo'shangani rost, lekin Xadichaning o'sha yerda bunchalik qadalib qolganiga nima deysan?.

Uyga qaytib, xotinini burovga oldi. Xadicha qasam ichdi, qizini, enasini, Xudoning o'zini guvoh qildi. Lekin Polvon ishonmadi. Ishonay dedi-yu, ko'nglida tutun qolarini sezdi. Kayfi bor edi, chekayotgan azobi bol tuyuldi — xotiniga ishonmadi.

Bir kuni azonda podani cho'lga haydab ketaturib, Toshgazaning so'l betida qirg'iydek qo'qqayib o'tirgan Nazar Maxsumni ko'rdi. Hayron bo'ldi: Maxsum-ku o'zidan tinchigan odam, choshgohdan oldin qorasini ko'rsatmaydi — bugun bunday o'tiribdi? Qichqirib salom berdi. So'rashay desa — uzoq, salomini kifoya bilib, yana podaga andarmon bo'ldi, haydayverdi. Bir vaqt Nazar Maxsum kulrang toyxarida orqadan yetis keldi va yonma-yon ketaverdi.

— Nevaramning to'yppga bir kelasiz-da, Polvon boy, — dedi u. — O'zingiz kelib bir davra qursangiz Odam yuboraman.

— Ko'p qatori borarman, — dedi Polvon. — Lekin, Maxsum buva, o'zingiz bilasiz, men olishadigan polvon bo'lmasam, otamning qo'yib ketgan oti...

— Olishmasangiz ham bir keling, — dedi Nazar Maxsum. — Nevaramning to'yini bir ko'ring. Yaxshg yigit, boshqalarning bolasiga o'xshamaydi, asli palagi toza-da, Polvonboy. Usta Xoliyor vahima qilib yubordi, «Muningiz bir alpomish yigit, muni ko'rpachaga qanday ag'natamiz?», deydi...

— O'sarqulni bilamiz, Maxsum buva, — dedi Polvon. — Tuzuk bola.

— E, past ketdingiz, tilla-ku, tilla! — dedi Nazar Maxsum. — O'zingiz qalaysiz, Polvonboy? Xotiningiz ketibdi, deb eshitib edim, shu gaplar rostmi?

— Ertaga qirq kun bo'ladi, — dedi Polvon.

— Chillasi chiqarkan-da, — dedi Nazar Maxsum. — Bekor qipti, Polvonboy, sochi uzunlik qipti, endi sizday yigitni topolmaydi, Taloq-palog'ini aytdingizmi ?

— Ko'zim qiymayapti, Maxsum buva. Aytsammi deyman-u, qurg'ur ko'z qiymaydi.

— O'ychining o'yi bitguncha tavakkalchining ishi bitadi, — dedi Nazar Maxsum. — Sho'rquduq boryapman, agar talog'ini aytsangiz, men o'zim opketardim.

— Dabdurustdan bo'lmas, — deya mulohaza qildi Polvon. — Buning bir xil qoidalari bo'lardi, shunday aytib yuborgan bilan...

— Bo'laveradi, — dedi Nazar Maxsum. — Endi, o'ylab o'tirasizmi, Polvonboy, magarkim, yuzingizga oyoq qo'ydimi, endi o'ylash yo'q! Bu o'zi bir chuvalgan savdo, talog'ini aytasizu shartta qirqasiz — davosi shu!

Polvon qanday «xo'p» deb yuborganini bilmay qoldi.

— Bitta «xo'p» bilan ish bitmaydi, — dedi Nazar Maxsum uning nodonligidan ranjib. — «Taloq qildim», deb ayting.

— Taloq... — dedi Polvon.

— Bo'lmaydi, qattiqroq, — dedi Nazar Maxsum. — Yana ikki marta ayting, qoidasi shu.

— Taloq, taloq!

Qahri qo'zib turgan edi, taloq aytib ham hovri bosilmadi. Alamidan orqaroqda borayotgan sigirning kuymichiga gavron bilan tushirdi, keyin birdan ko'zlari tindi, bo'shshadi, yolg'izoyoq yo'lining chetiga behol o'tirib qoldi...

Bir zamon qarasa, sigirlar yo'ldan chiqib, lalmi yo'ng'ichqaga oralab ketibdi. Nazar Maxsum ham olisda, xuddi yov quvganday ortga qarash yo'q, toyxarini qichib boryapti. Polvon bir kasofatni sezgandek bo'ldi, lalmi bedaga urib ketgan podani ham unutilib, Nazar Maxsumning ortidan chopdi. Quvib yetib, yo'lini to'sdi:

— Kimga mo'ljal qilib boryapsiz, Maxsum buva?

— Mo'ljalim yo'q, Polvonboy, hech mo'ljalim yo'q, — deya Nazar Maxsum taysalladi, ko'zlarini olib qochdi. — O'rolni aytganday bo'lishuvdi, lekin men ko'nmadim, meniki bir savob...

— Savobingizning uyi kuysin, — dedi Polvon. — Vakolatimni qaytib bering!

— Ana, oling, Polvonboy, — dedi Nazar Maxsum aqli shoshibroq. — Ana, oling vakolatingizni, men bir savob ish, deb edim, mayli, o'zingiz borib ayting.

Mo'ljalni xato olgan ekansiz, — dedi Polvon. — Qo'yadigan xotinim yo'q!

— Xo'p, xo'p, Polvonboy, bizniki tig'iz emas, dedi Nazar Maxsum. — Lekin siz ham bir o'ylang, hozir menga zug'um qilyapsiz, ertaga o'g'lim Sanaqubek kelganda nima javob aytishingizniyam bir o'ylang.

— O'rolga Sananing xotinini obbering! — dedi Polvon. — Uyga qayting, Maxsum buva, Sho'rquduqqa keyinroq borasiz.

Nazar Maxsum itoat qildi — toyxarini orqaga burdi. Polvon bedaga oralagan sigirlarni bir amallab to'da qildi-yu, ovloq bir kamarga qamab, o'zi Sho'rquduqqa jo'nadi.

Darvoza ochiq edi. Har gal bemalol kirib boraveradigan odam, bugun taqillatgani ham jur'at qilmadi — turaverdi. Xayriyat, hovlida Xadichaning o'zi ko'rindi, ajablandi, qo'lidagi cho'ltoq supurgini tashlashni ham unutilib tashqari chiqdi. Arazi tarqamagan chog'i: salom bermadi, xuddi begonaday, ko'zlari yerda, og'zini ro'mol bilan to'sdi... Polvon achchiqlanmadi, qaytaga — xo'rliqi keldi, xotini o'ragan bir so'mlik gardi ro'molu uning kir unnagan ko'ylagi sabab bo'ldimi yoki qo'lidagi cho'ltoq supurgimi, ishqilib, unga betlab qaray olmadi, uyaldi, o'zini nomard, noinsof sezdi.

— Obketay deb keluvdim. Xatcha, — dedi sekin, ovozi o'zi ham tanimay.

— O'ldirib qo'yasan, — dedi Xadicha, — Men-ku, borarman, lekin sen tentak o'ldirib qo'yasan.

Shunday deb yig'ladi. Polvon unga jo'yaliroq gap topib berolmadi. «Rost, — deb o'yladi, — bu borsa, yana jinim qo'zib, yana so'ksam, ursam, xotin degan nar-saning nima holi bor, o'ldirib qo'yaman».

Xadicha ichkari kirib, Chamanni yetaklab chikdi. Qizcha qo'rqib qolgan ekan — otaga qarab talpinmadi.

— O'lmasang, manavi norasida odam bo'lganda tushunarsan, topisharsan, — dedi xotin. — Meni o'z holimga qo'y endi.

Polvon birdan sergaklandi: Xadicha xotin boshi bilan boyadan beri sensirayotgan ekan.

— Sensirama, Xatcha, — dedi u. — Toza tomiring suvga yetgan bo'lsayam sensiramay gapir!

Xadicha sho'rlik to'lib turgan ekanmi, battar ters keldi:

— Qo'lingdan kelganini qil! — Bu gapni aytishga aytdi-yu, ortga tislandi. Polvon angrayib turib qoldi.

— Sen u yokda odamga o'xshab gapirarding, Xatcha, — yedi U bir vaqt o'ziga kelib. — Kimning darsini olding, nega unday gapirasan?

Xadicha indamay yerga qaradi. Ukasi Sattorqul darvoza orqasiga kelib bekingan ekan, shartta otilib chikdi.

— Ket! — dedi u ko'kragini kerib. — Esing borida ket, bo'lmasa yomon qilaman!

Polvon uni taniyolmay qoldi. Yigitning kayfi buzuq, mo'ylovining uchlarigacha titrab turibdi, indamasang, uradigan shashti bor. Polvon, bir ko'ngli, gardaniga solay, deb o'yladi, lekin shaytonga hay berdi: qo'y, baravar bo'lib o'tirma, bir kun tuz ichgats joyga qirq kun salom, qo'y, Polvon, o'zingni bos!

Orqasiga yurdi. Satgorqul izidan qolmadi.

— Ket! — deb baqirdi u tag'in. — Qaytib shu ko'chada qorangni ko'rsam, oyog'ingni urib sindiraman!

Polvon bo'g'ilibroq kuldi. O'zining ne alfozda ketayotganini o'yladi: yelkalari qisiq, qaddi bukik, bo'yniga mugpt tusharini kutgandek. Uyat, uyat, ne kunlarga qo'yding, Xatcha? Sendan shuni kutib edimmi, Xatcha? Ko'rgan birov nima deb o'ylaydi, enag'ar Xatcha?! Yer bilan bitta qilding-ku!..

Nomus zo'r chikdi, chidolmadi, taqqa to'xtadi. Sattorqul ham to'xtasa durust edi, ammo u to'g'ri

bostirib keldi, musht ko'tardi, lekin ulgurmedi, o'zi zarbdan yerga ag'darilib tushdi. Polvon uni bilagidan dast ushlab, siltab turg'azib qo'ydi, lekin gap qotmadi, yo'lga ketaverdi.

Yegan mushti alam qilgan ekan. Sattorqul yarim yo'lda, adirdagi tuyaquduq yonida quvib yetdi. Yolg'iz emas, qavatida yana ikki otliq, biri — Ahmad shayton, unisi — yuqori labi kemtik, jikkakroq odam.

Etik qo'njiga qo'l yuborsa nomardlik bo'ladi, gavron ham poda qamalgan kamarda qolgan — bir o'zi uchovini daf etarga holi kelmadi. Bir nafasda qo'llarini orqasiga qayirib boylashdi, so'ng haligi labi kemtik yigit bexosdan taqimiga tepdi — Polvon chalqancha qulab tushdi. O'rnidan turmoqchi bo'lib uringanida, Sattorqul kelib, yelkasidan etigi bilan bosdi:

— Xatchaning talog'ini aytasan! — dedi u. — keyin, mayli, tusagan yog'ingga ketaber. Aytsang — bo'shatamiz.

— Hozir bo'shat, — deya Polvon qaynisiga emas labi kemtik yigitga yuzlandi. — Bo'shatib qo'yib gaplash.

Polvonning o'ziga bepisand qaragani Sattorqulga alam qildi:

— E, beshbattar bo'lmaysanmi!.. — Etigining uchi bilan Polvonni yuztuban ag'darib tashladi va yag'rini aralash qamchi tortdi. O'rmasi mayda ekan — badanni tig'dek kuydirib o'tdi.

Polvon iyagini zarang yerga tiragan ko'yi qotib yotaverdi. Avvaliga og'riqni sezib turdi, qamchi har tushganida eti ko'pchib-qabarib chiqayotganini ham bildi, lekin birpasdan so'ng eti o'lib, quloqlarida qamchining havoni vizillatib chizayotgan tovushigina qoldi.

Ishongisi kelmadi. Tinchgina molini haydab ketayotib edi, yo'lda Maxsum uchradi, taloqni olib ketmoqchi bo'ldi, uni iziga qaytarib, o'zi keldi, mana endi, manavi zarang yerda, tuyaquduq yonida, qo'llari bog'liq, qimir etgani imkoni yo'q, yer bilan bitta... Tush ko'ryapman, deb o'yladi u, hammasini tush ko'ryapman, seniyam tush ko'ryapman. Sattorqul inim, podachining tushi qursin, bir xil tushlarimda meni ilon chaqadi, tishi etigimdan o'tib boldirimga sanchiladi, dod deyman. Dodlaymanu uyg'onib ketaman, seniyam tush ko'ryapman, Sattorqul inim, yaxshi qilmading, inim, mayli, qattiqroq ur, toki men uyg'onib ketay... Yolg'izlik yomon, inim, sizlar uchov, men bir o'zimman... Sen ham harsillab qolding, charchading, inim, mayli, qamchini labi kemtik jo'rangga ber, u ham ursin, ayt, qattiqroq ursin, o'rmasi har sermab o'tganida yag'ri nimdan parcha-parcha et uzib olsinu men uyg'onib ketay, tushdan forig' bo'lay, yonimda Xatchani ko'ray, tushimda bo'lsayam uni uyga obketay, mayli, uraber, inim, yara-chaqa bo'lsa bitib ketar, to'xtama, nega to'xtading yoki menga rahming keldimi, inim?..

Chidab yotdi. Ingramadi. Bir mahal havo dim tortganini sezdi. Dim, epkinsiz, quyuq. Yelkasidan chiqqan ter ko'zyoshiday issiq... Termi bu, qon emasmi?.. Qip-qizil, ko'zyoshiday jizillatadi, sarg'ish chakmonni bag'ir tusiga bo'yab boryapti...

Ko'zlarini yirib oldinda bir juft toshtovon etikni ko'rdi. Ag'darma ko'n, choklari pishiq, jiyirilgan joyi yo'q, faqat nag'ali yeyilibdi, qushning tiliday yupqa, bugun-erta uziladi...

Etiklar qimirladi. Polvon yotgan joyida bir-ikki silkinib tushdi. Keyin etiklar yana manglay tarafiga o'tdi. Polvon tag'in ularga tikildi, biroq etiklar tutqich bermadi, soniya sayin kichrayib, uzoqlashib boraverdi. Ko'zlarini yumarkan, chuqur tin oldi, iljaydi: etiklar qochdi, qochdi!..

... Sahar mahali kunbotar tarafda yilqi kishnadi. Sayxonlikdagi yantokdarni shitirlatib salqin shamol turdi. Polvon unga yuz tutdi — uzoq, to sal tetik tortgunicha. So'ng yilqi ovozi kelgan yoqqa qarab o'rmaladi.

Ko'p sudraldi. Tizzalari, tirsaklari zirapchaga to'ldi. Taqirga yetganida qurigan loy qisir-qisir sina boshladi. Bir payt barmoqlari balchiqqa tegdi. Chanqoq xuruj qildi: balchiqni siqimlab og'ziga solib shimidi. Suv chiqmadi hisob, tomog'iga tiqilib, nafasini qaytardi. Yana oldinga o'rmaladi. Biror besh daqiqa o'tib, uzatgan qo'li suvga tegdi. Polvon ikki-uch to'lg'onib olg'a jildiyu betini suvga botirdi, so'ng tirsaklariga tayanib, tili bilan yalashga tutindi. Ko'nglida g'alati bir g'urur uyg'ondi, o'zining miskinligidan, manavi qora balchiqqa belanib yotganidan, suvni kuchukka o'xshab shaloplatib ichayotganidan shodlandi, sovuq tomchilarning chanqoq vujudi bo'ylab bir maromda taralayotganiga

quloq soldi...

Xadichani Sho'rquduqdan berida, poda yotar joyda topdi. Ustida o'sha kir ko'ylagi bilan gardi ro'moli, etagida qo'ng'iz kavlab ketgan besh-olti g'ovak tezak (shuni bahona qilib chiqqan), birov urganmi, o'zi yig'laganmi, ko'zlari qizargan...

Polvonni avvaliga tanimadi, yo'q, tanidi-yu, ko'zlariga ishonmadi, qo'rkdi, qo'li bilan yuzini pana qildi — qamchidan to'sganday.

— Talog'imni aytdingizmi? — deya sekin, xo'rlanib, kelar baloni daf etolmasligidan qo'rqqandek so'radi: ko'zlari mo'ltiradi, etagidagi tezak yerga to'kildi.

— Aytardim, Xatcha, — dedi Polvon. — Aytardim, lekin endi bo'lmaydi, ilojim yo'q, aytsam — qo'rqoqqa chiqaman. Chidaysan endi, Xatcha...

Xadicha yig'ladi. Ko'zlarini artarkan, ro'moli boshidan sirg'alib tushdi, sochlari yelkasiga yoyildi.

— Boraymi? — deb so'radi. — Urmaysizmi?..

Polvonning xo'rliqi keldi: seni urgan qo'l sinmaydimi, Xatcha?..

Xadicha yaqinroq keldi, erining usti-boshiga chaplangan loy va qonni artmoq bo'lib qo'l cho'zdi, ammo botinmadi, yovuqlikning o'zi mahobatli bir devor misol ko'z oldini to'sdi — qo'llarini tortdi, ko'ngliga yana qo'rquv oraladi.

Polvon hayratlandi: senga shunchalik ko'ngil qo'yib edimmi, Xatcha? Kel, qo'llarimda azod ko'taray seni, o'n besh kunlik oyday quchog'imni to'ldir. Xatcha, meni qattiq-qattiq chimchila, zora seni tush ko'rmagan bo'lsam!..

U ayolni dast ko'tarib oddi. Xadichaning bilaklari bo'yniga chirmashgan zamon majoli qochdi, gandraklab ketdi, lekin sal o'tib bilaklarning kuydirguvchi taftiga ko'nikdi, charchog'u og'riq unutildi, go'yo tani ham unut bo'ldiyu uning o'zi bo'yniga chirmashgan bilaklarga aylandi... Faqat yuraklarning ola-tasir urgani seziladi, go'yo butun dashtu dalalar ularning dupuriga to'lgan... Seni shunchalar sog'inib edimmi, Xatcha? Ko'ngildagi kinu g'azabim qani? Nega yig'laysan, Xatcha? Sen ham sog'indingmi? Sog'inganing rostmi, Xatcha? Biror narsa de, shubhalarig bekor de, Xatcha, ko'nglimni qabartma, belimni bukma, gavharni toshga urmaylik, Xatcha!..

Ayolning yuziga tikilib, gumoniga tasdiq izladi. Lekin Xadichaning turgan-bittani — yuzu ko'zi, bo'yniga chirmashgan bilaklari, yoqasiga qadalgan qator sadaf tugmalarigacha iffatga yor, shubhaga zomin edi.

Xadicha erining ko'zlarida bir og'riq ko'rdi, ammo so'z so'ylarga majoli yetmadi, bo'g'ziga tiqilgan achchiq xo'rsiniqni ichiga yutdiyu uning tarashadek qotgan jun chakmoniga betini burkadi...



## ANOYINING JAYDARI OLMASI

U har yili xuddi bir paytda — yerdan qor ketib, tentak shamollar esa boshlagan ko'klam kunlarida kelardi; shamollarga qo'shilib, shamoldek to'polon bilan kirib kelardi. To'satdan. Yelkasida — ha, qo'lida emas, yelkasida — ikki tarafiga ham «Barnaul» deb yozilgan pachoq chamadon, chap ko'zini qisingiragancha qarshingizda beo'xshov tirjayi-ib turadi. So'ng, chamadonni harakatsiz buyumdek bir chetga uloqtiradi-da, quloqlarini keng yozib, bolaligingizni yodga soladigan, bolaligingizdek sho'x, bolaligingizdek beg'am ovozda hayqiradi:

— Chantrimore-e!

Siz esa — uni ko'rganingiz zahoti g'am bosib, tashvishga cho'masiz: xayr endi, osuda kunlarim! U hali shunday g'ala-g'ovurga ko'mib yuboradiki! Biroq ayni damda, har ikkalangiz uchun qadrli, shartli bu g'alati taomilni buzishga haqqingiz yo'q.

— Kalamakatore, — deysiz istar-istamas. — Yana keldingmi? Yana o'qishgami?

— Senginning jonginangga tegishga! — deydi u va battar g'ashingizni qo'zg'amoqchidek, belingizdan mahkam ko'taradi, aylantiradi. — Ha, jo'ramdan-da, jurajonimdan-da!

Uyga kirilgach, egasidek betayin — qulflansa ochilmaydigan, ochilsa qulflanmaydigan antiqa chamadon ming bir amal-taqal bilan ochiladi. Xona kuzaki olmalarning hidiga burkanadi. Bir yog'i qirmizi, bir yog'i xol-xol, bandining tubi qizil qumga to'lgan olmalar; ko'rimsiz, jaydari olmalar. Bolaligingiz olmalari, bolaligingiz hidlari. Boshingiz aylanib ketadi. Ko'p narsa birdan esingizga tushadi, entikasiz. Shu tobda uni quchoqlab olgingiz, «Jo'rajon!» degingiz keladi. Ammo, nimadir, — boyagi g'ashlikmi, g'ururmi yo'l bermaydi, ijirg'anib so'raysiz:

— Nimaga kelding, Ramazon? Bari bir kirolmaysan-ku?!

— Kirsam-chi? — deydi u yana chap ko'zini qisingiragancha tirjayib. — Kirsam-chi?

— Kirolmaysan! Xudoga ham, bandasiga ham ayon!

— Mayli, jo'ra, buyam bir gap-da. Mana, sen o'qiyapsan-ku, bo'ladi-da menga shu. Qo'y-e, manavi olmalarga qarasang-chi! Bunaqasi Bog'i Eramda ham bitmaydi! So'ngra u chamadonini titkilab, o'n qavat dag'al qog'ozga o'ralgan allanimani chiqaradi: — Mana buni enang berib yubordi, suzma-chakki. «Chalob qilib ichsin, chanqog'i bosiladi, — dedi. — Shaharlik qizlardi ketidan yuguraverib tomoqqinalari qaqrab ketgandir bolaginamning», dedi.

Chamadon, o'sha ma'lum va mashhur chamadon tag'in talay hiylayu hangoma bilan yopiladi. Bu chamadonni u harbiy xizmatdan olib kelgan edi. Kelishi ham qiziq bo'lgan. Xuddi hozirgidek to'satdan paydo bo'lib qolgan. Xizmat qilgan joyi — Barnaul haqida vaysayverib kechasi bilan uyqu bermagan. O'sha yerda tug'ilib, o'sha yerda o'sgan kabi gapirgan gapi nuqul — «Bizda Barnaulda unaqa, bizda Barnaulda bunaqa». Ovoziga ohang berib, ruscha so'zlar qo'shib gapirganiga nima deysiz! Ensangiz qotib jerkiganingizdan keyingina bir tirjaydiyu yana azalgi tovushi bilan shang'illab gapira boshladi. Ertalab yuzingizga ko'pik chapiyotganingizda, «E, salaga, zelen!» deya ustarani qo'lingizdan olib harbiychasiga soqol qirishni ko'rsatdi; sip-silliq bo'lib qolgan iyak-chakaklaringizga chamadonidagi askarlik atiridan sepib qo'ydi.

O'shanda u — harbiy xizmatdan qaytayotgan odam — uch-to'rt kun bermalol Toshkentda yurgan, bir oqshom dabdurustdan «Barnaulga ketaman!» deb turib olgan edi. «Esing joyidami, xizmatni tugattan bo'lsang, Barnaulda nima bor senga?» «E—e, uyga borgim kelmayapti. Bir xat olgan edim...» Ammo qanaqa xatligini aytmagan, qiyin-qistov bilan, bo'ynidan bog'lagandek arang jo'nagan uyiga. Endi ham o'qish bahona har kelganida «Bir yoqlarga ketsammikan, jo'ra?» deb qoladi o'z-o'zidan ma'yus tortib. «Ha, tag'in Barnaulmi? — deysiz ensangiz qotib. — Xudo ursin, miyang xato sening, Ramazon!» «To'g'ri aytasan, jo'ra, xato. Nima shunday, o'sha yoqqa ketgim kelaveradi-da. Ey-y, sen tushunmaysan!»

... Ramazon chamadoni qirrasiga o'tirib olib, «Quloq sol», deydi-da, shang'illagancha gap

boshlaydi:

— Boysundan gapiramiz! Toshkentda uloqib yurgan boysunlik musofirlar uchun beriladigan eshittiritimizni boshlaymiz! Ona shahringiz yangiliklari bilan tanishing!

Ashur kal eskilik sarqiti sifatida nosdan voz kechib, zamonaviylikka intilib sigaretga o'tibdi («Koshki foydasi bo'lsa, telpakni tashlab, shlyapa kiyganida ham bari bir hammaga ma'lum: boshi yaltiroq kal!»); o'zining bobosi ko'knorning kayfida momosi bilan g'ijillashib, ammasining chorbog'iga ko'chib ketibdi («Meni boshqa narsa o'ylantiradi. Ukkag'ar boboning bir sandiqchasi bor. Boshining ostiga qo'yib yotardi doim. Gap ko'p-da unda. Olib ketdi! O'shandan umid katta edi.»); Esonberdiev, o'sha g'uddaygan «Esonberdiev-hukumat», Boysun tarixidagi battol milisa, iste'foga chiqqach, Qo'rg'onchadagi nafasi o'tkir mulladan bir oy eskicha saboq olib, dastor o'rab qaytibdi, hozir xatmi Qur'onu chilyosingacha usiz o'tmas emish («Bir kuni xudoyiga ketayotib boshida salla, qo'lida aso, milisaxona oldidan o'tganda chest berib yuboribdi».)...

Ramazonning hangamalarini tinglarkansiz, Boysun oralab yurgandek, ajabtovur odamlar to'dasiga kirib qolgandek bo'lasiz.

— Tur endi, ko'cha aylanaylik, — deydi u «yangiliklari»ni aytib tugatgach.

— Seni bi-ir lag'monga to'ydiray, to'rt tiyinlik «dumba-jigar» somsadan yeyaverib oshqozoning kalla-pochaga to'lib ketgandir. Menga qara, to'rt tiyin-to'rt tiyin yig'ib, shu somsachiga bir haykal qo'ysalaring-chi, a? Maslahat-da buyam. Beshyog'ochning o'-o'rtasiga! Tatigan tuzingga tovon-da.

Ramazon turish-turmushi bilan shaharga yarashmaydi, shaharga sig'maydi. Unga qo'shilib ko'chaga chiqqani ham uyalasiz. Yurgan yo'lida lakalov qiliqlar qilib, Hammani o'ziga qaratib, shang'illagancha allanimalarni vaysab ketaveradi. Lug'ati ham antiqa: tramvayni «uch tiyinlik» deydi, taksini — «pulyutar», restoranni — «registron». Xudo deng, yo'lda suratxona uchramasin — tilla topgan tentakdek qichqirib yuboradi u:

— Ana-a!... Yur, jo'rajon, bir portretga tushaylik!

— Portretni nima qilasan?

— Esdalikka-da. Bir kun katta odam bo'lib, bur. ning ko'tarilib ketsa, «Mana, ikkovimiz jo'ra edik» deb o'zingga ko'rsataman.

— Ko'rsatsang nima bo'ladi?

— Uyalib, burning yana... joyiga tushadi.

— Gapni qarang, burnim joyiga tushar emish! — deyman uni ermaklab. — Xo'sh, qanday turmoqchilar suratda?

Ramazon ko'chaning o'rtasida tomosha yasab, zavq bilan tushuntira boshlaydi:

— Sen o'tirasan, to'g'riga qarab. Men tepangda tik turaman, mana bunday. O'ng qo'lim sening yelkangda, ko'zim chap bilagimdagi soatda bo'ladi. Ikki jo'ra! Qalay, zo'r-a?

— Qo'ysang-chi, — deyman, uylarining to'riga osig'liq — otasi quroldosh og'aynisi bilan xuddi shunday holatda tushgan surat ko'z oldimga kelib. — Bobom zamonidan qolgan poza-ku bu!

— Bo'lmasa, yur, sening fozangga tushamiz, jo'rajon, padrushka qilib...

Ramazonga hammayoq — o'ziniki, ko'rgan odami — amnavachchasidek sinashta, darrov gap qo'shib, apoq-chapoq bo'lib olaveradi. Oshxonada navbatga turganida duch kelgan kimsaga: «Ho'v jo'ra, anavi joyni band qilib, choy-poy tayyorlab turing», deyishi hech gap emas. Muqarrar mojaroni kutganingizda ahvol boshqacha bo'lib chiqadi: haligi kishi bir zum Ramazonga baqrayadi-yu, allanechuk itoatkorlik bilan bo'sh choynak qidirib ketadi. Ramazon ham qarzdor bo'lib qolmaydi: u qiladi, bu qiladi — o'sha zahoti uning ko'nglini oladi. U xo'jalik do'koniga kirib boshog'riq dori so'rashi ham mumkin, xotirjam bo'ling — albatta topib berishadi. U qo'pol qilib so'raydi — unga muloyim javob qaytarishadi.

Ana shunday bizning Ramazon! U bir gal hatto Toshning ham kapalagini uchirgan!

Beshyog'ochda Tosh degani bo'lardi, bezorilarning bezorisi. Rostmi, yolg'onmi, «Pichoqlashib, uch marta qamalgan, tog'asi kattakonlardan, o'sha qutqargan», deyishardi. O'zi maroq bilan eslarmish: «Hi, shundoq qilgan — Hazillashib qo'yganmiz-de». Xudo ham turqni o'ylab bergan: kalla tarvuzdek,

qorin — tarvuzcha, barra — korsonning o'zi, sergo'shtlikdan ko'zlar ko'rinmaydi, tilla tishlar doim tomoshaga irshayib turadi. Kattayu kichik uni «aka» deyishga majbur, o'zi esa hammani, avji kelsa, otasi tengini ham sensirayveradi. Bir to'da «shotiri» bilan ertayu kech kinoteatr oldida pista chaqib, o'tgan-ketganni tergaydi. Borib yetti bukilib ko'rishmasangiz — kun yo'q. «Hi, o'qivossanlarmi? — deydi, ko'zi boshqa yoqda, ko'kimtir yozuvli biqqi barmoqlarining uchini cho'zib. — Malades, o'qilaring. O'qib bo'llaring-de, quyonna rasmini chizlaring».

Ramazon ana shuning kapalagini uchirdi. Kinoteatr yonidan o'tishda men yugurgilab borib Toshga qo'l uzatdim. U «Hi, o'qivossanlarmi?» dediyu to'rt-besh qadam narida turgan Ramazonga ko'zi tushdi.

— O'vv, kelmaysanmi mana bundoq!

— Nima deysan? — Ramazon, kaftida nos, oyoqlarini kergancha beparvo g'o'ddayib turardi. — Gaping bo'lsa, o'zing ke!

O'lding, Ramazon, hozir dabdalang chiqadi!

Ajabo, Tosh men bilan tezgina xayrlashdi-da, unga xavfsirab qaray-qaray zipillagancha kinoteatrga kirib ketdi. (Negadir bu safar yonida sheriklari yo'q edi.) Tosh, kallakesar Tosh qo'rqdi! Umrida chumchuqqa ozor bermagan nimjongina Ramazondan qo'rqib qochdi! (U keyin bir kuni mendan so'radi: «Anuv og'ayning ja-a anaqa-ku, a, kim edi?» Loqaydgina javob qildim: «E, o'zi shunday. To'rt marta qamalib chiqqan-da. O'shanda ham qamoqdan kelayotgan edi». Shundan so'ng Tosh men bilan yuzimga qarab, quyuq so'rashadigan bo'ldi.)

Bu haqda Ramazonga gapirganimda u rostakamiga ajablandi:

— Nimasidan qo'rqaman? Beshyog'och enasining mahriga tushganmi?

Ana shunday bizning Ramazon!

Malika ikkimizga boshlab oq fotiha bergan ham shu — Ramazon. Endigina tanishgan, kinoteatrlarga qatnab yurgan kezlirimiz edi. «Yur, sening ham madaniy saviyang oshsin», deb bir gal Ramazonni teatrga ergashtirib bordim. Madaniy saviyasi oshgan-oshmaganini bilmadim-u, yugurdi-eldi — bilet topib bizni xursand qildi, tanaffus mahali shampanu muzqaymoq ulashib, Malikaning ko'nglini topdi. Ammo bir vaqt tomdan tarasha tushgandek, unga qarab salmoqlangancha «Keli-in, endi-i, bizning Boysunlar ham yomon joy emas», deb qolsa bo'ladimi! Xijolatdan muzlab ketdim. Malika jimgina kulimsirab qo'ydi. Teatrdan keyin uyiga kuzatayotib, Ramazonning qo'polligi uchun uzr so'raganimda, u «Do'stlaringiz ichida eng yaxshisi shu ekan», dedi.

Bizning Ramazon ana shunday!

U har yili o'qishga kirmoqchi bo'lib keladi. Kelgani bilan koshki imtihonni o'ylasa — karavotim ostidagi, burnog'i yil o'zi tashlab ketgan darsliklarni bir-bir qo'luga oladi-yu, ochib ham ko'rmay qaytib joyiga uloqtiradi.

— Gurungdan ber-e, jo'rajon! — deydi shang'illab.

— Ramazon, kirolmasliging aniq, yaxshisi — ket,— deyman jahlimni bazo'r yutib. — Sen, senki kirsang, men tashlab ketaman shu o'qishini, xudo ursin! Maktabda qanday o'qiganing dunyoga doston-ku!

— Hay, hay, men kirmasam kirmayin-u, lekin sen unaqa qila ko'rma — Toshkent shoirsiz qoladi-ya! — deydi u qo'llarini ko'ksiga qo'ygan ko'yi yasama tazarru bilan. Keyin hirlinglaydi: — Algebradan «besh» olganim esingdami?

Esimda, Ramazon bir gal darsda odatdagidek «javob» berganida, ya'ni churq etib og'iz ochmaganida devonafe'lroq matematika muallimimiz «Haydarov, bugun men sizga «a'lo» baho qo'yaman, shuncha yil maktabda o'qib armon bilan ketmang-da», deya unga chindan ham «besh» qo'ygan edi...

Ramazon tong saharda — hali men shirin tushlar ko'rib yotgan paytda turib, nonushtaga Beshyog'ochdan «dumba-jigar» somsa va qatiq olib keladi. So'ng radioni vang qilib qo'yib,

changitgancha xonani supurarkan, xunuk, yoqimsiz tovush bilan hamma qo'shiqqa bir xilda «jo'r bo'ladi».

*Xush qol endi-i, Zuhroxonim,  
Ayro tushdi-i bu jo-on sendan...*

Nonushtadan keyin men o'qishga jo'nayman, Ramazon ko'cha aylangani chiqadi. Goho shu bo'yi uch-to'rt kun ketadi. Bir kuni darsdan kelsam — mushshayib qotgan non kavshab o'tirgan bo'ladi. — Qayoqda eding?

— E, yuribmiz-da.

So'ng, o'tirib-o'tirib Barnaulga jo'namoqchi bo'ladi aldab-suldab yo'ldan qaytaraman.

— Nima qilay bo'lmasa, jo'rajon, ayt?

— Uyga jo'na.

— Qanday ketaman?

— Qanday ketarding — bilet olasanu poezdga chiqasan.

— Tekin bilet kerak-da menga.

— Ie, puling ko'p edi-ku?

— Endi yo'q-da, jo'rajon, nima qilay? Qeyinroq eshitib qolaman. Ramazon hamshahar studentlarimizdan bir-ikkitasini topib, bor puliga o'shalar bilan yallo qilgan, ularga osh bergan. Oshini yeb bo'lgach, miriqib-miriqib bu anoyi-ahmoqning ustidan kulishgan. Qo'shilishib o'zi ham kulgan. Endi esa yo'lkiraga pulni mendan undirmoqchi!

«O'qishga kiraman!» deya kerilib kelgan azamat, imtihon tugul, kitobning ham yuzini ko'rmay, qanday paydo bo'lgan bo'lsa, shunday jo'nab qoladi: to'satdan.

— Akangning safari qaridi, jo'rajon!

— Ketganing rost bo'lsin! Endi kelib ovora bo'lib yurma!

— Kelasi bahor kutaverasan!

Ana shunday bizning Ramazon!

Xudo omadni ham o'lchab, misqollab berar ekan. U bir ketsa... hammasi ketar ekan. Ramazonni qamalgan, deb Toshga maqtaganimda farishtalar kaftlarini keng yozib, «Omin!» demoqqa shaylanib turishgan ekan: Ramazon qamaldi!

Bu safar ham u odatdagidek bir chamadon va bir to'rxalta olma bilan kelgan edi. Malikaga o'zi otgan tulki terisini sovg'a qildi — bulturgi va'da. Biz-nikida ikki kun turdiyu o'zicha bir balolarni valdiray-valdiray, chamadonini ko'tarib allaqayoqqa g'oyib bo'ldi. Oradan uch kunmi, to'rt kun o'ttach, menga militsiyadan chaqiruv qog'ozi keldi.

Ramazonning jo'rasi ekanim — go'lligim, soddaligim basharamga bitilgan shekilli, tergovchi — sarg'ishdan kelgan, ko'kko'z kishi meni kutilmagan dag'dag'a bilan qarshi oldi:

— Sizni qamoqqa olamiz, og'ayni!

Ko'z oldim qorong'ilashib ketdi. Ishga kirganimga bir yil ham to'lgani yo'q, Malika bilan to'yimiz o'tgan yozda bo'lgan, u hozir uyda o'tiribdi — o'g'ilmi, qizmi kutyapmiz. Shunday bir paytda... Nega? Nima sababdan?

Tergovchi sababini aytdi.

Bundan besh kun oldin Haydarov Ramazon uch chamadon olmayu anor va ikki quti uzum bilan Novosibirsk poezdiga chiqayotgan mahalda qo'lga tushibdi («Jo'ra, bir Barnaulga borib kelay deyaipman. Tomoshaga. Xizmat qilgan joylarim, sog'inibman».) Pastda ular ikki kishi ekan, kupeda esa to'satdan bittasi g'oyib bo'lib qolibdi.

Dastlabki tergovning ko'rsatishicha, qochgan chayqovchi — ishboshi. O'sha men emishman!

— Kim aytdi, kim? Isbotlang! — deya joyimdan turib ketdim.

— Kim aytardi, sherigingiz — Haydarov!

La'nati Ramazon! O'zing tushgan chohga meni ham tortmoqchi bo'libsan-da? Nomard, chayqovchi!

— Chaqiring! Yuzlashtiring! — Shosha-pisha yonimni kavlab, xizmat guvohnomamni tergovchining

oldiga otdim: — Mana, ko'ring!

Tergovchi unga anchayin bir ko'z tashladiyu qaytib qo'limga tutqazdi, sinovchan tikilib so'radi:

— Og'ayningiz avval ham chayqovchilik bilan shug'ullanarmidi ?

Shunda og'zimdan chiqqan gap uchun o'zimni hech qachon kechirmasam kerak:

— Shug'ullangan bo'lsa bordir, men qayoqdan bilay? U og'aynim emas, shunchaki hamqishloq, hamshaharmiz.

— Shunaqami? U sizni og'aynim, yaqin og'aynim, dedi-ku?! Hozir olib kelsam, og'aynim emassan, deb yuziga ayta olasizmi?

— Bo'пти, sizga ruxsat, — dedi tergovchi chaqiruv qog'oziga imzo chekib berarkan, sovuqqina bir ohang-da. — Iloji bo'lsa, uyidagilarga xabar qilib qo'ysangiz — kelasi jumada sud. Ha, shoshmang. U siz haqingizda hech nima degani yo'q. «Og'aynim bo'ladi, ikki kecha uyida yotdim», dedi, xolos. Keyin tergovchiga anqayib qaradim.

Sudga ikki kun qolganda — kuyadori hidi anqib turgan kostyumiga urushda olgan medallarini taqib ramazonning otasi va sovxozda shofyorlik qiladigan akasi yetib keldi.

Ota ko'rgan odamiga nuqul bir gapni takrorlaydi:

— To'ydan qochib kelib edi. Tog'asining qiziga ko'ngli yo'qmi, to'ydan gap ochdingiz — o'qishni bahona qilib, Toshkandga jo'naydi. Armiyadan qaytganidan beri shu ahvol. U yoqda enasi og'ir yotibdi, «Ulimning mavridginasini ko'rmay ketadigan bo'ldim-da», deb chirqillagani-chirqillagan. Bozor bormoq tugul og'zidagini eplab yutolmaydigan bolaning bu ishini qarang endi!

Tajangroq akaning battar tajangligi tutadi:

— Shuningizni o'zi boshdan erakalatib yubordingiz-da, ota! Oyog'iga kishan urib bo'lsa ham, to'yni boshlash kerak edi. Bu muttahamga nima yetishmasdiki, bizni bunday sharmanda qilib o'tiribdi!

Ota turib-turib mendan noliy ketdi:

— A, jijanjon-a, siz-ku o'qigan, esliroq edingiz, jo'rangizni yo'ldan qaytarmabsiz-da! Nima kasofat urdiki...

Ramazonning sudi ham o'ziga o'xshadi — qip-qizil hangoma! Sudya — ko'zoynak taqqan, o'rta yoshlardagi barvasta ayol — yigirma yil shu sohada ishlab, bunday antiqa sudni ham, bunaqa g'alati sudlanuvchini ham ko'rmagan bo'lsa kerak. Butun sud davomida u ishni harchand yengillashtirishga urinmasin (otaning ko'krigidagi medallar, onaning og'ir yotgani to'g'risidagi spravkayu boshqa ijobiy qog'ozlarning xizmati tufayli bo'lsa kerak), ayblanuvchining o'zi unga sari battar chalkashtirar, chigallashtirar edi. Ramazon hozir ayblanuvchidan ko'ra ko'proq qiziqchiga, o'zini atay merovlikka soladigan tsirk masxaraboziga o'xshar-di. Sochi tap-taqir olingan, egnida — yotgan joyidagi allakimning ola-bula, yoqasi ochiq bachkana ko'ylagi, Qo'llarini orqaga qilganicha burchakda allanechuk kulgili tarzda qo'qqayib turibdi. Go'yo bu yerda bo'layotgan gaplarning unga sira aloqasi yo'q — to'planganlarni shunchaki kuldirishi, maroqlantirishi lozim, xolos Savolni tushunmagandek ko'zlarini pirlpiratib, xonadagi yigirma chog'liq odamga bir-bir qarab chiqandan so'ng shiftga tikilgan ko'yi shunday bir gapni aytib yuboradiki, sudya ko'zoynagini qo'lga olib baqrayib qoladi: goh yelkasini qisadi, goh boshini changallaydi. Boshqalar ham shunday. Ramazonning o'zi esa menga qarab xijolatimiz iljayib qo'yadi. Tergov beraveriga joniga tekkanmi yoki birga yotgan tajribali sheriklarining turli-tuman yo'l-yo'riqlari gangitib tashlaganmi, xullas, uni qandaydir jin chalgani aniq edi.

— Ayblanuvchi Haydarov Ramazon, oldin ham shu ish bilan shug'ullanganmisiz? — deb so'raydi sudya.

— Men, Haydarov Ramazon, 1950 yili Boysun rayonida tug'ilib edim. Keyin... — deya tutilib qoladi.

— Ayblanuvchi Haydarov, hech kim sizdan tug'ilgan yilingizni so'rayotgani yo'q. Oldin ham chayqovchilik qilganmisiz, deya pman?

— Keyin maktabni bitirib, Sovet Armiyasi safida xizmat qilib edim. Keyin bo'lsam...

— «Keyin, keyin»... — Sudyaning ensasi qotdi. — Hayda-arov! Bu gaplar hammasi mana — ishingizda yozilgan. Siz bizga ayting: avval ham qilganmisiz shu ishni?

- Qanaqa ishni?
- Uf-f! Chayqovchilik-da!
- Yo'-o'q... E, qilganman, qilganman.
- Iya, dastlabki tergovda «Chayqovchilik bilan shug'ullanmaganman», degan ekansiz-ku?
- Shug'ullanmaganman-da o'zi.
- A, hozirgina nima dedingiz?
- Shug'ullanmaganman, desam... ishonasizmi?
- Uf-f... Ayting-chi, sherigingiz kim edi?
- Sherigim, sherigim... bilmayman... yo'q edi.
- Shuncha yukni bir o'zingiz qanday ko'tarib chiqdingiz poezdga? Biror kishi yordam bergandir?
- Hech kim yordam bergani yo'q, o'zimiz... e, o'zim! Nima, chamadon ko'tarib yurish qiyinmi? Ichida to'rt-besh kilogina olmasi bor edi, xolos.
- Menga qarang, Haydarov, uch chamadon va ikki quti bilan qo'lga tushgansiz-ku? Qolganlari kimniki edi bo'lmasa?
- Demak, ular boshqa shaxsga tegishli bo'lgan. Organ odamlari kuzatayotganini sezib, u sizga tashlab qochgan, shundaymi? A, Haydarov?
- Shunday... E, yo'q-yo'q, meniki edi, meniki!
- Ayblanuvchi Haydarov! Esingizni yig'ib oling. Yo tob-pobingiz yo'qmi? Qaeringiz og'riyapti, ayting, sud majlisini to'xtataylik.
- Ebi, nimaga? Soppa-sog'man.
- Bo'lmasa ayting: buncha uzumu anorni ko'tarib qayoqqa ketayotgan edingiz? Nima maqsadda?
- Shunday, aylanib kelgani. Barnaul — xizmat qilgan joyim. Zo'r joy, og'anilarim ko'p u yerda.
- Shuncha narsani og'aynilaringizga olib borayotgan ekansizlar-da?
- Yo'g'-e, men ularga to'rttagina olma olgan edim, bo'ldi. Quruq bormayin deb.
- Uzum bilan anor-chi? Ularni sotmoqchi bo'lgansiz-da?
- Nega sotaman? Axir u... Bilasizmi, men Barnaulga...
- E, Barnaul, Barnaul!.. Olmani qaerdan oldingiz?
- Qaeringiz nimasi? Chorbog'dan-da. Kuzda boring, chorbog'imizga to'lib yotadi, yerga to'kilib.
- O'sha yoqdan olma ko'tarib kelish shartmidi? Sovg'aga ekan, Toshkentdan olaqolsangiz bo'lardi-ku?
- Bu yerning olmasi bo'lmaydi-da, taxir, dorining ta'mi keladi. Bizda shunday bir olma bor, Boysunning olmasi, «jaydari olma» deymiz. Boshqa joylarda bitmaydi unaqasi. O'zi ko'rimsizrog'-u, lekin shunday shirin, shunday shirin, yesangiz...
- Mayli, mayli, Haydarov, keyin yeymiz olmani...
- Zo'r olma-da lekin. Bu, hozirgi olmalarigizning bari buzilib ketgan. Har baloni payvand qilaverib aynitib yuborishgan-da. Faqat bizlarda qolgan unaqasi. Men o'zim olmani uncha yaxshi ko'rmayman. Yesam — ko'nglim ayniydi.
- Ha-a, demak, olma o'zlaringizniki, uydan olib kelgansiz?
- Ie, ishonmasangiz, ana — otam o'tiribdi, akam o'tiribdi, jo'ralarim — so'rang! Ka-atta olmazorimiz bor! Yo to'rt kilo olmaga ham spravka olib kelaymi?
- Bo'пти, bo'пти, ishondik. Demak, siz uyingizdan to'rt-besh kilo olma olib, o'sha o'zingiz aytgandek, hech joyda bitmaydigan antiqa olmadan olib, birga xizmat qilgan og'aynilaringizni ko'rib kelgani Barnaulga jo'nagansiz. Bittagina chamadon bilan, bittagina! A, qolgan narsalar kimniki edi — uzum, anor?
- Uka, tushunsangiz-chi, biz sizga yordam qilmoq-chimiz. Yaxshilab o'ylab, to'g'risini ayting. Taqdiringiz hal bo'lyapti, axir!
- Opajon, bir marta kechiring!
- Men sizga «opajon» emasman!
- O'zingiz «uka» deyapsiz-ku, men nima deyin sizni? Otingizni bilmasam, familiyangizni

bilmasam...

- Otimni bilishingiz shart emas. Men siz uchun— grajdanin sudyaman!
- Men ham grajdanman.
- Yo'q, siz endi — ayblanuvchisiz, aybdorsiz!
- Men... aybdorman?! Aybdorman, kechiring...

Sudya ko'zlarini qattiq yumib, boshini changallagancha sarak-sarak qildi.

Bu gaplar hammasi tushimda kechayotgandek edi. (Tushda bo'lmay, hayotda ham shunaqasi bo'ladimi, axir!)

Hukm o'qildi. Chayqovchilikda ayblangan Haydarov Ramazon bir yilga ozodlikdan mahrum etildi.

U bo'ynini qiyshaytirganicha mung'ayibgina turardi. Hukmni eshitib asta boshini ko'tardi, nimadandir xijolat chekkan misol g'alati iljaydi! Iljaydi! Go'yo qamoqqa emas, bir yillik tomoshaga, dunyo bo'ylab sayru sayohatga ketyapti!

Suddan keyin xuddi bir mo'jiza ro'y berib, «Kechirasizlar, hazillashgan edik, Ramazonjon kecha tug'ilgan chaqaloqdek begunoh ekan», deya ozod qilib yuboradigan kabi, hovlidagi tut tagida to'dalanib turgan edik, tasodifan Toshga ko'zim tushdi. U qandaydir militsiya leytenanti bilan yurgan ekan.

— Hi, bundoq? — dedi oldimdan o'tayotib.

— Yana o'sha!.. — dedim ma'noli qilib.

— O'sha-ya! — U ko'rsatkich barmog'i bilan kekirdagini «kesib», «Nima, odam o'ldirganmi?» demoqchi bo'ldi.

— Shunga yaqin, — dedim bu gal kamtarlik bilan: kayfiyatim buzuq edi.

Tosh «Zo'r ekan, tan berdim» degan kabi boshini dikillatib, leytenantning ketidan zipilladi. «Ramazonan qolishmaslik uchun to'rtinchi marta «hazillashib» qo'yganmi, kim bilsin...»

Bir payt qandaydir shang'illagan ovoz qulog'imga chalindi:

— E-ey, she'ringni o'qidim — gazeta berar ekan!

Ovoz kelgan tarafga qarasam — Ramazon! Qo'llari orqada, ikki soqchining o'rtasida yopiq mashina tamon ketyapti, ko'zlari chaqnaydi: «E-ey, she'ringni o'qidim....»

«O'l-a,— dedim ichimda,— shunday paytda mening she'ringa balo bormi, o'zingni o'ylasang-chi!

— lekin xudbinlik ustun keldi: — O'qibdi-ya, o'sha yerda o'qibdi-ya!»

Ramazonning ortidan qarab qolarkanman, negadir uning sevimli qo'shig'i esimga tushdi: «Xush qol en-di-i, Zuhroxonim...»

— Jo'rang qip-qizil g'alcha ekan, — dedi sudga birga borgan yozuvchi do'stim qaytishda. — O'zini o'zi qamatdi. — Chexovning «Yovuz niyatli kishi» hikoyasidagi Denisning o'zginasi-ya! O'qiganda shunaqa odamlar borligiga ishonmagan edim...

Kechqurun uyda Ramazonning otasi bilan akasini xo'b kutdim, mendan domangir bo'lishganmi yoki bu ko'rgilikdan gangib Boysunga jo'navorishganmi — kelishmadi.

Ramazonning qamalganiga besh oy bo'ldi. Besh oydirki, yursam ham, tursam ham — ichimda bir tugun, qattiq, ozorli tugun. Jonim chiqadi, Ramazonni so'kaman, so'kaman-u, ajabo, ko'rgim keladi uni, ko'rgim! Uning oldida o'zimni aybdor sezaman. To'g'ri, u ko'p g'ashimga tekkan, meni ko'p g'alvalarga qoldirgan; balki muttahamdir, chayqovchidir, lekin bari bir — jo'ram! Jo'ram yotibdi. Qamoqda. Qanaqa joy ekan u?

Besh oy davomida undan uchta xat keldi. Ammo... uchalasi ham bittagina so'zdan iborat: «Chantrimore!» Vassalom.

«Chantrimore» — Kalamakatore... Shodi garang... Bolaligimiz ertagi, zavqi, quvonchi. Maktabimizning yonida yashardi. Qachon qaramang, iljayib turadi. Basharasiga baqrayib so'ksangiz ham iljayardi — eshitmasdi, qulog'i og'ir edi. Qishin-yozin mudom bo'yin-boshini malla qiyiq bilan tang'ib, quloqchin bostirib yurardi. Oqshomlari eshigi og'zidagi supachada, go'yo hech kim eshitolmaydigan bir kuyni tinglayotgandek, ko'zlari chala yumuq, mudrab-chayqalib o'tirardi. Ahyon-ahyonda o'tkinchilardan birortasiga qarab «Chantrimore!» deb hayqirar, «Chantrimore!» desangiz,

«Kalamakatore!» deb javob qaytarar edi. Hovlisi muyulishdagi pastlab ketgan torko'chani adog'ida edi. Qish kunlari yer muzlaganda biz unga suv sepib, ko'cha og'zida Shodi garangning ishdan qaytishini poylardik. U bamaylixotir yurib kelib, xuddi kar emas, ko'rdek, oyna misol yaltirab yotgan sirpanchiqqa oyoq qo'yar va ana shu zahoti bor bo'yi ko'tarilib tushar, boshidagi quloqchin otilib ketib, o'zi sirg'algancha darvozasi tagiga borib qolar edi. Biz esa torko'chani qiyqiriqqa ko'mib yuborardik: «Chantrimore! Kalamakatore! Chantrimore! Kalamakatore!...» Shodi garang alpong-talpong joyidan turib, quloqchiniga qarab chopardi. So'ng ko'zlarini olaytirib, bizga po'pisa qila-qila hovlisi tomon yurar, hayal o'tmay, cho'poni barini olmaga to'ldirib chiqar va uni qorning ustiga qubba shaklida terib qo'yib, o'zi uyiga kirib ketar edi. Biz bitta-bitta sirpana borib, olmalarni qo'yin-qo'njimizga joylab, «Chantrimore! Chantrimore!» deya suron solgancha ko'cha boshiga qaytardik. Shodi garang esa darvozasidan boshini chiqarib hayqirib qolardi: «Kalamakatore! Kalamakatore!..»

Doim shunday bo'lardi. Biz doim torko'chaga suv sepib qo'yar, Shodi garang doim ko'ra-bila o'sha yerdan yurib uchib tushar, keyin turib bizga po'pisa qilar, lekin doim olma bilan siylar edi. Doim! Uning farzandi yo'q edi. Xotini bor, hovli-joyi bor, kattakon olmazor bog'i bor — farzandi yo'q edi.

Bir kuni kimdir meni telefonga chaqirib, «Tush pastga!» deb do'q qildi. «Kimsan o'zing?» dedim jahlim chiqib. Nogahon men sira kutmagan shang'i ovoz yangradi: «Chantrimore!» Yuragim gupillab ketdi. Qaerdan? Qanday qilib? Nahotki?..

Tushsam — ishxonamiz oldidagi xiyobonda birov ishshayib turibdi. Yuzi shishinqiragan, ko'zlari ich-ichiga cho'kkan, ko'ylak-shimi g'ijim bir kimsa, Ramazon.

— Ha?! — dedim hovliqib, tahlika bilan.

— Keldim.

— Qanday? Hali, hali ... vaqt bor-ku?

— Qochdim-da, jo'rajon, seni ko'rgim keldi. — U quloqlarini keng yozib yaqinlasha boshladi.

— Qochding?! — Men, to'g'risi, allanechuk irgandimmi, tisarildim va g'azab bilan baqirdim: — Yo'qol, ko'zimga ko'rinma! Meni tinch qo'y!

— Panjaradan kelgan odamniyam jo'rasi shunday kutib oladimi?

Uni qayta sud qilib, ochiqqa — majburiy xizmatga chiqarishibdi. Muddati bitguncha shahar yaqinidagi g'isht zavodida ishlarmish.

— Oqlashdi, jo'rajon, oqlashdi, — deya tinmay qirlardi u. — Aybim yo'q edi-da o'zi.

— Nega aybing bo'lmas ekan? Chayqovchi! Bizda begunoh odamni qamamaydi. Unaqa qonun yo'q.

— Mana, meni qamadi-ku? E, u yerdagi odamlarning gapini eshitib tursang, birontasiniyam tirnoqcha aybi yo'q. Lekin — bor, bor! Mana, o'zimni olaylik, aybim yo'q edi — bor chiqdi. Shunday gap-da. — Ramazon kaftini to'ldirib nos otdi. U qandaydir o'zgarib — jiddiylashibdi, chala faylasufga o'xshab qolgan edi: ilgari hech bunday gapirmasdi. Nosini tufurgach, yengil tortgandek qo'l siltab, davom etdi: — Mayli, bu gaplar hozir befoyda, baribir ishonmaysan. Keyin bir kun hammasini aytib beraman. Lekin, boyagi gaping to'g'ri: aybi bo'lmasa qamamaydi. Ayb, ayb, deymiz-u, kimda yo'q u, jo'rajon? Mana shu savlat to'kib yurganlarning hammasi ham oppoqmi? So'ng u tuyqusdan eski ashulasini eslab qoldi:

— Yur, jo'rajon, ikkovimiz bir portretga tushaylik!

— Shu aft, shu angor bilanmi? — dedim kulib. — Boshqa payt, boshqa payt.

Ramazon o'sha kuni menikida tunab, ertasi ishiga ketdi. Ishi og'ir — tandirdan cho'g'dek qizib chiqqan g'ishtlarni olib taxlar ekan: horib-chuykab, kaftlari qavarib, oyda bir marta, shunda ham yo'lkira so'rab kelardi. Hordiq kuni shaharga tushib, eski odati — bor-budini allakimlarga ulashib, ketishda mendan pul so'rab kelardi.

O'sha — o'zimizning Ramazon!

Olti oydan keyin uning jazo muddati bitdi. Bitgan kuni u kechki poezdga bilet olib, ishxonamga



keldi.

- Hamma jo'rangni chaqir!
- Ha, yana biror hunaring qolganmidi?
- Bi-ir, registronda o'tiraylik! Ketar jafosiga!

Ishdan ertaroq chiqib, to'rt-besht ulfat «Zarafshon» restoraniga bordik. Ramazon hamma narsani taxt qilib, uzun stolning to'rida tirjayib o'tirgan ekan.

— Bor jo'rang shumi? E, bechora! Ziqnaligingga boribsan-da. Qo'rqma, karmon katta, atab qo'yganini berdi!

O'sha kech restoranda rosa yayradik. Ramazonning o'zi ayniqsa bayram qildi. Muzika boshlanishi hamono o'rtaga tushib, holdan toyguncha o'ynadi. O'yini ham o'ziga o'xshagan edi: goh tizzalariga shapatilay-shapatilay davra bo'ylab kavkazchasiga yo'rg'alab ketadi, goh qo'llarini ikki yonga siljitgancha kiftlarini qimirlatib., «Ha-a, hu-u!» deya qiyqiradi, hayqiradi, sakraydi, irg'ishlaydi: goh jilmayadi, goh hazilga qovog'ini uyub oladi: duch kelgan qizni raqsga tortadi, ajabki, u ham nozlanib o'tirmay peshvoz chiqib boraveradi: qizga qarab kuladi, yig'laydi, po'pisa qiladi, yolvoradi: endi mag'rur, purviqor, keyin yana tushkun, g'amgusor, yana izhor, iltijo... Chapak, olqishlar...

Butun restoran ahli tomoshabin, barchaning ko'zi Ramazonda. Butun u bayram qilardi, tantana qilardi: kechagi g'amu g'uborlarini unutgan, yana asliga qaytgan, o'sha eski — beg'am, beg'ubor Ramazonga aylangan edi.

Restorandan chiqqach, sheriklarimga javob berib, Ramazonni kuzatgani u bilan vokzalga bordim. Poezd hali kelmagan ekan, suv ichish bahona tag'in restoranga kirdik. Kayfi ancha oshib qolgan Ramazon ana shunda dardini yordi.

— Bari bir ishonmaysan-da, jo'rajon, — deya gap boshladi u. — Lekin iltimos: bu safar ishon!

Ramazon o'shanda rostdan ham Barnaulga jo'nagan ekan. Poezdni kutib o'tirib, mana shu yerda, restoranda bir kishi bilan tanishib qoladi. Birga ovqatlanishadi. Keyin Ramazon uning yuklarini — o'sha mash'um chamadon va qutilarni vagonga joylashga ko'maklashadi. Poezd jo'nay-jo'nay deb turganda kupega ikki odam kirib keladi. Ularning sharpasini oldinroq sezgan haligi kishi tahlika aralash yig'lab-yolvorib Ramazonga yopishadi: «Jon uka, yuklar meniki deng, yarmi meniki, deng. Chiqib ketsak, foydani teng bo'lamiz. Meni bilishadi, qo'lga tushsam... Siz yoshsiz, kechirishadi», alay-balay. Ramazon — go'l, tay-tuv Ramazon laqqa ishonadi, hech baloni o'ylamasdan rozi bo'ladi. Hushini yig'ib, qarasa — atrofini miditsionerlar o'rab turibdi. «Ha, meniki, meniki,— deydi sarosimaga qolib,— hammasi meniki». Yoniga qarasa — haligi kishi yo'q, yerga kirgandek zim-g'oyib.

— Ana, aytdim-ku, ishonmading, bari bir ishonmaysan, — dedi Ramazon hafsalasi pir bo'lgandek, qandaydir mung bilan. — Hech kim ishonmaydi.

— Shu gaplarni nega sudda aytmading? — dedim hayratim oshib.

— Aytib edim, tergovda ming marta takrorladim. Tergovchi eshitgisi ham kelmadi. «Senlarning hammang shunaqa tulkisan!» dedi. Nima qilsin — shuncha narsa bilan qo'lga tushganingdan keyin yelkangga qoqib, qo'yib yuborsinmi? Kimnidir qamashi kerak-ku, ularning ham plani bordir. O'zi tergoviyam, kamerasiyam jonga tekkan edi, jo'ra, e, cho'zilib yotadimi, xudoning buyurgani-da, dedim!

— Ahmoq, tentak! Bir muttahamning nayrangiga uchi-ib... Odam ham shunday anoyi bo'ladimi? Men o'la-qolsam ishonmasdim.

— Men ishondim-da, jo'rajon, nima qilay? «Yettita bolam bor, — dedi, — yettovi ham qiz, — dedi.

— Uchtasi bo'y yetgan, uzatishim kerak, o'zim zavodda oddiy qorovulman, jigarim kasal», dedi. Ahvolini ko'rgan kishi, agar inson bo'lsa, ishonardi, men ham ishonibman-da, jo'rajon!

— Mana — ishonchingga mukofot!.. Sen ham qochgin edi, «Bilmayman, meniki emas», deb turib olgin edi, kallavaram!

— Bunday qilsam, uni tutar edi-da? So'z bergan edim, nomardlik bo'lardi...

— Ie! — dedim fig'onim chiqib. — Ha, tutsin edi, qamasin edi — qilmishiga yarasha!!! Voy ahmog'-ey, so'z bergan emish! Balki qizlarining tashvishini qilgandirsan, ersiz qoladi sho'rliklar deb?!

Ehtimol, o'sha uchchiga chiqqan chayqovchidir, qallobdir! Ular shunaqa bo'ladi. Ba'zan hatto uydagi xotinini ham o'rtaga qo'yib...

— Unisini senlar bilasan, gapga boysanlar. Kap-katta odam, ko'ziga yosh olib gapirganda ishonmay bo'ladimi? Sochlari ham oq edi... Mayli, jo'ra, endi pushaymonning foydasi yo'q — bo'lgani bo'ldi, bo'yog'i so'ndi. Dunyoni panjaradan ham bir ko'rib qo'ydim-da, ziyon qilmas...

Ramazon chakkasini kaftiga bosgan ko'yi deraza osha perronga tikilib o'tirardi. O'ychan, beozor, hokisorgina... «Uni xushlamaslik, yoqtirmaslik mumkin, lekin yomon ko'rib bo'lmaydi», deb o'yladim ichimda.

U bir payt ko'zini qisingiragancha nima deb qoldi deng:

— Hozir Novosibirsk poezdi keladi, hayyo-huyt deb Barnaulga jo'navorsam-chi?

— O'lging kelgan bo'lsa shunday qil, milisaga tutib bermagan ham nomard! — dedim achchiqlanib. Laka-lov qiliqlari, gap-so'zlari yana birpasda ko'nglimga urgan edi. — Ramazon, boshni qotirma, qayoqqa ketsang ket, jo'ra! Iltimos, endi bu yoqlarga qadam bosa ko'rma!

Ramazon ketdi. Poezd o'rnidan qo'zg'alganda perron bo'ylab bir hayqiriq yangradi: «Chantrimore-e!» «Kalamakatore» bo'g'zimda qoldi — ayolmadim. Poezd endi to'xtamaydi, uni na men, na Ramazon to'xtata oladi: Ramazon esa ketdi, jo'nab ketdi, endi kelmaydi!

U ketgach — shahar, g'ala-g'ovur shahar birdan zeri-karli, fayzsiz ko'rindi ko'zimga.

Shunday qilib Ramazon ketdi, boshqa kelmadi. Borgani yili uylandi, baribir o'sha qizga — tog'asining qiziga uylandi. (Onasi ham tuzalib qolgan bo'lsa kerak.) Keyingi yili o'ziga imorat qurdi. Hozir to'y qilmoq taraddudida yurganmish...

Bultur kuzakda Boysunga borganimda bozor aylanib yursak, yonimdagi hamrohim:

— Ana, oshnangizni qarang! — deb qoldi.

Ramazon! Oldida bir choyquti, bozorni boshiga ko'tarib, yeng shimarganча olma sotyapti. Ko'nglimda shubha uyg'ondi: «O'shandagi gap tasodif emas shekilli, asli qonida bor ekan-da buning». Lekin nima ham derdingiz — tirikchilik, birovning ro'zg'orini birov tebratmaydi.

— Barnaulda olma kamchil emish, Barnaulga olib borish kerak edi! — dedim yaqinlashib, kinoya bilan.

— E, e, jo'rajon! — deya yuzi yorishganча o'rnidan turib ketdi u. — O'zim ham Barnaulni ko'zlab turuvdim, senday maslahatchiga zor bo'lib. Nima qilay, jo'ra, yer bilan bitta to'kilib yotibdi. Molga beray desam, ko'ngil bo'lmaydi, uvol. Undan ko'ra... — Ramazon tanlab-tanlab, hamrohim bilan menga ikkitadan olma tutqazdi. — Yeb ko'ringlar, bunaqasi Bog'i Eramda ham yo'q.

Birpas oldida chaqchaqlashib turdik. U hay-huylab o'tgan-ketganni chaqirar, idishi bo'lsa idishini, bo'lmasa — qo'yni-qo'njini olmaga to'latib jo'natar edi.

— Pulini nega olmayapsan?

— E, otamga qavm bo'ladi, noqulay.

— Bunisi-chi?

— E, ena jamoatimizdan qarindosh...

— Olmang ko'p bo'lsa, davlatga topshirvormaysanmi bunday qilib o'tirguncha?

— Qarzim bormi? Arzon oladi!

— Axir, hammaga tekin ulashyapsan-ku?

— E, biri xesh, biri tabor.

— Senga begonasi bormikan Boysunda?

— Bor, — dedi Ramazon tirjayib. — Mana — sen! Musofir, sotqin, shaharlik!

U kechqurun bir to'rxalta sara olma ko'tarib uyimizga keldi.

— Yaxshimi, yomonmi, shoir noming bor, ko'chada olma ko'tarib yursang obro'ying buziladi, dedim...

«Obro'ying buziladi», «to'kiladi emas, «buziladi!» Ramazonning gapi, Ramazongina shunday deyishi mumkin!

Ana sizga — Ra-ma-zo-on!

Ramazon, jo'ra, jo'rajon, mana — qo'limdan kelganicha seni naql qildim. Men bu narsani sen uchun, senga bag'ishlab yozdim. Ba'zi o'rinlarda oshiribroq yuborgan bo'lsam, ko'nglingga olmassan. Bu ish qurg'ur o'zi shunaqa, shunday qilmasa bo'lmaydi.

Mendan ahvol so'rasang — turmushim eskicha, bir maromda. Chatog'i shundaki, bi-ir maromda! Noliyotganim yo'q, hamma narsam yetarli, joyida. Lekin hayotimga nimadir yetishmaydi, nimadir — yirikroq tashvish deymizmi, to'polon deymizmi yoki bir mo'jizami... Qilayotgan ishlarimdan ko'nglim to'lmaydi, hammasi ko'zimga mayda, arzimasdek tuyuladi. Ishga borib kutasan o'sha narsani, uyga kelib kutasan — behuda. Goho boshingni devorga urging keladi — shoyad biror yangilik ro'y bersa!..

Bu nolish, shikoyat emas, Ramazon — hasrat, do'stning do'stga hasrati!

Kecha kechasi bironing yo'talidan uyg'onib ketdim. Qattiq yo'talardi, beton devorga qoziq qoqqandek bo'g'iq yo'tal. «Qizimmi?!» Uyqu qochdi. Xotinimni uyg'otib, «Turib qarasang-chi!» dedim. Narigi xonaga chiqib, qizimdan xabar olgan xotinim «E, qo'shning bolasi-ku!» dedi. O'sha zahoti xotirjamgina uyquta ketibman.

Nega bunday, Ramazon?

O'tgan hafta tunga yaqin uyimga telefon bo'ldi. Boysundan. Bir hamshaharimizning tog'asi vafot etibdi, ertalab chiqarishmoqchi, iloji bo'lsa, shu gapni jiyaniga yetkazishim kerak ekan. «Bemahalda sizni bezovta qildik-da, og'ajon, ovora bo'lasiz-da», deb qayta-qayta uzr so'rashdi, «Iloyo bir o'g'lingiz o'nta bo'lsin, baraka toping», deya rosa alqashdi. Ishdan qattiq charchab kelgan edim, o'zimcha mulohaza yuritdim: «Jiyanining uyi shaharning bir chetida! Ertalab chiqarisharkan, bugun borib aytdim nimayu saharda ishxonasiga telefon qilib qo'ydim nima — bari bir janozaga yetib borolmaydi». Yetib borolmasligi aniq edi, lekin...

Ana shunday, mening uyimda telefon bor! Men ishdan charchab kelaman! Nega bunday, Ramazon? O'rnimda sen bo'lganingda nima qilarding?

Sudingda qatnashgan yozuvchi do'stim yaqinda «O'zini o'zi qamatgan afandiroq bir oshnang bor edi, qaerda hozir, nima ish qilyapti?» deya seni so'rab qoldi.

Afandimiding, Ramazon? Hozir ham shundaymisan? Bilaman, shundaysan, sen o'zgarmaysan. Ammo men nega o'zgardim? Nega bunday bo'lib qoldim? Nega o'shandagi zorlanishlaringga kulib qaradim, sen bilan «bir portret»ga tushmadim? Tushganimda, bugun uni xonamning to'riga osib qo'yardim — ba'zi narsalarni eslatib, ba'zi narsalardan ogohlantirib turardi. Men aytgan «poza»lardan, sen aytgan «foza»lardan...

Bir haftalik betayin, bema'no kuydi-pishdilar oqibati — shanba kunlari turgim kelmay, to'shakda uzoq cho'zilib yotaman, gangib, karaxt yotaveraman, kutib — nimanidir, kimnidir... Mana, hozir sen kirib kelasan. To'satdan. Tashvish bilan, to'polon bilan. Olma olib kelasan, jaydari olma. «Chantrimore-e!» deysan qulochingni keng yozib. «Kalamakatore!» deyman men.

Bu nima degani, Ramazon? Qaysi tildan bu g'alati so'zlar, ma'nosi nima? Men bilmayman, sen ham bilmaysan. Shodi garangdan so'raylik desak, u endi yo'q — uzoq yili o'lgan. Miyasi aynib o'lgan. Quloqning zahmidan. Urushning kasri.

Undan tirnoq — farzand qolmadi, mol-dunyo qolmadi — «Chantrimore» qoldi, «Kalamakatore» qoldi, bizga: senga, menga...

Nima degani bu?

O'ylashimcha, buni endi faqat ikki kishi — ikkalamizgina tushunadiganga o'xshaymiz: senu men.

1981

## BUNCHALAR SHIRINSAN, ACHCHIQ HAYOT!

*«Oloy malshasi» — Qurbonjon dodxoh 1865 yildan to 1880 yilgacha Pomirda bir sarkarda sifatida xalqni o'z atrofiga to'plab. ko'lida yalang qilich bilan fon Kaufmanga qarshi kurashdi. U shu darajada jasoratli bir xotin ediki, rli Qamchibek Kaufman tomonidan asir qilinib, dorga osilayotganda, dor tagiga kelib, o'g'liga xitoban:*

*— Xayr, o'g'lim, ota-bobolaring ham dushman ko'lida halok bo'ldi, Shahid o'lmoq bizga meros. Senga bergan sutim oq bo'lsin! — deya olgan va otining jilovini ters burib, o'g'lining tortayotgan azob uqubatlaridan shartta yuz o'girib keta olgan xotindir».*

G'afur G'ulom

\* \* \*

Ming sakkiz yuz yetmish oltinchi yil, yigirma oltinchi fevral. Marg'ilon.

Qahraton qahridagi rutubatli, xazin bu kun qishning odatiy kunlaridan deyarli farq qilmay nihoyasiga yetmoqda edi. Bu kun ham shahar odatdagidek tong qorong'isida muazzinlarning ovozi bilai uyg'ondi Azonni eshitgan ahli muslim bu kun ham shosha-pisha tahorat olib, yaxlagan yo'laklardagi qor-qirovlarni g'ijirlatganicha ertalabki izg'irinda junjika-junjika masjid sari shoshildi; bu kun ham past-baland tomlar ustida har doimgidek zaif, beqaror ko'kish tutun xiyla vaqt muallaq osilib turdi; bu kun ham quyosh xuddi sovqotayotgandek osmonda bir muddat siyqa tanga kabi xira yaltirab, so'ng pag'a-pag'a kulrang bulutlar ostiga kirib ko'zdan yo'qoldi, tirikchilik g'amida yaydoq ko'chalarda sarson suringan turfa odamlar bu kun ham shaharning ruhsiz qiyofasiga ma'yus bir jonlanish bergandek bo'ldilar...

Xullas, qahraton qishning befayz, jimjit bu kuni shu choqqacha bu ko'hna shahar o'z boshidan kechirgan minglab kunlar singari yo'qlik sari botib, bir palla, tuyqusdan misli ko'rilmagan ola-to'polon boshlandi. Bozor maydoni to'rt tomondan guras-guras oqib kelayotgan odamlar bilan to'ldi.

Maydon shahar bunyod bo'lgandan buyon hali bu qadar tumonatni ko'rmagan edi. Achchiq izg'irin yuz-ko'zga ignadek sanchiladi, suyak-suyaklarni zirqiratadi, bo'g'otlardagi, tomlar boshidagi sumalaklarni qamchisi bilan savalaydi, bor tirik jonni in-iniga haydaydi, ammo molbozorga tutash yalang sahnda chumolidek g'ujg'on o'ynagan olomon tinimsiz qaynab-toshadi. Shop-mo'ylov, ko'zlari chaqchaygan kazaklarning vajohatidan quti o'chib do'konlarini apil-tapil taqa-taq yopib chiqqan baqqol va hunarmandlar, bozillagan tanchalari oldidan haydab keltirilgan, nima gapligini anglayolmay garang bo'lib, chimmat ostidan sarosima va qo'rquv bilan mo'ralab turgan xotin-xalaj, «La havla...»ni bir lahza tilidan qo'ymagan kampirlar, xo'mraygan, yalangto'sh chollar, burnining suvi oqib yig'lamsiragan bola-baqralar...

Hammaning og'zida bir gap, hammaning yuragida bir vahima: «Qamchibek osilarmish!»

Maydonni otliq kazaklar xalqa shaklida qurshagan. Minbarga o'xshatib taxtadan yasalgan to'rdagi omonat shohsupadan Turkiston o'lkasi general-gubernatori fon Kaufman, Farg'ona jazo ekspeditsiyasining boshlig'i, sochlari oppoq, qosh-ko'zlari qop-qora general-mayor Trotskiy, xushqomat, xushfe'l fligel-ad'yutant knyaz Boyarskiy, pakana, oqsoq polkovnik Lusarov, Farg'ona harbiy gubernatorligining amaldorlari, tulki tumoq kiygan Abdurahmon oftobachi va sovuqdanmi, qo'rquvdanmi qunishgan bir necha mahalliy a'yonlar birin-ketin joy oldilar.

Shamol tobora kuchliroq esa boshladi.

Maydonga yana ikkita piyoda askarlar rotasi kirib keldi-da, saf boshidagi yag'rindor ofitserning komandasiga binoan to'rtburchak hosil qilib to'xtadi.

Yag'rindor ofitser — Lyaxov familiyali mayor shohsupaga yaqinlashib, Kaufmanga chest berdi:

— Hamma narsa tayyor, zoti oliylari. Boshlashga ijozat etadilarmi?

Kaufman soatiga qaradi:

— Bir minutga, mayor. Mening rafiqam ham kelmoqchi edi. Bir oz kutsak. A, ana, o'zi ham kelyapti shekilli.

Ikkita yo'rg'a to'riq qo'shilgan zangori kareta shaldiragancha maydonga kirib keldi. Shohsupa yonida turgan ad'yutantlardan biri shosha-pisha borib kareta eshigini ochdi. Barra qunduz mo'ynali po'stinlari ostidagi moviy ko'ylaklarning burma etaklarini avaylab ko'targancha ikkita xonim oldinma-keyin karetdan tushdi. Yoshi o'tinqirabroq qolgan, lekin hali raso qaddi-qomati buni yashirib turgan birinchi ayol sherigiga nimanidir uqtira-uqtira, shohsupa sari yurarkan, Kaufman uning istiqboliga ikki-uch qadam peshvoz chiqdi. Gubernatorni qurshagan a'yonlar tabassum bilan unga ergashdilar.

— Ah, azizam, afv etasan, xiyol ushlanib qoldik. Achchig'ing chiqmasin, bilasan-ku biz ayollarni: ko'zgu degan narsa shunday ohanraboki... — Oldinda kelayotgan xonim Kaufmanga shunday deya, ofitserlarga navozish ila jilmaydi. — Salom, janoblar!

Trotskiy, Lusarov, Lyaxov va fligel-ad'yutant Boyarskiy bir-bir kelib, uning qordek oq, nozik barmoqlaridan o'pdilar.

— Oh, knyaz, knyaz! — deya bosh chayqadi Kaufman xonim Boyarskiyga qarab istig'no bilan lablarini burarkan. — Bizni butunlay unutib yubordingiz. Yaxshi emas, xudo haqqi, yaxshi emas. Axir, bizning safarimiz ham oxirlab qoldi, hademay... Tanishing, bu xonim polkovnik Shcherbakovning rafiqasi grafinya Anna Ippolitovna, «Biz tanishmiz», deysizmi? Oh, knyaz, knyaz!

Fligel-ad'yutant xiyol qizarib, kulimsirab turardi.

— Men bunday qo'rqinchli tomoshalarga aslo ishtiyoqmand emasman, — dedi gubernator xonim Lusarovga murojaat qilib. — Kecha erimdan: «Bu isyonchilar qanday odamlar?» deb so'rasam. «Ertaga maydonga borsang, o'z ko'zing bilan ko'rasan», dedi. Ayting-chi, polkovnik, ular rostdan ham shu qadar dahshatlimi?

Lusarov og'zini ochmasdan kuldi, ko'zlarini qisgancha jiddiy qiyofada allanimani so'zlay ketdi. Gubernator xonim quloq solayotgandek ko'rinsa-da, xayoli parishon ekani sezilib turardi.

— Boshlang! — dedi Kaufman Lyaxovga qarab. — Olib chiqing!

Maydon o'rtasida ivirsib yurgan qizil etikli, patak soqol, qari soldat shinelini yechdi, dor tagidagi to'nkalarni qimirlatib ko'rdi, sirtmoqning tugunini sinchiklab tekshirdi-da, qo'njiga yopishgan qorni qoqib, maydonning narigi boshiga qarab ketdi.

Olomon orasida birdan shovur-shuvur ko'tarildi: to'rt azamat kazak odamlar halqasini yorib, ko'k shohi to'nining paxtasi oqib yotgan, kulcha yuzlari momataloq, qo'llari kishanband bir yigitni haydab kelardi.

— Shumi? — deb so'radi grafinya Shcherbakova chiroyli moviy ko'zlarini hayrat ichra katta-katta ochib.

— Ha, grafinya, — dedi Boyarskiy.

— Bechora!

— Oh, monsieur, men chidayolmayman shekilli, — dedi gubernator xonim uh tortib. — Kun ham sovib ketdimi?

— Azizam, yaxshisi uyga qaytaqol, — dedi Kaufman. — Senga shamol qattiq ta'sir qilishi mumkin. Kecha «Boshim og'riyapti», degan eding. Har qalay, bu yer Sankt-Peterburg emas.

— Mayli, hechqisi yo'q, bir oz turay-chi, — deya ohista shivirladi gubernator xonim.

Polkovnik Lusarov qo'lidagi qog'ozni shohsupaga chiqib kelgan Lyaxovga uzatdi. Mayor oldinga o'tib qog'ozni ochdi, baland, tiniq ovoz bilan dona-dona qilib hukmni o'qiy boshladi:

— «...Farg'ona gubernatorligi harbiy-dala sudi ayblanuvchi — sartiya millatiga mansub, mahalliy Oloy beklaridan Qamchibek Olimbek o'g'lining imperator a'lo hazratlari saltanatiga qarshi qaratilgan fitnakorlik xatti-harakatlaridan iborat jinoiy faoliyatini ko'rib chikdi. Ko'pdan-ko'p ashyoviy dalillar va bevosita guvohlarning shohidliklari asosida, chunonchi, mahalliy nufuzli boyonlardan Abdurahmon oftobachining sidqidildan bergan ko'rgazmalari oqibatida, ayblanuvchi Qamchibek Olimbek o'g'lining chindan ham imperator a'zamga, uning saltanatiga, harbiy gubernatorlik vakillari o'rnatgan

tartibotlarga katta Shikast yetkazuvchi yirik zararkunanda shaxs ekanligi aniqlandi. Ayblanuvchi Qamchibek Olimbek o'g'li aka-ukalari — qurolli to'dalarning boshliqlari bo'lmish Abdullabek, Mahmudbek va Hasanbek bilan birgalikda Oloy vohasida bir qancha buzg'unchilik va qo'poruvchilik ishlarini amalga oshirgan, mahalliy aholi gubernatorlik tomonidan qaror topdirilgan turg'un tartibotlarga qarshi oyoqlantirilgan. Uning qo'l ostida bo'lgan, davlat jinoyatchilaridan iborat kallakesarlar shaykasi keyingi uch yil ichida ayniqsa faollasha borib, harakatdagi armiya otryadlariga, ularning jonli kuchlari va oziq-ovqat manbalariga sezilarli zarar yetkazgan. Harbiy gubernatorlikning Qamchibek Olimbek o'g'liga yo'llagan bir qancha ogohlantirishlari bepisandlik bilan rad etilgan. Bu yovuz shaykalarning sakkiz yildan ortiq davom etgan bosqinchi-lik, xunrezlikdan iborat faoliyati natijasida...»

Orqa tomondan past bo'yli bir ofitser shohsupaga yaqinlashib, polkovnik Lusarovning qulog'iga nimadir deb shivirladi. Polkovnikning rangi oqardi, shosha-pisha Kaufmanga yuzlandi:

— Zoti oliylari... — deb pichirladi u.— Zoti oliylari, Qurbonjon dodxoh kelayotgan emish!

Kaufman unga yalt etib qaradi:

— Ya'ni, qanday qilib? Yo'llarga soqchi qo'yilmaganmidi?

— Qo'yilgan, zoti oliylari. Knyaz Boyarskiyning o'qchi divizioni bilan uchinchi dragun polki barcha darvoza va asosiy yo'llarni qo'riqlamoqda. Biroq... dodxoh yolg'iz o'zi kelayotgan emish!

— Nima-a?

— Shunday, zoti oliylari.

Kaufman lablarini chimirdi:

— Demak, u shaharda ekan-da. Tushunolmay qoldim. Nima, bu xotin aqldan ozganmi? Boshi uchun o'n besh ming so'm assignatsiya tikilganini bilmaydi shekilli?

— Yaxshi, polkovnik, — dedi Kaufman o'zini bosib. — Davom etavering. Qani, voqealar rivojini ko'raylik-chi.

— Demak, tutishga buyruq beraymi?

— Nega? Qurolsiz, yarog'siz, ojiz bir ayolni kuppa-kunduzi, shahar maydonida, olomon oldida... Yo'q, polkovnik, faqat kuzatib turishga buyruq bering. U. ehtimol, o'g'li bilan vidolashmoqchidir. Nega endi uni bundan mahrum etmoq kerak? Gumanist bo'ling, polkovnik!

— Xo'p bo'ladi, zoti oliylari!

— «...sartiya millatiga mansub, mahalliy Oloy beklaridan Qamchibek Olimbek o'g'lining imperator a'lo hazratlari saltanatiga qarshi qaratilgan jinoiy faoliyatini ko'rib chiqib, Farg'ona gubernatorligi harbiy-dala sudi uni o'lim jazosiga — osib o'ldirishga hukm qiladi. Qukm qat'iy, shikoyat qabul etilmaydi.

Harbiy-dala sudining raisi general-gubernator fon Kaufman. Yangi Marg'ilon, 1876 yil, 26 fevral».

Mayor Lyaxov hukmni o'qib tugatdi-da, Kaufman xomonga o'girilib, bosh silkib qo'ydi.

Soqchi kazaklar Qamchibekni dor ostiga olib keldilar. Kaufman poruchik formasidagi tilmoch Sibgatullinni chaqirib, buyurdi:

— So'rang-chi, mahkumning so'nggi istagi bormikan?

Tilmoch so'rashga ulgurmasi — pang tovushi birdan ko'tarilgan olag'ovur ichida ko'milib ketdi: ko'k baxmal peshmat kiyib, oq dakana o'ragan Qurbonjon dodxoh ro'paradan shitob bilan ot o'ynatib kelar edi!

Orada o'ttiz odim chamasi masofa, barchaning yuzida hayrat, taajjub, taraddud. Qo'rquv...

— Polkovnik! — Kaufman oq qo'lqopli qo'li bilan Lusarovni imladi.— Mana, qarang-a, dodxoh tap tortmay kelyapti. Sizning ko'pgina ofitserlaringiz jasorat bobida shu ayoldan ibrat olsalar chakki bo'lmas edi. Biror burchakdan daydi o'q otilib, uni halok qilishi mumkin-a, to'g'ri emasmi?

Lusarov unga tikilib qoldi.

— Qarang-a, mutlaqo qo'rqmayotganga o'xshaydi-ya! — deya Kaufman miyig'ida kulib qo'ydi. — Vaholanki, daydi o'q — daydi-da. Nima deysiz, Lusarov?

— Tushundim, zoti oliylari, — dedi Lusarov shivirlab. — Mening polkimda bir mohir mergan bor.

Uryadnik Yepifanov.

— Yaxshi, polkovnik. Faqat, dodxoh maydondan sog'-salomat chiqib ketishi kerak. Daydi o'q unga istagan muyulishda ham tegishi mumkin, uqdingizmi?

— Tushunarli, zoti oliylari.

Tilmoch ming'illab, savolni uchinchi bor takrorladi. Qamchibek javob bermadi, ko'zlarini — hasrat, alam va sog'inchdan qovjirab yongan ko'zlarini onasining yo'lga o'rtanib tikdi, jismi jahonni o'rtab:

— Ena-ey-y! — deb hayqirdi. — Jonim enam!..

Olomon yalpisiga guvlab yubordi.

Suvori esa o'ktam matonat bilan tobora yaqinlashib kelar, to'riq bedov bir tekis yo'rg'alar, dodxohning yuzlarida, mahkam qimtilgan lablarida sokin, xotirjam, hatto ulug'vor bir ifoda aks etar edi. Go'yo u o'lim changalidagi o'g'lini ko'rmayotgandek, uning sitamkor nolasini eshitmayotgandek, oppoq sochlari to'zg'igan boshini baland ko'targancha mag'rur ot yo'rttirib kelardi.

Xaloyiq to'lqin urib dengizdek chayqaldi, g'azabnok guvilladi. Soldatu ofitserlar ham tosh qotgan. Biror kimsa nima qilarini, nima deyarini bilmas edi. Hatto Kaufman ham sarosima aralash vahshat bilan qovoq uyib turgan haykalga o'xshardi.

Dodxoh soldatlar halqasiga yaqinlashdi, besh qadamlar narida jilovni tortdi. Toshdek og'ir, toshdek qattiq sukunat cho'kdi.

— Bolam! — dedi dodxoh. Ovozi bir lahza titrab ketdi-yu, shu ondayoq mardona, qahrli tus oldi. — Bolam! Shahid o'lmoq bizga meros! Ota-bobolaring ham dushman qo'lida o'lgan! Alvido, bolam! Bergan sutim oq bo'lsin! — U shunday deya oyog'ini uzangiga tirab, otning sag'risiga zarb bilan qamchi urdi. Bedov osmonga sanchib, suvorini ko'tara ketdi.

— Rozi bo'ling, ena! — Qamchibek o'pkasi to'lib xirqirab qoldi. — Rozi bo'ling!

— Mingdan-ming roziman! — Dodxoh qo'lini fotihaga ochdi. — Diydor qiyomatga qoldi, bolam! — So'ng ilkis orqasiga qayrilib, kunchiqar tomon ot qo'ydi.

Ot yoliga ikki tomchi qaynoq yosh tomchi. Ikki tomchi yosh arabi bedovning vujud-vujudini kuydirib yuborgandek bo'ldi.

Olomon hamon g'alayon solib guvillar, to'lg'anib-toshar edi.

— Ha... Qiziq, — Kaufman o'yga tolgan edi.

— «Oloy malikasi» deganlari shumi? — deb so'radi xotini. — Axir, uni juda keksa deyishardi-ku? Bu esa bemalol ot choptirib yuribdi. Ayt-chi, nega uni tutishmadi?

— Hojati yo'q edi, azizam, — deya kulimsiradi Kaufman. — U... o'zi taslim bo'lib keladi! Men uni shunga majbur etaman!

— Menga qara, monsier, bilaman, ishlaringga aralashishlarini yoqtirmaysan, lekin shu yigitni o'ldirmay qo'ya qolishning iloji yo'qmi? — dedi Kaufman xonim po'stinning yoqasini tuzatayotib. — Judayam yosh ekan, odam achinadi. Albatta, men uni jazosiz qoldirish kerak, demoqchi emasman. Lekin boshqacha chora ko'rilsa bo'lmaydimi? Masalan, surgun yoki katorgaga... — Yo'q! — dedi Kaufman va qat'iy ohangda ta'kidladi. — Yo'q! Hukmni eshitding-ku. Dushmanga hech qachon shafqat yo'q. Lusarov!

— Eshitaman, zoti oliylari!

— Tezlating!

— Xo'p bo'ladi!

— Uryadnik kim... Yepifanovmidi?

— Xuddi shunday, zoti oliylari, Yepifanov!

— Yaxshi.

Lusarov Lyaxovga qarab imo qildi. Lyaxov qo'lidagi ro'molchasini silkib orqaga chetlandi.

Barabanlar gumburladi. Ikki norg'ul, devqomat kazak Qamchibekning bo'yniga sirtmoq soldi. Yuz-ko'zini qora niqob bilan to'sib olgan shinelsiz qari soldat tiz cho'kib cho'qindi-da, o'rnidan turib arqonga qo'l cho'zdi...

— Yo rabbiy! — Grafinya Shcherbakova rangi bo'zdek oqarib, knyaz Boyarskiyning qo'lini muzdek

barmoqlari bilan mahkam siqdi. — Yo rabbiy! Naqadar dahshat!

— Qo'rqmang, grafinya, qo'rqmang. Bu faqat bir lahza, xolos, — dedi Boyarskiy uning tirsagidan tutib.

— Ach, mein Gott, das is schlecht! Ach, mein Gott! — deya shivirladi quti o'chgan gubernator xonim va ko'zlarini chirt yumib oldi.

Qamchibek, oyog'i yerdan uzilib borarkan, ko'ksidan armon to'la xo'rsiniq otilib chiqdi:

— ...bandam degaysan!

Olomon birdan junbushga keldi. Kimdir o'krab yubordi.

Niqobdor soldat dor tagidagi to'nkani zarb bilan tepdi...

Navqiron, bahodir vujud bir lahza dorda tebrandi, so'ng shu tebrangan bo'yi gursillab yerga quladi.

Lyaxov oniy hayrat bilan dovdiradi, keyin qilich

yalang'ochlagancha dor tagiga yugurib bordida, mahkumning tepasida haykaldek qotdi. Kaufman ko'zlari chaqchayib, Lusarovga o'qraydi. Olomon suroni olamni buzdi:

— Yo qudratingdan!

— Nima bo'ldi? Matkarim, nima bo'ldi?!

— Ollohga xush kelmagach...

— Xaloyiq, nega qarab turibsiz?

— E, hoy, kallangni ol-e!

— O'zing qoch, xumsa!

Shovqin-suron orasidan Trotskiyning guldiragan yo'g'on ovozi yangradi:

— Jim! Jim bo'llaring, deyman! Hammangni to'pga tuttiraman, jim!

To'pchilar bu gapni tasdiklagandek, zambaraklarning og'zini olomonga qarab to'g'rilab qo'ydilar.

Ko'zlari shilpiq bir yigitning ingichka, asabiy qichqirig'i Trotskiyning tovushini bosib ketdi:

— E, belida belbog'i bor erkak bormi o'zi bu yerda?

Kaufman bejo ko'zlarini Lusarovga qahr bilan qadadi:

— Lusarov! Bu qanday gap?!

— Zoti oliylari...

— Bu qanday gap deyapman?!

— Ijzat eting, zoti oliylari...

— Bas! Sharmandalik! Xiyonat!

— Zoti oliylari, afv etsinlar, tasodif...

— Tasodif! Tasodif emish! Bu dorga hozir o'zingiz osilishingiz mumkin! Lekin unda tasodif yuz bermaydi! Sharmandalik! Muttahamlik! Boring!

— Nima bo'ldi? Oh, aytсалaringiz-chi, nima bo'ldi? Menga qarang, knyaz, nima bo'ldi, axir? — dedi gubernator xonim atrofga olazarak alanglab.

Boyarskiyning ensasi qotdi, nazokatni yig'ishtirib:

— Nima bo'lardi, arqon uzilib ketdi! — dedi.

— Oh, ana, men aytmadimmi axir! Ko'rdingizmi, uning o'limi hatto xudoga ham yoqmayapti! — deya gubernator xonim eriga qaradi.

— Charchagan ko'rinasan, azizam, — dedi Kaufman ijirg'anib. — Yaxshisi, uyga boraqol. Knyaz, iltimos, xonimlarni kuzatib qo'ysangiz.

— Yo'q, yo'q! Biz endi oxirigacha ko'rmasdan ketmaymiz, to'g'rimi, Anna Ippolitovna?

Rangi bo'zdek oqarib ketgan grafinya dastro'moli bilan yuz-ko'zi, peshonasini arttdi.

Qamchibek dor tagida hanuz behush yotardi. Soldatlardan biri uning yuzini qor bilan ishqay boshladi. u ko'zlarini ochdi, atrofiga javdirab, bir zum garangsib turdi-da, qaddini rostlashga urinarkan, ko'karib ketgan lablarining burchidan silqib tushayotgan; qonni kafti bilan artib:

— Chirib ketgan ekan, — deb shivirladi. So'ng yag'rinini ilkis ko'tarib o'rnidan turarkan, intihosiz bir g'urur bilan hayqirdi. — Chirib ketgan ekan!

Aft-basharasi qo'rquv va g'azabdan burishib, mudhish tusga kirgan qari soldat qalt-qalt



qaltiragancha uning momataloq bo'yniga yana sirtmoq tashladi...

Barabanlar yeru ko'kni zirillatib gumburladi.

Qamchibek qult etib yutindi, entikib-entikib nafas oldi. Peshonasida marvariddek reza ter tomchilari paydo bo'ldi. So'nggi nafas!

So'nggi lahza!

So'nggi azob!

Bunchalar shirinsan, achchiq hayot!..

Osmonda oppoq bulutlar ko'pirib toshar, Aravon tog'lari tomondan esayotgan pokiza nasim ona yurtning armon to'la so'nggi bo'ylarini olib kelar edi.

Keyin na bulutlar, na shamol, na osmon qoldi.

Kaufman shohsupadan tushib, xotinini kuzatib qo'yish uchun bir zum to'xtadi. Baronessa tirsagigacha chiqadigan qo'lqopini kiyarkan, tinmay so'zlab borar edi: — Oh, naqadar achinarli! Axir, bari bir odam-ku! Odam-a!— Keyin Boyarskiyga o'girilib, davom etdi.— Xo'p, hozircha xayr, knyaz. Darvoqe, ayting-chi, kechqurun biznikiga preferans o'ynagani kelasiz-a? Albatta keling, kutamiz. Aybga buyurmaysiz, knyaz, yagona ko'ngilochar ermagimiz shu. Bu yovvoyi o'lkada biz ham hademay butkul yovvoyi bo'lib ketamiz shekilli. Na muzika, na teatr... Loaqal, tezroq Toshkentga qaytsak ham mayli edi. Oh, knyaz, nimasini aytasiz! Xo'p, Demak, sizni kutamiz, albatta keling. Grafinya Shcherbakova bilan yaqindan tanishib olasizlar. O, siz juda Ham ucharsiz, knyaz! Xo'p, mayli! Orivoir monsier!

Kareta jo'nadi. Kaufman ofitserlar hamrohligida bozor darvozasi tomon yurdi. Yoshgina ad'yutant qora turkman otni ro'para qilgan edi, bosh chayqab: «Yo'q!» dedi-da, maydon etagidan tor ko'chaga qarab burildi.

Hech kimdan sado chiqmas, Lusarov ham yerga tikilgan ko'yi churq etmay borar edi.

O'ttiz odimlar shu taxlit yurilgach, Kaufman polkovnikka savol nazari bilan qaradi:

— Polkovnik Lusarov?

— Eshitaman, zoti oliylari?

— Uryadnik?..

— Hozir, zoti oliylari. Mana shu muyulishdan keyin, hozir...

O'n besh qadam naridagi jinko'cha muyulishida xomush sudralib kelayotgan uryadnik Yepifanovning daroz gavdasi ko'rindi. U boshliqlarga ko'zi tushdiyu joyida tek qotdi.

— Xo'sh, Yepifanov?— dedi Lusarov unga yaqinlashib.

Yepifanovning qop-qora soqolli uzun iyagi titrab ketgandek bo'ldi-yu, churq etmay turaverdi.

— Nega indamaysan, Yepifanov? — deya muloyim, homiy ohangda so'radi Kaufman uryadnikning keng yelkasiga kaftini qo'yib.

— Zoti oliylari... — Yepifanov tili og'ziga sig'mayotgandek g'o'ldiradi. — Zoti oliylari...

— Tegizolmadingmi?! — Lusarovning ko'zlariga qon to'ldi.

Yepifanov miltiq qo'ndog'ini shu qadar mahkam siqdiki, tirnoqlarining ostiga zirqirab og'riq kirdi.

— Otolmadim, zoti oliylari... — U qalin, do'rdoq lablarini arang qimirlatib, eshitilar-eshitilmas shivirladi. — Otolmadim...

— Nega otolmading, Yepifanov?— Kaufmanning ovo-zi hamon boyagidek muruvvat to'la ohangda yangrar edi.

— Zoti oliylari... Xudo haqqi, afv eting, zoti oliylari... — Yepifanov chag'ir ko'zlarini katta ochganacha gubernatorga yolvorib qaradi. — O'zim ham bilmay qoldim, zoti oliylari. Anavi tomdan hammasini ko'rib turgan edim... Qo'lim bormadi, zoti oliylari... Onam esimga tushib ketdi...

Bir lahza og'ir, asabiy jimlik cho'kdi, so'ngra Lusarovning vahshatli baqirig'i eshitildi.

— E, o'sha onangni... — U mislsiz qahrdan ko'karib so'kingancha vahshat bilan uryadnikka tashlangan edi,

Kaufman ko'rsatkich barmog'ini ko'tarib, polkovnikni to'xtatdi, so'ng Yepifanovga yaqinlashib, unga boshdan sinchiklab razm soldi.

— Yepifanov, — dedi u nihoyat baland tovush bilan, — barakalla! Sen haqiqiy soldatning ishini qilgansan, barakalla! — Angrayib qolgan uryadnikning yelkasiga yana bir bor qoqib qo'ydi-da, orqasiga o'girilib, ad'yutant jilovidan tutib turgan otga ildam mindi. Otliqlar Yepifanovni qor to'zoni ichra qoldirib jo'nadilar.

— Lusarov! — dedi Kaufman garnizon kazarmasi oldida otdan tushayotib. — Uryadnik Yepifanovning bu xizmatlarini taqdirlash lozim, deb hisoblayman. Uqdingizmi? — U ma'nodor chimirilib qo'ydi. — Albatta, taqdirlash kerak!

— Tushunarli, zoti oliylari! — Lusarov itoatkorona bosh egdi.

Oradan ikki oy o'tgach, pochta aravasida chayqalib o'tirgan mast yamshchik Orlov guberniyasiga qarashli jimjit, mudroq Gribovo qishlog'idagi kulbalardan birining eshigini qoqib, minglab chaqirimlar osha adashib-uloqib yetib kelgan bir parcha qog'ozni qora ro'mol o'ragan, ko'zlari nursiz kampirga topshirdi.

Kampir xatni o'qib, shilq etib yiqildi. Kulba ostonasini izillab yalayotgan izg'irin shamol maktubni varakdadi:

«...chuqur qayg'u bilan ma'lum qilamizki, o'g'lingiz — Yefim Yepifanov podsho va vatan xizmatida qahramonlarcha halok bo'ldi.

Polk komandiri polkovnik Lusarov».

Shamol uv tortib yubordi.

1979

## KO'L BO'YIDA

Eski darvozaning g'ijirlashi ayvondagi so'rida kitob o'qib yotgan yigitning diqqatini bo'ldi. Yo'lakda kalta xonatlas ko'ylakli, timqora sochlari yelkasiga yoyilgan, ko'hlikkina qiz turar edi. U mehmon hurmati uchun o'rnidan qo'zg'algan yigitning xushqomat jussasiga bir zum tikilib qoldi.

— Salom!

— Vaalaykum assalom. — Yigit ayvondan tushib, notanish qizni so'riga taklif etdi. — Qani...

Qiz mezbonning ko'ziga tik boqib:

— Rahmat, — dedi. — Men... haligi... folklor ekspeditsiyasidanman. Xabaringiz bordir?

Tog' bag'ridagi bu kichik qishloqqa Toshkentdan filolog studentlar ekspeditsiyasi kelgan edi. Yigit bosh irg'adi.

— Shunga... eskicha qo'shiqmi, ertakmi biladigan kishi bo'lsa...

Yigit qizning saraton oftobida bo'g'riqqan yuziga afsuslanib qaradi.

— Onamlar yo'q edilar-ku...

Qiz birdan bo'shashdi. «Mayli, bo'lmasa», degandek parishon jilmaygan kuyi bosh silkib, darvoza tomon yo'naldi.

— Shoshmay turing, — dedi yigit. — Anavi dovon orqasida, ko'l bo'yida enamlar yashaydilar. U kishi eski termayu afsonaning koni. Xohlasangiz — o'sha yoqqa olib chiqaman?..

Ertasiga qiz bir dugonasi bilan keldi. Uchovlon qishloq tepasida xo'mraygan qoyalar ortidagi Oydinko'lga jo'nadilar. Qiz o'zini Gulya — Gulnora; o'rta bo'y, sochlari ikkita o'rilgan, shirmon yuzli dugonasini esa Aziza, deb tanishtirdi.

Ko'p o'tmay yo'l torayib, tog' bag'riga o'rladi. Yigit yo'l-yo'lakay enasini ta'riflab bordi.

Bobosi yoshligida Qo'qon madrasalarida o'qigan, Yassaviyga ixlos qo'yib, o'zi ham g'azallar bitgan ekan. Id yillar ilgari mulla dunyodan etak siltaydi-da, xotinini olib, toqqa, kimsasiz ko'l bo'yiga ko'chib chiqadi. Eru xotin shu yerda boshpana quradi, xurjunda tuproq tashib, tosh ustida bog' qiladi. O'tar bobo tog' yon bag'ridan yulib olgan bir parcha yeriga bug'doy ekadi, qishda kaklik tutib sotadi, mol-hol orttiradi.

Shu tariqa uzoq yillar tanho umr kechirib kelayotgan ekanlar. Bola-chaqalari ulg'ayib qishloqqa tushib ketishgan, u yerda nevara-chevaralari serob. Amir — kenja nevara.

Chol-kampir esa hamon ko'l bo'yida yashaydi.

— Qiziq... Nega bunday... Robinzonga o'xshab? — deb so'radi Gulnora.

— Kim bilsin, — deb yelka qisdi yigit. — Bobomiz enamizni rashk qilganidan toqqa olib chiqib ketgan, deb chala-yarim eshitganman. Odamlarning gapi...

Enam yoshligida shu qishloqlik bir yigitga ko'ngil qo'ygan ekanmi-ey... Xullas, shunaqa gaplar... Ilon izi so'qmoq tobora yuqorilar edi.

— Charchadilaringiz shekilli, — dedi Amir yuzlarini reza ter bosgan qizlarga. — Asli eshakda kelsak bo'larkan.

— Fu! — Gulnora labini burdi.

— Shoshmanglar, ko'lga yetaylik. Bobomning qo'ydek yuvosh oti bor, minib rosa sayr qilasizlar.

Qizlar bir zum o'zlarini ko'l atrofida ot choptirib yurgandek tasavvur etib, entikib qo'ydilar.

So'qmoq yon-veridagi bir turtkiga mahtal zalvorli xarsanglar go'yo hozir qulab tushadigandek omonat tuyuladi.

Dovonga ko'tarilguncha qizlar qora terga botib, hansirab qoldilar. Biroq tepadan Oydinko'lga qarashlari bilan charchaganlari ham shu zahoti esdan chiqib ketdi.

Atrofini o'shshaygan qoyalar qurshagan kaftdek vodiy o'rtasida ko'z yoshidek tiniq ko'l sokin mavjlanib yotar edi.

Tosh devorli qo'rg'on darvozasi yonida kigiz qalpoqni qoshiga qadar bostirib kiygan, nihoyatda

keksa, lekin qisiq ko'zlarining dadil boqishi, cho'yandan Quyilgandek og'ir gavdasini yengil ko'tarib yurishidan ellik-oltmish yoshlar chamasida ko'ringan alp kelbat chol qarshi oldi. Oo'rg'on o'rtasida oldi quyoshga qaragan uch xonali pastak uy. Uy devorlari ham toshdan, faqat nari-beri loysuvoq qilingan.

Ichkaridan ikki yuzi qip-qizil, jikkak, sochig'da so'lkovoy tangalar taqilgan kampir pildirab chiqdi.

— Ena, — dedi Amir qizlarni bag'riga bosib ko'rishayotgan kampirga,— atay shahardan kelishgan ekan, yaxshilab siylaysizda endi, ham qo'shiq bilan, ham.

— Voy, aylanay chiroqlarim, xudo bir yorlaqabdi-da...

Gulnora kampirning gaplari, yoqasiga, yenglari uchiga jiyak tutilgan qopdek ko'yilgi, tumshug'i qayrilgan kavushi g'aroyib tuyuldi. Mehmonlarni o'tqazgani joy topolmay shoshib qolgan kampirga ham bu qizlar g'oyat antiqa ko'rinar edi.

— Hoy, menga qara, — deb shipshidi u ayvonda ayron simirayotgan Amirga. — Kim o'zi bularing? Anavinisi muncha dumi yulingan hakkaga o'xshamasa?

Amir miyig'ida kulimsiradi.

— Qo'yavering, ena... bor narsani yashirishning hojati yo'qdir-da...

Tokchadan u-bu narsa olayotgan kampir uning gapini eshitmadi.

— Qani, ilohi omin, — dedi u poygakka tiz cho'kib, fotihaga qo'l ocharkan. Gulnora avval go'layib turdi, biroq Aziza bilan Amir kampirga ergashgach, barmoqlarini o'quvsiz birlashtirib, yuziga yaqinlashtirdi. — Tinchlik-xotirjamlik bo'lsin, Ollohu akbar!..

Xonadan pichan hidi anqir edi. Shiftga oq-ko'k xalta-xultalar, makkajo'xori so'talari osilgan.

Gulnora devorga qoqilgan qo'y po'stagiga irganibgina qaradi-da, dasturxon yoniga bahuzur oyog'ini uzatdi. Enasi oldida qizning oppoq boldirlariga qarab o'tirish o'ng'aysiz edi, Amir tashqariga yo'naldi. Eshikdan chiqayotib, Azizaning yalt etgan hurkak nigohini sezdi.

Bir ozdan so'ng ichkaridan kampirning xiyol xirqiroq, zaif va ana shu zaif-hazinligi bilan yurakka allanechuk hasrat soladigan ovozi eshitila boshladi:

*Ket desang Qashqar ketay,*

*Yo'llarda yolg'izlik yomon.*

*Yolg'izlikdan kim o'libdi,*

*Hammadan xo'rlik yomon...*

Amir ayvonda jimgina yer chizib o'tirar edi.

*Anov turgan olmamikan, normikan, normikan,*

*Soyasida yotgan bizning yormikan-ey, yormikan?*

*Soyasinda yotgan bizning yor bo'lsa, yor bo'lsa*

*Ikkimizni ko'shar kunlar bormikan-ey, bormikan?*

U xonaga qaytib kirganida, kampir ro'moli yelkasiga sirg'alib tushganini ham sezmasdan, ko'zlari yumilib kuylardi.

— Ena, — dedi Amir tomoq qirib. — Qizlarga ozgina dam bering, charchab qolishmasin. Ko'l bo'yolarini bunday bir aylanib kelishsin.

Kampir birdan to'xtab, gunohkorona jilmaydi, shosha-pisha ro'molini qo'lga olib, sekin g'ijimladi.

Gulnora dik etib o'rnidan turdi-da, Azizaning qo'lidan tortdi:

— Aziza, ketdik, ot minamiz, yur!

Aziza allanechuk ma'yus tortib qolgan kampirga termulib o'tirarkan, unamadi.

Amir darvoza yonidagi boshini solintirib turgan, egari ustidan ko'rpacha tang'ilgan biyani ko'lga olib tushadigan xivichday so'qmoqdan yetakladi. Gulnora ergashdi.

— Hech ot minganmisiz?

— Yo'q, sektsiyasiga qatnashmoqchi edim, ayam ko'nmedi. O'zingnikidan qolma, yiqilib mayib

bo'lasan, deb qo'rqdi.

— O'zingizniki qaysi?

— Badiiy gimnastika. Birinchi razryadim bor! Musobaqalarda sovrinlar olganman, bilsangiz...

Amir kalta atlas ko'ylakdagi durkun, sarvqomatni o'g'rincha ko'zdan kechirib, uning gapi rostligiga ishonch hosil qildi.

Gulnora suhbatni yana ulashga tirishdi:

— Ashula aytishni bilasizmi, Amir?

— Ha... — So'qmoq asta pastlab borar, tevarak-atrof suv quygandek jimjit edi...

Amir ko'p tixirlik qildi, lekin qiz yalinavergach tuyqusdan bo'g'iq ovoz bilan sekingina kuylay boshladi:

*Kecha kelgu...mdir debo... on... ul  
sarvi gu...lro' kelmadi... a*

Yigitning boshda horg'in, erinchoq tuyulgan tovush asta tiniqlasha, so'ngra kuchaya bordi. Nihoyat, u baland, o'ktam bir ohang kasb etib yangradi.

Qovog'i soliq qoyalar qo'shiqqa mahliyo bo'lib qotib qolgandek edi. Pastda jimir-jimir mavjlanayotgan ko'l ham, issiqdan bir-birining soyasiga qochmoqchidek qo'shnilari pinjiga tiqilgan archalar ham, ashula ohangiga mos lo'killayotgan biya ham qo'shiqqa some.

Gulnora yuzini chetga o'girib, bilinar-bilinmas uf tortdi. Yigit o'z qo'shig'iga o'zi erib, ko'zlarini yumib xonish qilardi.

*Lahza-lahza chiqtimu chekdim yo'lida intizor,  
Keldi jon og'zimg'avu ul sho'xi badxo' kelmadi...*

Amirning ko'z oldida qiyrixon o'ragan durrasining bir uchini g'oyat nazokat bilan chehrasiga pana etgan, surma tortilgan ko'zlarida hayo balqigan, uzun atlas ko'ilagini sekin shitirlatib, bitta-bitta qadam bosib kelayotgan pari namoyon bo'ldi. Mana, pari beqasam to'ni etaklarini juftlashtirib unsizgina tiz cho'kdi... Jonon piyolaga may qo'ydi-da, bitta... yana bitta chertib unga uzatdi...

*Ko'zlaringdan nega suv kelgay, deb o'lturmang meni  
Kim bori qon erdi kelgan, bu kecha suv kelmadi...*

— Voy-bo'! Maqomchilar ansamblidan emasmisiz?

Amir ko'zini ochib, qarshisida porlab turgan narsaga qaradi-da:

— Kelmadi... — dedi.

— Voy! Ko'lga yetib keldik! — deb Gulnora jimirlab yotgan suvga chopib tuptdiyu shu zahoti oyog'ini tortdi.

— Vuy, sovuhligini qarang-a! Muz-a, muz!

— Qor suvi-da! Otda bir chopaylik, sovuqligi xam xush yoqib qoladi. Qani, minmaysizmi?

— Qo'rqaman...

— Be! Asovmidi bu opqochsa?!

Gulnor bir amallab egarga mindi-da, boshi ko'kka yetgudek bo'lib:

—Qani, chu, tulporim, chu, — deya qichqirdi.

Qovurg'alari sanalib turgan «tulpor» lo'killab chopdi. Omonat o'tirgan Gulnora chap tomonga og'ib ketdi.

— Voy-voy! Yiqilaman! — Amir epchillik qilib suyab qolmaganda u toshga qulab tushar edi... Maslahat bilan Gulnora o'ng qo'lga yuganni tutdi, chap qo'lini Amirga berdi.

Sayr boshlandi. Ot tuyoqlari qirg'oqdagi taram-taram qum yuzida xol-xol iz qoldirar edi. Ko'l

tarafdin salqin shabada turdi.

— Bu yoqqa qarang-a, — dedi Amir bir vaqt narigi sohilga ishora qilib. Qayoqdandir paydo bo'lgan sur bulutlar hozirgina charaqlab turgan quyosh yuzini to'sgan, ko'l bo'yiga soya tushib, tevarak xiralashgan edi. Bulut pardasini yorib taralayotgan nur daraning u tomonida qaqqaygan qoyalar uzra quyilar, atrof qizg'ish-naparmon tusda jilvalanar edi.

— «Makkenining oltini» filmini ko'rganmisiz? — dedi Gulnora. — O'shanda oltin tog'lar shunday tovlanadi.

Quyosh dara ortiga cho'kib, g'oyib bo'ldi. Vodiyga salqin oqshom yoyildi.

— Qaytaylik... — dedi Gulnora.

O'chokdagi olov hijronzada qizning qizil ro'molidek qaltirar, qozon atrofida kuymanib yurgan kampirning soyasi ham lip-lip tebranar edi. Gulnora otdan sirg'alib tushgach, bir-ikki depsinib darvozaga qarab borarkan, to'satdan cho'chib, orqaga tislandi.

Darvoza yonidagi supada O'tar bobo toshdek qotib o'tirar, vajohatida kishi vujudini jimirlatadigan sovuq bir ifoda muhrlangan edi.

Chol yonidan o'tayotgan nevarasini ham, qizni ham payqamadi.

Uydan patnisda masalliq ko'tarib, Aziza chiqdi.

Amir ekspeditsiya rahbariga qizlarning yana bir-ikki kun Oydinko'lda qolajaklarini xabar qilit uchun qishloqqa qaytdi.

Tog' ortidan to'lin oy ohista suzib chiqib, asta yuqoriga ko'tarila boshladi. Oydinko'l tepasiga kelganda taqqa to'xtab qolgandek bo'ldi. Oydin kecha g'oyat tarovatli edi. O'shshaygan qoyalar qamalidagi Oydinko'd oynadek yaltirar, go'yo yerda ham yana bitta oy tovlanib yotganga o'xshar edi.

— Bekorga Oydinko'l deyishmagan ekan-da, — deb xayolan pichirladi Gulnora ko'zi ilinayotib.

...«Amir!» deb qichqirardi u tinmay o'ziga chorlayotgan oy sari tikka uchib borayotgan yigitga. Bir sovuq shamol izg'ir ekan oy yo'lida, bir sovuq...

Gulnora dildirab uyg'ondi. O'rnidan turib, qoziqdagi choponni oldida, o'ralib tashqariga chiqdi. Hovlida kampir g'ivirsib yurar edi. To'satdan lop etib O'tar bobo paydo bo'ldi. Kampiri yonida to'xtab, Gulnora qaradiyu qisiq ko'zlari katta ochilib ketdi. Cholning avzoyini ko'rib kampir qizga alanglab nazar tashladi va shu zahoti rangi o'zgardi. Erining g'azabnok nigohidan bukilib ketayotgan kabi egilib:

— Hoy, qizim, — dedi qaltiragan ovoz bilan shosha-pisha. — Eningizdagi to'nni yechib qo'ying, bobongiz unda namoz o'qiydi.

— Nima bo'libdi? Men iflos qilmayman-ku.

O'tar bobo shart orqasiga qayrildi.

— Voy, baraka topkur-ey, yecha qoling, sizga boshqa narsa beray. Chol o'lgurning jahli belbog'ida...

Gulnora bu eski choponning shu qadar arzandaligiga ajablandi-da, yechib kampirga uzatdi.

Irmoq tarafdin Aziza chelak ko'tarib kelardi.

— Jonim qoqindiq, juda urinchoq ekansiz-da! - deb zorlandi kampir. — O'zim olib kelardimu...

Aziza lo'ppi yuzlari qizarib, hansirab tura edi.

Nonushtadan so'ng kampir bilan Aziza qo'y-echkilarni o'tloqqa haydab ketishdi. Gulnora sumkasidan Uitmanning mo'jaz to'plamini olib o'qishga tutindi.

U dovon tepasida Amirning qorasi paydo bo'lganini ham, darvozadan kirib kelganini ham sezmadi.

— Xormang, Gulnoraxon...

Qiz ro'parasidagi navqiron yigitni, uning qora qoshlari, qirra burun, tiyrak ko'zlarini ko'rib bilinar-bilinmas qizardi...

Hol-ahvol so'rashgach, Amir qizning qo'lidagi kitobga qiziqdi. Gulnora Uitmenni o'qimagan gumroh hamsuhbatiga afsuslanib tikilganicha bu «jahonning sakkizinchi mo'jizasi» haqida vijir-vijir tushuntira ketdi. Amir uning sabog'ini sabr bilan tinglab, nihoyat:

— Lutfiy darajasidagi shoir ekan-da, — deya xulosa chiqardi.

— Lutfiy? Kim u?

Yigit Gulnoraning ingliz filologiyasi bo'limida tahsil ko'rishini esladi...

— Navoiyni ham mutolaa qilmagandirsiz?

— Maktabda o'qiganman... bir oz, — dedi qiz taraddudlanib. — Endi kirishmoqchiman. Bilasizmi, haligi... Sharq poeziyasi bilan uncha tanish bo'lmaganim uchunmi...

Oraga sukut cho'kdi.

«Mening bechora she'riyatim!», deb xayolidan o'tkaz-di Amir qorli cho'qqilarga hasratli nazar tashlab.

— Kursdoshlarim studentlar qurilish otryadida. Shimolga ketishuvdi, — dedi Gulnora jimlikni buzib.

— Men ahmoq ulardan ajrab, bu yoqqa chiqqan edim. Ochig'i, tog'larda jindek dam olib kelaman, deb o'ylovdim. Endi esa zerikib o'lyapman. Cholu kampirlarning siyqalashgan xotiralaridan eski-tuskilarni qirtishlayverish ham jonga tegdi... To'g'risi, men ularni yaxshi tushunmayman... Shu ming yillik eski gaplarning nima keragi bor-a?..

Xarsanglar ortida munkayib kelayotgan qora ko'ylakli kampir, uning yonida esa o'rik gulidek oppoq ko'ylagi yanada oqroq ko'ringan Aziza paydo bo'ldi. Ko'rishar ekanlar, Amir Azizaning qimtinibgina qo'l uzatganini, so'ng darhol ko'zini yerga olganini sezdi. To'rtovlon yassi xarsang supa ustiga cho'ka qolishdi. Aziza kampirni yana ishga soldi.

*...Marg'ilonning yo'lida*

*Yakka terak o'sibdi.*

*Yorim kelar yo'llarni*

*Tikan o'tlar to'sibdi...*

Kampir shunchaki xirgoyi qilayotgandek past ovoz bilan boshlar, so'ng avjiga chiqar, shu paytda zaif titroq tovush benihoya hazinlashar, qo'shiq ohangida teran bir mung to'kilar edi...

*Samarqand soyiga solma imorat-o, solma imorat,*

*O'z yurtingga qilma xiyonat-o, qilma xiyonat,*

*O'z yurtingga qilsang xiyonat-o, qilsang xiyonat.*

*O'zganing yurti ham senga omonat-o, senga omonat...*

Oradan zum o'tmay zerikkan Gulnora Amirga qarab sekin imo qildi. Ular ko'zlarini chirt yumib olgan kampir va ruchkasi daftar varaqlari uzra tinimsiz yo'rg'alayotgan Azizaning yonidan ohista sirg'alib, ko'l tomon jo'nadilar.

— Qizingiz bormi? — deb so'radi Gulnora daf'atan.

— Hali uylanganim yo'q, — javob qaytardi Amir Gulnoraning qanday «qiz» xususida surishtirayotganini sezsa-da.

— Yo'q, sevgan qizingiz?..

Oydinko'l ohista shivirlar, suv sathi yum-yum yig'layotgan go'zal yuzidagi moviy pardadek titrar edi. Irmoq sohilidagi yolg'iz terak undov belgisi deb tanho qaqqayib turardi.

— Men o'shaman! — dedi Amir terakni ko'rsatib.

Qiz yigitning keng yelkalariga, marmarday tiniq yuziga ilinj yashiringan sinchkov nigoh tashladi.

— O'zingizda-chi?

— Bor edi, — dedi Gulnora bamaylixotir. — U...

— Ikkita edi ular, — deya uning so'zini kesdi Amir, — biri sakkizinchi sinfdan buyon. Lekin u boshqa institutga kirdi — ajrashdik. Ikkinchisi fakultetda topgandim, chiroyli edi, yurish-turish ham yomonmas. Faqat tergayverib jonimga tegdi: falonchi bilan nega birga ketding, pistonchi bilan nega hiringlashding... Xullas, shu qadar qoloq, XIX asrdan qolgan tirik mo'miyoning o'zi! Bahridan o'tdim-ko'ydim!

— Qayoqdan bildingiz?! — deb qichqirib yubordi Gulnora.

— Gapimni bo'lmang! — deb sovuq shiddat bilan davom etdi yigit. — Otangiz ziyoli odam. Onangiz ilgari ishlagan. Keyinchalik semirib ketgach, «uy beksasi»ga aylangan, «serdtsa»si chatoq. Yiliga ikki marta Yalta havosidan simirmasa «pristup» bo'ladi.

— Aziza aytgan! — Oiz hangu mang, tamoman mahv etilgan edi.

— Aziza bilan gaplashdimmi?

— Unda... Qaydan?

Amir lablari qiyshayib, asabiy kuldi. Ko'zlagan niyatining chippakka chiqishini avvaldan bilgan odamgina shunday zo'rma-zo'raki iljaya olar edi.

«Xuddi o'zi-ya!», deb o'yladi Amir. Yuragi siqildi.

Xuddi shunday tim qora sochlar, xuddi shunday fusunkor yuzlar, xuddi shunday yurakka o't soluvchi ishvakor tabassum... Umrining eng beg'ubor damlarini Amir o'sha sirli jilmayishlarga baxsh etgan edi...

So'ng: u suyib o'pgan nozik qo'lchalarni kimlardir beibo ushlagani... O'sha aziz, qadrdon vujudning hech tortinmay o'zgaralar og'ushida qiyshanglagani... Birdan bularning hammasi yirik plandagi kadr kabi jonla-nib, uni titratib yubordi: «Siz eng nodon qishloqisiz! Men bari bir siz aytgandek bo'lolmayman. Bo'lolmayman! Bo'lolmayman!..»

«Eh, bari bir!»

Quyosh tikkada o't purkaydi. Osmonning bir chetida siyrak bulutlar erinibgina suzadi. Darada o'tkir archa hidi kezadi. Oyoq ostida shag'al g'ijirlaydi. Bir o'rim sochdek chulg'angan irmoq ko'lga tomon eshilib ket-gan.

— Hur qizlar-u-u! — deb qichqirdi birdan Amir va to'xtab quloq soldi.

Qoyalar qa'ridan javob qaytdi:

— Huv... v... v...

U anqayib turgan Gulnoraga tushuntirdi: qadim zamonlarda darada hur qizlar yashaganlar. Xuddi amazonkalardek. Bir kuni yov bosgan. Hur qizlar yov bilan olisha-olisha huv baland cho'qqiga chekinadilar. Yev har tarafdin o'rab kela boshlabdi. Shunda qizlar malikasi tiz cho'kib, tog'u toshlarga yolvoribdi. Ulkan qoya birdan yorilibdi-da, ularni o'z bag'riga olibdi. Iffatni jondan yuksak bilgan hur qizlar hamon bag'rida emish.

— G'alati afsona ekan... Amazonkalar... — Aytishlaricha, hur qizlardek sof, boshdan-oyoq pokiza bir qiz kelib: «Hur qizlar-u-u! Chiqinglar desa qoya yana tars yorilib ular ozod bo'lar emish. Mana shu Oydinko'l ham o'sha qizlarning ko'z yoshlaridan paydo bo'lgan, deyishadi.

Quyosh qoyalar ortiga botib ketdi. Cho'qqilar gungurt-zangori tusda tovlanar, ko'l sokin mavjlana edi...

— Ollo-hu... ak-bar-r-r!... Ollohu... u... ak-bar-r.

Butun dara seskanib tushgandek bo'ldi. Qo'rg'on tarafdin asr namoziga chorlab azon tovushi kelar edi.

— Hay...ya alas...salo...ot! Hay... ya alas... salo... ot.

— Bobom, — dedi Amir hayratdan quruqlikdagi baliqday og'zini ochib qolgan Gulnoraga. — Kecha eshitmaganmidingiz ?

— Yo'q. Qiziq, namozga toshlarni chaqiradimi?

— Bobomning nazarida, azon tovushini eshitgan yeru suv poklanadi, — deb Amir atrofga ishora qildi. — Oydinko'lning suvini ichayotganlar ham shu tariqa ozmi-ko'pmi savobga doxil bo'lar emish. Uning bu kimsasiz joyda yashashiga sabab ham shu.

— O'h-ho'... — dedi Gulnora ko'zlarini o'ynatib. - Juda... nima desam ekan... fidoyi, yo'g'-e... zamonaviy utopist ekan-ku, bobongiz...

Amirning rangi o'zgardi.

— Utopistmi, yo'qmi, siz bilan biz uni tushunmaymiz. Tushunmagan narsasi haqida yengil-elpi



hukm chiqarishga esa hech kimning haqqi yo'q!

— Kechirasiz... men... — dedi qiz yelka qisib.

Ular hovliga qaytib kirisharkan, o'choq oldida Azizaga nimanidir uqtirayotgan kampirning gapi chala-yarim quloqlariga chalindi:

— ...Amirim ham Toshkentda o'qiydi, jonim qoqindiq! Bilvoldingiz-a, endi shaharda xabar olib turasizda nevaramdan, tuzukmi?

Aziza boshini ko'tarib, Amirga ko'zi tushdiyu olov taftida qizargan yuzlari yana loyillab ketgandek tuyuldi. So'ng allanarsani bahona qilib uy tomon shoshildi. Amir yonida Gulnoraning bor-yo'qligini ham unutgan kabi beixtiyor bir-ikki odim tashladi. Ro'parasidagi pastak uy favqulodda charog'on, nur sochib, kulib turgandek edi!

Kechqurun Aziza kampirni asta gapga soldi. Suhbat aravasi o'tmishga qarab g'ildiradi.

— E...e, nimasini aytay, — deya xo'rsinib so'z boshladi kampir. — Mening ham sizlardek ayni o'n yettiga to'lib, ko'chada ot kishnasa yuragim o'ynaydigan paytlar. Mahallaning bo'z yigitlari darvozamiz tagidan yalla qilib o'ttani-o'tgan. Ha... — Kampir hasratomuz bosh chayqadi. — O'sha yallalari hali-hali esimda:

*Men bu yerga kelmas edim, yor keltirdi meni,  
O'tga tushsam kuymas edim, yor kuydirdi meni.  
Kichkina chorbog' ichinda aylanar boshim mening,  
Yor yurgan ko'chalarda to'kilar yoshim mening...*

Buni eshitgach, kechalari uyqu qayda deysiz! Bizdan bir mahalla narida Qoravoy tog'a degan etikdo'z bo'lardi. Shuning Shahobiddin degan o'g'li ana o'tadi ko'chamizdan, mana o'tadi. Har o'tganda yangi yalla. Bora-bora ovozi eshitsam, yuzimga isitma tepadigan bo'ddi. Bir kuni o'tayotganida devordan mo'raladim. Ozoda yaktak kiygan, belida shohi qiyiq, oyog'ida o'sha vaqtda yangi rasm bo'lgan ag'darma etik. Kosibcha oppoq yuz, qosh-ko'zi qora. Yuragim shuv etdi. Shahobiddin gap qotdi: «Otasi sotarmikan bu hurliqoni, yo sandiqqa qamab, narxini oshirib o'tiraverarmikan?»

Eh, chiroqlarim, yigitlar u paytlar shunaqa dangalchi edi! Men shaddod qiz edim, lekin ming shaddod bo'lsam ham o'sha tobda tilim tanglayimga yopishib qoldi. Indamay uyga kirib ketdim. Ana endi ko'ring. Ko'zimni yumsam, surati ko'rinaveradi, jim o'tirsam, qulog'imda gapi jaranglayveradi. Ko'ngil ishi yemon ekan! Bir kuni sal imo qiluvdim, kechasi chorbog'imizga keldi. Buvimni uxlatib men ham chiqdim. Nimasini aytay, rahmatlik naq qarchig'aydek yigit edi...

O'sha kunlari O'tar buvangizdan biznikiga sovchi lar shira talashgan pashshadek uchib-qo'nib qolishdi-ku... Bu kishi qishloqning oldi boyvachchasi. Buvish turtkilab qo'ymaydi:

— Ko'z yoshing boshingni yesin, nega qon qilasan odamni! Shiru sharvatning ichida bo'lasan, yog'yeb, yog'lama tashlaysan! Hu, juvon o'lgur!..

Xullas, uzatishdi. Qo'qon aravada liqirlatib olib ketishyapti, deng! Oy xuddi mana shunaqa charaqlab turibdi. Xotinlarning yor-yori bir yuragimni tirnaydts, hiq-hiq yig'layman...

*Oq miltiq, qora miltiq,  
O'tgan otam, yor-yor.  
O'z qizini yot qilib,  
Sotgan otam, yor-yor.  
O'z qizining yo'liga  
Bodom eksin, yor-yor.  
Bodom shoxi qayrilsa,  
Bolam desin, yor-yor...*

Bir vaqt uzoqdan birov yalla qildi. Shahobiddin. Yuraklarim o'rtanib ketdi-ey! Go'shangada ham ko'z yoshim tinmadi. Hay, dedim, qiz bolaning peshanasida shu bor ekan, nima bo'lsa, yo razzoq!

Dardimni zahar ichgandek, ichimga yutdim.

Boyaqish Shahobiddin giyohvand bo'lib ko'chalarda sargardon yuradigan ko'yga tushdi. Manavi qo'shiq uning sha'niga chiquvdi-da:

*Hay, hay, usta Shahobiddin,  
Ko'lda tanovaring qani?  
Suydim, suydim deb yurgan,  
Hurliqo yoring qani?*

Keyin orada hurriyat zamonlar bo'lib ketdi. O'tar buvangiz qochqinda yurgan kezlari Shahobiddin ko'p odam qo'ydi. Bir yuragim hapriqdiyu so'g'in o'ylab, yo'q, dedim: «Menga it tegishga tegdi, endi sening yostig'ingni o'zingday pok bir qiz obod qilsin!», deb javob berdim.

— Sevsangiz ham-a? — deb hayratlanishdi qizlar.

— Voy qizlarim-ey, suyganimdan-da! Jonimdan ortiq ko'rmaganimda tegardim-ketardim! Suyganim uchun... Axir, o'zganing qo'li harom qilgan sochimni suyganimga silatamanmi-ya? Bundan ko'ra murdasha'ning qo'li silasin, dedim.

Oxiri xotin oldi sho'rlik. Keyin biz bu yoqqa ko'chib chikdik. Shahobiddin ov bahona, Oydinko'lga kelib turardi. Yirokdan lip etgan «ovi» — meni ko'radi-da, qaytadi. Xayriyat, sog'-omon ekan, deyman men ham. Avvallari hafta, oyda yo'qlardi, so'g'in kamnamoroq bo'p qoldi. Hech esimdan chiqmaydi: kelmay yurib-yurib, o'tar bobongiz yo'q payti kelsa!

Yoz payti edi. Dovon tepasida to'riq mingan Shahobiddin ko'rindi. Otini yo'rttirib, ko'lga tushdi. Qarasam, ko'l yoqalab biz tomon kelyapti!

Shoshib so'qmoqqa chiqdimu qo'limni silkitib, «Qayting, qayting!», deb baqirdim. O'zimning jonim bo'lsa bir og'riydi, bir og'riydi!

Bir-birimizga termulib turibmiz. Ozib-to'zib ketibdi, rang-ro'yi bir holatda. To'satdan ot boshini shart orqaga burdiyu qamchi bosdi. Ketdi! Taxtaday qotib qolaverdim joyimda. Olapar itimiz g'inshib etagimdan tishlab tortadi. Shundagina hushimni yig'dim.

Shahobiddin shu-shu dom-daraksiz ketdi. Biz qishloqqa tushmaymiz, qishloqdagilar ham bizdan xabar olmaydi. Bir yilcha o'tgach, ravoch tergani chiqqan bolalardan surishtirib bildim: kasalmish! O'vda giyohvand bo'lib yurgan kezlari o'pkasini urdirib qo'ygan ekan. Oh, juvonmarg, dedim o'zimga, bir yigitning uvoli bo'yingda-ya!

Kun-uzun kun ko'zim dovon tepasida, hadeb qovog'im uchadi.

Bir xudo qarg'agan kun dovonda qora otliq ko'rin-di-yu! O'sha kuni qora qarg'a bir qag'illovdi, bir qag'illovdi... «Voy, jonim-ov, chavandozim, xudo senga ming yil umr ato qilsin, iloyo baxtli-taxtli bo'lg'in, ti-lingdan shum emas, xushxabarlar tomchilab tursin!», deb duo qilyapman tinmay. Chavandoz ko'l yoqalab biz tomon ot qo'ydi... Kelyapti... Dukur-dukur... Ot tuyog'i yuragimni bosib-bosib kelaverdi... Ana!.. Voy, xudoyim, Shahobiddinning jiyani-ku!..

Yetib keldiyu «Mingashing otga!», dedi...— Kampir bir zum to'xtab, yutindi.— Shahobiddinning ayoli jo'na-tibdi. Eri uch kundirki, jon berolmay ilhaq ekan...

Qishloqqa qanday yetib borganimni bilmayman. Kirsam eshikka termulib yotibdi, bir bo'zlaydi, bir bo'zlaydi ko'zi bilan...

Xotini yugurib chiqdiyu meni quchoqlab yig'lab yubordi.

— Opa! — dedi. — Jonim opam! Keling, shu sho'rlikning dunyodan armoni ushalib ketsin!

Ko'zlari g'ilt-g'ilt qiladi Shahobiddinning. Ikkimizni xoli qoldirdilar. Ro'molim bilan yuzimni bekitdim. Ikki qavat shol ro'mol ostidagi betimni labiga bosdim! «Oh!», dediyu bir tamshandi... boyaqish... uzildi...

O'sha kech qaytdimu shunday aytdim, shunday aytdim! Nazarimda, bo'zlashimga Oydinko'l chiday olmay o'zini qirg'oqqa uraverdi, uraverdi...

Yoronlar, endi qaytayin, Dardimni kimga aytayin. Shahobiddindan ayrilib, Men qandoq toqat etayin? Senga jonimni bermay, Yoring bo'lmay ketayin... Shunqor begim, voy-voy-y! Sardor begim, voy-voy-y!

O'sha kechasi bir yomg'ir qo'ydi-ey... Men bo'lsa lahcha cho'g'dek yonib yotibman, o'chirish yomg'irga yo'l bo'lsin...

Senday yigit yo'q bo'lsa, Menday yoring o'lmasmi? Endi sening hasrating Meni ado qilmasmi?

...Yig'layverib shishib ketgan Aziza qo'llarini bazo'r siltadi. So'ng o'zini kampirning quchog'iga otdi.

«Qiziq kampir ekan...»

Gulnora kampirning g'alati muhabbati, g'aroyib qismati haqida o'ylab-o'ylab, ko'zi ilinganini sezmay qoldi. Osmoni falakda qanot qoqib yurgan hur qizlar tushiga kirdi... Ajab lojuvard samo bag'rida kampir bilan Aziza ham suzib borayotganmish... Gulnora ularga qichqiray desa ovozi chiqmas emish...

U azon tovushidan uyg'onib ketdi. O'tar bobo Oydinko'lni, tilsiz qoyalari tog' ortida mudrab yotgan ; quyoshni — jumla-jahonni poklanishga da'vat etib azon chaqirardi. Bu nolasimon tovush asta havolanar, butun dara bo'ylab parvoz etar, so'ng bu makondan o'ziga manzil topolmay ko'kka, azim osmon qariga intilar edi. Osmon esa cheksiz-cheksiz...

— Hay...ya alas... salo...ot! Hay... ya alas... salo...ot!

Gulnora yoniga o'girildi. Aziza yengil nafas olib uxlab yotardi.

«Qiziq ekan bu chol, — deb o'yladi Gulnora. — Axir, xudo yo'q-ku! Birdan bari behudaligini tushunib qolsa bormi?! Yuragi yorilib ketar-ey... Hur qizlar-chi?.. Bu ham g'alati...»

Daf'atan kechadan buyon yuragini kemirayotgan niya-ti esiga tushdi: u hur qizlarni chaqirmoqchi edi! Apil-tapil kiyinib, ko'l bo'yiga tushib bordi.

Havo shunday salqin, toza ediki, Gulnora o'zini uchib borayotgan pardek yengil his qildi.

Ko'l ham uxlab yotgandek qilt etmasdi.

— Hur qizlar-u-u-u! — deb qichqirdi Gulnora

zaif ovoz bilan atrofiga alanglab. Javob qaytmadi.

— Hur qizlar-u-u-u!..

«Nahot, loaqal javob ham qaytarmasa?! Yo'q... Hur qizlar meni hech qachon eshitmaydilar, tushunmaydilar... Xuddi men ularni eshitmaganim, tushunmaganimdek...»

Yana alangladi. Hech kim yo'q edi.

— Hur qizlar-u-u-u!..

## PORTRET

Yo'ldosh aka bir qo'lini ko'cha eshikning kesakisiga tirab tarxashlik qiladi, kulganча «zorlanadi»:

— Qo'yib, yubor-e, kirmayman, dadang meni yomon ko'radi.

Besh yashar o'g'ilcham yig'lamokdan beri bo'lib uning qo'lidan tortqilaydi.

— Nevaram boyaqishni qiynamay, qiraqoling endi, tog'asi, — deya «yolvoradi» oyim.

— Obbo, tirmizak-ey, qo'ymading, qo'ymading-da. — Yo'ldosh aka og'zi qulog'ida, o'g'ilchamning yetagida kelib so'riga o'tiradi. Og'zidan «gul» isi anqiydi.

— Yo'ldoshalining qo'luga suv quy, kelin, — deydi dadam.

Qora terga tushgan o'g'lim halloslaganча Yo'ldosh akaning yoniga chiqib o'tiradi, avval osh suzilgan laganni, keyin achchiq-chuchuk solingan likopchani u tomon surib qo'yadi, yana nima qilib ko'nglini ovlashni o'ylaydi.

— Buni qara, jijan, suvni issiqroq ham qilib kelmabsizlar, — deydi Yo'ldosh aka qo'lini sochiqqa artayotib.

O'g'ilcham qovoqlarini uyib oyisiga qaraydi. U kuladi:

— «Bundan issiq bo'lsa, qo'lingiz kuyadi», degin. Yo'ldosh aka kuladi. O'g'limning yuzi yorishadi. Go'shtni to'g'rab bo'lgan dadam taklif qiladi:

— Qani, Yo'ldoshali, oshga qarang.

— Meni ma'zur ko'rasiz, tog'a, — deya Yo'ldosh aka unga odatdagi erkalgini qila boshlaydi.

Dadam ham «o'yin»ga qo'shilib, chinakam hayratlangan bo'ladi:

— Nega, Yo'ldoshali?

— Anovi... qora-quralar nima?

— Zirk bular, mayiz, Yo'ldoshali. Sizga yoqmasa, men terib olaqolay. — Dadam ko'ringan mayiz va zirklarni barmoq uchi bilan turtib-turtib o'zi tomon suradi.

— Be-e! Bir-ikki cho'qim olsam, yana chiqadi-da.

— Siz avval boshlang, yana chiqsa — tog'angizga tan,— deydi oyim.

— Kelin shaharlik-da, pishiq, — deydi Yo'ldosh aka.

— Nimaga unday deysiz, aka? — deb xotinim «o'pkalanadi».

Yo'ldosh aka «qora-qura»larni terish bilan ovora bo'lgan dadamni kuzatganча og'zidagi oshni jo'rttaga uzoq chaynaydi, yana laganga qo'l uzatib «po'ng'illaydi»:

— Yali-yali bilan qo'shiqni ko'paytirganday oshingizni sabzi-piyoz bilan ko'paytiribsiz-u, yana zirku zira solib tog'amni qiynaysiz.

Hammamiz kulamiz.

Yo'ldosh aka oshni mayda chaynaydi, dasturxonga to'kilgan guruch donalarini bitta-bitta terib og'ziga soladi. Uni ko'rib o'g'lim ham shunday qiladi.

Bolalarni o'ziga ohanraboday tortadigan odamning yuragi, ichki dunyosi qanday bo'lishi kerak? Bu qudratni qanday ifodalashi mumkin?

— Hali ham mening suratimni, chizyapsanmi? — deydi Yo'ldosh aka xuddi dilimdan kechgan fikrni uqqandek.

— Ha, — deyman va uning so'z ohangida jiddiylik sezib, hazilga buraman: — Mening sizdan boshqa kimim bor, Yo'ldosh aka?

U astoydil koyinadi:

— Bo'lmasa, aytganimni qilgin-da!

Men kulaman. Yo'ldosh akaning qovog'i osiladi.

— Mening suratimni chizyapti-yu... — deya u o'ziga tarafkash qidirib hammaga bir-bir qarab chiqadi, ketmonim yo'q, yanga!

— Ana xolo-os! — deb oyim yoqasini tutadi. O'g'irlab ketishibdimi? Qaerda edi?

— Yanga, siz tushunmadingiz. Suratda ketmonim yo'q, deyapman.

— Hah! — Oyim ko'kragiga tuf-tuflaydi. - o'takam yorilayozdi-ya, kolxozimizda o'g'ri paydo bo'libdimi, deb. Voy, oshga qaranglar, sovib qolyapti.

Yo'ldosh aka endi dadamga gap ma'qullatadi:

— To'g'rimi, tog'a? Mana bu Behzodingiz ham meni ketmonsiz ko'rmagan. Shuning uchun chizganlarini o'xshatolmayapti.

Oyim meni murosaga keltirmoqchi bo'ladi:

— Bir chekkasiga ketmonni ham qo'shib qo'y-da, o'g'lim. Karnaychidan bitta puf, degan ekan mashoyixlar.

O'zini zo'rg'a tiyib o'tirgan xotinim qah-qahlab yuboradi. Dadam ko'zlari yumilib, selkillab kuladi. O'g'lim ko'zlari mo'ltirab Yo'ldosh akaga qaraydi, jilmaymoqchi bo'ladi.

— Men ham siz aytganni uqtirmoqchi bo'ldim, Yo'ldoshali, — deya unga homiylikka o'tadi dadam.

— Kattaning so'zini qulog'iga olmasa, nima bo'lardi?

— Nima bo'lardi? — deb oyim gapni iladi. — Behudaga urinib, bir yil topgan-tutganini yeb-ichib, ikki qo'lini burniga tiqi-ib sho'ppayganча shaharga tushib boradi-da.

— Ana, bu yog'i ham bor, — deydi Yo'ldosh aka tashvishlanib. — Undan keyin, men senga aytsam, davlat anoyi emaski, mening suratimni chizganing uchun pul to'lasa.

Lekin men hayolimda allaqachon o'ninchi, yigirmanchi... ehtimol, yuzinchi eskizni chizyapman...

— Qanday odamsiz, turing, kuzatib chiqing! — deb xotinim yelkamga turtadi.

Ko'cha eshik tomon ketayotgan Yo'ldosh akaga ko'zim tushib, ichimda kulaman: u go'yo alohida-alohida cho'plardan ip bilan omonatgina tutashtirib qo'yilganu birov ko'tarib olgandek — uzun-uzun qo'llari, oyoqlari shalviraganча chiqib ketmokda.

Nahot shu odamning portretini ishlay olmasam! Shoshib orqamga qaytaman, ustaxonaga moslashtirgan oynavand ayvon tomon yuraman.

— Yana o'sha qafasiga kirib ketyapti, — deb koyinadi dadam.

— Otpuskasidan qancha qoldi? Tezroq keta qolinglar, xudo xayrilaringni bersin, — deydi oyim xotinimga. — Kechayu kunduz tosh bo'lib tikilib o'tirganiga yuragim tors yorilay deydi.

Men molbert qarshisida o'tirib portretga tikilaman. Kutilmaganda, misdek yarakdagan keng va do'ng peshana terisi tarang, birorta ajin yo'qligi timni tortadi. Yuragini kaftga olib ko'rib bo'lganda edi! Ammo buning iloji yo'q. Uni faqat aql bilan idrok qilish kerak. Eshitishimча, urushda, janglarning birida o'q parchasi tekkan ekan. Go'zallikni ko'rish uchun berilgan ko'zlarga dunyoni idrok qilish uchun berilgan miyaga o'lim timsoli — temir parchasi suiқasd qilgan-u, «Boshing toshdan bo'lsin, oy borib omon qayt!», degan Ona tilagi oldida ojiz qolgan. Nazarimда, uning o'rni o'sha botiqlik kipriklari siyrak qo'yko'zlarga, chorpaxil yuzga ma'no bera boshlaydi. Portretда allaqanday ruh paydo bo'ladi. Yuragim hapriqib, ip uchini yana yo'qotib qo'ymaslikka harakat qilaman. Biroq nina sanchilgandek, ko'zlarimда og'riq sezaman, keyin xotinimning «Bu nima o'tirish, qop-qorong'ida!», degan ovozi va vklyuchatelning chiq etganini eshitaman.

— Sizning nima ishingiz bor-a men bilan? — deya bo'g'ilganча o'rnimdan turib ketaman. Quyuq qorong'ilik mendan molbertni yashirganida xayolimда jonlangan portretni qayta tiklash uchun ko'zlarimni yumaman, ammo urinishlarim behuda ketadi. Keyin Yo'ldosh akaning ichki dunyosini tushunib yetish istagida bisotimdagi «og'zaki eskiz»larga goh aql va qalb, goh qalb va aql ko'zi bilan «tikilaman». Mana, ulardan biri:

«...Hamma Yo'ldosh akani, dunyoni suv bossa to'pig'iga chiqmaydigan odam, deydi. Aslida ham u mudom bir qiru bir sirda: ko'zlari osoyishta-o'ychan, yuzida, xatti-harakatlarida ichki, ruhiy bir muvozanat sezilib turadi. Ortiqча quvonganini yoki iztirob chekkanini sirtiga chiqarmaydi, kimdandir, nimadandir shikoyat qilganini ham hech kim eshitmagan. Birovга birinchi bo'lib so'z qotmaydi, go'yo uning osoyishtaligini buzgisi, fikrini bo'lgisi kelmaydi: dunyoning ishini o'ylayver, aql tarozisiga solaver, deyayotgandek. Agar o'zingiz so'z ochib suhbatга tortsangiz, shunday ohangда gapiradiki, xuddi u siz bilan anchadan beri gurunglashayotgan edi-yu, ovozi endi eshita boshlagandek bir hisni

tuyasiz va bundan beixtiyor hayratlanasiz. Sizni hamisha qalbida olib yurganini, har dam yuragingizga qo'l solib turganini tushunib yetish uchun hayrat hissi xalaqit berayotgani xayolingizga ham kelmaydi...»

Birdan quloqlarim tom bitib qolganini sezaman va o'zimni dala yo'lining boshida ko'raman. Yulduzlar to'la osmonga, to'g'rirog'i, osmonni to'ldirgan yulduzlarga qarayman. Men ulardan yog'ilgan ko'kimtir so-kinlikka ko'milib turibman. Qorong'ilik o't-o'lanlar ichiga, daraxtlarning quyuq barglari orasiga yashiringan. Boshimni chayqab-chayqab, quloqlarimni to'ldirgan sokinlikni «chiqarib tashlayman» va... Yer bilan Osmon oralig'ida limillagan ko'kimtir sokinlik bag'rida muallaq suzib yurgan Yo'ldosh akaning avval sharpasini, keyin o'zini ko'raman. U menga qarab jilmayadi va peshanamda issiq nafasini sezaman...

«...Men esimni taniganimda u peshanamdanda cho'lp-cho'lp o'pardiy yoki u peshanamdanda o'payotganida men esimni tanidim. Har qalay, o'sha daqiqadan boshlab ko'p narsalarni xotirlayman.

O'shanda esa men soddat yigitning tizzasida o'tirib, ko'kragidagi yumaloq-yumaloq ikkita medalni shildiratib o'ynardim. Keyin meni oyim o'zining yoniga olib o'tqazdi. Hovliga erkagu ayol gurros-gurros kirib kelar, soldat yigit bilan quchoqlashib ko'rishar, ko'zlaridan duv yosh to'kilar, xushchaqchaq kulishib, allanimalar deb yelkasiga qoqishar edi. Men yaraqlagan medallardan ko'z uzmasdim. Keyinchalik ular oddiy jez emas, zar yuritilgan shonli medallar ekanini bildim; yana keyin ularning biri «Stalingradni mudofaa qilgani uchun», ikkinchisi «Berlinni olgani uchun» medali ekanini tushundim; yana keyin Stalingrad bilan Berlin orasidagi qonli, olovli masofani tasavvur qildim.

— Yo'ldosh aka, urush yillaridan, jang xotiralaridan gapirib berasizmi?

Bu savolni nechanchi karra berganimni bilmayman, lekin oxirgi marta u shunday deb javob bergan edi:

— Otang temirchi emas-ku! Bitta gapni hadeb hijjalayverasanmi! — U menga qattiq tegib qo'yganini sezib, yumshadi: — Urush — urush-da, uka. Unga qolganda suyaksiz til ham tarashaday qotadi...»

Yo'ldosh aka urushni eslashni yoqtirmaydi. Nima uchun? Bu savolga javob istab unga qarayman. U hamon Yer bilan Osmon oralig'ida limillagan ko'kimtir osoyishtalik dengizida suzib yuribdi va menga faqat shuning uchun tug'ilgandek, «Men odamzod o'zining bo'yniga o'zi sirtmoq solishga, o'zining yuragiga o'zi nayza sanchishga, o'zining peshanasiga o'zi qo'rg'oshin qadashga qodir ekanini tan olishdan uyalaman», deyayotgandek tuyuladi.

«Dunyoni suv bossa to'pig'iga chiqmaydigan odam»? Noto'g'ri. Lekin bu gapning zamirida bir nima yotibdi. Ehtimol...

...Urushgacha ot ketidan okuchnik tutib yurgan frontchi yigitni kolxoz kassirligiga lozim topishadi. U esa oradan bir yil o'tar-o'tmas, bankdan olib kelgan yarim qop pulni yo'qotib qo'yadi, sakkiz yilga qamalib ketadi. Uyda uch oylik xotini bilan qari onasi qoladi.

U muddatni o'tab qaytib kelgan kuni — boshqa erga tegib ketgan xotinining uyida sunnat to'yi bo'layotgan ekan. Ikki kundandan keyin ona, besh yil jon hovuchlab urushdan o'g'lini kutgan, yana sakkiz yil poylab yurak-bag'ri ezilgan ona olamdanda o'tadi.

Ammo, Yo'ldosh akaning qaddi tikligicha qoladi...

Ehtimol, dunyoni suv bossa to'pig'iga chiqmaydigan odam, deyishlari shundandir? Lekin bu yolg'on. Nazarimda, bularning hammasi Yo'ldosh aka uchun urush dahshatlari oldida arzimaydigan narsalar.

Men uning ichki dunyosiga kalit topgandekman, uning hayot mantiqi deb atalmish qizil ipning uchidan tutgandekman. Men uni qo'yib yubormay, idrokning mashaqqatli yo'li bo'ylab izlanishda davom etishni istayman.

Yana bir «eskiz»:

«...U yigirma to'rt yildan beri suvchi bo'lib ishlaydi: To'rt farzandning otasi. Qishloqda faqat undagina eshak bor. Keyingi vaqtda shalpangquloq noyob zotligini «tushunib qolib» sipolik qilyaptimi yoki yolg'iz o'ziga erish tuyulyaptimi, har qalay, kam hang-raydi. Bu qishloqdagi bir ig'vogarning

haziliga ham sabab bo'lgan.

— Yo'ldoshali, so'fini yo'ldan urmang-da, azon aytib tursin.

— Baxayr, birodar. Yuqoriga yumaloq xat yozgan ekansiz, ishdan bo'shatilgani haqida qog'oz olgan. Bundan bu yog'iga so'fi — o'zlari!

«Ig'voning qurboni bo'lgan so'fi» har kuni ertalab oyoqlari yerga tegar-tegmay jildillagancha Yo'ldosh akani dalaga olib borib, kunbotarda ikki bog' o'tning ostida ko'rinib-ko'rinmay qaytarib keladi.

Yo'ldagi aka odatda dalada yuvinib olgan bo'ladi, hovlida o'tni eshakdan tushiradiyu yuz-qo'lini chayib, tomorqa aylanadi; saharlab turib qiladigan xo'jalik yumushlarini chamalaydi; o'g'illariga ul-bul ishni tayinlab, ko'cha eshikka chiqadi: bir dam guzar tomonga qarab turadi, so'ng ko'chani bir chetiga o'tib asta yo'lga tushadi.

Guzarda, anhor ustida bufet bor, oltita stol qo'yilgan. Yo'ldosh aka ixtiyor qiladigan yagona ko'ngilxushlik — shu yerga kelib vino ichish.

— Kel, Yo'ldosh.— Bufetchi— Suyar aka yog'och oyog'ini g'ichirlatib, kursida bir qo'zg'alib qo'yadi: bu uning do'sti istiqboliga o'rnidan turgani. Ular tengqur, ikkalasi ham frontchi.

— Hali ham bormisan, Suyar? — deydi Yo'ldosh aka odatdagidek va biqini bilan peshtaxtaga suyanadi, ikki do'st o'rtasida qanday suhbat bo'lishini bilib, kulganlaricha kuzatib o'tirgan tanish-bilishlar bilan bosh irg'ab so'rashadi.

— Hali vino ko'p. Men uni senga quyib berib, sen uni ichib tugatmaguningcha ikkalamiz ham bormiz.

— Unaqada sen bilan mening boshimiz toshdan ekan.

— Ha, o'rtoq, zavod ishlab turibdi. Ich, dunyo turguncha turishimiz uchun ich.

Yo'ldosh aka stakanni bo'shatib, terdan sho'rlab ketgan ko'ylagining ko'krak cho'ntagidan bir so'mlik olib uzatadi.

— Jon o'rtoq, bundan keyin so'lkavoy olib yur-gin,— deb «iltijo» qiladi Suyar aka. — Qog'oz pulingdan ter isi anqib, banka qabul qilmayapti.

— Sen ularga tushuntir. «Ter isi chiqqan pul — halol, mehnat bilan topilgan», degin, — deb «maslahat» beradi Yo'ldosh aka. — Tushunmasa, sandiqqa bosib qo'ygan pulingdan olib bor, ko'rsat, «Bundan kuyadorining isi keladi, harom pul», degin.

— O'shandan bir so'm beray, soqolingni oldirvol.

— Gapni aylantirma, qolganini cho'z!

— Yana kelganingda vino quyib beraman.

— Mayli-yu, mening o'ttiz tiyininim uchun do'zaxga tushmagin, deyman-da.

— Nafasingni issiq qil, o'rtoq. Hali vino ko'p, o'lmayman.

— Yo'ldan qoldiryapsan, Suyar. Gazeta olib qo'ydingmi?

Suyar aka uning uchun «Soyuzpechat» do'konidan bolalar gazetasi yoki jurnali olib qo'ygan bo'ladi. Yo'ldosh aka shu yerning o'zidayoq o'qishga tutinadi. Ana shunda Suyar aka o'rtog'iga yoki tashqarida o'tirganlarga: «Falon joyda urush bo'layotgan ekan, faloncha odam o'libdi» yoki «Falon mamlakatda yangi bomba ishlab chiqarilayotganmish» qabilida so'z qotadi.

— Boyo'g'li! — deb po'ng'illaydi Yo'ldosh aka va gazetani buklab qo'ltig'iga qisadi. — Kindigi yerdan uzilganlar urush qiladi. Sen ham bu yerda to'rtta taxtadan kavak qilib olib sayrayverasanmi?

U jo'nab qoladi. Suyar aka va atrofdagilar kulishadi. Yo'ldosh aka nariroq borgach, qo'ltig'idan gazetani oladi-da, asta o'qib ketadi.

Katta jigarrang darvoza oldida har kungidek Sobir aka poylab o'tirgan bo'ladi. U uzoq yillar kolxozda omborchilik qilgan; gavdasi yo'g'on, yuzlari lo'ppi, oyog'i xastalanib besh yildan beri yurolmay qolgan, har oqshom ko'chaga bir amallab chiqib oladi-da, pastak kursida salqinlab o'tiradi. Uzoqdan Yo'ldosh akani ko'rishi bilan qo'shnisining ko'cha eshigiga o'qtin-o'qtin qaray boshlaydi. Xuddi shu payt past bo'yli, xipcha, kampirdahan, og'zi to'la tilla tish, oq-sariq yuzli, yum-yumaloq boshini hamisha qirtishlab yuradigan Oltinboy aka yerdan chiqqandek paydo bo'ladi. Turgan joyida

avval o'ngga, so'ng so'l tomonga qaraydi va Yo'ldosh akani ko'rgach, halim tovush bilan: «Ana-ana, masxaraboz kelyapti, masxaraboz», degan qo'shnisining yoniga pildiraydi.

Yo'ldosh aka qo'shnilar bilan ko'rishib, o'tib ketmoqchi bo'ladi. Sobir omborchi shoshib so'z qotadi:

— Yo'ldoshboy, Suyarning oldidan kelyapsizmi? Qalay, durustmi?

— Suyarmi? Mendan ot yog'i so'radi. Sizda yo'qmidi?

— Nima qilarkan?

— Ikki kundan beri o'ng oyog'i og'riyotganmish.

— O'ng oyog'i-i-i.. — Sobir omborchi hayron bo'lib Oltinboy akaga qaraydi. U teskari burilib piq etib kuladi. — ...protez-ku, Yo'ldoshboy?

— O'sha, o'sha.

— Yopiray! — Sobir omborchi «Protez oyoqki og'risa, hali ham menikiga to'zim bersin» degandek oyoqlarini silaydi.

— O'zingizniki qalay?

— Meniki... endi... — Sobir omborchining xayolida hamon «Protez oyoqki og'risa..» degan fikr turadi va nolishdan — noshukrchilik qilishdan qo'rqadi. — Hamisha birday, Yo'ldoshboy.

— Og'riq xuruj qilganida ayting, dori topib beraman.

Oltinboy aka tomog'iga don tiqilgan xo'rozdek qiyqiradi.

— Tulki! — Sobir omborchi hassasini ko'tarib po'pisa qiladi: — Agar o'shanda ro'para bo'lganingiz-a!

Yo'ldosh aka o'zini olib qochgan bo'ladi.

Bu voqea shunday:

Qishloqda Sharvon buvi degan so'qqabosh kampir bor edi. Rahmatli bir parcha yerida ko'kat, rezavor yetishtirar, ba'zan ermak uchun bozorga ham eltar edi. Bir kuni Yo'ldosh aka hol-ahvol so'ramoq uchun uning hovlisiga kirsar, ipga qalampir tizib o'tirgan ekan. Hamiyati qo'zg'ab, «Mana bunga go'sht olib keng», deb pul beradi. Kampir uni alqaydi, ketayotganida qo'yarda-qo'ymay bir tizim qalampir tutqazadi. Yo'lda, albatta, Sobir omborchi «kutib» o'tirgan bo'ladi.

— Nima ko'tarib yuribsiz, Yo'ldoshboy? — deb so'raydi u.

— Dori, Sobir aka, dori.

— Yopiray!

— Tuni bilan oyoqlarim zirqiraydigan bo'lib qoldi.

— Endi, mehnatga bo'yin beribsizki, suvchilik qilasiz. Oyoqqa yetti qavat paytava o'rab, mana bu savilni, — Sobir omborchi hassasi bilan Yo'ldosh akaning brezent etigini niqtab ko'rsatadi, — kiyganingizda ham zax o'tadi. Nega? Tagligi rezinka, charm emas.

— To'g'ri aytasiz. Yaqinda sizning qatoringizga qo'shilaman, chog'i.

— Yo'q-yo'q! Zinhor, Yo'ldoshboy! — Sobir omborchi toqatsizlangan o'rnida qo'zg'alib oladi. — Dard bilan hazillashmang, uni eskirtirmang. Darhol dori-darmon qiling.

— Aslo tashvishlanmang, Sobir aka. Mana, davosini topdim.

— Yopiray! — Sobir omborchi ishonqiramay bir qalampirga, bir Yo'ldosh aka qaraydi.

— Ishonchli odam aytdi.

— Qani-qani?

— Unga ham birov aytgan ekan.

— Ishonchli odam?

Yo'ldosh aka pinak buzmaydi:

— Ishonchli odam. «O'n besh dona qalampirni dog' suvga maydalab to'g'rab, bo'ynimdan pastini o'n minut bug'ladimu uch yil azob bergan bodni ko'rmaganday bo'lib ketdim», dedi.

— Buni qarang-a! — Sobir omborchi qo'shnisining ko'cha eshigiga qarab-qarab qo'yadi. Zorlangan ohangda ming'irlaydi: — Oltinboy tushmagur nega chiqmayapti? — Keyin gap nima haqda borayotgani birdan esiga tushib, shoshib qoladi: — Qarang-a! Zaharni zahar kesadi, deganlariday, a! Tizimingizda... o'n beshtadan ko'p-ku?



Yo'ldosh aka uning muddaosini darrov tushunadi.

— Kerakli toshning og'irligi yo'q.

— Bo'lmasa... menga ham besh-o'nta...

— Ana endi! Ko'rgandan — ko'z haqi, deng.

— Savob uchun, Yo'ldoshboy, savob uchun!

Yo'ldosh aka qalampirni sanab unga uzatadi, qay-tarib olib yana sanaydi.

— O'n oltita bo'lib ketibdi.

— Ha-ha, oling bir donasini, — deydi Sobir omborchi. — Baniyati shifo bo'lganidan keyin rasamadi bilan bo'lgani durust. — U Yo'ldosh aka uzatgan qalampirga ikkala qo'lini hovuch qilib tutarkan, yana qo'shnisining eshigiga qaraydi. — Shu paytgacha Oltinboy bedarak?

Yo'ldosh aka uning laqqa tushishini xayoliga ham keltirmaydi, ertasiga Oltinboy aka kula-kula gapirib berganida esa hang-mang bo'lib qoladi: nahotki, umr bo'yi tarozining pallasini o'ynatgan, cho't qoqqan odam shunchalik go'l bo'lsa?!

Oltinboy akaning aytishicha, o'sha kuni Sobir omborchining uyidagilar qayoqqadir ketishgan ekan. Oyog'ini sudrab yurib suv isitadi, qalampirlarni myasorubkadan o'tkazadi. Suvga tushib, o'zini bir oz bug'laydiyu dod sola boshlaydi. Oltinboy aka yugurib chiqsa, Sobir omborchi qip-yalang'och, xonaning u burchagidan bu burchagiga yumalarmish, yakkash: «Alining qilichiga yo'liqqur, Yo'ldosh!», deb qarg'armish. Oltinboy aka tuni bilan suv tashib, ustidan quyibdi.

Sobir omborchi ikki kungacha ko'chaga chiqolmaydi. Unga ro'para kelishdan uyalgan Yo'ldosh aka esa to'rt kun guzar yuzini ko'rmaydi. Beshinchi kuni ko'chaning narigi betidan pusib o'tib ketayotganida jigarrang darvoza g'iyqillab, Yo'ldosh aka taqqa to'xtab qoladi.

— Hormang, Yo'ldoshboy!

Yo'ldosh aka sal hayallasa, Sobir omborchi yugurib kelib, ayb ish ustida qo'lga tushirishidan qo'rqqan kabi ko'chani jadal kesib o'tib u bilan ko'rishadi, tovushida, yuz-ko'zlarida na g'azab yo alamni, na ginaxonlikni sezadi, balki chehrasining ochiq, boqishlarining samimiyligini ko'rib, negadir uzr so'rashga botinolmaydi. Keyin-keyin u o'sha voqeaga shama qilib hazillashadigan, Sobir omborchi bundan allanechuk huzurlanadigan va hatto hassasini ko'tarib po'pisa bilan Yo'ldosh akani rag'batlantiradigan bo'lib qoladi...»

Men avvalgi «eskiz»lar bilan bu «eskiz» o'rtasida mushtaraklik qidiraman, ammo topolmayman. Hayratlanaman: axir, ular bir odam-ku? Yo'q, mushtaraklik bo'lishi kerak, shart. Men uni topishim, palitramga asos qilib olishim zarur. Uni topmaguncha mo'yqalamni qo'lga olishga yuragim dov bermaydi. Yurak shaklidagi taxtacha — palitradagi bo'yoqlar qorishig'i yoqmaydi. Uni hafsula bilan qirib tashlayman, yuvaman. Birdan ranglarning inson ichki dunyosini ifodalashga naqadar ojizligini sezib qolaman. Bunga qarshi isyon ko'tarib, olamni ostin-ustun qilib yuborgim keladi. Lekin ko'z o'ngimda ustozlarim paydo bo'ladi, ular qo'limdan tutib kursiga o'tkazib qo'yishadi. Endi noshud shogirdni tahqirlovchi, azoblovchi his ruhimni eza boshlaydi, bir ozdan keyin o'zimni majruh sezaman.

— Atayin ovqat buyurib, bu nima o'tirish endi? - deganacha xotinim ikkinchi marta derazadan boshini suqadi.

Men unga yeb yuborgudek bo'lib qarayman, ovozinga butun qahr-zahrimni joylab, ammo dadam bilan oyim eshitmasliklari uchun shivirlagannamo o'shqiraman:

— Tinch qo'yasizmi, yo'qmi? Ag'darib tashlang qozonni!

Bu g'azab va nafrat noshud rassomga — o'zimga nisbatan ekanini u qaydan tushunsin? Kipriklari pipirab, ko'zlarida yosh g'iltillagancha qarab turadi-da, burilib ketadi. Ketidan men ham asta chiqaman.

— Taomni mahtal qilish — gunoh, deganlar mashoyixlar, — deb oyim tanbeh beradi va mening tund bo'lib, xotinimning tumshayib o'tirganini ko'rib, dadam bilan ko'z urishtirib oladi, boshqa so'z qotmaydi.

Bu zil-zambil jimlik changga belangan o'g'ilchamning kirib kelishiga qadar davom etadi. O'g'lim tirmashib so'riga chiqadi, allanimalar deb vijirlagancha yelkamga opichadi.

— Hay-hay, tush pastga! — deya o'shqiradi xotinim uning bilagidan tutib. Men o'g'limning qo'li og'rganini jisman his etib, xotinimga chaqchayib qarayman-u... lekin dadam mendan oldin gapiradi:

— Qo'y, qizim. Dadasiga emranyapti-da.

— Ko'rpachani tuproq qildi! — deb hovridan tushmaydi xotinim. Buni men — «Shu qo'rs mehrni biladimi!», deb tushunaman, boshimni ko'tarmayman.

— Ko'rpacha boladan aziz emas, qizim, — deydi oyim.

— Yur, cho'milib kelamiz, — deyman men. O'g'lim sevinib, qiyqirgancha so'ridan pastga sakraydi.

Muzdek suvdan ruhim tetiklashadi. Olamni ming xil rangda ko'raman va uni xolstga shunchaki, o'ynab o'tirib ko'chirishga qodirdek his qilaman o'zimni. Yo'ldosh akaning portretini ishlash nima bo'libdi! Hozir, hozir mo'yqalamni olamanu... mana bunday qilib... Hozir. Hozir!

O'g'lim ikkalamiz hovliga bir-birimizni quvalashib kirib kelamiz, qah-qah urib kulamiz.

— Tavba. Kap-katta kishi-ya! Bu, suratkashlik ham odamni nashaday jinni qilib qo'yarkan-da,— deydi oyim chorsini kungiralab o'tirib. O'ndan «saboq» olayotgan xotinim boshini ko'tarmaydi, menga qochirib qiladi:

- Voy, endi bilyapsizmi? O'g'lingiz hamisha shunaqalar!

Men unga e'tibor bermay shahd bilan ustaxonaga kiraman, qo'limga top-toza palitrani, mo'yqalamni olamanu molbert qarshisida qotib qolaman: bo'yoqlar naqadar ojiz! Yo'ldosh akaning ichki dunyosini ifodalashga ularning qudrati yetmaydi. Asta kursiga o'tiraman, tugallanmagan portretga tikilib, «og'zayu eskiz»larimni yana birma-bir xotirlashdan, ular o'rtasidagi mushtaraklikni qidirishdan boshqa iloji qolmaydi...

...Va nihoyat uni qalbimning tubida tuyg'ular bilan ilg'ayotganimni, ammo idrok qilolmayotganimni sezaman, bo'yoqlarninggina sehriga umid bog'lab, qo'lim mo'yqalam olishga jur'at etaman. Haqiqatan ham fikrlarim matoga ko'chayotgandek bo'ladi: portret jonlanayotgandek, yuz-ko'zlarini ma'no kasb etayotgandek. Bo'yoqlarning qudrati oldida fikran tiz cho'kaman. Mo'yqalamni tez, ishonch bilan yurgizaman. Qancha mug dat ishlaganimni bilmayman, ammo birdan ranglar fikrlarimni ifodalashga ojizlik qilib qolayotganini sezaman, so'nggi marta mo'yqalam tegizgan joylarim soxta jilolanayotganini ko'raman. Mo'yqalam qo'yib, hovliga chiqaman. Daraxt barglarining yashilligida, turfa gullarning rangida, hatto yerning tusida ham soxtalik, ayni paytda ularning barchasida bir xil bo'yoqni sezaman. Xuddi ular ustiga och kulrang kukun yog'ilib turgandek. Osmonga qarayman va o'zimcha bir narsani kashf etaman: ertalabki feruza jilosh nur to'zoni yashirgan. Demak, bo'yoqlarga ham o'sha to'zon aralashgan. Lekin nima uchun ilgarilari buni sezmadim? Ne-ne kishilarning, o'nlab rollarni o'ynagan mashhur artistlarning shaxs sifatidagi, takrorlanmas his-tuyg'ularga to'la ichki dunyosini ochib bergan edim shekilli... Mana shu bo'yoqlar bilan! Tabiiy yorug'lik bo'lsa bas edi. Endi esa Yo'ldosh akaning ichki dunyosini ifodalash uchun bo'yoqlar musaffo yorug'likni, o'zining ibtidoiy rangida matoga tushishni istamoqda.

Negadir xudo odamni loydan yasab, jon kiritgani haqidagi rivoyat xayolimga keladi. «Ha, unga oson bo'lgan, — deb o'ylayman. — Men esa unga jon kiritish uchun bo'yoq tanlashim, nur tanlashim, ularni aql, his-tuyg'ular tarozisida o'lchab, uyg'unlashtirishim kerak». Har qalay, bir sirni anglab yetdim: Yo'ldosh dqaning portretini olam ibtidoiy rangda jilolan-ganda, osmon tiniq paytda, quyoshni to'zon chulg'agunga qadar ishlashim kerak. Ana shu paytdagina bo'yoqlar uning ichki dunyosini ochib berish sehriga ega bo'ladi.

Men ertangi tong umidida, endi qo'rqmasdan, aql so'zi bilan «og'zaki eskiz»larimga birma-bir «tikila boshlayman».

«...Kunlarning birida Yo'ldosh aka guzardan qaytayotib jigarrang darvoza oldida to'xtab qoladi.

— Nima bo'ldi, Yo'ldosh aka? — deb so'raydi bolalarini o'ynatib yurgan ayol.

— Ko'chada bexavotir yurishga ham qo'ymaysan, — deydi Yo'ldosh aka nima uchun to'xtaganiga o'zi ham hayron bo'lib.

— Nega, Yo'ldosh aka?

— Qaerga oyoq qo'yay desam bir tirrancha o'ynab o'tirgan bo'ladi. — Yo'ldosh aka tizzalarini

quchoqlab olib, bir-biriga gal bermay chug'urlashayotgan bolakaylarni erkalaydi, eng kichigini qo'lga oladi. — Kimsan, desam, «Qambar akaning o'g'liman» deydi. — U iyagi bilan go'dakning bo'ynini qitiqlaydi, bolakay qiyqirib o'zini tortadi. — Bu ham senikidir hali?

— Bo'lmasa-chi!

— O'zi ham o'n beshtaga borib qolgan-ov?

— O'n ikkitagina, Yo'ldosh aka.

— Yo'q, mana bunisini qo'shmayapsan. — U yana bir bolakayni qo'lga oladi. — Ertaga holva olib kelsang, hammasi dasturxon boshida to'planadi, Qambar ikkalang sananglar. Adashmanglar.

Shu payt Sobir omborchining, «Yo'ldoshboy!», degan ovozi eshitiladi.

— Sobir tog'ani ko'rmaganingizga hushingizdan ayrilib turgan edingiz-u, tag'in mening bolalarimga to'nkaysiz-a, — deydi juvon o'pkalanib.

— Shuni hali aytmaysanmi! — deb Yo'ddosh aka qo'lidagi bolakayni unga tutqazadi. — Hov, Sobir aka!

— Bu yoqqa kiring, gap bor!

Yo'ldosh aka kirib borganida Sobir omborchi so'rining to'rida o'tirib olib dumba yog' to'g'rayotgan, kampiri hovlining bir burchida gulxan yoqib kalla-pocha kuydirayotgan, kelini o'choqboshida kuymalanib yurgan bo'ladi.

— Keling, Yo'ldoshboy, keling-e! — Sobir ombor-chi xuddi otasi tirilib kelgandek sevinadi. — Bugun qo'chqorni ag'dardik. O'zingizni uchratolmadim, chaqir tirib kelarkanman-da, deb turgan edim. Oltinboy! es qursin! Bugun uyida yo'q edi-ku. Kelin, jigarnts yog'da bir-ikki aylantirib olakeling, ona qizim. Kampir, devordan Madrayimni chaqir, «Yo'ldoshboy keldi», de. — Sobir omborchi Yo'ddosh akaga gal bermaslik uchunmi, tinimsiz gapiradi, hayajoni baralla sezilib turibdi, uni yashirishga urinmaydi ham. Yo'ldosh aka uni birinchi marta bunday holatda ko'rganidan hayratlanib o'tiradi.

— Endi, Yo'ldoshboy, bir ish qilamiz. Ha, men sudralib yurmayin. O'g'ilgina ham kelaqolmadi, yerto'laga o'zingiz tushing, bir nima bor. Kelin, bu yog'ini tezlatib yuboring, ona qizim.

Yo'ldosh aka yerto'laga tushadi. Sobir omborchi hamon gapiradi:

— O'zimizning uzumdan, qo'lbola. To'rdagi idishlardan tanlang, Yo'ldoshboy. Kelin, uch-to'rt dona pamildori ham berasizmi, ona qizim? Kampir, Madrayim nima deydi? Ha mayli, kelib qolar. Yo'ldoshboy, bedarak ketdingiz? — Yo'ldosh akani ko'rishi bilan boshini chayqaydi, o'rnidan turishga taraddudlanadi. — He attang, he attang! Polizga kirib, xamak yeysizmi?

Cho'tga oshna bo'lgan har qanday odam singari hisobdon, to'g'risini aytganda, xasislik darajasida hisobdon sanalgan Sobir omborchining saxiyligiga Yo'ldosh akaning lol qolgani shunchalikki, hatto uning yerto'laga tushishiga ko'maklashish ham xayoliga kelmaydi. U yerda allanima gursillab tushganida ham o'rnidan jilmaydi. «Qo'ltikdan olib yuboring, Yo'ldoshboy!», degan ovoz eshitilganidagina sergak tortib, Sobir omborchini o'rnidan turg'azadi.

— Falokat-da, falokat. — Sobir omborchi devorni paypaslab chiroqni yoqadi. — Hu anovi uch litr bankani oling. Ha, uch yillik o'sha, uch yillik.

Yo'ldosh aka bir amallab Sobir omborchini yuqoriga tortib oladi.

— Dard qursin, bu dard qursin. — Sobir omborchining ovozi ko'z yoshidan namlanib chiqadi. — Ko'p arqon qolyaptida buning dastidan.

Yo'ldosh aka unga rahmi kelib, negadir to'liqib ketadi. Bir piyola musallasni ichib, Sobir omborchi ortiqcha takalluf bilan uzatgan jigarni gazak qilgach, o'zini tiyib turolmaydi:

— Sobir aka, sizning oldingizda gunohkorman. o'shanda... aytganimni qilasiz, deb sira o'ylamagan edim.

— Yo'q, Yo'ldoshboy, yo'q, — deb Sobir omborchi uning gapini bo'ladiyu bir muddat indamay qoladi. — Meni har nima qilsangiz arziydi.

— Unday demang, Sobir aka. Men sizni bunchalik go'l...

— O'ttiz ikki yil bo'ldi, Yo'ldoshboy, — deb Sobir omborchi yana uning gapini bo'ladi, — o'zimga bir dard ilashtirganman. Yosh o'tgan sari u meni halok qilyapti. Birovga yorilolmayman. — U yana

indamay qoladi. — Turmushingizni, farzandlaringizni o'ylab sal yengil tortaman. Kayfingizni chog' ko'rsam, yelkamdan bosib turgan yuk ag'darilganday bo'ladi...

Chordana qurgan Yo'ldosh aka qo'llarini tizzalariga qo'yganча enkayib, ko'zlarini yumib o'tiradi. Go'yo ko'pdan-ko'p bo'ronlarni ko'rgan qoya yana bir dovulni boshdan kechirmoq-da.

— Biroq, Yo'ldoshboy, ozmuncha savdo o'tdimi yolg'iz boshingizdan? Qayliqdan ajrash, sakkiz yil qamoq, onangiz rahmatlining oh-fig'oni... Gapimni bo'lmang, gapimni bo'lmang, — deydi Sobir omborchi va fikrlarini jamlamoqchidek bir necha lahza indamay qoladi. — Siz temir sandiqni qulflamay chiqib ketdingiz. Madamin — iloyim yer borib xabar tortmasin, o'zingiz bilasiz, bosh hisobchi edi — menga: «Pulni olib bering, bir tentiratamiz», dedi. Olib berdim, qopi bilan shkafga yashirib qo'ydi. Siz qaytib keldingiz-u, sandiqni ochib ko'rmay qulflab, yana chiqib ketdingiz. O'sha kuni yarim tunda Cho'lpon cho'loq kelib, bilasiz, idora qorovuli edi, saharlab cho'lga, chorvani taftish qilishga ketishim kerakligini aytdi. Bu gap avval ham bor edi-yu, muddati aniq emasdi. «Saharlab bo'lsa saharlab-da», dedimu cho'lga jo'nab ketdim.— Sobir omborchi gapdan tinib, dardli to'lg'anadi. — Madaminning bu qadar qabihligini bilmas ekanman. Qor bosib, cho'lda, bir hafta qolib ketdim. Uyga qosh qorayganda kelib, og'ilxonada otni bog'lab tursam, Madamin kirdi. «Xudo urdi, Sobirjon, — dedi. — Hazadning tagi zilga aylanib ketdi. Endi yopiqlik qozon yopiqligicha qolsin». Aytishicha, xayolidan ko'tarilib pul o'sha shkafda qolganmish, ertasiga kelib qarasa, yo'q emish. «Og'iz ochsang, ikkalamiz baloga qolamiz», dedi. «Yo'ldoshboy juvonmarg bo'lib ketadi-ku?», dedim. «U frontchi, medallari bor, Stalindan rahmatnoma olgan, uni qamashmaydi. Sen bilan men ilinib qolsak, omon qo'yishmaydi», dedi. O'shanda mana bu xumkalla, — Sobir omborchi peshanasiga mushti bilan ikki marta uradi, — pand bergan, ishlamagan, meni do'zax o'tiga tashlagan...

— Qo'ying, Sobir aka, o'tgan ishga salavot, — deya Yo'ldosh aka uning gapini bo'lib, boshini ko'taradi. Sobir omborchi boshini ko'tarmay davom etadi: — O'ttiz ikki yilddn beri tutayman. Bir necha bor o'zingizga aytishga og'iz juftladim. Ammo qaysi yuz bilan! O'zi bilib, abjag'imni chiqarib tashlasa edi, deb orzu qilardim. Qalampirga ham tushunib turib o'zimni bug'ladim. Sizing aytganingizni qilib azob tortsam, yelkamdan bosib turgan yuk ag'darilarmikan, deb o'yladim. Yana chidamaganimdan, sizni qarg'adim, xafa bo'lmang, chin ko'ngildan emas, shunchaki, etim achishganiga chidamaganimdan, xolos...

— Joningizni qiynab nima qilardingiz? — Yo'ldosh aka kulishga urinadi.

— Yo'q, yuk og'ir, juda og'ir. O'ylab ko'rsam, yosh ham o'tib qolibdi. Dard ichimda ketmasin, dedim-u, mana, yuzimni sidirib tashladim. Bor gap shu, Yo'ldoshboy.

— Hech narsa emas ekan-ku!

Sobir omborchi mijjalari qizarib ketgan ko'zlarini unga tikadi. Yo'ldosh akaning kulimsirab turganini ko'rib, ichida nimadir uzilib ketgandek, yuzlari og'rikdan bujmayganча boshini egadi.

— Erkakmisiz? Sizda zarda degan narsa bormi?— deydi u bo'g'ilib, ta'nali ohangda.

— Mening gumonlarim to'g'ri ekan.

— Nimaga o'shanda aytmadingiz — deb xunob bo'ladi Sobir omborchi.

— Kuniga choyimiz bir, nonimiz bir, uka-uka qilib yurardilaring. Gumonimni aytishga uyaldim. Lekin sudda og'izlaringga tikildim. Indamadilaring. O'limga hukm qilishmayapti-ku, qaytib kelib ana shular bilan yashayman-ku, qolaversa, onam bilan qaylig'im shu yerda, o'rtaga sovuqchilik tushmasin, dedim.

— Yo'ldoshboy! — deya Sobir omborchi og'riqni bazo'r yengib bo'g'iladi, ammo boshini ko'tarmaydi. — Keting! Siz bu dunyoga yanglish kelib qolgansiz yo ancha erta kelgansiz. Bu dunyo Madaminlarning, Sobirlarning dunyosi! Bu toshlarga siz posangi bo'lolmaysiz.

— Yo'q, siz meni odamlikka qaytardingiz, Sobir aka, — deydi Yo'ldosh aka uni tinglashga majbur qiladigan samimiyat bilan. — Qamoqdan qaytganimdan keyin ham uzoq vaqt odamlarning og'ziga qarab yurdim. Madamin aka olamdan o'tdi. Siz indayvermadingiz. — U bir muddat tin oladi. — Nahotki, odam bolasi shunchalik ifloslikka qodir bo'lsa, deb o'ylanib, o'zimdan-o'zim xafa bo'lib yurardim...

— Sendan xafa bo'lib yurardim, deng, shunday deng!..

— Bari bir emasmi? Siz ham odamsiz, men ham. Yo'q, odam bolasi qabihlikka qodir emas ekan. Odam bo'lib tug'ilganingga xursand yashayversang arzirkan.

— Yo'ldoshboy, turing, jo'nang, keting, — deydi Sobir omborchi va boshini yostiqqa qo'yadi. — Siz bu dunyoga yanglish kelib qolgansiz...»

Men ham odam bo'lib tug'ilganimdan xursand, xirgoyi qilgancha mo'yqalamni tez va ishonch bilan yurgizaman. Birdan palitramga yashil — serjilva o'ynoqi va sho'x rangni aralashtirayotganimni sezaman. Nima uchun u matoga tushishni istab qoldi? Portretning vazmin, o'ychan ruhiga putur yetkazmaydimi? «Odam bo'lib tug'ilganingga xursand yashayversang arzirkan! O'ylanib qolaman, hatto molbertdan podramnikni olib, yangi mato qo'yish, bo'yoqlarga yashil rangni aralashtirib, portretni boshqatdan ishlash fikri tug'iladi. Lekin shoshmayman, «og'zaki eskiz»larim orasidan «yashil»larini qidiraman va bir donishmandning «Hayotni xuddi ko'zgu kabi aks ettirish hali san'at emas, san'at — o'sha ko'zgu tashqarisidagi hayot haqiqatini tasvirlashdir», degan fikrini esladim.

Shu payt o'g'limni yelkasida ko'tarib Yo'ldosh aka kirib keladi.

— Tog'a, — deydi u o'g'ilchamni ko'z-ko'z qilgandek so'ridan ancha narida to'xtab, — hamma poshsholar bolalardan bo'lsa, ja ajoyib bo'lardi-da! Odam umrini o'ynab-kulib o'tkazardi.

— Obbo, avliyo-ey! Obbo, avliyo-ey! — Yonboshlab yotgan dadam o'rnidan turib o'tiradi. — Topgan gapits-gizni qarang-a!

— Rost, tog'a. — Yo'ldosh aka o'g'limni pastga tushirib, dadamning yoniga o'tiradi, u tomon engashib dil-dilidan gapiradi: — Anovi Krater degan kojbahs ham... — U menga yuzlanadi: — Shundaymi, Amerika poshshosining oti Kratermidi?

— Yo'q, krater — oydagi dog'lar...

— Anovining oti-chi?— deb so'zimni bo'ladi Yo'ldosh aka.

— «Anovi»ning oti — Karter.

— Farqi yo'q ekan-ku, boshni aylantirasan. Bu ham yerdagi dog'-da. O'sha Krater kojbahs ham taxtini birorta bolaga bo'shatib berganida! Bola xalqining irqiyu millati yo'q, davlatining chegarasi ham bo'lmaydi. Lekin tog'a, ikki yuz yil, uch yuz yil yashardik-da...

Xayollarim uchib ketadi. Shuncha kun mashaqqat chekib, nur tanlab, rang tanlab, mo'yqalam uchi bilan yaratgan portretim chippakka chikdi. Yo'ldosh akaning hozirgi qiyofasini, yuz-ko'zlaridagi ma'noni ifodalash qudratiga ega bo'lgan so'zlar, ranglar olamda yo'q. Ehtimol, uni matoga ko'chirish uchun ertalabki quyosh nuri kerakdir! «Avliyo! Avliyo!», deb xitob qilaman ichimda va qaerdadir ko'rgan suratim esimga tushadi: yam-yashil maysa va rang-barang dala gullariga tizzasidan ko'milgan qip-yalang'och bolakay yuz-ko'zlari kulgidan yashnab, ikki qo'lini yozgancha quyoshga talpinib turibdi. Miyamga yana shunday fikr keladi: Yo'ldosh akaning portretini ishlashdan Odam Atoning suratini chizish oson. Yer, Quyosh va qip-yalang'och Odam Ato! Ehtimol, yuzida, ko'zlarida olamning ship-shiydamligidan hayratlanish ifodasi bo'lar? Boringki, Momo Havoni ko'rganida quvonsin ham. Uning suratini chizish oson! Ammo hozirgi odamlar... Agar Odam Atoni Yer betida tasvirlash lozim bo'lsa, Yerni hozirgi odamlarning yuragiga sig'dirish kerak. Uning tebranishiyu larzaga kelishi bilan, bor quvonchiyu tashvishi bilan! Ha, Odam Atoning suratini chizish ming karra oson. U endigina paydo bo'lgan edi, bizning bugungi kunimizga yetib kelishi uchun esa million-million yillarni yashab o'tishi, yuzlab asrlarning yukini yelkasiga olishi kerak. Uning suratini chizish oson. Ammo hozirgi odamlar... Agar ularning biri Yo'ldosh aka bo'lsa... Avliyo u, avliyo!

## BALIQ OVI

Men birinchi sinfga qatnardim. Akam yettida o'qirdi. Otam xo'jalik mudiri edi. Uyimizga tez-tez mehmon kelib turardi. Har safar har xil kishilar: oriq, semiz, novcha, pakana, mo'ylovli, mo'ylovsiz... Ularning ko'pini tanimasam-da, o'zimda yo'q sevinib ketardim. Chunki mehmon kelsa, akam ikkimiz, albatta, baliq oviga jo'nardik. Qishlog'imizning kunbotar tomonida to'qay bo'lib, hali zovurlar qazilmagan, zaxob suvlar quritilmagandi. Katta-kichik buloqlarda, ayniqsa, Dimariqda (dimlanib oqqani uchun shunday deyilardi) baliq mo'l bo'lar edi. Suv ko'payganda hatto to'qay ichidagi sholipoyalarga ham baliq chiqib ketardi. Shanba-yakshanbada bu yerga bolalar to'lib ketardiki, kim qarmoq ko'targan, kim to'r sudragan...

Men akamning baliq tutishini ko'rishga ishqiboz edim. U baliq ovlashga usta edi. To'rdayam, sanchiqdayam bir zumda bir paqirini ilintirardi. Hatto qo'ldayam. Suv ostiga sho'ng'ib, baliqlarni o'z kamaridan tutib chiqardi. Hech narsadan, ilondan ham qo'rqmasdi. Ilon ko'rdimi, tamom, uni dumidan ushlab aylantirib-aylantirib otib yubormaguncha ko'ngli joyiga tushmasdi. Qirg'oqda kulcha bo'lib, mudrayotgan ilonlar sharpamizni sezdi deguncha jilib qolishar yo o'zlarini suvga urishardi.

O'rtoqlarimning havasi kelar, men kerilib, «akam Qarag'ayning akasi shunaqa», deb ko'kragimga urardim. Bolalar chuvillashib akamning izidan ergashib yurishar, undan ilon ushlab ko'rsatishni so'rab, yalinib-yolvorishardi. Akam ko'pincha ularga yo'q demasdi. Bunday vaqtda bolalar akamning qo'lidagi ilonning havoda doira yasab, chirillab aylanishini uzoqdan, bir-birining pinjiga kirishganicha, qo'rqa-pisa tamosha qilishardi. Ilon o'ttiz-qirq qadam nariga shaloplab tushgach, o'shayoqqa chopishar, sulayib yotgan gazandaning o'lganiga ishonch hosil qilishgandan so'nggina unga yaqinlashishardi. Birona yuraklisi (u ham iloji boricha o'zini orqaroqqa olib) ilonning dumiga hadiksirab qo'l uzatardi. Shundan keyin boshqalar, men bir aylantiray, men bir ushlab ko'ray, deb talashib ketishar, so'ngra murosaga kelishib, to'qay o'rtasidagi keng chimzor maydonda navbatma-navbat, kim uzoqqa otar o'ynardilar.

Akam ularga qo'shilishimga ruxsat bermasdi. Birpas o'ksinib turardim-u, akam sayoz joyga, quruqlikka irg'itgan zog'ora baliqning jon holatda sapchib-sapchib tushishini, suvning chuqurroq yeriga intilishini, tangalarining oftobda yalt-yult qilishini ko'rib, arazni esdan chiqarardim. Keyin akam tol yo yulg'indan kesib bergan ilmoqli chiviqqa baliqlarni tizib, sholipoyalarning ensiz polida langarsiz dorbozlarday lapanglab, akam qayoqqa borsa, orqasidan ko'tarib yurardim. Ko'p o'tmay bolalar suvni shaloplatib yugurib kelishar va yana xarxashasini boshlashardi. Akam tag'in ilon qidirib ketar, lekin endi uni ushlab, bolalarni quvib qolardi. Ularning har yoqqa tiraqaylab qochishini ko'rib, qotib-qotib kulardim.

O'shanaqa paytlarda men juda yayrab ketardim. Shuning uchun ham mehmonning qorasini ko'rishim bilan irg'ishlab, poxol yoyadigan kattakon ayri yog'ochga ipdan to'qilgan kichkinagina, bir kishilik to'r turadigan baland so'riga chopardim. Akam bo'lsa, menga xo'mrayib, biqinimga sekingina bir musht tushirar, takaga o'xshab irg'ishlama, deb jerkib berardi. Popugim pasayib, ko'zimni yengim bilan ishqalagancha indamay uyning orqasiga o'tib, o'tirib olardim. Birpasdan keyin akamning o'zi chaqirardi:

— Kom! To'rni ol, kedik.

To'rni yelkamga tashlab, akamning oldiga tushardim.

Bilaman, baliq ovlash akamning joniga tegib ketgan. Shuning uchun eshikdan begona tovushni eshitsa peshonasi tirishardi. Ammo, to'qaygacha sust borardi-yu, suvga tushdi deguncha hamma narsani unutib, ishga jon-jahdi bilan kirishib ketardi. U baliqni mehmonlarning soniga qarab tutar, chamasiga yetmaguncha suvdan chiqmasdi.

Mehmonlar odatda uchta-to'rtta bo'lib kelishardi.

Ko'pincha ularni otam o'zi boshlab kirar, biroq otamning yo'g'ida ham kelishaverardi. Faqat bir

kishi hamisha otam bilan kelardi. Faqat shu odamgina menga yoqmasdi. Gavdasi beso'naqay, rangi sovuq, chaqchaygan ko'zlariga qarashga yuragim dov bermasdi. Mo'ylovi ham boshqalarnikiga o'xshamas: labining ikki chetida osilib turardi. U menga doim hissiz, dag'al ovozda: «Ha, Qoravoy, yuripsanmi», deb qo'yar, peshanamga tushgan kalta, tartibsiz pat-sochimni qo'ying junini chamalab ko'rganday g'ijimlab, erkalagan bo'lardi. Boshim zirqirab, ko'zlarimdan yosh chiqib ketay derdi. Lekin sir boy bermas, gapiga ham javob qaytarmay, yerga qarab turaverardim. Keyin u qizlarning mayda sochiday ingichka o'rilgan va uchi bog'ichli qilib tugilgan, yulg'in sopi yiltillab ketgan qamchisini: «Ma!» deb uzatardi. Men uni ayvon ustunidagi mixga ilib qo'yardim. Baliqdan keyin palov ham yeyilib bo'lgach, u meni chaqirardi: «Qoravoy, qani, qamchinni opke-chi». U panjalari orasidan sizib tushayotgan yog'ni qamchin dastasiga surtib-surtib, yana menga qaytarib bergach, kaftini charm etigining qo'njiga ishqalay boshlardi. So'ng tovoqqa choy quyardi-da, aylantirib-aylantirib bir ko'tarardi va xo'rda ichganday xo'rillatib, simirib yuborardi. Hammasidan ham uning baliq yeyishini tomosha qiladigan edi. U baliqni ko'p va juda tez yer, biroq kam nushxurt chiqarardi. Nima balo, qiltanog'ini ham yutib yuborarmikin, deb hayron bo'lardim.

Men otamning yonida o'tirib, uning baliqni oshalab yeyishini hayrat bilan kuzatar, ayrim xatti-harakatlarini ko'rganimda boshimni otamning panasiga egib, sekin kulib olardim. Kekirganida hiqildog'i o'ynab chiqar, uchi ingichka va uzun mo'ylovlari baliq qiltanog'iga ilashib hadeb og'ziga kirib ketar, u chaynashdan to'xtamagan holda bosh barmog'i bilan chiqarib qo'yardi.

Dasturxonga fotiha o'qishgach, otam: «Qani, Komronbek!» derdi. Mehmonning orqamdan: «Shu o'g'lingiz epchil, chaqqon, uloqqa tushadigan yigit bo'ladi-da», deganini eshitib, qadamimni tezlatardim. Baliqxo'r kishining oti darvozaxonamizda turardi. Egar qoshiga ilingan qora, yiltiroq korzinkani bir sakrashda olib, zum o'tmay otamga yetkazardim. Otam pishirilmasdan olib qo'yilgan baliqlarni qog'ozga o'rab unga joylashtirardi. Men esam qamchinni olib, g'izillanimcha otni darvozaxonadan ko'chaga yetaklab chiqardim.

Akamning-ku, uni ko'rishga ko'zi yo'q edi-ya, hatto opam ham: «Yana kepti baliqxo'r kishi», deb qo'yardi. O'choq boshidan jilmaydigan onam xursandmi yo xafami — buni bilolmasdim, to'g'risi, endi eslasam, qiziqmagan ekanman. Faqat bir marta opam g'udranib tandirga o't qo'yayotganida uning: «Qovog'ingni och, Salomat, otang sezib qolsa, hali hammamizni qaqshatadi, u otangning xo'jayinlaridan», degani qulog'imga chalingan.

«Baliqxo'r» biznikiga oxirgi safar kelganida taxminan erta bahor edi. Qattiq kelgan qishning hali zahri ketmagandi. «Baliqxo'r kishi» birinchi marta ko'pchilik bilan keldi. Sheriklari ham o'ziga o'xshagan qorindor-qorindor-u faqat mo'ylovlari yo'q edi, xolos.

Otam mehmonlarni katta uyga joylashtirib, tezda hammamiz tiqilib o'tirgan dahlizga qaytib chiqdida past ovozda ish taqsimlay ketdi:

— Onasi, darrov suyuq oshga urin, qo'y yog'idan ko'proq to'g'ramchilab, jazla. Salomat, baland so'ridagi uzum, anordan olib tush, qovundanam, eski chakmonga o'rab qo'yganman. Keyin qo'shnilaridan qatiq top, ko'proq, ha, saryog'am. Bo'la qol, oyog'ingni qo'lingga ol. Komil, ukangni boshla to'qayga. Mo'lroq tutib kelinglar. Sudralmay ildamroq qimirla.

Akam angrayib otamga, keyin ko'zlarini mo'ltillatib onamga qaradi.

— Shunday sovuqda-ya?.. — Onam akamdan ko'z uzmay, yurak yutib, ammo jur'atsizgina shunday dedi.

— Hech narsa qilmaydi, to'rda ovlashadi. Ataylab baliqxo'rlikka kelishgan. Qani, nonni opke, choyni tezlashtir! — Otam onamning oldiga bordi-da, uning qulog'iga bir narsalar deb shivirladi. Bu gap onamga yoqmadi shekilli, peshanasini tirishtirdi.

Akam hamon joyidan qimir etmas, ko'zlarini o'choqda guvillab yonayotgan olovga qadagancha kiprik qoqmay turardi. O'sha paytda uning xayolidan nimalar kechgani menga hozirgacha qorong'i. Katta uyga kirib ketayotgan otam qo'lini eshik tutqichiga uzatgancha to'xtab qoldi, kifti osha akamga qaradi va ancha silliqlashgan to-vushda: «Issiqroq kiyinvol, o'g'lim»... dediyu nigohini tezda qayirib, shahd bilan tutqichga yopishdi. Lekin ichkaridan eshikni ohista va zich yopdi. Nazarimda, u eshikka

suyanib bir oz turib qolganday tuyuldi.

Chovgumdan choynakka qaynoq suv quyayotgan onam: «Shu paytda zarilakanmi?.. Kimga nima qayg'i... Sal kun iliganda kelishsayam bo'lardi, to'qayga o't tushib, baliq qirilib ketmasdi...» deb g'udrandi. Keyin u bizga zo'rlab ikki piyoladan issiq choy ichirdi, qalin kiyintirdi.

To'g'risi, shu paytda baliq oviga mening ham hech borgim yo'q edi. Akam oyog'iga ilashgan tosh-kesaklarni jahl bilan tepib ketar, o'zicha ming'irlar, men qunishgancha uning orqasidan indamay to'r sudrab borardim.

Ariqlarning bo'ylarida, marzalarda ko'klam nishonasi — yalpizlar bodroq-bodroq bo'lib chiqa boshlagan, baqalarning «vaq-vaqa»si avjida, chimzorlardagi kuzda o't qo'yib kuydirilgan ajriqlarning tomirlaridan chiqqan yangi, ko'm-ko'k giyohlar yer bag'ridagi hayotning qaytadan jonlanganidan dalolat berardi. So'ppaygan qovjiroq qamishlar izg'irinli ko'klam shamolida bir-biriga urilib, noxush ovoz taratardi. Ikki labi ko'karib qolgan Dimariq hali hech kim va hech nima loyqalatib ulgurmagani uchun tip-tiniq, bilinar-bilinmas, mayin chayqalib yotardi. Suv ostida onda-sonda mayda-chuyda baliqlar ko'zga tashlanib qolardi.

Akam Dimariqning torroq joyiga to'r soldi. Men ariqning teparog'iga borib, uzun kaltak bilan baliqlarni hayday boshladim. Suv bir zumda qop-qora bo'tanaga aylandi. Akam to'rni ko'tardi. Havoda bir necha mayda chavaq yalt-yult etdiyu cho'lp-cho'lp qilib suvga gushib ketdi. Qaytadan to'r soldik. Bu safar irimigayam biron ta ilinmadi.

— Hali baliqlar kamaridan chiqmapti, — dedi akam to'ng'illab.

— Endi nima bo'ladi?

— Nima bo'lardi, kamarga tushaman-da.

— Sovug'-u aka, sovqotmaysizmi?

— Nima qilaman? Baliq topib borish kerak.

Akam otamning gapini ikki qilmas, boshlagan ishini, albatta, oxiriga yetkazardi. «Falon narsa bitmay qoldi» yo «yo'q ekan» deganini bilmayman. Bunday bo'lishiga otam yo'l qo'ymasdi ham.

Yana bir marta urinib ko'rganimizdan keyin akam to'rni qo'riqqa otib yuborib, yechina boshladi. Akamga Dimaridagi, umuman, to'qayning hamma buloq va ariqlardagi baliq kamarlari besh qo'lday ma'lum edi. U ariqning chuqurroq joyini, baliqning kamarini mo'ljallab sho'ng'idi. Suv tiniq bo'lgani uchun uning harakatlari aniq ko'rinardi. To'g'ri borib po'sti qolmagan, suv yalab o'tayotgan yapasqi tol to'nkasi ostiga qo'l suqdi. Amfibiya odamday suv ostida har zamonda oyoqlarini siltab, muallaq holda ancha turib qoldi, keyin orqasiga tisarilib, suv betiga otilib chikdi. Uning ikki qo'lida bir yarim-ikki qarich keladigan ikkita zog'ora baliq tipirchilardi. Akam baliqlarni qirg'oqqa irg'itib yana sho'ng'idi. Keyin yana... Aftidan, ulgurji baliq topib olganidan u ham o'zida yo'q xursand, sovuqni ham unutgan edi. U har gal baliqni menga tashlayotib «nechta bo'ldi» deb so'rardi-yu, lekin javob kutmay sho'ng'ib ketardi. O'n beshtaga borganda akam suvdan chiqdi. Badani qorda ishqalanganday qip-qizarib ketgan, dag'-dag' qaltirar, tishlari bir-biriga tegib takillardi.

Uyga yetguncha yugurgilab keldik. Akam dahlizga kiridiyu o'zini sandalga urdi. Onam: «Bechora bolam-ey», deb uning yuzlarini, ko'kraklarini, qo'llarini ishqaladi, issiq choy ichirdi, ustiga yakandozlardan tashladi, sandalga yana ikki xokandoz cho'g' sodd. Akam sovqotib ketyapman, junjikib ketyapman, deb bir oz yotdiyu uxlab qoldi.

Baliqni opam ikkalamiz ayvonda tozalab berib turdik, onam qovurishga tushdi. Otam tayyor bo'lganini peshma-pesh ichkariga olib kirib ketardi. Mehmonlar juda hursand: xoxolashar, ayniqsa, «baliqxo'r kishi»ning kulgisi momaguldirakday uyning derazalarini zirillatib yuborardi.

— Bo'ronbekning o'g'li qishda muz teshib bo'lsayam baliq tutib beradi, demadimmi sizlarga!

— Otasining o'g'li-da! Mard, ulfat odamning farzandiyam mard, ulfat bo'lishi kerak-da!

— Ha, hamma gap otasida.

Qiziq gap bo'lmasa ham qiyqiriq, kulgi ko'tarildi.

— Mana endi bundan bu yog'i baliq sayli, — yana «baliqxo'r kishi»ning ovozi eshitildi. — Qachon desanglar kelaveramiz, xo'jalik mudirimizni hamisha eshigi ochiq.



Mehmonlar qorong'i tushganda qo'zg'alishdi Eshik taraqlab ochilib, ostonada «baliqxo'r» ko'rindi. U chayqalib ketishdan o'zini arang tutib turar, qulochini kerib, ikki qo'li bilan eshik kesakilaridan mahkam ushlab olgandi. Uning pashsha qo'nsa sirg'alib ketadigan silliq boshida ter yaltirar, go'shtdor, qora yuzlari cho'g'day qizarib, ko'zlarining oqi jigarrang tusga kira boshlagandi.

— Kelin! Rahmat... Ammo baliqni zo'r qovuribsiz. Bu... bizzi qahramon ko'rinmaydi?.. Ie, uxlab qopti-da, ha, mayli, damini olsin...

U ehtiyotkorlik bilan qadam tashlab sandal yoniga keldi. Engashmoqchi bo'lgandi, azbaroyi to'yib ketganidan egilolmadi. Amallab qo'lini akamning jag'iga yetkazib, erkalagan bo'ldi.

— Shovvoz yigit, botir yigit... O'g'ildan xo'p berganda sizlarga... Mana shu Komilbek bor deb kelamizda biz... Yashavorsin, azamat. Baliqni zo'ridan tutibdi. Maza qildik...

Mehmonlardan biri uni qo'ltig'idan suwab tashqariga boshladi.

Bu paytda onam o'choq oddida boshini xam qilganicha yuzini yarim yashirib turar, otam esa pishirmay olib qo'yilgan baliqlarni qora korzinkaga joylash bilan band edi.

Mehmonlar telva-teskari bosishib ko'cha tomon yurishdi. Pichan yeyayotgan otlarini timirskilanib arang yechishdi-da, suvlig'ini ham solmay egarga yopishishdi.

Ot tuyoqlarining «taqa-tuq»i anchagacha eshitilib turdi.

Qaytib kirganimda uyning derazalari lang ochiq, onam og'zini doka ro'mol bilan to'sib olib, dasturxonni yig'ishtirardi.

— Komron, manavi savil qog'ur shishalarni yo'qot ko'zimdan nariroqqa! — deb qichqirib qoldi u menga.

Xona dimiqib, papiros tutunlari shiftning to'sinlari orasida siyrak bulutga o'xshab suzib yurar, taxir, achimtir, qo'lansa ta'mlar, baliq hidi, nos isi aralash-quralash bo'lib ketgandi.

Uyni tozalab bo'lib pechkani qaytadan yoqdik-da, Uning yaqiniga joy qilib, akamni uyg'otdik. Onam:

«Tur, tur o'g'lim, ichkariga joy solib qo'ydim, issiqqina, kirib yot», deb elanar, akam bo'lsa uning gaplarini eshitmaganday nuqul: «A, a, nima?»... derdi. Xullas, uni bir amallab turg'azdik. Lekin u karaxt odamday joyidan jilmas, qovoqlarini zo'r bilan kerib ochgan ko'zlari yumilib ketardi. Onam uning tirsagidan tutib ichkariga boshladi. Akam o'ringa kirdiyu ustiga ko'rpani tortdi. Onamning: «Choy ichib olmaysanmi, ovqat yesang-chi», degan iltijolari javobsiz qoldi.

Otam mehmonlarni kuzatib qaytganida biz hammamiz akamning boshida o'tirardik. Onam uni ko'rdiyututoqib ketdi:

— Qaysi go'rda qoldingiz? Yo'q yerdan baliq topib siylaganingizam yetardi-yu, uylarigacha oborib qo'ydingizmi?! Bola qiynalib ketdi! Do'xtir topib kelish kerak!

Qamchinni etigiga urib kelayotgan otam taqqa to'xtab, onamga g'azab bilan tikildi, lekin ko'zlari nursizlanib rangi oqarib ketgan edi. Keyin shitob kelib akamning yoniga cho'nqayib, kaftini uning manglayiga qo'ydi.

— Komil! Komiljon!

Akam javob bermadi. U qisqa, ammo tez-tez nafas olardi. Otam onamga yuzlandi:

— Ovqat-povqat yedimi?!

— Tuz totgani yo'q, bolam sho'rlik, — deya javob berdi onam yig'lamsirab.

Otam chiqib ketdi. Ko'chada ot tuyoqlarining tasir-tusiri eshitildi.

Opam akamning oyoqlarini uqalab, piqillab yig'lar, onam esa uning peshonasiga oq durrachani qayta-qayta ho'llab bosar, men nima qilishimni bilmay bir chekkada ularning xatti-harakatini, onamning holatini kuzatib o'tirardim. Onam har zamonda: «Voy, onaginang o'rgilsin-ey, voy tomog'ingga qiltanoq tiqilgurlar-ey, biror safar baliq yemay ketishsa nima qilardi-ya, badani yonyapti buni, qo'lni kuydiradi-ya», deya uf tortar, akam bo'lsa o'zi bilan o'zi ovora bo'lib, isitma bilan olishar, ahlalardi. U xayolida nuqul menga gapirardi: «Komish, topdim! Baliqning konini topdim! Ikki qarichli sazan... OI! Ushla, suvga tushib ketmasin!.. Nechta bo'ldi?.. Hozir, hozir chiqaman...»

Qachon, qanday uxlab qolganimni bilmayman. Ertalab tursam, akam endi tinchib orom olayotgan

ekan. Kechasi doktor kelib ukol qilibdi, xavfli emas, sal sovuq o'tibdi xolos, deb ketibdi. Chindan ham akamning isitmasi pasaydi, ozroq ovqat yegan ham bo'ldi. Lekin baribir alahsirayverdi. Hammamiz uning atrofida parvona edik. Ayniqsa, otam oldidan bir qadam ham jilmadi, desam bo'ladi. O'zi majburlab ozgina sholg'om sho'rva, issiq choy ichirdi. Ustini birday o'rab turdi. Bir-ikki marta kipriklarida nimadir yiltillaganini ko'rib qoldim. Hammasidan ham opam ikkimizni «siz»lagani g'alati tuyulardi. G'ayrati terisiga sig'maydigan, chapdast va jangari odam bir kecha-kunduzda cho'kib, xasta, siniq qariyaga aylanib qoldi. Nazarimda, bir soatda bir enlik etidan tushayotganday edi.

Onam bo'lsa, kun bo'yi qovog'ini ochmadi. Har zamonda o'zicha g'udranib qo'yardi.

Akam kunduzi tez-tez bezovtalanib yotdiyu kechga borib isitmasi yana ko'tarilib ketdi. U o'qtin-o'qtin qaltirab-titrab ketar, lablari pirpirab uchib-uchib qo'yar, tilini chapillatib tamshanardi. Alahsirashi kuchaydi. Uzuq-yuluq gaplaridan xuddi nimanidir quvalayotganday, kimdandir najot kutib, madad so'rayotganday bo'lardi. Yarim kechaga borganda tinchib uxlab qoldi. Shundan keyin biz ham yotdik.

Qattiq dod-voydan uyg'onib ketdim. Onam bilan opam akamning ustiga yotib olishganicha ho'ngrab yig'lashar, otam bir qo'lida akamning jag'ini ushlab, ikkinchi qo'li bilan hadeb uning qovoqlarini ishqalar, «hiq-hiq» qilganida yelkalari titrar, ikki ko'zidan shovullab yosh quyulardi. Men avvaliga hech narsaga tushunmay angrayib qarab qoldim. Keyin yuragim sovuq bir narsani sezib, akamning ustiga o'zimni tashladim. Muk tushgancha, tushunibmi-tushunmaymi, uzoq yig'ladim. O'zimni tutolmas, nimadir meni yig'lashga majbur qilardi. Lekin baribir bola edim-da. Bir ozdan so'ng akam esimdan chikdi. Hovlimizga kirayotgan odamlarning ko'pligini ko'rib og'zim ochilardi. Hatto to'yimda ham buncha odam kelganmas, deb o'ylardim o'zimcha.

Otam gangib qolganday, kim gapirsa o'shaning og'ziga qarardi. U nuqul meni bag'riga bosar, yonidan jildirmasdi.

Biz otam bilan darvozaxonamizda turardik. Ba'zilar otamni quchoqlab yig'lashar, birov so'rashib, boshqasi bosh qimirlatgancha indamay hovliga o'tib ketardi.

Bir mahal kelayotganlar orasida «baliqxo'r kishi ko'rinib qoldi. Men hozir sochimdan tortqilaydi, deb o'zimni otamning orqasiga yashirdim. Agar qo'l cho'zadigan bo'lsa shartta qochib ketaman deb mo'ljallab turdim. Lekin u menga e'tibor ham bermadi. Hatto boshini ham ko'tarmasdi. Otamning oldiga kelib to'xtadi-da, bir nimalar deb pichirladi. Men faqat «bandachilik-da, bandachilik...» deganini eshitdim. Ota teskari o'girildi...

O'shandan beri baliqni ko'rsam seskanib ketaman.

## OTA

Aslida men moddiyunchiman. Alloh taologa shak keltirgan joyim yo'q, ammo... Bilasizmi, esimni tanigach, kechgan umrim Rusiyada o'tgan. Shu bepoyon mamlakatda avval nomzodlik, keyin doktorlik ishimni himoya qildim. Ilmiy rahbarim ko'p ma'rifatli olim edi, qatag'on zulmining borki sitamini boshidan kechirgan, bu ham yetmaganday aksilirsiyatchi Litsenkoga qarshi chiqqan va yana qamalgan, xullas, turma ikkinchi uyiga aylangan...

Ko'rguliklar ko'ngliga g'ubor solmagan shu kishining hasratlarini tinglab o'tirib, goho «Ey, qodir egam, agar sen bor bo'lsang, bir devonai mashrabning boshiga shuncha kulfat solarmiding?!», degan paytlarim bo'lgan. Ammo bu — boshqa masala. O'sha kuni — sizga qanday tushuntirsam ekan — bir hujjat to'g'rilash kerak edi, kun bo'yi bo'zchining mokisiday idorama-idora yugurib, sillam qurib uyga qaytdim. Ko'nglim g'ash, ham buning ustiga yomg'ir sevalab o'tgan bo'lsa-da, havo tund, irkit bulutlar qalashib yotar, xullas, yurakni ezib yuboradigan qandaydir alamangiz shom edi.

Uyga kirib chiroqni yokdim, lekin ko'nglim yorishmadi. O'zimni juda yolg'iz ham notavon his etdim, go'yo hozir bir kori hol sodir bo'ladigandek, odatda uncha e'tibor qilmaydigan qizchamga ko'zim tushib qolsa, yuragim to'lib ketadi deng.

Ora-sira kishida shunday holat bo'lib turadi, shekilli?

Axir, olim degan nomim bor. Ilm, irsiyat deb bo'g'iq laboratoriyalarda umrni o'tkazdim, ammo oyoq ostidan bir «tashvish» chiqib qolsa, bolalarimning kuniga yaraydigan hech vaqo orttira olmadim. Nima, men yashashga noqobilmanmi? Topganim nega tirikchilikdan ortmaydi? Odamlar qayoqdan topadi? Orttiradi? Qo'sha-qo'sha uylar soladi? Buning uchun olchoq bo'lish kerakmi? Qanday qilib yo'qni yo'ndirsa bo'ladi? Bolalar bo'y yetib qoldi, birini uzatish, boshqa birini uylantirish, uyli-joyli qilish kerak. Ammo qanday qilib?..

Bo'g'iq ovoz meni seskantirib yubordi. Savilqolgur telefon shundoq biqinimda turgan ekan, faryod solgan kabi shunday zorlandiki...

...Vahmidan yuragim uvishib ketdi.

— Allo-o?

— Aka, yaxshimisiz? Uydagilar tinchmi? Yangam, singillar...

Ukamning tovushi qandaydir shikasta, hayajon shunday silqib turar edi. Yuragim battar hapqirdi. U yo'taldi. Otam anchadan buyon dardga chalinib yurgan edi, shu mening xayolimdan o'tdi, har xil o'ylarga borib, hayajondan bo'g'ilganicha:

— Tinchlikmi? — deya so'radim.

U bo'lsa tag'in yo'taldi, so'ng atay shunday qilayotgani sezilib turgan ohangda:

— Tinchlik, tinchlik, — dedi vazminlik bilan cho'zib. — Shu-u... — yana uning nafasi ichiga tushib ketdi.

— Nima gap? Tinchlikmi o'zi?

— Otam sizni so'rayotgan edilar.

«Aytgan edim-a!» Muqarrar boshimga tushadigan yuk butun salobati bilan bosib kela boshladi. Boyagi charchog'u tashvishlar unut bo'la boshlagan edi, garchi takdirga tan bergan bo'lsam-da:

— Tuzukmi o'zlari? — deya so'radim. Va shu lahzaning o'zida bunga hojat yo'qligini his etdim.

— Tuzuk, tuzuk. Kasalxonada. Shu-u...

— Men hozir yo'lga chiqaman.

— Uydagilar yaxshimi, ishqilib?

Noxush xabarni yetkazgan odam o'zini aybdorday his qiladi. Shunday holatga tushganligi uchun ham u nima deyarini bilmay ko'ngil so'rayotgani kunday ravshan edi.

Indamay go'shakni joyiga qo'ydim.

O'zimni taqdir suroniga topshirib bo'lgan edim, uning oqimiga itoatan o'rnimdan turdim-da,

shosha-pisha soatga qaradim. Sakkiz. Poezd jo'nashiga yana bir soatcha vaqt bor.

Hayotda shunday damlar bo'ladiki, o'zing bilan o'zing bo'lib, na yurgan yo'ling, na ko'rgan-bilganing yodda qoladi. Poezdda ketyapman-u, qani endi o'zimni qo'lga olishga kuchim yetsa. Borib, qanday ko'rgulikning ustidan chiqar ekanman? Chindan ham otam kasalxonadami yoki?.. Har qalay, tuzuk bo'lmadi. Og'ir yotganligini bila turib, bir ko'ngil so'ray olmadim. Qishloqdagilar-ku, mayli, hatto otamning o'zi ham meni badavlat, agar qo'lini uzatsa, istagan joyiga yetadi, deb o'ylaydi. Kim qachonlardan buyon poytaxtga olib kelishimni, shu sohaning piri bo'lgan mutaxassislarga ko'rsatishimni kutib yotibdi. Lekin men hatto til uchida shunday qilay deya olmadim, royish bildirib, «xo'p» deb qolsa agar, uyalib qolaman deb cho'chidim. Sizga yolg'on, o'zimga chin: shu tashvishni ko'tara oladigan holim yo'q edi. Mana, endi, xudo ko'rsatmasin, biron gap bo'lsa, el-yurtning malomatiga qolishim aniq. Garchi yuzimga aytishmasa-da, «o'rgildim sening olimligingdan!..» deya ichida ta'na qiladiganlar yo'q emas.

Mendan oyim ham xafa bo'lsa kerak. E, tavba! Qanday qilib ularga «nomim ulug' bo'lsayam, qo'lim kalta» deya olaman? Shu gapga biron ishonadi deb o'ylaysizmi?!

Hali qaytib kelgach, taomilga ko'ra ma'rakasini o'tkazish — dasturxon yozib yurtga bildirish kerak. Uyda esa sariq chaqa yo'q. E, xudo!..

Kimga borib dod deysan, axir, Qayoqqa borasan o'zingdan qochib?!

Shunday ahvolga tushib qolmay deb odamzod o'zini o'tga, suvga, to'rt tomonga urar ekan-da?!

Bilmayman — qachon ko'zim ilingan, bir mahal allakim turtganday bo'ldi, ko'zimni ochdim, qaragam, diplomatni tizzamga qo'yib, kupe burchagida omonatgina o'tiribman.

— Yetib keddiniz,— dedi vagonog'a horg'in tovushda.

Temir zinalarni bir-bir bosib perronga tushdim. Havo muzday ekan, uyqum tamomi o'chib ketdi.

Osmonning kunchiqar tarafi xiyol yorishgan, ko'k yuzida uvada bulutlar suzib yurar, unda-bunda esa oyna sinig'iday yalt-yult etib yulduzlar ko'zga tashlanar edi.

Kechagiga nisbatan havo picha yumshagan, namxush yo'laklar, yomg'irda chayilgan yaprokdar ko'ngilga taskin bag'ishlar edi.

Vokzalda biron-bir tanishni uchratmagach, sekin ko'chaga chikdim. Taqdirga tan bergan kishigina shunday xotirjamlik tuyishi mumkin. Favqulodda sokin ko'chani bir-bir bosib o'tdim-da, shifoxonaga eltuvchi yo'lga burildim. Har holda, shu yerda deyishgan edi-ku menga. Biron kori hol ro'y bergan bo'lsa, kutib olish uchun, albatta, kimdir chiqqan bo'lar edi.

Shifoxona darvozasining rangi o'chgan, mayishgan bir tavaqasi qiya ochiq edi. Ichkari kirdim, devoru imoratlar xiyla cho'kib qolganday bo'lib tuyuldi menga.

Xiyobon oralab ketgan torgina yo'lak bo'ylab yurilsa, dov-daraxt orasidan oqarib ko'rinayotgan pastqam binoga. olib borar edi. Otam chindan ham shu yerda, yurak kasalliklari bo'limida yotgan ekan, ukamning aytishicha, infarkka duchor bo'libdi u.

Qishloqqa o'tmay, to'g'ri shu yerga kelishimni oldindan bilganday ukam dahlizga chiqib turgan ekan. Meni ko'rib, horg'in chehrasida achinishmi, har qalay, ko'ngli bo'shab ketganligini oshkor etuvchi bir ifoda aks etdi.

— Keling, aka, sizga sezdirmay qo'ya qolaylik, degan edim, bo'lmadi. Yetti kundan buyon na ko'zini ochadi, na tuz totadi. Og'ziga suv tomizib o'tiribmiz...

— Nima, kecha xiyla og'irlashdimi? — deya so'radim jonsaraklik bilan.

— Ha. Shu...

Shosha-pisha u qo'l uchida ishora qilgan eshikni ochib, ichkari kirdim. Bir o'rindiqliq arang sig'adigan torgina bo'lma. Sho'rlik otam o'ng biqiniga yonboshla-gancha bulk etmay yotar, bir siqimgina bo'lib qolgan edi u.

Ukam odob yuzasidan: «Siz yo'l yurib kelgansiz, hozir uyga boring, picha dam oling, ertalab gaplasharmiz, aka», dedi. Biroq men unamadim, «Yaxshisi, sen bor, damingni ol, axir, men ham bir farzandman-ku, otamning bosh uchida picha o'tiray», dedim. U ketgach, oqish kursini oldim-da, o'tirdim.

Go'yo tegirmon toshi yelkamdan bosib turar edi.

Mana, otam — dunyoga kelishimga sababchi bo'lgan, oq yuvib, oq taragan, papalab o'stirgan otam...

Tuyg'ularning tabiatiga tushunish qiyin, garchi validai muhtaramang, padari buzrukvoring seni deb jonidan kechsa-da, ko'zlari yo'lingda nigoron bo'lsa-da, farzandingchalik joning achishmaydi ularga. Ehtimol, hayotning abadiyligini ta'minlovchi sinoat shundadir. Mana, otam, u haqda jiddiroq o'ylab ko'rsin debmi, hayot nihoyat meni unga ro'baro' qildi: u bir siqimgina bo'lib shundoq mening qarshimda, to'shakda mixlanib yotibdi, lablaridan qon qochgan, za'faron yuzlarida og'riq izimi yoxud bir nimadan norozilikmi... toshday qotgan.

Men endi esimni tanigan paytlarda u kishi «Ij-yupiter» mototsiklini minib, tong bo'zarmay ishga ketar edi. Qay mahal ishdan qaytishini bilmasdik ham. Faqat bozor kunlarigina toklarning tagini yumshatayotganida, beda g'aramlayotganida ko'rib qolar edik. Keyin — men picha ulg'aygach, shirin uyqumni buzib salqin saharda uyg'otishlari yodimda qolgan. Ota-bola junjikib yotgan dalani kesib o'tib, tutzorga borib ipak qurti uchun barg kesar edik. Maktabga jo'nash vaqti bo'lgunga qadar otam bir-ikki tutni kallaklar, men esa uzun-uzun shoxlarni oldimga o'ngarib, eshakda uyga tashir edim. Eshakda mulgib kelar ekanman, maktabga o'tib ketayotgan beg'am, betashvish bolalarga shunday havasim kelar ediki, shunday havasim kelar ediki...

Hayot bir marta imkon bergan menga, u ham bo'lsa— o'qish. Shunda qanday bo'lmasin, albatta, institutga kiraman, tirikchilik tashvishi bosh ustingda tegirmon toshiday aylanadigan bu muhitdan sitilib chiqib ketaman, deb ko'nglimga tukkanman. Shaharga kelgach, kirish imtihonlaridan o'tdim, ammo mandatda ilinshga ko'zim yetmadi. Shunda bir imdod tilab, otamga telegramma jo'natdim. Yodimda, o'shanda u biz ijarada turadigan xilvat kulbani topib kelgan, tag'in sigirni sotib, pulini belboqqa tutib olibdi. Egasiga topib beraman shuni, nima bo'lsa ham sen o'qishga kir, deb rosa sarson bo'lgan. Axiyri, so'rib tashlangan uzumday shalvirab qishloqqa qaytgan. O'shanda kuzatib qo'yay deb vokzalga chiqib borgan edim, otam sho'rlik perronda turibdi-yu, xuddi hozirgidek bir hovuchgina bo'lib qolgan, bir ayb ish qilib qo'ygan kabi sira ko'zimga qaray olmaydi, nihoyat, poezdning jo'nashi ma'lum qilindi, shunda u ters burilib nari ketdi. Otamning boshqa birovlar kabi uddaburon emasligidan yozg'irib turganimda g'ijim dastro'molini chiqarib, ko'z yoshini artganini ilg'ab qolganman...

Keyin — nomzodlik ishimni himoya qilgan kunim garchi qarzga botib bo'lsa-da, qo'y yetaklab, ikki yashik ichimlik olib ukam bilan kirib kelgan: kelin tushirganida bo'sag'aga dovur sochqi sochib borgan... so'ng bor shaharga tushganida «dahlizing yalang'och ekan-ku, bolam», deya chiqib, to'shang'ich olib kelgan, shular bir-bir xayolimdan kechdi.

Men esa u kishiga hatto gugurt cho'pi olib berishga ham jazm qilmaganman, loaqal ko'ngli uchun...

Shu tobda dil-dildan iqror edimki, gap pulda emas. Shuncha ma'raka-mavrid o'tayapti. Biznikida o'tmasdan qolmas. Xudoga shukr, beshta ukam bor, ular bir tomonini ko'taradi, qarindosh-urug', ovul-hamsoya deganday, ammo... nega biz bunchalar quntsizimiz? Diydemiz qotib ketgan? Nega?

E, xudo, nechun bandalaringni bunchalar turfa yaratgansan? Dunyoga kelib, shu odam nima yorug'lik ko'rdi o'zi? Bizning tashvishlardan ortib, qishloqdan ikki qadam nariga chiqdimi sira? Istirohat qildimi, axir? Boyoqishning qo'lini nega buncha kalta yaratding va yana nega meni bu tang ko'yibadga giriftor etding? «Axir, katta o'g'lim shunday olim bo'lsa, birovdan kam joyi bo'lmasa, meni — o'z otasini poytaxtga eltib, do'xtirlarga ko'rsatmadi-ya, loaqal bir marta davolatmadi-ya!» degan armonda ketmaydimi endi, ey, xudo?!

Munchalar tangu tor etmasang?! Sendan nima ketdi, axir, tag'in to'rt kunlik umr bersang-chi shu ban-dangga, jinday halovat tuysin, nabiralarining huzurini ko'rsin, ey, qodir egam!..

Otam daf'atan chap ko'zini ochdi, so'ng o'ng kipriklari ham sekin ajraldilar va, u nihoyat, ko'zlarini ochib, hayron bo'lgan, tanishga qiynalayotgan kabi chi-mirilib menga termuldi.

— Abduxoliq?! O'g'lim, keldingmi?!

Noqulay ahvolda uzoq yotib qolgan kishiday imh-imhlab sekin o'rnidan qo'zg'aldi, «siz qimir etmang, ota, men hozir...» deya qilgan iltijoyimga ham qaramay to'shakdan turdi-da, meni bag'riga oldi.

Bir-birimizga suyanishib dahlizga chiqdik.

— «Ey, qodir egam, o'zingga shukr»— deya hamd aytar, ko'z yoshlarim yuzimni kuydirib yuvib tushar edi.

— Ota, — dedim men nihoyat bo'g'zimga tiqilgan yig'ini yutib. — Atay sizni olib ketgani keldim.

Toshkentda kuchli do'xtirlar bor, agar, xo'p desangiz sizni olib borib ularga ko'rsataman, o'zlari davolashadi.

Niyatimni anglab yetmaganday otam menga picha hayron qarab turdi, so'ng:

— E, bolam! — dedi horg'in va holsiz ovozda. — Nimaniyam bilar eding sen? Do'xtiring u deydi, bu deydi, nina sanchadi. Ular jonimni qiynab sanchgan ninasi sening bir diydoringchalik bo'larmidi, axir?!

Daf'atan nima deyarimni bilmay qoldim. Tag'in har xil o'yu andisha xayolimni band etdi.

— Qishloqdagilar aytmaydimi, axir, «Otasini munday do'xtirlarga ko'rsatmadi ham», deb?..

«Qo'yaver» degan kabi otam behol qo'l siltadi. Keyin juda past, juda xasta ovozda:

— Endi obkirib meni yotqiz, — dedi, — charchadim. O'zing qishloqqa bor, bir ulov top, keyin kelib meni bu yerdan olib ket. Do'xtirxonada nima bor, bolam? Kunim bitgan bo'lsa, uyimda — nevaralarimning oldida — odamga o'xshab munda-ay oyog'imni uzati-ib o'lay...

Juda g'alati holatga tushib qolgan edim. Bir do'stimning deputatlikka nomzodi qo'yilganidagi mojarolar xayolimdan kechdi, o'shanda u rost gap aytib, hech kimning ishonchiga kira olmagan, keyin qarsillatib katta-katta va'dalar bergan, «shunda odamlarning hovliqishini ko'rsang, — degan edi u. — Aslida ularga shu kerak!» Otam-ku bo'ladigan gapni aytdi, lekin men shu tobda odamlarning ko'zicha, «poytaxtga olib ketaman!» deb ancha-muncha tixirlik qilsam bo'lar edi, ammo bunga jur'at sezmadim...

## HAYKAL

Hech kimning yetti uxlab tushiga kirmagan, aslida, ko'zni sal kattaroq ochib qarasa, har qanday odam ko'ra oladigan oddiy, ayni paytda g'aroyib voqea sodir bo'lgan shaharning bodu havosi, meva-chevasi va boshqa mayda-chuydasi haqida mehmon irimiga bo'lsada bir og'iz so'z aytmagandi. U faqat shahar o'rtasidan o'tadigan, bir vaqtlar suvi zilolday bo'lgan daryoning endilikda chiqindilarga to'lib-toshib, bo'tanaga aylanib, tuproq qal'adagi devday to'lg'anib oqib yotishini o'z hikoyasiga qistirib o'tgandi.

Shaharda aholi g'ij-bijmish.

Ba'zilar, ularning juda-juda inoq yashashlarini aytisharmish; ba'zilar esa aksincha gap tarqatisharkanki, osmondan tushib, yerdan chiqqandek ko'payishib ketgan odamlarning bir-birlarini ko'rishga ko'zlari, otishga o'qlari yo'q, deyisharkan. Harholda, bu yurimsak gaplarning qay biri to'g'ri-yu, qay biri bo'htonligini ajrim qilish bo'tana suvni ko'rib turganday oson ish emas ekan.

O'sha shaharning yoshu qarisi — yetti yashardan yetmish yashargacha qurama olomon yaqinda ulkan bir anjumanga uyushqoqlik bilan qatnashibdilar.

Ha-a, bitiklarda aynan shunday deb, «uyushqoqlik bilan» deb yozilibdi.

Shundan so'ng aholining bir-birlari bilan it-mushuk emas, balki og'a-ini ekanliklari, qadrdonliklari-ri oydek ravshanlashibdi.

Anjuman!

Uyushqoqligu inoqlik!

Ana shunday ulug'vor hodisalarning biri ikkinchisini to'ldirib ketaveradi.

Xullas, daryoning o'ng sohilida endigina bitta yarimta osmono'par uylar, jamoat binolari qurilayotganda, ya'ni obod qilinayotganda, bir ajoyib kalladan bir ajoyib fikr chiqib qolibdi...

Ana shunday damlarda odamning ertakkayam ishongisi kelib ketadi!

Biroq o'sha shahardan bir bozorchi Turdiquq yashaydigan shaharning bozoriga borib qolib, buning ertak emas, aynan haqiqat ekanligini jiddiy tarzda turib aytdi.

O'z qulog'im bilan eshitib, ishondim.

Turdiquq yashaydigan shaharning bozoriga borganmisiz?!

Voy-bo'! Yetti iqlim bozorchi yig'ilib shu yerga keladi-ku!

Mol bozori, somon bozori, do'ppi bozori, qatiq bozori, qovun bozori... — hammasi alohida-alohida.

Teri bozoriyam bor.

Turdiquqning do'konida odamning terisidan bo'lak barcha jonzotning terisi topiladi.

— Odamning terisi boshqa joylarda, maxsus do'konlarda shiliniq, quritiladi, — deya hazil-hazul qiladi Turdiquq.

Turdiquqning do'koni hamisha gavjum.

Birov biron narsa xarid qiladimi-qilmaydimi — farqsiz, kirib kelib, besh-olti kishi sig'adigan xarrakka o'tirib oladi. Negaki, terifurushning uzoq-uzoq yurtlardan yo'qlab keladigan oshnolari bisyor. Ular shunchalik ko'p narsalarni bilishadiki, eshitib yoqangni tutamlaysan, tavba, tarvuzday bir kallaga shuncha gap sig'adimi-ya, deya hayron qolasan.

Haligi shahardan kelgan bozorchiyam Turdiquqning do'konida choy ichib o'tirib, ne xayolda, birdaniga bir kallalik odamning fikri bilan daryoning o'ng sohiliga, butun shaharga ko'rinadigan tepalikka juda haybatli haykal o'rnatilganini aytib qoldi.

— Necha yilda qurishdi? — deb so'radi Turdiquqning somonfurush oshnasi.

— Ikki yilmi-uch yilmi, ishqilib shunaqa-da! — dedi mehmon.

— Bo'yi ham ancha bordir-a? — so'radi yana kimdir.

— Ikki-uch yilda qurilganidan keyin ancha bo'ladi-da! — deya mehmonning o'rniga javob qaytardi Turdiquq, shuniyam bilmaysanmi, degandek qilib.

— Muncha baland, katta haykal nimaga kerak ekan-a? — dedi xayolga cho'mib qolgan charxchi.

— Muhofaza, xaspo'shlash uchun, — dedim men. Lekin, javobimga hech kim tushunmadi chamasi, yoinki tushunishsa ham o'zlarini ovsarlikka olib turishdimi — miq etishmadi. Xijolat tortib, o'sha savolga ikkinchi javobni ham qoyillatdim:

— Ba'zi qushlar osmonda qanot qoqib charchashganda ana shunaqa baland haykallarning boshiga qo'nib dam olishadi!..

— Safsata! — dedi Turdiqul shartta, yuzingda ko'zing bormi, demay.

— Safsata! — qo'shilishdi xarrakda o'tirganlar ham.

Shundan so'ng suhbatga huda-behuda qo'shilib ketavermay, jim-dim, o'tirishga majbur bo'ldim.

Turdiqulni tanishining so'ziga qaraganda, haykalning ostidagi ancha-muncha yer ko'kalamzorlashtirilibdi. U, aniqroq qilib, besh-oltita oyoqyalangga hovli-joy bo'ladigan yer edi, dedi. Men ichimda uning so'nggi gapiga e'tiroz bildirdim, tashimga chiqaray desam, Turdiqul do'konidan chiqarib yuborishdan ham toymaydi. Axir haykal o'z nomi bilan haykal-da! Besh-oltita yalangoyoq bundan keyin ham uy-joysiz kunini o'tkazar, shuncha vaqtlardan beri boshida boshpanasi bormidi — biror yeri kamayib qolgani yo'q!

Chalg'imaylik.

...Ko'kalamzorlashtirilibdi, favvoralar qurilibdi, turfa gullar ekishibdi. Axiyri, uning ochilish kuni yetib kelibdi. Bu naq bayramga aylanib ketayozibdi. Ko'ksi ordenu medallarga to'la taniqli-taniqli odamlar so'zga chiqishibdi.

— Bu tunj haykal asrlar osha ham turaveradi! — debdi taniqli odamlardan biri.

— Lekin oradan ikki-uch kun o'tgach haykalning ustiga mato tashlab yopib qo'yishdi, — dedi mehmon.

— Ie, nega? — choynakning qopqog'ini ushlagancha qotib qoldi Turdiqul.

— Ye, nega? — boshqalarning ham hayratlarining cheki yo'q edi.

Mehmon piyoladagi choydan bir ho'plab aytaymi-aytmaymi, degandek ko'zlarini qisibroq bir zum o'ylanqirab turdi.

— E, aytavering! — qistalang qildi Turdiqul.

— E, aytavering! — chuvillashdi xarrakdagilar ham. Mehmon, nimaiki bo'lsa — bo'ldi, degandek shart qo'l siltab, so'zida davom etdi:

— Haykalning chap qo'li ko'ksiga qovushtirilgan, u o'ng qo'lini cho'zib kunbotar tarafga ishora qilib turardi.

— Nima bo'пти? — so'radi Turdiqul. Boshqalar ham shovqin solishdi:

— Nima bo'пти?

— Haykal o'ng qo'li bilan ishora qilib turgan tarafda o'ttiz yildan buyon ayollar qamoqxonasi bor ekan. Bu qamoqxonani ilgari hech kim bilmaskan, haykal bahonasida kattayu kichikka ayon bo'lib qoldi. Bitta-yarimtasi, bay-bay, bu mahobatli, zo'r haykal ekan-da, xo'sh, qayoqqa ishora qilyapti, deb so'ragudek bo'lsa, boshqasi, ayollar qamoqxonasiga-da, deya kesatardi.

— E-ha!.. — xitob qildi Turdiqul.

— E-ha! — xitob qilishdi boshqalar.

Ana shu birgina «E-ha!» da olamjahon ma'no yashiringanligi sizga ayondir.

— Kunlar o'taverardi, — davom etdi mehmon. — Haykaltaroshlar haykalni chodirga o'rib olib nimaiki qilishsa qilib yotishibdi. Ba'zi odamlar, endi qamoqxonani yopisharmish, ayollarni uy-uylariga qo'yib yuborisharmish, boringlar, ro'zg'orlaringga qarab, bolalaringni emizi-i-ib, jimgina o'tiringlar, sizlargayam, bizgayam uyat bo'lib ketdi, deyisharmishu haykalni so'ngra ochisharmish, deyishsa; ba'zilar, aksincha, fikr yuritib, haykalni tag-tugi bilan qo'porib, munda-ay munosibroq joyga olib ketisharmish, deyishgacha borishdi.

Biroq qamoqxonani tarqatishni ham, munda-ay mu-nosibroq joy topishning ham iloji bo'lmagan she-killi, oradan ancha vaqt o'tgach, haykalning o'ng qo'lini ko'ksiga qovushtirishib, chap qo'lini



kunchiqar tarafga uzatib qo'yishdi.

— Ha-a, tuzuk, — yengil nafas oldi Turdiquil.

— Haqiqat bor ekan-ku! — totli xo'rsinishdi boshqalar.

Ularning bu kayfiyati uzoqqa bormadi.

— Ikki-uch kundan so'ng haykalning ustiga yana mato tashlab yopib qo'yishdi, — dedi mehmon.

— Ie, nega? — Turdiquilning og'zi ochilib qoldi.

— Ie, nega? — boshqalarniki ham shunday bo'ldi.

— Hayqalning chap qo'li ishora qilib turgan joyda o'ttiz yildan buyon erkaklar kamoqxonasi bor ekan. Bu qamoqxonadan ham shahar ahli bexabar ekan, eshitib, barchaning taniga titroq kirdi. Emishki, bu yerda ashaddiy kallakesarlar yotisharmish, bitta-yarimtasi qochib chiqqudek bo'lsa, hammaning sho'riga sho'rva to'kilarmish; emishki, ular o'sha yerdan turib ham hukumatga so'zini o'tkaza olisharmish, kattalarning sir-asrorlarini bilisharmish... Vahima!

Turdiquil taassuf-la bosh chayqadi. Taassuf-la bosh chayqashdi qolganlar ham.

— Kuz o'tdi, qish o'tdi, ayni avji bahorda haykalning ustidagi matoni tantanasiz, musiqasiz, baayni tobuto'shni olganday olishdi, — dedi mehmon ham ma'yus tortib qolgan holda. — Endi uning o'ng qo'li to'g'riga, baayni oydin yo'llarni ko'rsatayotgandek uzatib qo'yilgan, chap qo'li esa ko'ksiga qovushtirilgandi.

Yerga kirib ketay deb o'tirgan Turdiquil qaddini tikladi.

Xarrakdagilar ham yelkalarini ko'tarishdi.

— Xayriyat-e! — chuqur nafas oldi Turdiquil.

— Xayriyat-e! — chuqur nafas olishdi boshqalar.

— Ammo roppa-rosa bir haftadan so'ng haykalning ustiga yana mato tashlab yopib qo'yishdi.

— Ie, nega? — Turdiquil g'azablanganidan o'rnidan turib ketayozdi, ko'zlaridan nafrat sachradi, beixtiyor musht tugib, xayolan nimalarnidir chilparchin qilgisi, kimlarningdir qulog'i ostida shavla qaynatgisi keldi.

— Ie, nega? — boshqalarning ham ko'zlarinsh paxtasi chiqib ketayozdi.

— Daryoning chap sohilida o'n qavatli mehmonxona bor edi, — mehmon sovib qolgan choydan ho'plab, quruqshagan tomog'ini ho'llab oldi. — O'sha mehmonxonada o'sha kunlari fohishabozlik, o'g'rilik avjiga chiqib, kimlar bedavo dardlarga yo'liqqan, kimlar shir yalang'och qolgan, hammayoqni shov-shuv, mish-mish tutgandi. Mehmonxona xodimlarining ko'pchiligini haykal chap va o'ng qo'llari bilan ko'rsatgan joylarga jo'natishgandi. Mahobatli, zo'r, o'ziyam sof tunj haykalning oldinga cho'zilgan tunj ko'li o'sha mehmonxonani ko'rsa-tib turardi!..

Turdiquil adoyi tamom bo'ldi. Rangi bo'zarib:

— Uh-h! — dedi-yu, dam boshiga, dam tizzasiga mushtlayverdi.

Boshqalar ham adoyi tamom bo'lishdi. Ranglari bo'zarib:

— Uh-h! — deyishdi-yu, dam boshlariga, dam tizzalariga mushtlayverishdi.

— Shundan so'ng haykalning qo'lini qayoqqa qaratib qo'yilishini aholining o'zi hal qiladigan bo'ldi, — dedi mehmon. — Odamlar gurros-gurros bo'lib kelaverishdi. Keyin takliflar, muhokama-munozaralar boshlanib ketdi. Birov unday dedi, birov bunday dedi. Birov orqa tomonni ko'rsatadi—uyoqdan ham bir chatog'i chiqib turibdi; birov allanechanchi gradusdagi burchakni taklif qiladi — ko'p o'tmay rad etiladi.

— Bir qo'lini ko'ksiga qovushtirib, ikkinchisini osmonga uzatib qo'yish kerak! — deya baqirdi olomon orasidan kimdir.

— Ma'qul, ma'qul! — degan xitoblar yangradi.

— Osmon toza, qaranglar, hozir bulut ham yo'q!

— U yoqqa mehmonxona ham qurib bo'lmaydi!

— Qamoqxonona ham qo'rib bo'lmaydi!

— Yashasin osmon!

— Osmonga tasannolar!

Xuddi shu mahal yana bir baqiroq allaqaysi go'rdan chiqib kelib:

— Xaloyiq, tavba denglar, osmonda xudo bor-ku!— deb baqirdi.

Olomon bir chayqalib tushgach, jimlik cho'kdi. Axir dahriyning haykali xudoni ko'rsatib tursa...

Yo'q!

— Ishonmanglar, xudo yo'q u yerda! — sukunatni buzishga jur'at etdi kimdir.

Olomon guvladi.

— Xudo bo'lmasa haykalning qo'li nimani ko'rsatadi, axir? — baqirdi yana haligi baqiroq.

Olomon orasidan:

— Ha-a, nimani ko'rsatadi? Nimani?! — degan tovushlar chiqib boshladi.

— Ikkala qo'liniyam yelkasidan uzib tashlash kerak!— dedi yana kimdir va shu zahotiy oq qarshilikka uchradi:

— Haykalda gunoh yo'q!..

Mehmon uzoq tin oldi. Turdiquil ham, xarrakdagilar ham boshlarini solinqiraytib o'tirishardi.

Charxchi bir-ikki gapni aylantirib, mavzuni o'zgartirmoqchi bo'lgandi, baribir, suhbat qovushmadi.

Haykal voqeasini aytib bergan kishi Turdiquilning do'koniga tez-tez kelib turardi, negadir keyin-keyin umuman ko'rinmay ketdi. Turdiquil ham ancha o'zini oldirib qo'ydi. Rangu ro'yi siniqdi. Bu xafalikdanmi, boshqa narsadanmi — bilolmadim. U negadir do'konining ko'rki bo'lgan xarrakni tashqariga uloqtirib, bu ham yetmaganday, bolta bilan maydalab tashladi.

*1990 yil.*

## OQTO'SH

Bostirma ostida katta, qora it oldingi oyog'iga jag'ini qo'yganча yotibdi. Uning dumi va quloqlari kesik. Tumshug'ining uchi tovuqlar titaverib mayinlashib ketgan tuproqqa botgan. Ko'zlari yarim yumiq, go'yo kattaroq ochishga majoli yo'q.

It ko'rinishdan horg'in, beparvo bo'lsa-da, tiyrak qaraydi. Uning butun diqqati hasharchilarning ayvondagi poyabzallarida. Poyabzallar bor-yo'g'i to'rtta: poylari doimo og'ib turadigan, qo'njisi kalta etik, bog'ichsiz ikki juft tufli va chelak yonidagi keda. Bular itga begona. Unga qarashlilari uch juft kalish. Kalishlar hozir ayvonda yo'q. Tong-sahar tarqalishadi. Birinchi bo'lib Beka kigizdan patak solinganini sigir tomonga sudraydi. Qiz yangi kalishni oyog'iga ilib, paxtazorga jo'naydi. Uchi salgina yirtilib, qizg'ish lattasi chiqib qolgan kalishni esa Xo'jayin xirmonga kiyib ketadi.

Xo'jayin avval dalaga etik kiyardi. Oyog'i shishib ketib kalish kiyadigan bo'ldi. Etigi ulkan edi, qo'njilari uzun, keng edi. It kuchukligida bolalardan qochib, ana shu etik ichida necha martalab jon sakdagan. U paytlarda itning ko'ksidagi oqi bilinmasdi. Yunglari hozirgidek timqora emas, qizg'ish, mushuknikidek mayin edi. Bolalar tortqilashganida yulinib ham ketardi. Dumi bilan quloqlari bus-butun edi.

Keyinchalik qirqishib... o'ziga yegizishgan.

Xo'jayin kalish kiyadigan bo'lgach, etikka birov qaramadi. Ancha mahal chang bosib yotdi, so'ngra qayoqqadir g'oyib bo'ldi. Bu qutilmaganda yuz berdi. It ayvonga chiqqanida, etikning turaverib iz bo'lib qolgan o'rniga ko'zi tushdi. Shundagina etikning yo'qolganini sezdi. Iskadi, ammo qaerga olib ketilganini bilmadi. Narsa yerdan ko'tarildimi, qayta yerga tushmasa, tamom, hidini topish qiyin.

Shu-shu ayvonda uch juft kalish qoldi. Hasharchilarning poyafzallari bular safiga yaqinda ko'shilgan. O'sha kuni it qo'nimini yo'qotdi. Qancha oyoq-kiyim ko'paysa itga shuncha yaxshi. Axir, uyga kirib ketganlardan qoladigan birdan-bir nishona shular. Shular yolg'izlikni bilintirmaydi. Biroq hasharchilarning poyafzallari dastlabki kunlardan oq pala-partish yechiladigan, hatto ichkariga kirib ketadigan. bo'ldi. Gohida qo'njisi kalta etik bilan keda kalishlar ustiga chiqib qoladi. Bu — itning g'ashiga tegadi.

Oqto'sh, Oqto'sh bo'lgandan beri ularnikiga ne-ne poyabzallar kelib ketmadi. Lekin hech qaysisi bularchalik ko'p turishmagan, betartib bo'lmagan. Bunday mehmonlarning ularnikiga birinchi bor qo'nishi...

— Oqto'sh!

It Bekaning ovozini eshitib, sapchib o'rnidan turdi. Butun gavdasi bilan silkinib, yungiga yopishgan tuproq quyqarini tushirdi-da, echkinikidek bo'lib qolgan dumini likillatib yugurdi.

Beka tandirdan uzib tashlagan kuyik non issiq edi. Oqto'sh birdaniga og'ziga ololmay norozi vingilladi. Non hidi ishtahani qo'zg'ab shoshirdi. U og'zi kuyganiga ham ko'nikdi. Bir-ikki yerga tushirib bo'lsa-da, bostirma ostiga olib keldi. Ostiga yarimta g'isht qo'yilgan ustun yoniga tashlab, kursillatib yeya boshladi.

It och edi. Tongda qizni paxtazorga kuzatib kelgandan keyin ham tuz totmagandi. Odatda yo'ldan nimadir topilardi. Ayniqsa, hasharchilar kelgandan buyo go'sht, suyaklar, chala yeyilgan non burdalari uchrab turardi. Bu gal hech narsa yo'liqmadi.

Oqto'sh nonni yeb bitirgach, yalandi, u yoq-bu yog' yana umidvor qaradi. Ko'zga ilinadigan biror narsa yo'q. Noiloj turdi, oldingi oyoqlariga tiranib o'zi kerishdi. Ustiga shifer yopilgan uy chasi oldidagi yalog'iga qaradi. Qup-quruq. Yana yalandi va chanqog'ini bostirish uchun tunkadan yasalgan tovuqlar suvdoni tomon lo'killab ketdi.

It idishdan bosh ko'tarayotganda makkajo'xorisi yig'ib olingan tomorqadan nimadir yaraqladi. It zudlik bilan u yerda hozir bo'ldi. Bo'sh shishani ko'rib, bo'shshadi. Lekin bari bir hidladi. Badbo'y hiddan ko'ngli ag'darilib, bostirmaga qaytdi.

It nima yaltirab ko'rinso, albatta, o'sha yerga boradi. U qachonlardir chala yeyilgan konserva topib olgan O'sha-o'sha yaltiroq narsalarni konserva faraz qiladi! Tomatli baliqlarning mazasini to'yib boraveradi! hidlayveradi.

Oqto'sh oldin bunday narsalarning hidini ham bilmasdi. Xonadonning bisotini tinchgina qo'riqlab yurardi. Ovqatni egalarning qo'lidan yerdi. O'zga qo'lga qaragulik qilmagan. Hammasi hasharchilar kelgandan keyin boshlandi. Bular keldi-yu. Xo'jayin ham, xo'jalikning tutumi ham o'zgardi. Toza turadigan hovlida sigaret qoldiqlari, bo'shagan shishalar, konserva qutilari paydo bo'la boshladi. Chiroqlar kech o'chadigan bo'ldi. Kirdi-chiqdining me'yori bo'lmay, xonadon oyoq ostida qoldi. Oldiniga it bu yangi muhitga ko'nikolmadi. Hasharchilarning uy-anjomlaridan bemalol foydalanishlari, turfa xil odamlarning vaqt-bemahal kirib kelaverishlari itga alam qilardi. Go'yo o'ziniki bilan begonaning farqi qolmayotgandek edi. Kim bo'lsa chaqirmay-netmay bostirib kirib kelaversa, ularni kiritmaslikning iloji bo'lmasa, biror narsani qo'riqlamasa itligi qaerga bordi buning?! Unga ham qiyin edi...

Kun ilib, Oqto'shni pashshalar talay boshladi. Mudradi deguncha ko'zining jiyaklariga, burnining teshiklariga qo'nadi. Hol-joniga qo'ymaydi. Toqati toq bo'lgan it katta ko'kish pashshani poyladi. Ro'parasiga kelganidanoq, panjasi bilan urdi. Mo'ljal xato ketib, chang ko'tarildi. It alamidan boshini ikkinchi qo'lga olib, ko'zini yumdi.

Chang bosilgach, qaergadir g'oyib bo'lgan ko'kish pashsha yana vizillab qoldi. Oqto'sh qo'zini salgina ochib, pashshani kipriklari orasidan kuzatdi, tumshug'iga qo'nishini kutdi.

Pashsha itning tumshug'iga endi qo'nmoqchi edi, ulgurmadi. Oqto'sh og'zini ochgan ko'yi unga tashlandi. Pashsha bu gal ham chap berdi. Itning og'ziga boshqa bir chirkov kirib ketdi. U chirkovdan qutulish uchun yutindi. Chirkov esa ichkariga o'tmay tanglayiga yopishib qoldi. Oqto'shning tanglayi qichimsirab, yo'taldi, ammo og'zidan chirkovni chiqarolmadi. Tili tanglayiga yetmadi. Boshini sarak-sarak qilib vingshidi, qisqa-qisqa pishqirdi, bo'lmadi. O'rnidan turib g'o'za-poya g'arami tomon chopib ketdi.

G'o'zapoya ayvon yonidagi yalanglikka bosilgan. It pashshalardan bezor bo'lganidan hamisha shu yerga keladi. Ayniqsa, g'aramning mollar qashlanaverib yoydek o'rlatib yuborgan tomonida umuman pashsha bo'lmaydi.

Oqto'sh shu yerga kelib yotdi. U hamon boshini sil-kitar, o'qchir, oldingi oyoqlari bilan tumshug'ini silab, nochor vingshirdi.

It chirkovdan qutulganida, Beka tandirdan ikkinchi marta non uzdi. U savatdagi nonni uyga tashlab chiqqach, hasharchilar yotgan pardasiz xonani taqillatdi. Ichkaridan ovoz bo'lmadi. Mushti bilan urdi. Eshik ochilib, ostonada yelkasiga qora to'n tashlagan yo'g'on kishi ko'rindi. Bu qo'njisi kalta etikning egasi edi. Beka unga quyoshni ko'rsatib nimalardir dedi. Hasharchi bosh silkidi va oyog'iga etigini ilib, sahn chetidagi gaz baloniga borib o'tirdi. Og'zini katta ochib esnadi va Oqto'shga ko'zi tushib, «Hu-u-ut» deganicha po'pisa qildi. It uning dag'dag'asidan norozi to'lg'andi. Osilib tushgan ustki lablari pir-pir uchdi. Ammo o'rnidan turmadi.

Oqto'shning kimir etmaganidan darg'azab bo'lgan «barzangi» tosh qidirdi. Buni payqagan it zipillaganicha g'aramning yon tomoniga o'tdi hamda g'o'zapoya cho'plari orasidan uni kuzatdi.

It yurak oldirib qo'ygandi. Uning avjini Xo'jayin qirqqan. Hasharchilarga hurdi deguncha, haydab soldi. Hatto bir gal mo'ylov yigitni katak tomonga o'tkaz-maganiga uchi singan o'roq bilan urgan ham...

Pardasiz xonadan boshqa hasharchilar ham birin-ketin chiqib kelishdi. Oldinda ikkala ko'zoynakli, ortidan mo'ylovli yosh yigit. Ko'zoynaklilar qora tuflilarning egalari. Ular bezor. Bo'sh bo'ldi deguncha, taxtachadagi donachalarga termilishgani termilishgan. Kedaning egasi mo'ylovli yigit esa sho'x. U ham qo'njisi kalta etikning egasi singari tunlari uyda bo'lmaydi. Undan hamisha badbo'y hid anqiydi.

Oldinda Oqto'sh, orqada yelkalariga etaklarini tashlagan to'rt hasharchi uzun-qisqa bo'lib yo'nalganlarida anhor yoqasidagi yo'l huvillab qolgandi. Yo'lda faqat terimchilarning hamda tongda

o'tib ketgan qishloq podasining izlari. Paxtazorda esa xirmondagi arava va qaqqayib turgan hasharchilar. Qishloqliklar bosh ko'tarmay terishayotgani uchun ko'zga tashlanavermaydi. Ularning bor-yo'qligi ham bilinmaydi.

Ular odatdagidek, Uchtepa etagidagi chimzorga borishdi. Chimzor pastqamroqda, ko'tarma qilib qurilgan yo'l, qishloq tomonni to'sib turadi. Hasharchilar kelasolib o'tirishni boshlab yuborishdi.

Oqto'sh anhordan chiqarilgan loyqa uyumi ustida cho'nqayib o'tiribdi. Ko'zlari dasturxonda, nimadir tashlanishidan umidvor. U kolbasa bo'linayotganda tinchini yo'qotdi. Bir-ikki tamshandi, chapillab yalandi. Yana tilini ostiltirgan ko'yi bir tekis nafas ola boshladi.

Oqto'sh intilgan cha bor edi. U kolbasaning ta'mini bilardi. Yumaloqlab tayyorlangan xushta'm go'shtni it xuddi shu yerda totigan... Dastlabki tashlangan kolbasa yog'liroq edi. It irganibroq yaladi. Mazasini totib ko'rgach, yana kutdi, lekin ular boshqa berishmadi. Ziyofat oxirida esa yog'lisini ham, yog'sizini ham Oqto'shga irg'itishdi. Biroq endi qorong'i edi. Ko'pi isrof bo'ldi. Oqto'sh hidlab topganlarinigina yedi. Nechtasi anhora tushdi, nechtasini topib bo'lmadi. Aslida hasharchilar bilan brigadir bu yerga tushdan keyin oq yig'ilishgandi. Poda qaytganda turishmoqchi edi, bir-birini tortishib o'tirib qolishdi. Bu orada mo'ylovli yigit qishloqqa bir tushib chiqdi. Narsalarga ko'z o'tmay qolganda, o'rinlaridan turishdi. Shu-shu bular paxta terishmaydi. Kunni chimzorda kech qilishadi...

Oqto'sh ham ular bilan birga. Ba'zida ular nishxo'rdlardan tashqari katta-katta kolbasa bo'laklarini in'om qilib turishadi. Bugun negadir e'tibor berishmayapti, Qo'njisi kalta etikning egasi boshiga to'nini qo'yib uxlayapti. Ko'zoynaklilar shaxmat o'ynayapti. Mo'ylovli yigit tomosha qilyapti.

Oqto'sh ularni kuzatishdan, kutishdan zerikdi. Orqa oyog'i bilan kalta qulog'ini qashidi-da, Uchtepa ortidagi paxtazorga qarab ketdi.

Terimchilar yaqinda bu kartadan chiqishgani uchun atrof kimsasiz yastanib yotardi. Egatlarga terim mashinalarining izlari muhrlangan. Shoxlari sinib yonlariga osilib qolgan g'o'za tuplari bebarang, befayz. Bu majruh qora cho'plarning bir paytlar gurkirab o'sga-niga ham, barg yozib gul tukkaniga ham ishonging kelmaydi.

It ana shu qora cho'plar orasidan quruq barglarni qisirlatgan cha bosib borardi. U maydonni qoq ikkiga bo'lgan ariqchadan o'tib, g'o'zasi ola ekilgan joyda to'xtadi. Qisqa-qisqa iskadi, pishqirdi. Turgan joyida aylanib qoldi. U bezovta edi.

Oqto'sh bu yerga kelganida tinchini yo'qotar, ba'zida uzun-uzun uvlab ham olardi. It bu yerga hayotidagi unutilmas xotirotni tuygani kelardi. U o'z xotirotni tiklayotganida ko'z o'ngida oqish pag'ra rang paydo bo'lar, bu rang bora-bora itga aylanardi. Oq itga... Sekin-asta o'sha Oq itning och jigarrang tumshug'i, tiyrak ko'zlari, bo'ynidagi titilib ketgan chilviri, ixchamgina jussasi gavdalanardi. Keyinchalik o'sha Oq it ortiga qayrilib, Oqto'shning quloqlarini pushti tillari bilan yalayotgandek, erkalanib bo'yniga bo'ynini suykayotgandek, yuzlariga iliq, yoqimli nafasi urilayotgandek bo'lardi. Hamda birdaniga gurillagan ovoz, dimog'ni yorgudek badbo'y hid yopirilib kelardi. Itni ko'zi tinib boshi aylanardi; ko'ngli ag'darilardi. Oqto'sh shunda bu shirin va achchiq xotirotni iskanjasi-dan qutilish uchun ortiga qaytardi.

Oqto'shga xotirotni bo'lgan voqea tundan boshlandi. Ular ko'p yo'l bosishdi. Charchoq nimaligini bilishmadi. Hamon yugurishardi. Oldinda bo'yniga chilvir bog'langan Oq it, ortida gala. Gala tobora ko'payib borardi. Oq itning hidini bilganlar kelib qo'shilishaverdi, qo'shilishaverdi.

Gala suvni kechib o'tmay, kanal yoqasidan yo'l soldi. Shunda Oqto'sh paytdan foydalanib gala boshiga shudgor orqali kesib chikdi. U halitdan buyon chilvirli itga hech qaysi itni yo'latmayotgan Olaparga yetib bordi. Uni ko'kragi bilan surib, o'rniga o'zi o'tdi. Olapar irilladi, ammo hujum qila olmadi. Oqto'shning yo'g'on gavdasidan, o't chaqnab turgan qo'zlaridan hayiqdi.

Endi Oqto'sh Oq it bilan yonma-yon borardi. U Oq itga yanada yaqinlasharkan, uning quloqlarini beozor tishladi. Tumshug'i bilan tumshug'iga, bo'yniga turtkiladi, iskalandi. Quloqlarining ostini yalay boshladi, yalay boshladi. Shunday yaladiki, uning muloyim mayin yungidan huzurlanib ketdi. Oqto'shning issiq nafasiga, gurkirab urayotgan balog'at hidiga chilvirli it bardosh bera olmadi. Oqto'shga yon berdi va uni boshqalardan ajratib ergashtira boshladi.

Shunda galada besaranjomlik paydo bo'ldi. Itlar to'xtovsiz hurib, Oqto'shga hujum qildilar. Ular Oq itni qizg'anishmokda edi. Hujumni Olapar boshladi. U vovillagancha Oqto'shning orqa soniga tashlandi. Biroq tishlashga ulgurolmadi. Uning nojo'ya harakatini payqagan Oqto'sh unga bostirib bordi. Olapar o'zini o'nglaguncha, Oqto'sh uning qulog'i aralash bo'ynidan tishlashga ulgurdi hamda uch-to'rt siltab yoniga otdi. Olapar gansiraklab turib qoldi va akillab orqaga tisarildi. Bu bilan Oqto'shga tashlanish taraddudida bo'lgan boshqa iliqqan itlarning ham avji qirildi.

Oqto'sh yer titib irillar, bironta itni chilvirli Oq it tomonga o'tkazmasdi. O'zi esa tislana-tislana unga yaqinlashib borardi.

Ularni bir necha itlar ta'qib qilib keldi. Ke-yin siyraklashaverdi, siyraklashaverdi. Bitta-bitta ortda qolaverdi.

Oqto'sh chilvirli Oq it bilan mana shu g'o'zasi ola ekilgan maydonga tong otmay yetib kelishdi. Durkun g'o'zalarning barglari ho'l, havo salqin, muzdek suvni simirgandek badan-badaningni yayratardi. Atrof tinch, yurakni hapriqtirib yuboradigan darajada osuda. Hech narsa halaqit bermasdi...

Quyosh Uchtepadan mo'ralaganida ularning tinchi buzildi. Qovoqaridek g'o'ng'illagan ovoz keldi. Birdaniga ovoz tobora yaqinlashib kuchayib bordi. Ular talvasaga tushib qolishdi. Qochishga ulgurishmadi. Osmondan ular tomonga qanotlarini kerib bir narsa bostirib kelardi. Bu narsa juda bahaybat va qo'rqinchli edi. U yeru ko'kni larzaga solib, borliqni kar qilgudek o'kirib kelardi. Oqto'sh har xil ovozlarga o'rgangan, lekin bunday ovozga ilk bor duch kelishi edi. Osmondagi maxluq bir zumda bular tomonga sho'ng'idi. Kelayotgan bu fojiadan hamma narsa titrardi. Oq it dag'-dag' qaltirardi. Qaltiroq Oqto'shga ham o'tdi. Ular qo'rquvdan ovoz chiqarisholmasdi. Shu lahzada maxluq ularni bosib ketadigan darajada pastlab, hayqirgancha o'tib ketdi. Bu juda tez ro'y berdi. Itlar uni tuzukroq ko'risha olmadi ham.

G'o'zalar bosh tebratib shovullab yuborishgandagi-na, ularning garangsigani tarqadi. Vangillashib qochib qolishdi. Ular qayoqqa ketishayotganini bilishmas, faqat yugurishar, tinmay yugurishar, mana shu vahima quchog'idan qutulishsa bas edi. O'ta nordon, badbo'y hiddan Oqto'shning boshi aylanib ko'zi tinaverdi, oyoqlari chalkashdi, jufti ham shunday bo'lmoqda edi. Ular butunlay bo'shashib, badanlari o'zlariga bo'ysunmay pir-pir uchardi, yugurayotgan bo'lishardi-yu, badbo'y ajal muhitning cheti ko'rinmasdi, ularni ta'qib etayotgandek edi. U sarsiz-sarhadsiz edi. Havoga tarqagan hid nafas olishgan sayin burunlarini kuydirar, tomoqlarini shilib yuborgudek achitib, azob berardi. Kun issiq, g'o'zalarning barglari qalin, dim, g'ir etgan shabboda yo'q, havo og'ir, nafas olish borgan sari qiyinlashardi. Ularning madorlari qurib, holdan toyishdi. Ajralisholmadi ham. Serbarg g'o'zalarga suyanib, yotib qolishdi.

Oqto'sh badanlariga botayotgan g'o'za novdalarini va o'zining hayot ekanini sezdi. So'ngra qaerdandir g'o'ng'illagan ovoz eshitildi. Bu ovoz hali ham ikki-uch marta qulog'iga elas-elas chalinganini tuydi. Lekin bunisi ancha uzoqdan kelar edi.

Atrofdagi qurt-qumursqalar harakatini to'xtatib qotib qolishgan, pashsha, chivinlar, shalpaygan barglarga osmondan yog'ilgandek yopishgan. Jufti — Oq it esa qaergadir g'oyib bo'lgandi.

Oqto'sh badbo'y hidni sezmayotganiga ajablandi. Tez-tez hidlab ko'rdi. Bilmadi. Ammo o'zining nihoyatda vazminlashib qolganini, boshini ko'tarishga qurbi yetmayotganini sezdi...

Oqto'sh o'sha-o'sha bo'yniga chilvir bog'lagan Oq itni boshqa uchratolmadi. Unga o'sha kundan tez-tez bo'lib turadigan bosh og'rig'i va ana shu unutilmas voqea xotiroti bo'lib qoldi. Uning g'o'zasi ola ekilgan maydonda har gal tuyadigan xotiroti ham ana shular edi.

Ayvondagi keda har kungidan oddinroq g'oyib bo'ldi. Endi faqat qo'njisi kalta etik qoldi. Bu ham muzika tinmasdan qaergadir gumdon bo'ladi. Itga hamroh bo'lib qoladigan poyabzallar odatdagidek ikki juft qora tufli, o'ziga qarashli kalishlar.

Uylardagi chiroqlar siyraklashdi. Dastlab Xo'jayin bilan Bekaning xonasidagi, keyin qiz yotadigan xonaning chirog'i o'chdi. Atrof qorong'ilashdi. Ayvondagy chiroq nursiz. Muzika hamon avjida. Chigirtkalarining chirqillashi tinmagan.

Oqto'sh g'ozapoya g'arami yonida betob yotibdi. Uning bosh og'rig'i xuruj qildi. Eski dardi qo'zg'ab qoldi. Oddin oyoqlari uvishdi, yelkalariga, bo'yniga o'tdi. Bo'g'inlari qaqshadi. Sekin-asta boshiga og'riq kirdi. Bir lahza borliq qorong'ilashdi, hech narsani ilg'amadi. G'aram yoniga amallab yetib oldi. Keyin nima bo'lganini, qancha mahal yotganini bilmaydi. Mana, endi, og'riq yengillashib ko'zi ochildi.

Qiz yotgan xona tomondan nimadir kisirladi-yu, it og'riqni unutdi. O'rnidan turib o'sha tomonga yurib ketdi. Muyulishga yetmasidan deraza ochildi, ichkaridan Qiz osilib tushdi. Oqto'sh uni qarshilab iskalandi, erkalandi. U itga parvo qilmadi. Derazani sassizgina yopdi-da, qo'lidagi kalishini kiyib, oyoq uchida uyning ortiga o'tdi.

Xojaning kiyimlari bugun boshqacha edi. Yurganida shitirlardi, yoqimli bir hid taratardi. U avvallari tunda tashqariga chiqmasdi. Chiqqanida ham uzoq turmasdi. Muzika eshitilayotgan tomonga qarab qolardi; ko'proq turgudek bo'lsa, onasining ovozi eshitilardi-yu, chuqur xo'rsinib, noiloj xonasiga kirib ketardi.

Qiz o'yin maydonidagilarni tandir yonidagi tuynukdan, Oqto'sh esa makkapoya g'arami yonidan kuzatdi. O'yinchilar orasidan birinchi bo'lib kedaning egasi ko'zga tashlandi. Uning uzun bo'yi va qora mo'ylovi boshqalardan keskin ajralib turardi. Xoja har damgidek unga berilib qarab qoldi.

Qiz hasharchilar kelgan kundanoq shunaqa edi. Uni tinimsiz kuzatardi. Ba'zan Oqto'shga tinchlik bermasdi. Uni loyqa uyumidan quvib, o'rniga o'zi chiqardi. Chimzorga tikilardi. Hatto uning dordagi yuvilgan ko'ylagi ostidan o'tayotganida ham to'xtar, yuzlarini ko'ylakka bir zum tegizib, suykalib o'tib ketardi. Atrofdagi hech kim bo'lmasa, ayvondagi kedasini kiyib ko'rardi, bir-ikki qadam bosardi ham.

Mana bugun tergan hamma paxtasini chimzorga el-tib, shu mo'ylovli hasharchining etagiga ag'darib berdi. Endi tuynukdan kuzatyapti. Ammo mo'ylovli yigit Xo-janing unga intikdigidan bexabar, u sochi qirqilgan qizni bag'riga singdirib yuborgudek quchoqlab, kuy ohangiga mos tebranadi...

Oyoq sharpasi Oqto'shning diqqatini o'ziga tortdi. Darhol tandir tomonga qaradi. Xoja tuynukdan uzoqlashib, uy tomonga ketayotgandi. It uning ortidan yurdi. Xojaning boshi egik, yelkari titrardi. Uning boyagi shashti, yurishlaridagi chaqqonligi yo'q edi.

Ular yana uylarning orqalaridan yurishdi. Oqto'sh traktorchi qo'shnining uyi ortidan o'tayotganida to'xtab qoldi. Uning dimog'iga tanish poyabzal hidi urilgandi. Lekin qaysi poyabzal hidi ekanligini it bilmadi. Oldinga yurdi, ortga qaytdi. It iskab borarkan, Xojasi o'z xonasiga kirib ketganini payqamadi. Hid qadam-baqadam yangilanib borardi. Qadamlar katta, masofalar tez bosib o'tilgandi. Iz o'zlarining hovlilaridan chiqqandi. It izning hididan adashmadi. Hid uni ayvonga, poyabzallar turadigan joyga boshlab keldi. Poyabzallar orasida qo'njisi kalta etik yo'q edi. Oqto'sh ortiga qaytdi. Hid traktorchi qo'shnining uyi orqasiga kelganda birdaniga izsiz yo'qoldi. Atrofdagi dov-daraxt yo'q. U tumshug'ini shabboda esayotgan tomonga tutdi. Hidni tutolmadi. Alangladi va devorning yuqorirog'idagi derazaga ko'zi tushdi, hamda oldingi oyog'i bilan deraza raxiga tirmashdi-da, iskadi. Tanish hid. Raxda qo'njisi kalta etikning izi bor edi. Ichkariga barzangi hasharchining kirgani shubhasiz. Biroq derazaga oppoq parda tortilgan. Ichkari esa timqorong'i, hech narsa ko'rinmaydi.

Oqto'sh tokchaga chiqmoqchi bo'ldi. Lekin chiqishga qurbi yetmadi. Tokchani faqat qitirlatdi, xolos. Uning tirnoqlari beton tokchaga o'tmay zirqirab og'ridi. It norozi g'ing'illadi. Shunda ichkaridan qararoq soyaga o'xshash narsa ko'zga ilindi. U g'ing'illashini bas qilib, soyaga tikildi. So'ngra yana tataladi, intildi. Soyalar quyushib, aniq bir juft soyaga aylandi va deraza oynasiga yaqinlashdi. Oppoq parda yengil tebrandi. It qattiqroq tatalab, irilladi. Soyalar bunga bardosh berisholmadi, sekin uzoqlashib qorong'ilikka singib ketdi.

Oqto'sh noiloj pastga tushdi. Tez-tez boyagi izlarni iskadi, deraza tomonga qarab vingshidi, vingshidi, lekin vingshishdan o'zi qoniqmadi. U parda ortida qandaydir yomon bir narsa bo'layotganini bildi. Yo'l tomonga cho'nqayib uliy boshladi.

It yo'lga qaragancha uvlayapti. Yo'lda marjondek yulduzlar tizmasi boryapti. (Ular aslida yulduzlar emas, zavodga paxta olib ketayotgan transportlarning chiroqlari). Yulduzlarning bir jufti uyning egasini. It shularni o'ziga chorlayapti. Qaniydi o'sha bir juft yulduz shu tomonga burilsa, tezroq burilsa. Hov anavi daraxtning yoniga kelganidayoq qarshisiga yugurardi. Qo'shni yigitning kabinadan

epchillik bilan tushishini kutardi. Oyog'i yerga tekkanidanoq etigiga yopishardi. Doimo moy hidi keladigan etigiga. Mahkam quchoqlab olardi, vingshirdi, vingshirdi. Uyiga tezroq kirishini, u yerda nojo'ya ish sodir bo'layotganini, barcha-barchasini bildirardi. Tezroq burilsa edi, o'sha bir juft yulduz. Odatdagidek tongga yaqin emas, hoziroq burilsa, g'ayrining derazadan oshib kirganini bilsa, Burilsa, burilsa. Yo'q, burilmaydi, burilmaydi. Ular jimirlaydi, xolos, jimirlaydi. Yul-duzlar faqat jimirlaydi, o'zlariga chorlaydi. Chorla-ganingga kelmaydi, kelmaydi.

\* \* \*

Hasharchilar ketganiga ham mana ancha kun bo'ldi. Ular ketdi-yu, hammayoq huvillab qoldi. Yana xo'rozlarning qichqirishlari, tunlari itlarning xurishlari qishloqqa o'z hukmini o'tkaza boshladi. Hamma narsa oldingi holiga qaytganday bo'ldi-yu, Oqto'shning ahvoli o'zgardi. U qattiq og'ridi. Uch kundan buyon tuz totgani yo'q. Yalog'idagi non to'g'ralgan sutga ham qaramadi. Ko'ngli hech narsa tusamadi.

Dard bu gal kutilmaganda boshlandi. Badani umuman uvishmadi. Birdaniga ko'zi tinib, oyoqlari o'ziga bo'ysunmay qo'ydi, yiqildi. Kechga yaqin xo'jayin to'shakka solib, uychasiga sudrab olib keldi. Shu yotganicha yotdi. Kecha kechqurun ketmoqchi edi, ketolmadi. Bu yerda qolib ham bo'lmas edi. U nimanidir yaqinlashib kelayotganini va pgu nimadir uni olib ketishini tobora aniqroq bilardi.

Chiroqlarning o'chishini kutdi. Hammasi ko'ngildagidek bo'lgach, zo'rg'a o'rnidan turdi. o'rnidan turishga turdi-yu, ko'zi tinib chayqalib ketdi. Oyoqlar turib berdi. O'zini tutdi. Endi butun gavdasi qaltirardi. Ayniqsa, to'rt tomonga tiralib turgan oyoqlar shunday qattiq qaltirardiki, egilib, jussani yerga tushirib yuboradigandek edi.

It yurmoqqa hozirlandi. O'ng oyog'ini yerdan salgina uzgandi, muvozanati buzilib, og'a boshladi. U darhol oyog'ini joyiga qo'yib, muvozanatni saqlashga ulgurdi. It tikka qoldi. Ammo qaltiroq battar avj oldi. Darmonsizlikdan tumshug'ining uchini ter bosdi. Yeru ko'k chirpirak bo'la boshladi. Oqto'sh ko'zlarini chirt yumib, oyoqlariga tayandi. Bor umid oyoqlarda qoldi. Afsuski, vaqt o'tgan sayin oyoqlaridan ham mador ketib borardi. It uzoq tik turolmasligini bilsa-da, yotmadi. U ketishi kerak edi. Yana oldinga qarab intildi. Bu gal o'zini o'nglayolmadi. Gavdasi og'irlik qildi. Chap tomonga og'ib yiqildi va hushdan ketdi.

Tongga yaqin o'ziga keldi, tush ko'rdi. Tushiga Oq it kirdi. Oq it uni qaergadir ergashtirib ketardi. Oqto'sh Oq itning izlarini bosib borardi, izlar ol-dingi oyoqlarnikini orqa oyoqlar takrorlaydi. Ular tezroq yurishdi. Qadamlar hamon bir-birini takror-laydi. Yana tezlashishdi, yugurishdi, chopishdi. Ular cho-pishgandagina oyoqlar bir-birini takrorlamay qo'ydi. To'rttala oyoq o'z holicha tusha boshladi. Ular uchib bo-rishayotgandek chopishardi. Yunglari havoda silkinardi. Qadamlarining tovushi eshitilardi. «Dukur-dukur, dukur-dukur, dukur-dukur». Keyin birdaniga oyoq tovushlari juda ham ko'payib, tartibsiz va qattiqroq eshitildi. Shundoq qulog'ining ostida dukurladi. «Dukur-dukur-dukur-dukur». It uyg'ondi. Tovush o'ngida ham yerdan eshitilardi. Oqto'sh ko'zini ochdi. Katakdan chiqarilgan tovuqlar ekin maydoni bo'ylab yugurishardi. Oq xo'roz qanotlarini qoqib qichqirdi, tovuqlar, qanotlarini kerishdi.

Shu payt qo'shnining xo'rozi shitob bilan yugurib keldi-da, tovuqlardan birini quvib ketdi. Oq xo'roz ququlab yer titish bilan ovora edi. Buni ko'rmadi. Oqto'shda esa begona xo'rozni quvish istagi bo'lmadi.

U bu mojaroga befarq tikilib yotaverdi. Oqto'sh hasharchilar kelib ketganidan so'ng ko'p narsalardan judo bo'lgandi. Birinchi bo'lib egalik tuyg'usidan, albatta. U avvallari qaramog'idagilarga hukmrondek bo'lib yurardi. Xonadon bisotiga begonani yaqinlatmasdi. Endi u ham oddiy bir uy hayvoni ekanini, mana shu miyasiz tovuqlardan, suzik ko'zlarini unga baqraytirib turgan sigirdan, burni kertilgan qora eshakdan o'zini farqsiz bo'lib qolganini shu damda chuqur his qildi.

Tovuqlarga don sochib bo'lgan Xo'jayin Oqto'shga yaqinlashdi. Yalog'iga nazar tashlab, ro'parasiga o'tirdi.

— Oqto'sh, senga nima bo'ldi?



It nomini eshitib ko'zlarini Xo'jayinga tikdi Xo'jayin uning boshini siladi.

— Kasal bo'lib qolibsana? Qaniydi, sen jonivorning qaering og'riyotganini bilsam...

Oqto'sh Xo'jayinning rahmi kelayotganini, lekin ilojisiz ekanini tushundi. It bu mehribonchilikka bardosh bera olmadi. Ko'zlariga yosh qalqidi.

Xo'jayin uning boshini siladi. So'ng tizzalariga tayanib o'rnidan turdi-da, og'ir-og'ir qadamlar bilan uy tomonga ketdi.

Tushga yaqin Beka yuvindi ko'tarib keldi. U ham itga achinib-achinib qaytdi. Oqto'sh Xojasi — qizni qorong'i tushguncha kutdi, kelmadi. U negadir uch-to'rt kundan buyon ko'rinmasdi. Qaergadir ketgan.

Bugun havo kechagidan sovuq edi. Osmonda yulduzlar, xonadonlarda chiroqlar miltirab qoldi. Oqto'sh endi yo'lta tushishi kerak. Agar bugun ketmasa ertaga kech bo'ladi...

It arang o'rnidan turdi. Endi yurishi kerak. U kechagiga nisbatan, o'zini yaxshi sezdi. Shunday bo'lsa ham u oyoqlariga hamon ishonmasdi. Ammo ketishi shart, bu yerda qolib bo'lmaydi, qolib bo'lmaydi. Oqto'sh ishonqiramay asta qadam bosdi. Keyin yana, yana. U sekin va bir tekis yurib ketdi. It avval hovlini aylanib chiqdi. Uzi uchun qarddon narsalar va buyumlar oldida oz-oz to'xtadi. Ular bilan bog'liq bo'lgan xotiralarni esladi. So'ngra yo'lga chiqdi.

It chimzorga kelganida harsillab qoldi. Yotsa turolmasligini bildi. Tik turganicha nafasini rosladi. Bu yog'i endi shudgor. Qorayib turgan shudgorning ustki qismi yupqa muzlagan. Ostki qismi esa yumshoq. Yo'lga qaraganda shudgorda yurish og'ir. Buning ustiga yer tekis haydalmagandi.

Oqto'sh chuqurroq haydalgan bir joyga kelganida o'zini o'nglayolmay qoldi. Oldingi oyoqlari bir zumda yupqa muzlamani sindirib tuproqqa kirib ketdi. Oyoqlarini yerdan chiqarib ulgurolmadi. Tumshug'i tuproqqa botdi. It bu yerda ko'p ovora bo'ldi. Burnidan chiqayotgan hovurdan muzlama erib, nafas olishi qiyinlashdi. Dastlabki urinishi zoe ketdi. Oyoqlarini birdaniga yerdan sug'urolmadi. Keyin yana qattiq intildi. Bu gal oyoqlari chiqishga chiqdi-yu, tizzalab qoldi. Endi tizzalar tuproqqa cho'kib borardi. It bor kuchini to'plab yana urindi, turib oldi. Yo'lda behol davom etdi.

Oqto'sh Uchtepa ortidagi g'o'zasi ola ekilgan joyga qarab borardi. Hozir yer haydalib, u joyni topish mushkul edi. Ammo it u yerni taxminan topib bordi. Bir daqiqa tuproqqa belangan tumshug'ini yuqori ko'tarib, havoni iskadi va yotdi. Bu gal u hayotida birinchi hamda oxirgi marta jag'ini qo'lining ustiga emas, shundoq muzlagan kesakchalar ustiga qo'ydi va chuqur xo'rsinib yubordi.

Havo sovuq. Osmonda yulduzlar bodraydi. Uchtepaning shundoq ustidan tuxumning sarig'idek oy balqib turibdi. Oqto'sh esa shu hayotga tashna ko'zlarini tikkancha yotibdi.

## QIZIL TULKI

Ustyurtning qumloqli yo'llarida ko'zlarini yarim yumgan ko'yi, chayir, o'rta bo'yli, xirqiroq tovushli bir qariya ko'p yuradi. Ba'zan u osmon bilan yer tutashib ketgan olis ufqqa uzoq-uzoq tikilib turadi.

Yaratilish qiziq ekan, yashash ham qiziq. Umr bo'yi hech narsadan tap tortmay yashagan davangir insonni ham keksalik o'ziga bo'ysundiradi. Ko'zlardan nur ketadi, oyoqlar qaltiraydigan bo'lib qoladi — yo'l yurishga yaramaydi.

Yoshini yashab, oshini oshagan boyaqish qariya esa hamon bu dunyoga mehmon ekanini bo'yniga olgisi kelmaydi. Vo darig', bu dunyo bevafo ekan! Umrida ko'rpa-to'shak qilib yotib ko'rmagan kampiridan birpasda ayrilib qoldi. Yolg'iz yashash qiyin bo'lar ekan. Mana, bir yildirki, nafaqat boshqalar, hatto o'zi o'zini tanimaydi gohida. Uni yolg'izlik cho'ktirdi.

Hamon kampiridan ajralib qolganiga ishonmaydi. Xuddi kelinchaklik davridagidek kampiri qishlog'iga ketganu erta-indin eshikdan kirib keladiganday — intiq bo'lib yo'l qaraydi. Beldan mador, ko'zdan nur ketgan paytda kimsasiz dala-tuz o'rtasidagi pastqam kulbada yolg'iz qolganidan o'kinadi.

Urushdan qaytgan yillari bir-ikki oy shu atrofda ovchilik bilan mashg'ul bo'ldi. U paytlarda kimsasiz dala-tuzga umrlik mehri tushib qolishini hali bilmasdi. Yog'in-sochindan saqlanish uchun omonat kulba tikladi. Omonat deb tiklangan kulbasi o'zi o'ylagandan ko'ra muqimroq ekan: nortuyalar bilan birga o'sgan cho'ponning qizi Oyxonga taqdiri bog'landi. Oyxon paxsali qora kulbaga kelin bo'lib tushdi. Kulba ship-shiydam edi. Kelinchak hammasiga ko'ndi. Qirq yil bir yostiqa bosh qo'yib yashadilar. Biror marta san-manga borishmadi. «Qishlokdan bezib yashashga bizni nima majbur qiladi?» degan savolga ikkisi ham jo'yali javob topisholmasdi. Dunyoni unutilib, dunyoni topib yashardilar. Ikkisi bir bo'lib, bir Dunyo bo'lib yashardilar.

To'ng'ich farzand tug'ildi. Umri qisqa ekan, chaqaloqlik payti uzildi. Norasidani Qashqayo'l ustidagi Yorqovoq mozoriga qo'ydilar. Tik yonbag'irda joylashgan barhavo mozorni o'ziga mo'ljallab yurardi. Afsus, nasib qilmadi. Qaynotasiga Yorqovoq unchalik xush kelmadi: «Bu yerda ilgari yong'in bo'lgan», dedi. Yong'in bo'lgan joydan farishtalar qochar emish.

Mana, yaqinda kampirini ham o'sha norasidaning yoniga qo'ydilar. Bo'sag'adan xatlab tashqari chiqilsa — bas, o'sha qabrlar ustida hilpirab turgan oq matolarga ko'zi tushadi. Go'yo qoshiga chorlayotganday tuyuladi. Oyxon tushiga kirsam, tongda turib mozorni ziyorat qiladi.

— Sog'indingmi, Oyxon! O'g'ling otasini mo'ridan chaqiryaptimi, Oyxon? — deb to qabrlar tepasiga borguncha o'zi bilan o'zi so'ylashib ketardi.

Qabrlar boshiga o'tib Qur'on tilovat qilardi. So'ng, ko'ngli taskin topib, qabr boshidan o't-o'lanlarni yulardi, yon-atrofdan xas-xashaklarni terib olardi. Uyga qaytgach, kampirining qo'llari tekkan buyumlarni bir-bir ushlab ko'rardi, bir-bir hidlab ko'rardi. Ayniqsa, kampirining oxori to'kilgan ko'ylagini to'yguncha hidlardi, so'ng ko'ylakni yuzlariga bosib, to'ygunicha yig'lardi.

O'shanda kampirining paymonasi to'lganini bildiyu: «Sen o'lma, men o'laman, men!» deb qo'llariga yopishdi. Yalinib-yolvordidi. Kampiri esa xuddi kelin bo'lib tushgan kunlaridagi kabi sirli-sirli jilmayib qo'ydi, xolos. Bir so'z demadi. Kampirining oppoq sochlarini tong oqarguncha silab-siypalab o'tirdi. Tong chog'i joni uzildi.

Kampiri o'lmasdan olti oylar chamasi ilgari bexosiyat bir tush ko'rdi: dengizdan ko'tarilgan og'ir qora bulut shamolda suzib kelib, kulbasining ustida sharros yomg'ir bo'lib quyildi. Bo'ronli sel kulbaning bir tarafini o'pirib ketdi. Cho'chib uyg'ondi. Kampiri shiringina uyquda edi. «Endi birimizni olib ketadi», deb qo'ydi ichida. Lekin tushini kampiriga aytmedi. Shu paytgacha o'rtada hech qanday sir yo'q edi. Ammo, tushini sir saqladi..

Hayot shunaqa ekan.

Oyxonning oy-kuni yaqin edi. Shuni bilardi. Bilardi-yu, negadir cho'lda izg'ib yurgan qizil tulkini ovlab kelaman, deb uydan chiqib ketdi. Uch kun yo'q bo'lib ketdi. Uch kundan so'ng qaytib kelsa,

farzand tug'ilgan. Umri bilan bermagan ekan. O'zi qaytarib olibdi. Nachora, dedi. Taqdir ekan, dedi. Oyxonni ovutdi, o'zini ovutdi... O'shanda ham kulbaning yonginasidan cho'g'day qip-qizil tulki yugurib o'tgan edi. Uni qo'lga tushirish uchun bir yarim kun izidan yugurib yurdi. Axiyri ko'ziga sarob ko'rinayotganini payqab qoldi: ot jilovini qo'yib yubordi. Jonivor uyni topib keldi. Agar jilovni qo'yib yubormaganda nima bo'lishini yolg'iz xudo biladi. Aslida, qizil tulkinging momiq mo'ynasidan xotiniga yoqalik, tug'ilajak farzandiga mo'jazgina telpak tikib berishni niyat qilgan edi. Niyati puch bo'lib chiqdi. O'sha-o'sha ko'ziga qizil tulki ko'rinsa — bas, darhol yo'lini o'zgartiradi. Irim qilardi. So'ng, bir yarim yil davomida qizil tulkidan qutildim deb yurdi. «O'qqa uchragan yoki qopqonga tushgan bo'lsa kerak». Xato o'ylagan ekan.

Qariya bu safar ishni puxta rejalashtirib oldi.

Qachonlardir, chamasi, urushdan keyingi yillar edi, birov beshotar miltig'ini taklif qilgan, qariya bitta qo'yga o'sha matohni ayirboshlagan edi. Payti kelib qolsa ish berar, kerak bo'lmasa turaveradi, deb o'ylagan edi. Sirtidan qalin moy surtib, eski matoga o'rab-chirmab o'raga ko'mib qo'ydi.

Mana, endi beshotar kerak bo'ladi. «Shumlikda dong taratgan tulki bo'lsang o'zingga! Mendan ham zo'r kelsang, mayli, til tortmay o'lishga roziman! Ammo, yakkama-yakka hisob-kitob qilamiz!.. Norasida farzandimning boshiga yetding, kampirimning boshiga yetding! Endi bu dunyoda yo sen turishing kerak, yoki men! Sendan o'chimni olmasam, bu dunyodan armon bilan ketaman!»

Qariya rostakamiga qizil tulkinging iziga tushdi. Iziga tushdim, deb o'yladi. Izmiga tushayotganini, qizil tulki uni o'z domiga tortayotganini xayoliga ham kel-tirmadi.

Tovga eltadigan Qashqayo'l kulbasining yonidan o'tadi. Ustyurti o'zlashtirgani otlangan geologlar yuk ortilgan mashinalari bilan o'taverib, kechayu kunduzi oromini yo'qottan paytlar ham bo'lgan. Keyin bu tomonlarga ishi tushib kelgan odamlar bilan qadrdon bo'lib ketdi. Elimga borib qo'shilay deb otlangan kezlari ham o'shalar qo'lga yopishib, olib qolishdi. Yurtdan bo'lak bo'lgach, tirikchilik uchun hamma narsaga ko'nasan, ko'nikasan. Sababi tirikchilik — chorvachilik, ovchilik, dehqonchilik, tabiblikni o'rgandi. Qiziltog' etagidan ignaning teshigidek joydan sirqib chiqadigan buloq suvidan shifo izladi; cho'ldagi giyohlardan dori-darmon topdi. U paytlari cho'lda parranda-darrandalar ham, turli xil ilonlar ham ko'p edi. Geologlarga aytsang kifoya, bir qop zaharli ilon keltirib berishardi. Esida, bir gal ilonning ko'zidan tayyorlangan dori bilan kuyovlikka yaramay qolgan yigitni davolagan edi. Boyaqsh minnatdor bo'lib eshigiga sog'in sigir bog'lab ketibdi. Hali-hali tug'ishganlarday bordi-keldi qilishadi.

Keyingi paytlarda bu tomonlarda geologlar ko'rin-may qolishdi. Izlagan ma'danlarini topisholmadi, shekilli.

Cho'pon xalqi tashqarida yurgani bilan elda nima gaplar bo'layotganini hammadan yaxshi biladi. Boz ustiga, bir marta uchrashgan tanishining avlod-ajdodini so'rab-surishtirib birpasda tug'ishgandek qalin bo'lib oladi.

Qariya esa keyingi paytlari bot-bot qizil tulki ishqida yonadigan bo'ldi. Shu dardi qo'zigan kunlari otiga minib, yaqin-yiroqlarni oralaydi. Mana, Qashqa yo'lga ham birov iz solib ketibdi. Hoynahoy, yuk mashinasining izi bo'lsa kerak. Yaqin atrofda yurgan bo'lsa-da, qachon o'tib ketganini payqamabdi. Shofyor nima uchun qariyaning kulbasida qo'noq bo'lmadi ekan? Axir, bir kosa qimiz bilan mehmon qilardi. Ajab, nega panalab o'tib ketdi ekan? Yo niyati buzuqmikan? Ko'ramiz, qachongacha qochib yurar ekansan!.. Qariya notanish mehmondan rostakamiga o'pkalandi. Odatda, qovun pishig'i davrida bu yo'l serqatnov bo'lib qoladi. To qora ko'zga qadar bu yo'llarda borti baland yuk mashinalari g'iz-g'iz qatnaydi. Asfaltlangan to'g'ri yo'ldan yursalar ola tayoq ushlagan soxta DAN xodimlari bir nimalarni bahona qilishib, otasining ba-hosini so'raydilar yoki yukning yarmini tushirib qoladilar. Yana — tag'in: «Biz barterga ham ko'naveramiz», deb ishshayib turishgani ortiqcha bo'ladi. Chuv tushgan shofyorlar qariyaning kulbasida o'z sarguzashtlarini erinmasdan so'ylab beradilar, xumori bosilguncha so'kinadilar. Qariya ularni o'zicha yupatadi.

Kechga tomon quyosh yuzi quyuq bulut bilan qoplanib, yomg'ir tomchilay boshladi. O'ylanib kelayotgan qariya otni niqtadi. Olisdan kulbasi yonida turgan DAN mashinasini tanidi. Hayron bo'ldi. Otni bostirmaga bog'lab ichkariga kirsam, turqi sovuqroq kimsalar uy to'rini egallab olishib, araq ichib

o'tirishibdi. Qariya salom berib, poygaxga cho'kdi. Hech kim alik olmadi. Anavilarning kayfi oshib qolgan, o'zlari bilan o'zlari allambalolar to'g'risida bahslashmoqda edilar. Qariya bomdodni o'qish uchun qo'zg'algan paytda ular bir kunlik o'ljani taqsimlashga kirishdilar va o'rtada boshlangan dahanaki jang rosmona mushtlashuvga aylanib ketishiga bir bahya qoldi. Qariya bomdodni dah-lizda o'qib kirsa, qovunfurushning yo'l boshlovchisi bo'lgan sariq yigit Po'lat ismli xodimni uyg'otayotgan edi.

— Uzoq yo'lga ketyapmiz, hujjatlarimiz joyida.

Lekin, sizlarga atab qo'yganimiz bor, — deb bir bog'lam yuz so'mlikni to'shak ustiga qo'ydi. — Aslida, shuni berib ketish uchun yo'ddan qayrilgan edik.

Po'lat qizarib ketgan ko'zlarini ochdi. Pulga nigohi tushib iljaydi.

— Xudo beraman desa... — Tirsagiga suyanib xiyol qaddini ko'tardi. Pulni to'pponchani bo'sh g'ilofiga joyladi. — Shunday ishlash kerak. Yolg'iz otning changi chiqmas... Ba'zilar qochib qutulamiz deb o'ylaydilar, keyin pushaymon qiladilar. Qo'lga tushgandan ko'ra...

Araq kayfidan asar ham qolmadi. Qariya ajablandi.

Po'lat o'zicha safsatabozlik qilgach, dasturxonda turgan yarimlagan araq shishasini qo'lga oldi. Qultilla-tib ikki piyolaga bosib araq to'ldirdi.

— Bizdan ruxsat. Qani, ko'tardik! — deb xodim piyolani qo'lga oldi.

Qovunfurushning yo'l boshlovchisi kilkillab turgan piyolaga aftini burishtirib birpas qarab turdiyu so'ng ko'zlarini chirt yumib, araqni ko'tardi. Piyolani bo'shatib dasturxonga to'nkarib qo'ydi. Aftidan, ichmaydigan yigitga o'xshardi. Lekin... Igit kabina oynasidan boshini chiqardi.

— Ota, kechirasiz, aslida, sizni ziyorat qilib o'tish niyatida edik. Ko'rmaysizmi, anavilar orqamizdan quvib kelishdi... Nasib qilsa, qaytishda albatta mehmoningiz bo'lamiz, — dedi yigit tovushini bir oz ko'tarib.

— Oy borib, omon qaytgin, bolam! — deb qariya yuziga fotiha tortdi.

— Ko'rishguncha omon bo'ling, ota!

Mashina o'rnidan vazmin qo'zg'aldi.

Ajabo, bu yigitning so'zlari bama'ni ham sirli. Xuddi tug'ishganday muomala qiladi. Istarasi issiq ekan. Nahot, kimligini unutgan bo'lsam?.. Qariya qoshlarini chimirgancha mashina ortidan xiyla vaqt tikilib turdi. Iloyim, omon-eson qaytib kelsa, oyog'ining ostiga qo'y so'yaman...

Choshgoh payti Po'lat bo'shshibgina tashqariga chiqdi.

— Voy-bo'y, izlar ko'payib ketibdi-ku! — dedi u mashina iziga chirt etkazib tupurib. — Boboy, biz uxlab yotgan paytda qovunfurushlarning aqchasini olib, oq fotiha berib yubordingizmi deyman? — Ikki qo'lini shimining cho'ntaklariga tikdi.

— To'shagimda yotib, dasturxonimdan tuz totib... aytgan rahmatingmi bu?!

— Hazil, boboy, hazil! Menga qarang, bizga ishga o'tmaysizmi? — Qariyaga boshdan-oyoq sinovchan razm soldi. — Choychaqa berib turardik. Ish og'ir emas. Faqat shu yo'ldan o'tgan-ketgan mashinalarning nomerlarini yozib berib tursangiz kifoya. U yog'ini o'zimizga qo'yib berasiz...

Qariya gapirish uchun og'iz juftladi-yu, lekin gapirmadi. Alam bilan bosh chayqab qo'ydi, xolos.

— «Harakatda barakat», degan. O'zi aytgan, — deb Po'lat bosh barmog'ini osmonga niqtadi. — Bekor yotgandan foyda yo'q, boboy.

— Soch-soqolim oqarganda iymonimdan ayrilaymi, bola?! Hammani o'zlaringga o'xshagan deb o'ylayapsanmi! — Qariya turgan joyida titrab qaqshadi.

— Hazil, boboy, hazil! — deb Po'lat ikki qo'lini yuqori ko'tardi.

Qariyaning avzoyi buzilganini ko'rib, shu tobda hazil harom ekanini angladi, chog'i, shitob uyga kirdi-da, hamrohini uyg'otib, mashinasiga shoshilib o'tirdilaru juftakni rostladilar.

Qariya eshik-derazalarni lang ochib, xonalarni shamollatdi. Uydan araq, tamaki hidi anqirdi. Hatto eshik tutqichiga ham tamaki hidi o'tirib qolganga o'xshardi.

Kechga borib shamol tindi. Shu oqshom yangi oy chiqdi. Qariya ostonadan tushib, yangi oyga uch marta salom berdi. Osmonda bir to'da bulut xuddi daryoda erigan muz misoli bo'ltak-bo'ltak bo'lib

suzib borardi. Eti junjikdi. Uyiga kirib, po'stiniga o'ranib yotdi.

Bomdod mahali uyg'ondi. Tashqariga chiqdi. Hovuzdagi muzdek buloq suviga bet-qo'lini yuvdi. Tahorat oldi. Ko'ngli bir oz yorishdi.

Ilgari buloqning ko'zi piyoladay edi. Qaynab-toshib chiqardi. Hovuzga suv to'lib turardi. Oyxon ham bir qultum suv bilan yutgudek so'lim kelinchak edi. Eh yarim kechagacha bir-birning visoliga to'ymasdilar, bir-birini quchog'idan qo'ymasdilar. So'ng issiq ko'rpadan sirg'alib chiqardilarda hovuzga sho'ng'irdilar. U shox-shabbalar orasida Oyxonni qo'riqlab o'tirardi. Oyxonning badani oy nurida go'yo sutga chayilganday oppoq ko'rinardi; ayniqsa, hovuchlab boshidan suv sochayotgan kezlari xuddi sochlariga yulduzlar qo'ngan farishtaga o'xshardi. Suvdan chiqqan suv parisimi, tushimmi-o'ngimmi, deb ko'kragiga tupurib qo'yardi. Iloyim, ko'z tegmasin, derdi. Ko'zim tegmasin, derdi. E-e, o'zidan ham qizg'onardi Oyxonni!

Beixtiyor issiq ko'zyoshlari ikki yuzini kuydirib tomchilay boshladi. Yana Oyxonning sochlarida yulduzlar jilva qila boshladi. Kaftlari bilan mijjalarini artib oldi. Diqqat bilan razm solsa, o'sha osmon, o'sha oy, o'sha yulduzlar, buloq tarnovidan jildirab suv oqyapti. Bari o'sha-o'sha. Faqat Oyxon yo'q. Oyxon — sarob.

Vo darig', tiriklik shunaqa ekan-da, quvonch bilan g'am-g'ussa yonma-yon yurar ekan.

Oyxon oppoq choyshabga o'ranib uyga kirib ketgach, o'zi asta shox-shabbalar orasidan chiqib kelib hovuzga tushardi. Muzdek suv yuragini hapriqtirib yuborardi, qoni qaynab ketardi, g'ayrati jo'shar edi... Oyog'iga kalishini ilardiyu bilch-bilch odimlaganacha yana Oyxon tomon talpinardi... So'ng to tonggacha hovuzda birga-birga cho'milishardi. So'ng xorib-tolib choshgohgacha toshday qotib uxlardilar. Ular Dunyoni unutib yuborishardi. Dunyo ham ularni unutib yuborgan edi go'yo.

Endi o'sha totli damlarni sog'inib eslaydi. Sog'inib eslagan kunlari Oyxon albatta tushiga kiradi; oy to'lgan oqshom, hovuz, boshidan suv sochayotgan so'lim kelinchak... Choshgoh payti Oyxon oyoq uchida yurib qumg'onni o'choqqa qo'yar, choy qaynatar, o'zicha bir nimalarni shivirlar, qiqirlab kular edi. Kular edi-yu, yuzlarini yashirardi.

Ruhi uyda, kirib-chiqib yuribdi-ku, deb qariya o'ziga tasalli beradi. Suvi tortilib ketganini bilsa ham o'sha buloq ko'zini ochib qo'yadi.

Oyxon bor paytida ishlarim qolib ketyapti deb ba'zan nolirdi. Doim shoshib yurardi, kun o'tganini ham bilmay qolardi. Endi esa kun o'tmaydi. Zerikadi. Qaysi ishga qo'l urmasin, bari bir oxiriga yetkazmaydi — sabri chidamay tashlab ketadi.

Suyaklarim shaldirab keksaygan paytimda bir o'zimni hayhotdek dunyoga tashlab ketding-a, Oyxon?! Endi ko'nguddagi gaplarimni dalatuzga aytamanmi? Kim tinglaydi? Kim taskin beradi?.. Mendan keyin nima qilasan deb, nega so'ramading, Oyxon?! Qanday yashashni nega o'rgatib ketmading?.. Paymonam to'lib, uch-to'rt kun to'shakda yotib qolsam, kim mendan rozi-rizolik so'raydi? Kim og'zimga suv tomizadi? Sening yoningda tayyor turgan lahadga kim meni eltib ko'madi?.. Tiriklayin go'rga kirib yotib bo'lmas ekan-ku, Oyxon! Esingdami, qish kattiq kelgan yillari oziq topolmay qolgan qashqirlar tovdan pastga tushardi, hamma yoqda izg'ib yurardilar. Endi o'sha qashqirlarga yem bo'lib ketmaganimga afsuslanaman. Oyxon!.. O'pkalayapsan. To'g'ri, sendan oldin ketganim bilan yer to'yib qolarmidi? Keyin yolg'iz o'zing bo'm-bo'sh olamda qanday yasharding? Kimga yalinariding, kimlarga sarg'ayib borarding? Elga qo'shilarimiding? El seni qabul qilarmidi? Erkak boshim bilan men haminqadar kun ko'ryapman, ko'nikyapman. Bir hisobda, oddin ketganing — senga ko'rsatilgan ulug' marhamat. Qayg'urma, bir amallab men ham manzilimga yetib olarman. Noumid — shayton, deydilar.

Zavol keltirgan o'sha qizil tulki yaqindan beri yana paydo bo'ldi. Qariyaning qo'rsligi tutdi, qalbida qasos o'ti alanga oldi. Tulkida xudim bor, dedi. Uning boshiga yetmay qo'ymayman...

Qariya xayolga toldi. Bugun boshqa qiladigan ishi ham yo'q. Har kuni bitta ishni takrorlaydi: dastlab, qizil tulki yuradigan yo'llarga tuzoq qo'yadi, so'ng besh-otar miltig'ini obdan tekshirib ko'radi. Ikkita o'qi bor. Birini o'sha tulkiga atagan, ikkinchisi kimga atalganini o'zi ham bilmaydi. «Boshi yanchilib yotganini ko'rsam bo'ldi», Qariyaning bu dunyoda boshqa armoni yo'q edi.

Qizil tulki esa anoyi emas. Tulki shumligini qo'ymaydi. U qariyaga pand bermoqchi bo'ladi.

Qariya armoni ushalmasdan o'lib qolishdan qo'rqadi. Xudo ko'rsatmasin-u, shunday kun boshiga tushsa bormi, Po'latga o'xshagan haromxo'rlar jasadni tepib ko'rib: «Qancha mol-dunyosi qoddi ekan?» deb uyni ag'dar-to'ntar qilishdan ham toymaydilar.

Bitta o'g'li bor edi. Chala tug'ilgan. Balog'atga yetgach, lo'lilarga ergashib dom-daraksiz ketdi. Qaytmadi, Chol-kampirdan xabar olmadi. Onasining o'lganini ham eshitmadi, chog'i. Ehtimol, otanasi borligini butunlay unutib yuborgandir. Qariya ham uni unutdi.

Kampiri olamdan o'tganini eshitib, dasturxondan tuz totgan shofyorlar birin-ketin ko'ngil so'rab kelishdi. Boyaqish shofyorlar olis safarga otlansalar ul-buldan ko'maklashib turadilar. Chol-kampirga ko'p narsa kerak emasdi. Bitta joniga esa deyarlik hech narsa kerak emas.

Qariyaning birdan-bir niyati — tulkidan qasdini olish. Hisoblab ko'rsa, o'sha tulki bilan yo'li kesishganiga yigirma yildan oshibdi. Kamyob uchraydigan qizil tulki shu paytgacha ne-ne tuzoqlarga, ne-ne merganlarning o'qiga chap berib yurganiga qariyaning aqli bovar qilmaydi. Shu paytgacha o'sha tulkining izidan yuribdimi yoki hozirgisi qizil tulkining avlodimi, qariya uchun u ham bir jumboq.

Eshak o'ldirar kun ko'rinsa-da, ayoz bor.

Qariyaning ko'zi ilindi. Derazadan soya ko'rindi. Xonaga sharpa tushganday bo'ldi. Ko'zini ochsa, qo'l cho'zsa yetadigan joyda o'sha qizil tulki turibdi. Tulki qariyaning ro'parasiga cho'nqayib o'tirib oldi. Ko'zlar to'qnashgach, tulki qochishga shaylandi. Qariya shosha-pisha miltiqqa intildi. Afsuski, ulgurmasdi. Tulki g'oyib bo'ldi.

To'shakda g'ujanak bo'lib yotgan qariya umrida birinchi marta erta tongda uyg'onmadi. Odatda qancha kech yotishiga qaramay albatta bomdod payti uyg'onardi. So'ng choponini yelkasiga tashlab tashqariga chiqardi-da, quyoshning chiqishini tomosha qilardi. Asrdan keyin esa quyoshning botishini mungli kuzatib o'tirardi. Shundan o'zicha ma'no qidirardi, o'zicha rohatlanardi.

Sutday oqarib tong otdi. Ortidan oppoq iz qol-dirib osmonda yulduz uchdi. «Yulduzim baland bo'lsin», deb shivirladi qariya.

Bilaman, anavi xunxo'r tulki bekorga kelmadi. Azizlarimning boshiga yetdi. Endi menga zavol yetkazmoqchi. Faqat kuchi yetmay turibdi. Negadir ajalimni ortga sudrayapti. Shoshma, biz hali birgalikda jon talashamiz, tulkivoy! Ko'ramiz, qachongacha birovlarining umriga egov bo'lar ekansan?! Ana, olislarda momoguldurak guldurayapti. Osmonni qora bulut qoplayapti. Bexosiyat kun boshlanyapti, chog'i. Hechqisi yo'q, bir boshga — bir o'lim...

Qariya o'zicha tulki bilan bahslashdi. Yo'q, o'zi bilan bahslashdi.

Birdan sharros yomg'ir quya boshladi. Shamol turdi. Suvoqlari ko'chgan, shiftidan qamish bostirmalari ko'rinib turgan kulba qalqib ketganday tuyuldi. Boshpana ham puturdan ketgan edi. Qattiq yomg'ir yog'ib o'tsa, bir-ikki kungacha shiftidan chakka tomib turardi. Oyxon hayot paytida yozning yorug' kunlari uyning ko'chgan joylarini suvab yurar, o'choqdan chiqqan kulni tomga tashirdi — o'ydim joylarni tekislardi. Oyxon tufayli bu kulba odam yashaydigan uyga o'xshab turardi. Ba'zan qariya ham xotiniga yordamlashardi-yu, ammo asosiy ish Oyxon zimmasiga yuklangan edi. Endi bo'lsa, bunday ishlarga qo'li bormaydi. Uy deyarli tashlandiq holiga kelib qoldi. Go'yo bu ishlarni go'rda yotgan Oyxon tirilib kelib, bajarib beradiganday.

Noiloj yana uyga qaytib kirdi. Nam tortgan kiyimlarini olov gurillab yonayotgan o'choqqa tutib quritdi. So'ng po'stiniga o'ranib yonboshladi. Ko'zlarini yumdi. Umrida kasal bo'lib ko'rmagani uchunmi, ajalim yetganga o'xshaydi, deb ichida quvondi. Tov tarafdin momoguldurak guldiragi eshitildi. Esiz, tovga jo'nashim lozim edi. Qariya o'kindi. Boya yo'lga tushganda shu choqqacha manzilga yetib olardi. Bir amallardi. Uvadaga o'xshab qolgan oyoqlarini sudrab bosib, o'sha joyga yetib borardi. U yoqdan qaytib kelish shart emas. Boz ustiga, u yokdan hali hech kim qaytib kelmagan. Hatto ochiq go'rdan ham hech kim qaytib chiqmaydi. Tovda oyoqlaridan darmon ketib yiqilsa nima bo'пти! O'sha tulkiga yem bo'lgani yaxshi emasmi? Biryola hammasidan qutiladi-ku!

Ming yomon bo'lsa-da, Po'latning qadri o'tdi. Harholda, u ham odamning bolasi — balki, gapga ko'narmidi...

Qirchillama yigit paytida beliga qirq quloqli arqon bog'lab, tik jarlikka tushgan edi. Jarlik tubida ko'zyoshday jimirlab jilg'a oqardi. O'shanda yarim masofaga pastlagan payt birdan patirlab qushlar uchib ketgan edi-yu, yuragi tors yorilishiga ozgina qolgan edi. Jarlikning ajib sehri bor edi: jazirama yoz kunlari qandaydir kuch tubanlikka tortaverardi. Bir-talay echki-uloq jarlikka o'zini otib yuborardi. Bir-pas tevaragida aylanib yurardiyu birdan tubanlikka sakrardi. Ajab.

Uzuq-yuluq xayol surib yotgan qariya birdan safar-dan qaytishda mehmon bo'lishga va'da berib ketgan sariq yigitni eslab qoldi. Ustidan po'stinni otib, o'rnidan turdi. Unga nima bo'ldi ekan? Aytgan muddatidan ancha o'tib ketdi-ku? Haq niyatli kishining yo'lida hech qanday to'siq uchramaydi. Agar o'sha yigit ostonamga qadam qo'yib: «Ota, biz bilan yuring. Uyimning to'ri — sizniki. Elga qo'shiling!» desa, xudo haqi, unga ergashib ketardim. Odam bo'lib tug'ildim, odam bo'lib o'lishim kerak. Tavba, Qashqayo'lda yotgan kampirim bilan bolamni tashlab ketamanmi? Axir, to'rimdan ko'ra go'rim yaqin-ku!

Qariya derazaga qarab o'zi bilan o'zi so'zlashayotgan payt o'tkir yorug'lik yuzlaridan sirg'alib o'tdi. Ko'zlari qamashdi. Beixtiyor ko'zlarini yumib oldi. Ko'zlarini qayta ochgan damda derazadan ko'rinib turgan kenglik ham, osmon ham yana zimistonga aylangan edi.

— O'zing panohingda asragin, xudoyim! — dedi qariya soqolini silab.

Ko'ngli yomon bir narsani sezdi. Tov tarafdin eshitilgan gumburlagan tovush esa, ko'nglidagi g'ulg'ulani battar kuchaytirib yubordi...

\* \* \*

Istarasi issiq yigitning ismi Iso edi. Yoshligidan otasiz o'sdi. Onasiga dastyor bo'ldi. Voyaga yetgach, shofyorlik kasbini tanladi. Bir yildan ortiqroq shogird bo'lib yurdi. Avtobazaga ishga qabul qilishdi. Yigirma yil davomida bir joyda muqim ishladi. Yigirma yil badalida bir marta ham yangi mashina minish nasib etmadi. Sharoit ma'lum. Kimdan ham o'pkalardi: bu dunyoda yo zaring bo'lishi kerak, yo zo'ring. Unisi yoki bunisi bor yigitlar har yili bitta yangi mashina minadilar. Ulardan ortganini boshqalar ta-lashadi. Shalog'i chiqqanlarini esa Iso kabilarga be-rishadi. Bunday mashinaga ega bo'lgan shofyor bechoraning ko'p vaqti nosoz qismlarni tuzatish bilan o'tadi. Bora-bora ko'nikdi. Oilasi ham ko'nikdi. Shukr, boriga chidab yurishibdi.

Avtobaza direktori to'satdan Isoga yap-yangi mashinani mindirib qo'ydi. Uch-to'rt kundan so'ng yo'llanma olish uchun dispetcher xonasiga kirsam, navbatchi ayol: «Sizni direktor yo'qlayapti», dedi. Yuragi shig' etdi. Lekin sir boy bermasdan ayolning izidan itoatkorona ergashdi. Boshliq kabinetiga kirsam, doim qovoq-tumshug'ini osiltirib, salomiga til uchida alik olib yuradigan odam xushchaqchaq o'tiribdi. Xonada yoshini daf'atan bilib bo'lmaydigan yana bir begona kishi ham bor.

— Boyadan beri maqtab o'tirganim Iso payg'ambar mana shu yigit bo'ladi, — deb direktor uni begona kishiga tanishtirdi. — Temirning tilini biladi. Sizni dog'da qoldirmaydi, ishonavering!

— Yaxshi. Faqat tiliga mahkam bo'lsa bas, — dedi notanish kishi.

Iso unga razm soldi: ko'sa ekan.

— Xotirjam bo'ling, Iso o'g'il bola, — deb ishontirdi direktor. So'ng, Isoga yuzlanib: — inim, uyingdagilarga bir haftaga komandirovkaga ketyapman deb ayt. Ro'zg'oringda oziq-ovqat yetarlimi? — dedi.

— Rahmat, yetarli.

Shunday qilib, yo'lga chiqdilar. O'lis bir qishloqqa borishgach, darvozali bir hovliga mashinani orqasi bilan kiritdi. Oyoqlarining chigilini yozish uchun endi kabinadan tushmoqchi edi: «Birpas sabr qil. Oziq-ovqatingni shu yerga keltirib berishadi», dedi ko'sa. O'zi mashinadan tushdi. Oldindan shunday shart qo'yilgani tufayli Iso miq etmadi. Taom keltirildi. Ovqatlandi. So'ng oyoqlarini oynadan chiqarib o'rindiqqa uzalasiga cho'zildi. Bir zamon eti junjikib uyg'ondi. Tong yorishayotgan ekan. Qayta uxlay olmadi. Hademay ko'sa paydo bo'ldi.

— Ketdik, — dedi u kabinaga kirib.

Yo'lga tushdilar. «Ikkinchi marta ko'saga hamroh bo'lsam, kunte bo'lay!» deb ichida qasam ichdi Iso. Yo'l yoqasidagi bitta oshxonada chala-chulpa tamaddi qilib olishdi.

— Endi asfalt yo'ldan yurmaymiz. Qayoqqa yurishni o'zim ko'rsatib boraman, — deb ogohlantirdi ko'sa.

Yo'lsiz yo'ldan ketdilar. Mo'l yurdilar. Tuproq changitib yurdilar, o'rkachli barxanlar osha yurdilar. Ba'zan uchrab qoladigan omonat o'tovlarga ko'sa birrov kirib chiqar, kuzovdan kimdir qandaydir yukni tushirib qolar, so'ng bog'lam-bog'lam pul ko'targan ko'sa kabinaga kirib: «Ketdik!» deb amr qilar edi. Gohida kunduz kuni ovloq joyga mashinani kiritib qo'yib, mizg'ib olishardi. Iso qaerga kelib qolganini tasmoldan bilardi-yu, ammo aynan qaerda ekanini aniq bilmasdi. Yurgan manzillarini qayta topib borolmasdi. Bir joyga yetishgach, ko'sa Isoni mashinada yolg'iz qoldirib, o'zi chakalakzor oralab yo'qolib ketdi. Kabinada yarim qopdan ziyod pulni unga ishonib qoldi-rib ketganiga hayron bo'ldi.

Uchinchi kuni, shekilli, yo'lda ketayotgan paytlari ko'sa beliga bog'lab olgan jun ro'mol ichidan to'pponcha chiqardi. Iso umrida bunday matohni birinchi marta ko'rayotgani uchun shoshib qoldi va noxos mashinani yo'l chetidagi daraxtga eltib urdi. O'ng tomondagi fara chil-chil sindi.

— Nega menga qaraysan? Yo'lga qarasang bo'lmaydimi? — dedi ko'sa norozi bo'lib.

Singan chiroq o'rniga yangisini qo'ydi. Ko'sa yo'l bo'yi to'pponchasini o'ynab bordi. «Topgan ermagini qaranglar», derdi Iso ichida g'ijinib.

— Yigit kishining yonida quroli bo'lsa yaxshi-da, Isoboy!— dedi ko'sa mamnun qiyofada. — Qil ko'prikdan ham omon-eson o'tib olsak, marra bizniki! Xudo xohlasa, o'tib olamiz. Qo'rqma, yoningda men borman...

O'qdonni chiqarib, o'qlarni sanadi.

Qanaqa «qil ko'prik»ni nazarda tutayotganini, al-batta, Iso tushunmadi. Keyin gap nimadaligini angladi. Tong chog'i kollektor ustiga qurilgan taxta ko'prikdan o'tayotgan paytlari ro'paralaridan kabinasi ustiga chiroq o'rnatilgan bitta mashina chiqib qoldi. Birdan o'sha mashinaning eshiklari ochildi yuzlariga niqob tutgan yigitlar o'zlarini yerga otdilar. Har birining qo'lida bittadan qirqma miltiq bor edi. Ko'za o'zini yo'qotmadi.

— O'ng tomonga bur! — deb rulga yopishdi.

Iso beixtiyor mashinani saksovulzorga burib yubordi. Ag'darilib ketishiga sal qoldi o'ziyam. Yo'lto'sarlar negadir ularning ortidan quvmadi. Qalin chakalakzorga yetib borishgach, ko'sa mashinani to'xtatishni so'radi. Quyosh chiqquncha o'sha joyda poylab o'tirdilar.

— Hayda! — deb amir qildi ko'sa.

Boyagi ko'prikka yaqinlashgach, o'sha mashina hamon yo'l chetida turganini ko'rdilar.

— Itvachchalar-ey, sizlarga og'zimdagini oldirib qo'yamanmi?! — dedi ko'sa tishlarini g'ijirlatib. — Ortga qaytar!

Yana chakalakzor oralab ketishdi. Choshgoh mahaligacha bir joyda o'tirishdi. Ko'sa bir oz mizg'ib ham oldi. So'ng:

— Aylanib o'tamiz, shekilli, — deb qo'li bilan kun botar tarafni ko'rsatdi. — Qani, ketdik!

Chakalakzor oralab yurib, axiyri yana kollektor ustidan chiqishdi. Suv yoqalab ketdilar. Bir joyda rosmama ko'prikka duch kelishdi. Iso mashinani ko'prik-ka to'g'riladi. Omon-eson o'tib olishgach, tez orada katta asfalt yo'lga chiqishdi. Taxiatiohga kiraverishda ko'sa mashinani to'xtatdi.

— O'g'il bola ekansan, — dedi u kabinadan tushishga shaylanib. — Seni uch marta sinadim. Sinovlarimdan mardona o'tding. — U qopchiq og'zini ochib... ichidan uch bog'lam yuz so'mlik oldi-da, Isoga uzatdi: — Bigtasi xizmatining uchun, ikkinchisi xavf-xatardan olib chiqqaning uchun, uchinchisi bola-chaqalarining nasibasi. — Qopchiq og'zini qayta bog'ladiyu kabinadan tushdi.

Iso bir necha muddat joyida qimirlamay o'tirdi. So'ng yon tomondagi ko'zgdan ort tarafga nazar soldi: ko'sa qopchiqni orqalab, tobora olistlab borardi. Birov uni bir qopchiq pul ko'tarib borayotganini aslo xayoliga keltirmasdi... Bir payt oppoq «Volga» paydo bo'ldiyu ko'saning yonginasida to'xtadi va eshik ohista ochildi. Ko'sa yengil mashinaga o'tirdi. «Volga» shitob o'rnidan qo'zg'oldi. U ko'zdan g'oyib bo'lgach, Isoning yelkasidan tog' ag'darilganday bo'ldi. Ammo, ichki bir norozilik ko'nglini bezovta qila boshladi.

Avtobazaga borgach, mashinani bir qator qarovdan o'tkazdi.



Ertasi kuni direktorni uchratdi.

— Azamat yigit ekansan! — deb yelkasiga qoqdi u.— Bir hafta dam ol. Bundan keyin birga ishlaymiz.

Bir hafta dam olib ishga chiqsa, direktor yo'qlatdi. Kabinetga kirdi. Negadir boshliqning qovog'idan qor yog'ardi.

— O'zining farosati yetsa kerak deb o'ylagan edim. Lekin, insofing yo'qqa o'xshaydi. Nega ulushimni bermay yuribsan? — dedi direktor dangal.

— Kechirasiz, siz bilan ko'saning o'zi hisob-kitob qiladi deb o'ylabman, — deb uzr so'radi Iso. — Bo'пти, og'a, ertaga hammasini keltirib beraman.

— Hammasi kerak emas, faqat ulushimni bersang kifoya. Men besh qo'lini og'ziga tiqadigan ochofat emasman!

Uyga borib, hangomani xotiniga so'zlab berdi.

— Qurib ketsin, hamasini eltib bering! — dedi xotini tutoqib.

Hammasini eltib berdi. Direktor bir bog'lamini o'ziga qaytardi, lekin Iso rad etdi.

— Bo'пти, yaqinda yangi mashina beraman, — deb va'da qildi direktor.

Darhaqiqat, direktor va'dasida turdi. Tez orada Isoga yangi mashina berildi. Direktor Isoga yo'l-yo'riq ko'rsatib turdi: teng sheriklikka mo'may buyurtmalar topib qo'yardi. O'lis shaharlarga qovun eltib sotishni ham direktor maslahat berdi. Oxiri xotini chidamadi.

— Yo meni deng, yo ishni!— deb keskin shart qo'ydi

U:

— Nima qil deysan?

— Bu ishingizni yig'ishtirasiz, vassalom! Siz u yoqlardan uyga kelguncha adoi tamom bo'lyapman! Bo'ldi, jonimdan to'ydim...

Iso kuldi. Xotini yig'ladi.

— Bo'пти, oxirgi marta borib kelay. Keyin bas qilaman, — dedi Iso noiloj.

U oxirgi marta mashinani to'ldirib qovun bosdi. Hamkasblaridan maslahat so'radi: qovun qimmat shaharni bilib oldi. «Qashqayo'lning ustida Bovan ismli qariya yashaydi. U kishidan oq fotiha olsang, albatta, ishlaring baroridan keladi», deb nasihat qildi kekxa shofyor. Iso o'sha qariyadan duo olish niyatida Qashqayo'lga burilgan ham ediki, ortidan DAN xodimlari quvib yetishdi.

Yo'lga chiqish arafasida Xo'jayli bozorida narx-navolarni surishtirib yurib tasodifan qadrdon Do'stkaliyni uchratdi. Unga sheriklikni taklif etdi. Do'stkaliy rozi bo'ldi.

— Uchdan biri seniki, — dedi Iso.

Ular qaytishda Ustyurt oralab o'tgan yo'ldan yurdilar. Safarlari xayrli o'tdi. Qashqayo'lga tushib olgan paytlari sharros yomg'ir quya boshladi. Iso rulni Do'stkaliyga topshirdi.

— Bir oz mizg'ib olaman. To'g'ri haydayversang, hademay Bovan boboning kulbasiga yetib boramiz, — deb pinakka ketdi.

Tush ko'rdi. Bovan boboning hovlisida yurgan emish. Xotini bolalari ham shu yerda emish. «Sizlarni kutib olgani keldik», dermish xotini. Lekin negadir o'zini olib qocharmish...

Tong pallasi tepalikda uyur bo'lib turgan kiyiklarga duch keldilar. Jonivorlar mashina chiroqlaridan taralayotgan sho'laga chulg'anib, guras-guras bo'lib yugurardilar. To'dadan ajralib chiqqan bitta kiyik mashinaning yo'lga tushib olib, shitob qocha boshladi.

— Shuni urib olmaymizmi? — deb so'radi Do'stkaliy hamrohini uyg'otib.

— Bo'пти, gazni bos! — dedi Iso zavqlanib.

Kiyik izidan quvlab boraverdilar. Bir payt kiyikning dumi bir quchoq qizil tulkiga aylanib qolganini yaqqol ko'rdilar. Tulki chiroyli dumini o'ynatib qochib boraverdi. Do'stkaliy battar jo'shib ketdi — tezlikni yanada oshirdi. Tulki esa baland bir tepalikdan oshib o'tdiyu mashina ham o'sha tepalikka sapchib chiqib, birdan tubsiz jarlikka uchib ketdi. Iso ko'zini ochgan paytda mashina tumshug'i bilan jarlik tubiga zarb bilan urildi. A'zoyi badani zir qaqshaganini his etdiyu hushidan ketdi.

Bir zamonlardan so'ng Iso hushiga keldi. Osmonda yulduzlar miltillardi, kabinaning narigi

burchagida Do'stkaliyning gavdasi qorayib ko'rinardi. O'rnidan qo'zg'almoqchi bo'ldiyu belidan pastrog'ini temir-tersak iskanjaga olganini bildi. Ingrab yubordi. Oyoq-qo'llari yo'qday edi. Tovush chiqarib yana ingradi. Ammo, negadir o'z tovushini o'zi eshitmadi. Birdan oppoq bulutlar ustida suzib yurganday bo'ldi. Bulutlar bag'rida yo'q bo'lib ketdi — yana hushini yo'qotdi. Hushiga kelgach, nafasi yetgulik masofada qip-qizil tulki o'tirganini ko'rdi. «O'sha», deb o'yladi. Ko'zlari chaqnardi. Qip-qizil edi. Umrida bunaqa maxluqni ilk bora uchratishi edi. «Balki, meni qutqarish uchun kelgandir», deb o'yladi. Ko'ngli bir oz taskin topdi. Tulki undan ko'z uzmasdan o'tirardi. Odamzotning bemajol ekanini bilardi, chog'i. Tulki asta qo'zg'aldi. Boshi rul chamberagi ustida osilib turgan Do'stkaliyga yaqinlashdi va uning og'zini yalay boshladi. Qon yalayotgani aniq bilindi. Oldingi oyoqlarini Do'stkaliyning yelkalariga tirab oldi. «Endi navbat o'zimga keladi», deb xayolidan o'tkazdi Iso. Ijirg'anib qo'ydi. Tulki uning ijirg'anishiga parvo qilmadi. Do'stkaliyning og'zidan sizib chiqayotgan qop-qora qonni yalab bo'lgach, mashinaning siniq old oynasidan kapot ustiga chiqib cho'nqayib o'tirdi va osmonga qarab uv tortib yubordi. Uzoq-yaqindan boshqa tulkilarning javobi eshitildi. Iso tag'in hushidan ketdi, hushiga kelgan payt tulki dumini lik-lik etkazib, kopot ustida aylanib yurgan edi. U tomondan yoqimsiz hid anqirdi. O'pkasi shig'-shig' etib nafas olayotgani ham baralla eshitalardi. Ko'zlari bejo edi. Turki atvoridan niyati yaxshi emasligi bilinib turardi.

«Ey odam, agar hozir men yarador bo'lganimda bor-mi, albatta, terimni shilib olarding! Lekin, bu safar men emas, sen madadga muhtojсан. Buni qaytar dunyo deydilar».

Tulki tantana qildi. Ichidan quvonyapti.

Bir payt osmondan tushdimi yo toshlar orasidan chiqdimi, ishqilib, tumshuqlari qayrilma qilichga o'xshash qop-qora qushlar paydo bo'ldi. Parlari to'kilib qolgan qari qush asta Do'stkaliyning yelkasiga qo'ndi-da, yon tomonga engashib uning ko'zlarini cho'qilay boshladi.

Iso yana-tag'in hushini yo'qotdi.

U qayta hushiga kelmadi.

\* \* \*

Qariya kun bo'yi kulbasi oldidagi yapaloq tosh ustida o'y surib o'tirdi. O'qlangan beshotarni quchog'idan qo'ymadi. U qizil tulki bilan chinakamiga olishmoqchi: yo o'ladi, yo o'ldiradi. Nima bo'lsa takdiridan ko'radi. Takdirdan qochib qutulib bo'lmaydi.

Qorong'i tusha boshlagach, kutganiday momiq dumini tebratib qizil tulki o'q yetmas joyda ko'rindi. Tepalikka cho'nqayib o'tirdi. Og'ir ishni bajarib qaytgan kabi xorib-tolgani sezilib turardi. Demak, u ham obdon charchagan, tinka-madori qurigan ko'rinadi. Axir, pinxoniy olishuv bir necha kundan buyon davom etayotibdi.

Qariya miltig'i qo'ndog'ini yelkasiga tirab, shoshmasdan tulkining qoq manglayini mo'ljalga oldi. Tepkini bosgan zahoti ko'pdan beri otilmagan miltiq zarbi yelkasini qaqshatib yubordi. Qariya chalqanchasiga yiqildi. Yiqilayotib, o'sha tepalik ustidan yaltirab turgan bir juft ko'zni ko'rib qoldi. Nazarida tulkini o'ldirganday bo'ldi. O'zicha quvondi. «Shukr, bu dunyodan bearmon ketadigan bo'ldim», deb shivirladi. Tirsagiga suyanib asta qaddini ko'tarib, o'sha tepalik tomon qaradi. Ne ko'z bilan ko'rsinki, qizil tulki hamon tepalik ustida qariya tomondan ko'zlarini uzmay tikilib o'tirardi. Hagto dastlabki holati o'zgarmagan edi.

Qariya jon achchig'ida miltiqni qayta o'qladi. Huv o'sha tepalik ustida endi to'rtta bo'lib ko'rinayotgan qizil tulkilarning qay birining manglayini mo'ljalga olishni bilmasdan hiyla fursat taraddudlanib turdi. Axiyri qo'llari tolib ketdi va jon achchig'ida miltig'ini yapaloq toshga zarb bilan urdi. O'q tovushi eshi-tildi. Miltiqning qo'ndog'i yorildi. Quvurini qo'ldan qo'yib yubormagan qariyaning ko'kragiga cho'g' bosilganday bo'ldi. Et hidi anqib ketdi. Negadir burniga porox hidi bilinmadi, faqat etkabob hidi gup etib dimog'iga urildi.

— Ey, bevafo dunyo, — deb ingradi qariya. Asta cho'k tushdi. Miltiq quvuri ham qo'ldan sirg'alib yerga tushdi.

Majoli quriy boshladi. Majolsizlanayotgan payti negadir kulbasi tomon emas, balki Yorqovokdagi mozor tomon emaklay boshladi.

«Ishqilib, o'zimga tayyorlab qo'yganim — ochiq go'rimga bir iloj qilib yetib borsam bas», deb shivirladi u. Yomg'irdan paydo bo'lgan xalqobga yuztuban yiqildi. Birpasdan so'ng tirsaklariga tayanib qaddini yerdan ko'tardi. Yana Yorqovoq tarafga tirsaklari bilan emaklay boshladi.

*Qoraqalpochadan Nabijon Boqiy tarjimai*

[www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)

2008